International Journal

# Intellectual and Cultural Heritage





O'ZBEKISTON TARIXI DAVLAT MUZEYI

State Museum of History of Uzbekistan

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
O‘ZBEKISTON TARIXI DAVLAT MUZEYI

Interscience-service MCHJ

O‘ZBEKISTON TARIXI DAVLAT MUZEYI

# «INTELLEKTUAL VA MADANIY MEROS XALQARO JURNALI»

# «INTERNATIONAL JOURNAL OF INTELLECTUAL AND CULTURAL HERITAGE»

# «МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОГО И КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ»

*Ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy-ma’rifiy jurnal*

**2026, Volume 6, Issue 2**



**TOSHKENT - 2026**

«International Journal of Intellectual and Cultural Heritage»

ISSN-E: 2181-2314, ISSN-P: 2181-2306

Mundarija - Volume 6 | No 2 (2026)


| № | Paper Title | Author name | Page number |
|---|---|---|---|
| 1. | ARXEOLOGIK MEROSNI MUZEYLASHTIRISH MASALALARI | *Yunusov Maxmudxon* | 1-9 |
| 2. | CHOCHDAGI QADIMIY TANGALAR | *Musakaeva A.A.* | 10-14 |
| 3. | FRANSUZ KONSERVATSIYA-RESTAVRATSIYA MAKTABINING O‘ZBEKISTON DEVORIY RANGTASVIRLARINI SAQLASH BO‘YICHA AMALIY TAJRIBASI (Afrosiyob, Akchaxan-kala va Sug‘d monumental merosi misolida) | *Rasulova Durdona Baxronovna* | 15-21 |
| 4. | O‘ZBEKISTONDA YOSHLARNING INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANISH BO‘YICHA ASOSIY YO‘NALISHLAR | *Sarvar Sa’dullayevich Otamuratov* | 22-29 |
| 5. | MARKAZIY OSIYO FALSFIY EPISTEMIYALOGIYASIDA DISKURS VA INTUITSIYA MUTANOSIBLIGI | *Vaxobova Dilfuza Roziqovna* | 30-34 |
| 6. | SAMARQAND BARQAROR SUV-LANDShAFT DIZAYNI LABORATORIYaSI SIFATIDA: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR | *Barno Alijon qizi Kurbonova* | 35-42 |
| 7. | QADIMGI TURONZAMINDA XALQ BILAN MULOQOT TIZIMI – ILK DEMOKRATIK UNSUR SIFATIDA | *Mamatqulov Dilmurod Mamadaliyevich* | 43-47 |
| 8. | XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHIDAGI MARKAZIY OSIYO ILM-MA’RIFATIDA KROSS-MADANIYAT FENOMENI | *Khamdamova Sitora Safarovna* | 48-53 |
| 9. | UYG‘ONISH DAVRI DAHOLARINING MA’NAVIY TA’LIMOTI: TIL, MILLIY O‘ZLIK VA ADABIY MEROS | *Qurbonov Umidjon Egamberdiyevich* | 54-58 |
| 10. | O‘ZBEKISTONDAGI YODGORLIKLARNI SAQLASH VA RESTAVRATSIYA QILISHDA XALQARO LOYIHALAR TAJRIBASI | *Muminov Olimjon* | 59-66 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 11. | **MUZEY PEDAGOGIKASINING GLOBAL RIVOJLANISHI VA ZAMONAVIY TA'LIMDAGI AHAMIYATI** | *Ismailova Dilfuza Usmonqulovna* | 67-73 |
| 12. | **GENDER STEREOTIPLARI SHAKLLANISHIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR** | *Ismailova Shamsiya Kurultaevna* | 74-79 |
| 13. | **SAMARQAND VILOYATIDAGI GEOLOGIK IZLANISHLAR (XIX ASR OXIRI VA XX ASR BOSHLARIDA)** | *Xuriyatxon G'afurjon qizi Xamidova*<br><br>*Naima Zokir qizi Shahobiddinova* | 80-84 |
| 14. | **QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI NOYOB YODGORLIKLARINING TARIXIY-ME'MORIY XUSUSIYATLARI** | **Kosbergenova Nargiza** | 85-91 |
| 15. | **TASHKILOT VA MUASSASA MUZEYLARINING PEDAGOGIK JARAYONDAGI O'RNI** | *Nabiyeva Naima Kamolovna* | 92-96 |
| 16. | **ARALASH TA'LIM SHAROITIDA TALABALARNI KIBER-IJTIMOIYLASHTIRISHNING PEDAGOGIK LOYIHALASH MODELI VA UNI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMLARI** | *Jamshid Matnazarov* | 97-103 |
| 17. | **O'ZBEK–INGLIZ KASB-HUNAR SO'ZLARINING LINGVISTIK ASOSLARI** | *A.A. Rakhmanova* | 104-107 |
| 18. | **GLOBALLAShUV ShAROITIDA YoShLAR MEDIA MADANIYaTI: TAHDID VA YeChIMLAR** | *Bahodir Mirvokhitovich Mirraximov* | 108-115 |
| 19. | **XIX-ASRDAGI TOSHKENT DARVOZALARINING TARIXIY AHAMIYATI** | *Amirxo'ja Jaloliddin o'g'li Toirxo'jaev* | 116-121 |
| 20. | **IJTIMOIY MADANIY KOMMUNIKATSIYALARNING BARQARORLIK VA BEQARORLIK OMILI SIFATIDAGI SINERGETIK TAHLILI** | **Sarvinoz Uralovna Ashurova** | 122-127 |
| 21. | **BALXDA BUNYODKORLIK ISHLARINI AMALGA OSHIRGAN NADR MUHAMMAD (KICHIK) XON** | *Sangirova Diloram Xujamkulova* | 128-134 |
| 22. | **SOVET DAVRIDA NAVOIY VILOYATIDA SHAHAR INFRATUZILMASINING RIVOJLANISHI TARIXI** | *Shohidjon Orifboyevich Nayimov* | 135-141 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 23. | **TALABALARDA PEDAGOGIK DIZAYN ASOSIDA TA'LIMIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI** | ***Lobarkhon Islam kizi Suvonova*** | 142-147 |
| 24. | **MAQOM SAN'ATINI O'QITISHDA ARUZ METRIKASINING O'RNI** | ***Ikromitdin Ostonaqulov, M.Xo'jamov*** | 148-152 |
| 25. | **RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN AUDITORIYA VA AUDITORIYADAN TASHQARI MASHG'ULOTLARDA FOYDALANISHDA PEDAGOGIK DIZAYNNING AHAMIYATI** | ***Lobarkhon Islam kizi Suvonova*** | 153-157 |
| 26. | **IJTIMOIY-MA'NAVIY ISLOHOTLAR – KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISh OMILI** | ***Bobir Rakhmatovich Berdiev*** | 158-161 |
| 27. | **ERKAK VA AYOL NUTQIDA XUSHMUOMALALIK KONSEPTINING LINGVOPRAGMATIK TADQIQI** | ***Nigorakhon Mominjon qizi Gopporova*** | 162-168 |
| 28. | **JAMIYATDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI SAQLASHDA INSON OMILI MASALALARI** | ***Muratova Dildora Abdumanapovna*** | 169-173 |
| 29. | **GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLAR IJTIMOIY FAOLLIGINING TRANSFORMATSIYASI** | ***Shuxrat Turopovich Mamatqulov*** | 174-177 |
| 30. | **TALABALARNING EKOLOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLARI** | ***Mavludaxon Kozimjon qizi Xolmirzayeva*** | 178-183 |
| 31. | **IJTIMOIY DAVLATNING INSTITUTSIONAL XUSUSIYATLARI** | ***Muxabbat Narimanovna Davletova*** | 184-191 |
| 32. | **INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA INTELLEKTUAL VA MADANIY MULOQOT STRATEGIYALARINING LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI (MITIGATSIYA MISOLIDA)** | ***Nigorakhon Mominjon qizi Gopporova*** | 192-200 |
| 33. | **ZAMONAVIY GLOBALLASHUV SHAROITIDA AXBOROTLASHGAN JAMIYATNING TRANSFORMATSIYASI VA SIVILIZATSION RIVOJLANISHNING ZIDDIYATLI TENDENSIYALARI** | ***Hakimov Akmaljon Mirzag'aniyevich*** | 201-207 |

«International Journal of Intellectual and Cultural Heritage»

ISSN-E: 2181-2314, ISSN-P: 2181-2306

Table of Content - Volume 6 | No 2 (2026)


| № | Paper Title | Author name | Page number |
|---|---|---|---|
| 1. | **ISSUES OF ARCHAEOLOGICAL HERITAGE MUSEALIZATION** | *Yunusov Maxmudxon* | 1-9 |
| 2. | **ANCIENT COINS IN CHACH** | *Musakaeva A.A.* | 10-14 |
| 3. | **THE PRACTICAL EXPERIENCE OF THE FRENCH CONSERVATION AND RESTORATION SCHOOL IN THE PRESERVATION OF UZBEKISTAN'S WALL PAINTINGS (A Case Study of Afrasiab, Akchakhan-kala, and the Monumental Heritage of Sogdiana)** | *Rasulova Durdona Baxronovna* | 15-21 |
| 4. | **KEY DIRECTIONS FOR THE DEVELOPMENT OF INNOVATIVE ACTIVITIES OF YOUTH IN UZBEKISTAN** | *Sarvar Sa'dullayevich Otamuratov* | 22-29 |
| 5. | **THE RELATIONSHIP OF DISCOURSE AND INTUITION IN CENTRAL ASIAN PHILOSOPHICAL EPISTEMIALOGY** | *Vaxobova Dilfuza Roziqovna* | 30-34 |
| 6. | **SAMARKAND AS A LABORATORY FOR SUSTAINABLE WATER-LANDSCAPE DESIGN: PROBLEMS AND PROSPECTS** | *Barno Kurbonova Alijon qizi* | 35-42 |
| 7. | **THE SYSTEM OF PUBLIC ENGAGEMENT IN ANCIENT TURONZAMIN AS AN EARLY DEMOCRATIC ELEMENT** | *Mamatqulov Dilmurod Mamadaliyevich* | 43-47 |
| 8. | **THE PHENOMENON OF INTERCULTURAL INTERACTION IN SCIENCE AND EDUCATION IN CENTRAL ASIA IN THE LATE 19th AND EARLY 20th CENTURIES** | *Khamdamova Sitora Safarovna* | 48-53 |
| 9. | **SPIRITUAL TEACHINGS OF THE RENAISSANCE GENIUSES: LANGUAGE, NATIONAL IDENTITY, AND LITERARY HERITAGE** | *Qurbonov Umidjon Egamberdiyevich* | 54-58 |
| 10. | **EXPERIENCE OF INTERNATIONAL PROJECTS IN THE PRESERVATION AND** | *Muminov Olimjon* | 59-66 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | RESTORATION OF MONUMENTS IN UZBEKISTAN | | |
| 11. | GLOBAL DEVELOPMENT OF MUSEUM PEDAGOGY AND ITS SIGNIFICANCE IN MODERN EDUCATION | *Ismailova Dilfuza Usmonqulovna* | 67-73 |
| 12. | FACTORS INFLUENCING THE FORMATION OF GENDER STEREOTYPES | *Ismailova Shamsiya Kurultaevna* | 74-79 |
| 13. | GEOLOGICAL INVESTIGATIONS IN THE SAMARKAND REGION (LATE 19 th AND EARLY 20 th CENTURIES) | *Xuriyatxon G'afurjon qizi Xamidova*<br>*Naima Zokir qizi Shahobiddinova* | 80-84 |
| 14. | HISTORICAL AND ARCHITECTURAL CHARACTERISTICS OF THE UNIQUE MONUMENTS OF THE REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN | **Kosbergenova Nargiza** | 85-91 |
| 15. | THE PLACE OF ORGANIZATIONAL AND INSTITUTIONAL MUSEUMS IN THE PEDAGOGICAL PROCESS | *Nabiyeva Naima Kamolovna* | 92-96 |
| 16. | PEDAGOGICAL DESIGN MODEL OF CYBER-SOCIALIZATION OF STUDENTS IN BlENDED EDUCATION AND MECHANISMS FOR ITS IMPLEMENTATION | *Jamshid Matnazarov* | 97-103 |
| 17. | LINGUISTIC FOUNDATIONS OF UZBEK–ENGLISH PROFESSIONAL VOCABULARY | *A.A. Rakhmanova* | 104-107 |
| 18. | YOUTH MEDIA CULTURE IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION: THREATS AND SOLUTIONS | *Bahodir Mirvokhitovich Mirraximov* | 108-115 |
| 19. | HISTORICAL SIGNIFICANCE OF THE GATES OF TASHKENT IN THE 19th CENTURY | *Amirxo'ja Jaloliddin o'g'li Toirxo'jaev* | 116-121 |
| 20. | SYNERGIC ANALYSIS OF SOCIO-CULTURAL COMMUNICATIONS AS A FACTOR OF STABILITY AND INSTABILITY | *Sarvinoz Uralovna Ashurova* | 122-127 |
| 21. | NADR MUHAMMAD (KICHIK) KHAN, WHO CARRIED OUT CONSTRUCTIVE WORKS IN BALKH | *Sangirova Diloram Xujamkulova* | 128-134 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 22. | **HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF URBAN INFRASTRUCTURE IN NAVAI REGION IN THE SOVIET PERIOD** | ***Shohidjon Orifboyevich Nayimov*** | 135-141 |
| 23. | **PSYCHOLOGICAL FEATURES OF DEVELOPING STUDENTS' EDUCATIONAL COMPETENCES BASED ON PEDAGOGICAL DESIGN** | ***Lobarkhon Islam kizi Suvonova*** | 142-147 |
| 24. | **THE ROLE OF ARUZ PROSODY IN TEACHING THE ART OF MAQOM** | ***Ikromitdin Ostonaqulov, M.Xo'jamov*** | 148-152 |
| 25. | **THE IMPORTANCE OF PEDAGOGICAL DESIGN IN USING DIGITAL TECHNOLOGIES IN IN-CLASS AND OUT-CLASS ACTIVITIES** | ***Lobarkhon Islam kizi Suvonova*** | 153-157 |
| 26. | **SOCIO-MORAL REFORMS AS A FACTOR IN REDUCING POVERTY** | ***Bobir Rakhmatovich Berdiev*** | 158-161 |
| 27. | **A LINGUOPRAGMATIC ANALYSIS OF THE CONCEPT OF POLITENESS IN MALE AND FEMALE SPEECH** | ***Nigorakhon Mominjon qizi Gopporova*** | 162-168 |
| 28. | **PROBLEMS OF THE HUMAN FACTOR IN PRESERVING ECOLOGICAL SUSTAINABILITY IN SOCIETY** | ***Muratova Dildora Abdumanapovna*** | 169-173 |
| 29. | **TRANSFORMATION OF YOUTH SOCIAL ACTIVITY IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION** | ***Shuxrat Turopovich Mamatqulov*** | 174-177 |
| 30. | **SCIENTIFIC-PEDAGOGICAL BASIS OF DEVELOPING STUDENTS' ECOLOGICAL COMPETENCE** | ***Mavludaxon Kozimjon qizi Xolmirzayeva*** | 178-183 |
| 31. | **INSTITUTIONAL CHARACTERISTICS OF THE SOCIAL STATE** | ***Muxabbat Narimanovna Davletova*** | 184-191 |
| 32. | **A LINGUOCULTURAL STUDY OF INTELLECTUAL AND CULTURAL COMMUNICATION STRATEGIES IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES (a case study of mitigation)** | ***Nigorakhon Mominjon qizi Gopporova*** | 192-200 |
| 33. | **THE TRANSFORMATION OF THE INFORMATION SOCIETY IN THE CONTEXT OF CONTEMPORARY GLOBALIZATION AND CONTRADICTORY TRENDS OF CIVILIZATIONAL DEVELOPMENT** | ***Hakimov Akmaljon Mirzag'aniyevich*** | 201-207 |

*International Journal of Intellectual and Cultural Heritage*
**Volume: 6 Issue: 02 | 2026**
**ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314**
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

***Yunusov Maxmudxon***
*PhD, "Ipak yo'li" xalqaro turizm va madaniy meros universiteti*

*Orcid: 0000-0002-2942-9236*
*Email: maxmudxony@gmail.com*

*Received 4th February 2026, Accepted 10th April 2026, Online 30th June 2026*

## ARXEOLOGIK MEROSNI MUZEYLASHTIRISH MASALALARI

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada arxeologik merosni muzeylashtirishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Arxeologik yodgorliklar va topilmalarni muzey predmetiga aylantirishning asosiy bosqichlari, xususan, aniqlash, hujjatlashtirish, konservatsiya, restavratsiya, atributsiya, fondga qabul qilish, ilmiy interpretatsiya va ekspozitsion talqin jarayonlari yoritilgan. Shuningdek, «in situ» va «ex situ» muzeylashtirish shakllarining o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. Samarqand viloyatidagi Afrosiyob, Ko'ktepa, Kofirqal'a va Dabusiya yodgorliklari misolida arxeologik merosni saqlash va jamoatchilikka taqdim etishning dolzarb masalalari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** arxeologik meros, muzeylashtirish, arxeologik yodgorlik, muzey predmeti, in situ, ex situ, konservatsiya, restavratsiya, ilmiy interpretatsiya, ekspozitsiya, arxeologiya parki, Samarqand vohasi.

## ВОПРОСЫ МУЗЕЕФИКАЦИИ АРХЕОЛОГИЧЕСКОГО НАСЛЕДИЯ

**Аннотация.** В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты музеефикации археологического наследия. Анализируются основные этапы превращения археологических памятников и находок в музейные объекты, включая выявление, документирование, консервацию, реставрацию, атрибуцию, включение в музейные фонды, научную интерпретацию и экспозиционное представление. Раскрываются особенности форм музеефикации «in situ» и «ex situ». На примере памятников Афрасиаба, Коктепа, Кафиркалы и Дабусии освещаются актуальные вопросы сохранения, изучения и популяризации археологического наследия Самаркандской области.

**Ключевые слова:** археологическое наследие, музеефикация, археологический памятник, музейный предмет, in situ, ex situ, консервация, реставрация, научная интерпретация, музейная экспозиция, археологический парк, Самаркандский оазис.

## ISSUES OF ARCHAEOLOGICAL HERITAGE MUSEALIZATION

**Abstract.** This article examines the theoretical and practical aspects of archaeological heritage musealization. The main stages of transforming archaeological sites and artifacts into museum objects are analyzed, including identification, documentation, conservation, restoration, attribution, accession

into museum collections, scientific interpretation, and exhibition presentation. Particular attention is given to the characteristics of the *in situ* and *ex situ* approaches to musealization. Using the examples of Afrasiab, Koktepa, Kafirqala, and Dabusia archaeological sites, the study highlights current issues related to the preservation, interpretation, and public presentation of archaeological heritage in the Samarkand region.

**Keywords:** archaeological heritage, musealization, archaeological site, museum object, in situ, ex situ, conservation, restoration, scientific interpretation, museum exhibition, archaeological park, Samarkand oasis.

**Kirish**

Arxeologik meros har bir xalqning tarixiy xotirasi, madaniy taraqqiyoti va sivilizatsion rivojlanishini aks ettiruvchi muhim manbadir. Qadimiy yodgorliklar, arxeologik obyektlar va ulardan topilgan moddiy madaniyat namunalari nafaqat ilmiy tadqiqot obyekti, balki jamiyatning madaniy-ma’rifiy hayotiga xizmat qiluvchi meros sifatida ham alohida ahamiyatga ega. Shu jihatdan arxeologik merosni muzeylashtirish masalasi bugungi kunda tarix, arxeologiya, muzeyshunoslik, restavratsiya, konservatsiya va madaniy meros menejmenti kesishgan muhim ilmiy-amaliy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Arxeologik merosni muzeylashtirish deganda qadimiy yodgorliklar va topilmalarni oddiy tarixiy qoldiq yoki ilmiy manba holatidan jamoatchilikka taqdim etiladigan, ilmiy jihatdan izohlangan, hujjatlashtirilgan va madaniy xotira tizimiga kiritilgan meros obyektiga aylantirish jarayoni tushuniladi. Bu jarayon yodgorlikni aniqlash, o‘rganish, muhofaza qilish, konservatsiyalash, restavratsiya qilish, hujjatlashtirish, ilmiy talqin etish va ekspozitsion shaklda namoyish qilish bosqichlarini o‘z ichiga oladi.

Samarqand viloyati arxeologik merosni muzeylashtirish uchun alohida ahamiyatga ega hududlardan biridir. Chunki bu yerda paleolit davridan o‘rta asrlargacha bo‘lgan uzoq tarixiy jarayonlarni aks ettiruvchi yodgorliklar mavjud. Afrosiyob, Ko‘ktepa, Kofirqal’a, Dabusiya kabi yodgorliklar Samarqand vohasining qadimgi urbanizatsiyasi, siyosiy-iqtisodiy taraqqiyoti, madaniy aloqalari va moddiy madaniyatini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli ushbu maqolada arxeologik merosni muzeylashtirishning nazariy mohiyati, asosiy bosqichlari, amaliy shakllari va Samarqand viloyati misolidagi dolzarbligi yoritiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili**

Arxeologik merosni muzeylashtirish masalasi zamonaviy muzeyshunoslik va madaniy meros tadqiqotlarida muhim o‘rin egallaydi. Mavzuga oid adabiyotlarda muzeylashtirish jarayoni faqat topilmalarni fondga qabul qilish yoki ekspozitsiyada namoyish etish bilan cheklanmasligi, balki ularni ilmiy kontekstda talqin qilish, hujjatlashtirish, konservatsiyalash va jamoatchilikka tushunarli shaklda yetkazish bilan bog‘liq murakkab tizim sifatida qaraladi.

David Dean muzey ekspozitsiyasini yaratish jarayonini nazariya va amaliyot uyg‘unligida tahlil qilib, ekspozitsiya tayyorlashda rejalashtirish, dizayn, matn yaratish, kolleksiyani saqlash,

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 6 Issue: 02 | 2026
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

interpretatsiya va tashrifchi bilan kommunikatsiya muhimligini ko‘rsatadi. Bu yondashuv arxeologik merosni muzeylashtirishda ham muhim ahamiyatga ega, chunki arxeologik obyekt yoki topilma keng auditoriya uchun tushunarli bo‘lishi uchun u ilmiy sharh, rekonstruksiya, xarita, maket va izohli matnlar orqali talqin qilinishi zarur.

T.V. Galkina muzey ekspozitsiyasini ilmiy konsepsiya asosida tashkil etilgan, izohlangan va badiiy-texnik jihatdan rasmiylashtirilgan kommunikativ maydon sifatida talqin qiladi. Uning yondashuviga ko‘ra, muzey predmeti ekspozitsiyada oddiy axborot manbai bo‘lib qolmay, balki tashrifchiga ta’sir ko‘rsatuvchi ramziy va ma’naviy mazmun kasb etadi. Bu fikr arxeologik topilmalarni muzey predmetiga aylantirishda ularning tarixiy, madaniy va ijtimoiy mazmunini ochib berish zarurligini asoslaydi.

Susan M. Pearce tahriri ostidagi tadqiqotlarda muzey predmetlari va kolleksiyalarni talqin qilishda ularning konteksti, kelib chiqish tarixi va madaniy ma’nosi muhimligi ta’kidlanadi. Arxeologik topilmaning qiymati ham aynan uning topilgan joyi, stratigrafik qatlami, yodgorlikdagi o‘rni va madaniy muhiti bilan bog‘liq holda to‘liq ochiladi. Shu sababli “kontekstni yo‘qotgan topilma” ilmiy jihatdan cheklangan manbaga aylanadi.

O‘zbekiston tadqiqotchilaridan D.T. Kuryazova moddiy madaniy merosni saqlash, o‘rganish va muzeylashtirish masalalarini davlat siyosati, xalqaro tajriba va zamonaviy ilmiy yondashuvlar bilan bog‘liq holda tahlil qiladi. A.A. Yarkulov esa arxeologiya merosi obyektlarini muzeylashtirishda arxeologiya muzeylari, arxeologiya parklari va muzey-qo‘riqxonalar tashkil etishning ahamiyatini ko‘rsatadi. Ushbu adabiyotlar arxeologik merosni saqlash, ilmiy muomalaga kiritish va jamoatchilikka taqdim etishning nazariy hamda amaliy asoslarini belgilashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi**

Maqolada arxeologik merosni muzeylashtirish jarayonini o‘rganishda tarixiy-tahliliy, qiyosiy, tizimli, kontekstual va muzeyshunoslik yondashuvlaridan foydalanildi. Tarixiy-tahliliy metod arxeologik merosni muzeylashtirishning shakllanishi, uning huquqiy, tashkiliy va ilmiy asoslarini aniqlashda qo‘llanildi.

Qiyosiy metod orqali «in situ» va «ex situ» muzeylashtirish shakllari o‘zaro taqqoslandi. «In situ» yondashuvda yodgorlik o‘z joyida saqlanib, tarixiy makon sifatida namoyish etiladi. «Ex situ» yondashuvda esa arxeologik topilmalar muzey fondlariga qabul qilinadi, inventarlashtiriladi, ilmiy tavsiflanadi va ekspozitsiya orqali jamoatchilikka taqdim etiladi. Ushbu ikki yondashuvni taqqoslash arxeologik merosni saqlash va namoyish etishning turli shakllarini aniqlash imkonini berdi.

Tizimli yondashuv asosida arxeologik topilmaning muzey predmetiga aylanish bosqichlari tahlil qilindi. Bunda topilmaning aniqlanishi, kontekstining qayd etilishi, huquqiy maqomining aniqlanishi, konservatsiya qilinishi, ilmiy tavsiflanishi, fondga kiritilishi, ilmiy muomalaga chiqarilishi, ekspozitsion talqin qilinishi hamda uzoq muddatli saqlanishi alohida bosqichlar sifatida ko‘rib chiqildi.

Kontekstual metod arxeologik ashyoning ilmiy qiymatini uning topilgan muhiti, stratigrafik holati, yodgorlikdagi funksiyasi va tarixiy-madaniy aloqalari bilan bog‘liq holda o‘rganishga xizmat qildi. Muzeyshunoslik yondashuvi esa arxeologik merosni saqlash, hujjatlashtirish, fondga qabul qilish, eksplikatsiya tayyorlash va ekspozitsion namoyish etish jarayonlarini tahlil qilishda qo‘llanildi.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 6 Issue: 02 | 2026
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Samarqand viloyati yodgorliklari, xususan Afrosiyob, Ko‘ktepa, Kofirqal’a va Dabusiya misolida arxeologik merosni muzeylashtirishning hududiy xususiyatlari ham ilmiy jihatdan umumlashtirildi.

**Tahlil va natijalar**

Arxeologik merosni muzeylashtirish - bu qadimiy yodgorliklar, arxeologik obyektlar va topilmalarni oddiy ilmiy manba yoki tarixiy qoldiq holatidan madaniy xotira, ta’lim, ilmiy tadqiqot va jamoatchilikka namoyish qilish tizimiga kiritilgan meros obyektiga aylantirish jarayonidir. Bu jarayon o‘z ichiga yodgorlikni aniqlash, ilmiy o‘rganish, muhofaza qilish, konservatsiyalash, zarur hollarda restavratsiya qilish, hujjatlashtirish, interpretatsiya etish va ekspozitsion shaklda taqdim etishni oladi. Demak, arxeologik merosni muzeylashtirishning asosiy mohiyati merosning moddiy shaklini saqlab qolish bilangina cheklanmay, uning tarixiy mazmunini ochish va uni jamiyatning madaniy hayotiga qayta kiritishda namoyon bo‘ladi.

Avvalo, arxeologik merosni muzeylashtirishning zarurati uning o‘ta nozik va qayta tiklanmaydigan tabiatidan kelib chiqadi. Arxeologik yodgorlik yer ostida yoki ochiq landshaftda ma’lum darajada saqlanib turishi mumkin, biroq qazish ishlari boshlanganidan keyin u tabiiy-iqlimiy va antropogen omillarga nisbatan yanada zaiflashadi. Shu sababli ochilgan qatlamlar, devor qoldiqlari, me’moriy unsurlar va topilmalar maxsus saqlash choralari ko‘rilmasa, qisqa vaqt ichida yemirilishi mumkin.

Arxeologik merosni muzeylashtirish ilmiy interpretatsiya jarayonidir. D. Dean muzey ekspozitsiyasini yaratishni oddiy namoyish jarayoni emas, balki rejalashtirish, dizayn, kolleksiyani saqlash, ekspozitsion matn tayyorlash, interpretatsiya, baholash va kompyuter texnologiyalaridan foydalanishni o‘z ichiga olgan murakkab amaliy jarayon sifatida tavsiflaydi. Shu sababli arxeologik obyekt yoki topilmani tomoshabinga tushunarli qilib yetkazish uchun ilmiy ma’lumot ekspozitsion tilga aylantirilishi zarur [1]. Odatda arxeologik obyektning tabiiy ko‘rinishi keng tomoshabin uchun yetarli darajada “o‘qiladigan” bo‘lmaydi. Devor qoldig‘i, poydevor chizig‘i, kul qatlamlari yoki sopol parchalari mutaxassisga ko‘p ma’lumot bersa-da, oddiy tashrifchi uchun ular tushunarsiz ko‘rinishi mumkin. Shuning uchun muzeylashtirish jarayonida ilmiy sharh, tavsif, rekonstruktiv chizmalar, ko‘rgazmali materiallar, maket va yo‘naltiruvchi axborot tizimlari muhim ahamiyat kasb etadi. T.V.Galkina muzey ekspozitsiyasini ilmiy konsepsiya asosida tashkil etilgan, izohlangan, badiiy va texnik jihatdan rasmiylashtirilgan kommunikativ tizim sifatida talqin qiladi. Muallifning fikricha, ekspozitsiyadagi muzey predmeti oddiy axborot manbai bo‘lib qolmay, tashrifchiga ta’sir ko‘rsatuvchi ekspozitsion obraz va ramz darajasiga ko‘tarilishi lozim [12].

Arxeologik merosni muzeylashtirishning muhim shakllaridan biri arxeologiya muzeylari, arxeologiya parklari va muzey-qo‘riqxonalari tashkil etishdir. Bu fikr A.A. Yarkulov tomonidan ham alohida asoslanadi. Muallif arxeologiya merosi obyektlarini muzeylashtirishning asosiy yo‘nalishlari sifatida arxeologiya obyektlari negizida muzeylar barpo etish, arxeologiya parklarini shakllantirish va muzey-qo‘riqxonalar tashkil etishni ko‘rsatadi. Bunday yondashuv yodgorlikni faqat saqlash emas, balki uni ilmiy, ma’rifiy va turistik muomalaga kiritish imkonini beradi [11]. Chunki arxeologik merosni samarali namoyish etish uchun har bir yodgorlik turi, uning saqlanish darajasi va hududiy xususiyatiga mos institutsional shakl zarur bo‘ladi. Masalan, ayrim obyektlar ochiq osmon ostida

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 6 Issue: 02 | 2026
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

muzey sifatida ko‘proq samarali bo‘lsa, boshqalari muzey-qo‘riqxona shaklida yoki topilmalar negizidagi maxsus ekspozitsiya orqali to‘liqroq yoritiladi.

Arxeologik merosni muzeylashtirishning huquqiy va tashkiliy poydevori mustaqil O‘zbekiston sharoitida ancha mustahkamlangan. D.T. Kuryazova moddiy madaniy merosni saqlash, o‘rganish va muzeylashtirish masalalarini davlat siyosati, xalqaro tajriba va zamonaviy ilmiy yondashuvlar bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqadi. Uning fikricha, O‘zbekiston muzeylarida fondlarni shakllantirish, saqlash, targ‘ib va tashviq etish, shuningdek, ko‘chmas moddiy madaniy meros obyektlarini zamonaviy sharoitda muzeylashtirish bugungi muzeyshunoslikning muhim vazifalaridan biridir [7]. 2009-yilda “Arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi qonun qabul qilingan, 2021-yildagi PQ-5150-son qaror bilan Madaniy meros agentligi zimmasiga arxeologiya obyektlarini konservatsiyalash, muzeylashtirish va arxeologiya parklarini yaratish vazifasi yuklatilgan, 2022-yildagi PQ-261-son qarorda esa arxeologik yodgorliklarda ilmiy tadqiqot olib borish, ularni konservatsiyalash va ochiq osmon ostidagi muzeylarga aylantirish ko‘zda tutilgan. Bu hujjatlar arxeologik merosni muzeylashtirish endilikda davlat siyosatining muhim tarkibiy qismi sifatida qaralayotganini ko‘rsatadi.

Samarqand viloyati arxeologik merosni muzeylashtirish uchun eng qulay va eng zarur hududlardan biridir. Chunki bu yerda paleolitdan o‘rta asrlargacha bo‘lgan davrlarni qamrab oluvchi yodgorliklar majmui mavjud. Afrosiyob qadimgi Samarqand tarixining urbanistik yadrosi sifatida, Ko‘ktepa ilk shaharsozlik va siyosiy markazlashuv jarayonlarini yorituvchi obyekt sifatida, Kofirqal’a va Dabusiya esa vohaning antik hamda ilk o‘rta asrlar davridagi siyosiy-iqtisodiy tuzilmasini tushunishda muhim manba sifatida ajralib turadi. Fransiya, Italiya, Yaponiya, Ukraina, Xitoy va boshqa davlatlar bilan hamkorlikda olib borilgan tadqiqotlarda aynan Samarqand vohasidagi yodgorliklar bo‘yicha qo‘lga kiritilgan ma’lumotlar keyingi yillarda topilmalarni tahlil qilish, nashr etish va muzeylashtirishga qaratilgan. Bu faktning o‘ziyoq Samarqandda arxeologik merosni muzeylashtirish ilmiy tadqiqotning mantiqiy davomi ekanini anglatadi.

Arxeologik merosni muzeylashtirishning salmoqli qismi uni topilgan joyidan chiqarib olib muzeylarda namoyish etish hisoblanadi. Arxeologik topilmaning muzey predmetiga aylanishi tasodifiy yoki faqat fondga qabul qilish bilan tugaydigan jarayon emas, balki ilmiy-nazariy tamoyillar va tashkiliy mexanizmlar asosida kechadigan ko‘p bosqichli tizimdir. Bu tizimda topilmaning konteksti, aslligi, huquqiy maqomi, konservatsiya holati, ilmiy tavsifi va muzey kommunikatsiyasidagi funksiyasi birgalikda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun arxeologik topilmani muzey predmetiga aylantirish jarayoni arxeologiya, muzeologiya, konservatsiya va meros boshqaruvi kesishgan nuqtada shakllanadigan murakkab ilmiy-amaliy modeldir. Quyida ushbu jarayonni bosqichma-bosqich ko‘rib chiqamiz.

Birinchi bosqich - topilmaning aniqlanishi va kontekstining qayd etilishidir. Ilmiy-nazariy jihatdan arxeologik ashyoning asosiy qiymati uning o‘zida emas, balki topilgan qatlam, joylashuv, kompleks va stratigrafik munosabatlar bilan bog‘liq axborotida namoyon bo‘ladi. S. Pearce tahriri ostidagi tadqiqotlarda muzey predmetlari va kolleksiyalarni talqin qilishda ularning alohida buyum sifatidagi belgilaridan tashqari, ijtimoiy, tarixiy va madaniy kontekstini aniqlash muhimligi ta’kidlanadi. Shu nuqtayi nazardan arxeologik topilmaning ilmiy qiymati uni yaratgan jamiyat, u topilgan muhit va kolleksiya tarkibidagi o‘rni bilan uzviy bog‘liqdir [9]. Shu sababli zamonaviy

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 6 Issue: 02 | 2026
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

muzeyshunoslikda “kontekstni yo‘qotgan topilma”ning ilmiy qiymati keskin kamayishi e’tirof etiladi. Britaniya muzeyi Girsu loyihasi bo‘yicha XIX–XX asr boshlaridagi metodik jihatdan sust qazishmalar tufayli ko‘plab topilmalar arxeologik kontekstini yo‘qotgani, buning natijasida ular haqidagi tarixiy talqin cheklangani ochiq qayd etadi [4]. Demak, muzey predmetiga aylanishning birinchi sharti - topilmaning aniq hujjatlashtirilgan kelib chiqish kontekstidir.

Ikkinchi bosqich - huquqiy-legitim asosni aniqlash**.** Topilma muzey predmetiga aylanishidan oldin uning qonuniy kelib chiqishi, qazib olish huquqi, davlat mulki yoki muzey fondiga o‘tkazilish asoslari aniqlanishi kerak. Bu talab zamonaviy muzeologiyada markaziy o‘rin tutadi. ICOMning etika kodeksida muzey hech bir predmetni qonuniy egalik huquqi ishonchli tekshirilmasdan qabul qilmasligi lozimligi belgilangan, kolleksiya siyosati esa buyumning olinishi, saqlanishi va undan foydalanish qoidalarini aniq belgilashi kerak [6]. Bu tamoyil ayniqsa arxeologik topilmalar uchun muhim, chunki noqonuniy qazish, qora bozor va kelib chiqish tarixisiz buyumlar ilmiy haqiqatni buzadi.

Uchinchi bosqich - dastlabki konservatsiya va barqarorlashtirish. Arxeologik buyum qazishdan so‘ng yangi fizik-kimyoviy muhitga tushadi va aynan shu paytda eng zaif holatga keladi. Nazariy jihatdan bu bosqich “minimal aralashuv” va “asl moddaning maksimal saqlanishi” tamoyillariga tayansa, tashkiliy jihatdan maxsus laboratoriya, malakali konservator va standart munosabat tartibini talab qiladi. UNESCO suv osti madaniy merosi bo‘yicha qoidalarida konservatsiya dasturi topilmalarni qazish paytida, tashish jarayonida va uzoq muddatli saqlashda professional standartlarga muvofiq olib borilishi shartligi alohida ko‘rsatilgan, bu tamoyil quruqlikdagi arxeologik ashyolar uchun ham to‘liq tatbiq etiladi [5]. Ya’ni, topilmaning muzey predmetiga aylanishi uning jismoniy barqarorligi ta’minlanmasdan mumkin emas.

To‘rtinchi bosqich - ilmiy tavsiflash va atributsiya. Bu bosqichda ashyoning materiali, yasalish texnikasi, vazifasi, tipi, xronologiyasi, madaniy mansubligi va analogiyalari aniqlanadi. Nazariy jihatdan aynan shu yerda topilma “narsa”dan “ilmiy manba”ga aylanadi. Material madaniyat tadqiqotlarida muzey kolleksiyalari faqat saqlash uchun jamlangan buyumlar majmui emas, balki artefaktlarning ma’nosi, jamiyatlararo munosabatlar va o‘tmish haqidagi tasavvurlarni o‘rganishga imkon beruvchi ilmiy maydon sifatida baholanadi. Shu sababli arxeologik ashyoning atributsiyasi uning materiali va davrini aniqlash bilan cheklanmay, uning madaniy ma’nosi va tarixiy funksiyasini ham ochib berishi kerak [9]. Tashkiliy jihatdan esa bu ish arxeolog, restavrator, manbashunos va fond mutaxassisi hamkorligini talab qiladi. Xalqaro muzey amaliyotida predmetning tavsifi faqat tashqi ko‘rinish bilan cheklanmay, uning kelib chiqish tarixi, tadqiq qilinganligi, restavratsiya holati va ilmiy interpretatsiyasini ham qamrab oladi. ICOM standartlari kolleksiyalar bo‘yicha hujjatlashtirish, tavsiflash, terminologiya va konservatsiya bo‘yicha eng yaxshi amaliyotlarni joriy etishni tavsiya qiladi. Bu esa atributsiyalashni muzeylashtirishning yadrosi darajasiga ko‘taradi.

Beshinchi bosqich - fondga kiritish. Muzey predmetining tashkiliy maqomi aynan shu bosqichda vujudga keladi. Buyumga inventar raqami berilishi, fond hujjatlarida qayd etilishi, saqlash joyi va huquqiy statusi belgilanishi kerak. Bu bo‘yicha ICOMning standartlarida predmetni muzey kolleksiyasiga qabul qilish jarayoni etika, huquqiy tekshiruv va hujjatlashtirishga tayangan holda olib borilishi lozimligi qayd etilgan. Shu nuqtada arxeologik topilma shaxsiy yoki vaqtincha ilmiy ashyo maqomidan chiqib, fondning nazorat qilinadigan predmetiga aylanadi.

Oltinchi bosqich - ilmiy muomalaga kiritish. Muzey predmetining qiymati faqat uning saqlanishida emas, balki ilmiy va madaniy aylanmaga kirishida ham namoyon boʻladi. Shuning uchun topilma hisobotlar, kataloglar, maqolalar, ochiq maʼlumotlar bazalari va maxsus nashrlar orqali mutaxassislar muhokamasiga qoʻyilishi kerak. Masalan, Italiyaning Pompey arxeologik parki oʻz nashrlarida arxeologik topilmalarni oʻrganish, ularni saqlash, tiklash va tashrifchilarga tushunarli qilib koʻrsatish masalalarini birgalikda yoritadi [2]. Yaʼni koʻrsatishgacha boʻlgan jarayon ham ochiq. Bu tajriba shuni koʻrsatadiki, topilma muzeyga qabul qilingan boʻlsa ham, agar u ilmiy jihatdan toʻliq oʻrganilib nashr etilmagan boʻlsa, uning ilmiy ahamiyati toʻla ochilmay turaveradi.

Yettinchi bosqich - ekspozitsion talqin va interpretatsiya. A.Yu. Koreneva muzey ekspozitsiyasini “madaniyat matni” sifatida tahlil qilish mumkinligini koʻrsatadi. Bu yondashuvga koʻra, ekspozitsiyada buyumlar, ularning joylashuvi, izoh matnlari, vizual vositalar va umumiy kompozitsiya birgalikda tarixiy mazmunni ifodalovchi matn vazifasini bajaradi. Demak, arxeologik topilmani ekspozitsiyaga kiritishda uni alohida predmet sifatida emas, balki umumiy tarixiy hikoyaning maʼno beruvchi qismi sifatida joylashtirish muhimdir [13]. Arxeologik topilma muzey predmetiga aylangandan keyin erkpozitsiyaga chiqarishda uni tarixiy hikoya ichiga joylashtirish, kontekstini koʻrsatish, izoh matnlari, grafik rekonstruksiya, maket, multimedia yoki raqamli vositalar bilan toʻldirish talab etiladi. UNESCO nashrlarida arxeologik joy va qoldiqlarni interpretatsiya qilish masalasi yodgorlikni saqlash bilan teng ahamiyatga ega ekani, notoʻgʻri yoki zaif talqin obyektning jamoatchilikdagi qadrini pasaytirishini koʻrsatadi [3]. Yaʼni, arxeologik merosning muzey predmetiga aylanishning yakuniy bosqichi bu ashyoning kommunikativ qiymatini shakllantirishdir. M. Schärer ekspozitsiyada tomoshabinni passiv qabul qiluvchi emas, balki ekspozitsion kommunikatsiyaning faol ishtirokchisi sifatida koʻrsatadi. Uning fikricha, tashrifchi ekspozitsiyadagi predmetlar, matnlar va vizual vositalar orqali berilgan maʼlumotni oʻz tajribasi va ijtimoiy kodlari asosida qayta talqin qiladi. Shu sababli arxeologik ekspozitsiyada kontekst, izoh, yoʻnalish va vizual yechimlarning puxta ishlab chiqilishi tomoshabinning tarixiy mazmunni toʻgʻri anglashida hal qiluvchi ahamiyatga ega [14].

Sakkizinchi bosqich - uzoq muddatli saqlash, monitoring va qayta talqin**.** Zamonaviy dunyo tajribasi shuni koʻrsatadiki, muzey predmetining maqomi oʻzgarmas emas. Yangi ilmiy usullar, laboratoriya tahlillari, radiokarbon usuli orqali ashyoning davrini aniqlash, manbashunoslik va raqamli texnologiyalar asosida bir buyumning davri, funksiyasi yoki madaniy mansubligi qayta koʻrib chiqilishi mumkin. Shu bois muzey predmetiga aylanish jarayoni fondga qabul qilish bilan tugamaydi, u doimiy monitoring, saqlash va qayta talqin qilish bosqichlari bilan davom etadi. UNESCOning madaniy merosni muhofaza qilish boʻyicha tavsiyalarida yirik jamoat va xususiy ishlar oldidan keng qamrovli tadqiqot oʻtkazish, muhim obyektlarni imkon qadar joyida («in situ») saqlash, zarur hollarda kuzatuv qazishmalari oʻtkazish va koʻchma topilmalarni tizimli ravishda hujjatlashtirish lozimligi belgilangan [10]. Bu yondashuv topilmaning muzey predmetiga aylanishini merosni boshqarishning uzluksiz modeli sifatida koʻrsatadi.

Samarqand viloyati sharoitida ushbu bosqichlarning har biri yanada katta masʼuliyat kasb etadi. Chunki turli yodgorliklardan topilgan ashyolar faqat mahalliy darajadagi eksponatlar emas, balki Markaziy Osiyoning urbanizatsiya tarixi, savdo aloqalari, diniy amaliyoti va siyosiy tuzilishini yorituvchi manbalardir. Shu sababli ularni muzey predmetiga aylantirishda dunyo tajribasidagi uch asosiy tamoyil - kontekstni saqlash, huquqiy legitimlikni tekshirish va konservatsiya-hujjatlashtirish-

interpretatsiya zanjirini uzmaslik metodologik mezon bo'lib xizmat qilishi kerak. Aks holda topilma fondga tushishi mumkin, ammo uning ilmiy va madaniy qiymati bo'lmaydi.

**Xulosa va takliflar**

Arxeologik merosni muzeylashtirish qadimiy yodgorliklar va topilmalarni saqlash, o'rganish, hujjatlashtirish va jamoatchilikka ilmiy asosda taqdim etishning muhim shaklidir. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, arxeologik merosni muzeylashtirish faqat eksponatni vitrinaga joylashtirish bilan cheklanmaydi. Aksincha, u topilmaning kontekstini aniqlash, huquqiy maqomini belgilash, konservatsiya qilish, ilmiy tavsiflash, fondga kiritish, ilmiy muomalaga chiqarish va ekspozitsion talqin qilish kabi uzluksiz bosqichlardan iborat murakkab ilmiy-amaliy jarayondir.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

-birinchidan, arxeologik topilmalarni fondga qabul qilishda ularning konteksti, stratigrafik holati va topilgan yodgorligi haqidagi ma'lumotlar to'liq hujjatlashtirilishi zarur.

-ikkinchidan, arxeologik ashyolarni inventarlashtirish va ilmiy tavsiflashda yagona raqamli katalog tizimini yaratish maqsadga muvofiq.

-uchinchidan, ekspozitsiyalarda arxeologik topilmalarni alohida buyum sifatida emas, balki tarixiy-madaniy jarayonning tarkibiy qismi sifatida talqin qilish kerak.

-to'rtinchidan, arxeologik merosni namoyish etishda rekonstruksiya, xarita, diagramma, maket, multimedia va interaktiv vositalardan keng foydalanish lozim.

-beshinchidan, Samarqand viloyatidagi muhim arxeologik yodgorliklar negizida arxeologiya parklari, ochiq osmon ostidagi muzeylar va muzey-qo'riqxona shaklidagi namoyish tizimlarini rivojlantirish zarur.

Umuman olganda, arxeologik merosni muzeylashtirish ilmiy tadqiqot, merosni muhofaza qilish va madaniy-ma'rifiy targ'ibotning uzviy bog'langan shaklidir. Bu jarayon to'g'ri yo'lga qo'yilganda arxeologik topilmalar tarixiy xotirani tiklovchi, jamiyatni ma'rifatga yetaklovchi va milliy madaniy merosni ommalashtiruvchi muhim vositaga aylanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Dean D. Museum Exhibition: Theory and Practice. London; New York: Routledge, 1994; Taylor & Francis e-Library, 2002. P. 1–2, 8–18, 103–131.
2. https://pompeiisites.org/en/projects-and-research/publications
3. https://whc.unesco.org/en/list
4. https://www.britishmuseum.org/research/projects/girsu-project
5. https://www.unesco.org/en/legal-affairs/convention-protection-underwater-cultural-heritage
6. ICOM Code of Ethics for Museums. ICOM, 2017.

7. Kuryazova D.T. Oʻzbekiston moddiy madaniy merosi: oʻrganish, saqlash va muzeylashtirish masalalari. Monografiya. Toshkent: “MATRIX”, 2025. B. 3–7, 122–147, 195–229

8. Pearce S.M., ed. Interpreting Objects and Collections. London; New York: Routledge, 1994; Taylor & Francis e-Library, 2003. P. 1–12, 125–140

9. Pearce S.M., ed. Museum Studies in Material Culture. London: Leicester University Press; New York: Columbia University Press, 1989. 188 p.

**10.** Recommendation concerning the Preservation of Cultural Property Endangered by Public or Private Works. https://www.unesco.org/en/legal-affairs/recommendation-concerning-preservation-cultural-property-endangered-public-or-private-works

11. Yarkulov A.A. Arxeologiya merosi obyektlarini muzeylashtirish. Toshkent: “Renessans press”, 2023. B. 90–122

12. Галкина Т.В. Музееведение: основы создания экспозиции. Учебно-методическое пособие. Томск: Изд-во Томского государственного педагогического университета, 2004. С. 3–4, 19.

13. Коренева А.Ю. Музейная экспозиция как текст: теоретические аспекты // Электронное научное издание Альманах Пространство и Время. 2015. Т. 10. Вып. 1: Пространство и время текста. С. 1–8.

14. Шерер М. Зритель в экспозиции // Вопросы музеологии. 2013. № 1 (7). С. 79–84.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 6 Issue: 02 | 2026
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

**Musakaeva A.A.**
*PhD in History, Senior ResearcherState Museum of History of Uzbekistan, Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan*
alfmusakaeva07021959@mail.ru

*Received 4th February 2026, Accepted 10th April 2026, Online 30th June 2026*

## ДРЕВНЕЙШИЕ МОНЕТЫ В ЧАЧЕ

**Аннотация.** Возникновение денежных отношений в Чаче датировали по-разному. До сих нет находок самых ранних монет, найденных археологами при раскопках. В основном они известны как найденные на поверхности городища, на окружающих Канку пашнях, в промоинах арыков в окрестностях городища. Поэтому большое историческое значение имеет Кендыкский клад, в составе которого была обнаружена датированная монета. Это монета Иудеи царя Агриппы I. Проведенные исследования нумизматического материала позволили проследить технику изготовления монет и их использования на протяжение нескольких столетий. Выявлены перечеканенные экземпляры с ранними тамгами. На основание изучения этого уникального исторического источника удалось установить дату чеканки древнечачских монет.

**Ключевые слова:** Монета, Чач, Ташкентский оазис, чекан, Агриппа I, Хасмонеи, перечекан, штемпель, денежные отношения, вес.

## CHOCHDAGI QADIMIY TANGALAR

**Annotatsiya**. Chochda pul muomalasining kelib chiqishi turlicha talqin qilinadi. Arxeologlar qazishmalar paytida topilgan eng qadimgi tangalarni haligacha topishmagan. Bular, birinchi navbatda, aholi punkti yuzasida, Qanka atrofidagi ekin maydonlarida, aholi punktlari atrofidagi sug‘orish ariqlarida topilganligi ma’lum.Shuning uchun ham qirol Agrippa I davrida Yahudiyada topilgan sanasi ko‘rsatilgan tangani o‘z ichiga olgan Kendik xazinasi katta tarixiy ahamiyatga ega. Numizmatik material ustida olib borilgan tadqiqotlar bir necha asrlar davomida tanga ishlab chiqarish va ulardan foydalanish usullarini kuzatish imkonini berdi. Dastlabki tamgalarni o‘z ichiga olgan eslatilgan namunalar topilgan. Ushbu noyob tarixiy manbani o‘rganish asosida qadimgi Choch tangalarining zarb qilingan sanasini aniqlash mumkin bo‘ldi.

**Kalit so‘zlar:** Tanga, Choch, Toshkent vohasi, zarbxona, Agrippa I, Hasmoniylar, eslatma, shtamp, pul munosabatlari, vazn.

## ANCIENT COINS IN CHACH

**Abstract.** The origins of monetary relations in Chach have been variously dated. Archaeologists have yet to find the earliest coins discovered during excavations.They are primarily known as those found on the surface of the settlement, in the cultivated fields surrounding Kanka, and in the gullies of irrigation ditches in the vicinity of the settlement. Therefore, the Kendyk hoard, which included a dated coin, is of great historical significance. This is a coin of King Agrippa I of Judea. Numismatic research has allowed us to trace the coin's production techniques and use over several centuries. Reminted specimens bearing early tamgas have been identified. Based on the study of this unique historical source, it was possible to establish the minting date of ancient Chach coins.

**Keywords:** Coin, Chach, Tashkent oasis, mint, Agrippa I, Hasmoneans, recoinage, die, monetary relations, weight.

**ВВЕДЕНИЕ**

Роль нумизматических материалов как исторических источников чрезвычайно актуальна. В этой связи особое значение приобретает изучение и анализ новых находок монет и кладов. В этом плане особенно информативны находки с городища Канка и его окрестностей. Чрезвычайно интересна и важна для датировки древнечачских монет находка клада из Кендык-тепа Ташкентской области. Этот клад был найден на Кендык тепа Ю.Ф.Буряковым. В Государственный музей истории Узбекистана АН РУз он поступил в 2010 году от Т.С. Эрназаровой. Предварительное изучение клада показало наличие разных типов и групп монет чачаского чекана. Классификация монет клада показала, что в его составе монеты не только разных типов и групп, но это хронологически разные монеты.

**Из истории изучения**

Монеты Чача были исследованы М.Е. Массоном. Он выявляет наиболее раннюю их группу и датирует её III – началом IV в. н.э. Предложенная М.Е. Массоном датировка ранней группы чачских монет строилась на идентичности тамг на монетах и на сасанидском блюде с изображением Варахрана I [Массон М.Е, 1953,с. 27–28].

В.А. Лившиц считал возможным отнести начало денежного обращения в Чаче к II–III вв. н.э. (Буряков, 1982,С. 117–118; устные консультации В.А. Лившица). В.М. Массон связывал время начала чеканки монет с тамгой в Чаче с периодом политического влияния Кангюя. А тамги на монетах Чача, Хорезма, Бухарского Согда считал близкими друг другу [Массон В.М., 1966, с. 80].

Э.В. Ртвеладзе принял датировку М.Е.Массона и В.А. Лившица [Rtveladze, 1997/98, С. 328 – 327]. А.А. Мусакаевой предложена дата более раннего чекана по знакам палеографии чачских легенд [Мусакаева, 2009,С.143–151].

**Описание и анализ исследуемого материала**

Находка нового Кендыкского клада позволяет по-новому взглянуть на появление первых монет Чача. В статье представлен анализ монетного состава клада и новые аналогии по датировке первых монет клада.

Чач – историческая область, охватывала Ташкентский оазис, В древности известна по данным китайских источников как Юени, Ши. Вопрос о начале чеканки монет в Чаче вызывал споры исследователей, большая их часть датировала появление первых монет Чача пределами III в. н.э. Исследование Кендыкского клада позволило на основании нумизматических данных – датированной монеты Агриппы I утвердить дату начала чеканки первых монет в Чаче. Приведём описание наиболее значимых с точки зрения информативности монет из Кендыкского клада.

Наиболее ранней монетой клада является прута – медная монета Иудеи чекан Иерусалима царя Агриппы I из династии Хасмонеев, выпущенная в 41–44 гг. н.э., а еще точнее выпущенная в 6-ой год его правления – в 41/42 г. н.э. На лицевой стороне монеты изображение царского зонтика/балдахина с бахромой. Вокруг него легенда знаками латинского письма, где просматривается титул, тогда как имя стерто: «BACIΛEWC [AГPIΠA]». На оборотной стороне изображены три колоса ячменя между двумя листьями, дата передана знаками: «L ϛ», означающими 6-й год правления царя – 41/42 н.э. КП, Н-547. Вес 2.320 г. Диаметр 16-17 мм. Медь. Соотношение осей – 12 часов.

Необычайно интересна символика изображений на этой монете. На монетах Агриппы I изображены символы, объединяющие иудейские символы и символы эллинизма. Знаки легенды и она сама характерны для эллинистических чеканов. Три колоса знак плодородия и процветания. Этот традиционный символ Иудеи, знак изобилия, связанный с еврейскими праздниками. Зонтик или балдахин с бахромой символизирует верховную, царскую власть и

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 6 Issue: 02 | 2026
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

божественное покровительство. Предполагают, что он мог символизировать переносной трон – скинию. Скиния царский передвижной шатёр, царская переносная палатка. Его сравнивают с переносным святилищем бога, скинию изготовили израильтяне во время скитаний по пустыне. Таким образом, этот зонтик определённо был знаком царского величия. Заказывая на своих монетах изображения трех колосьев и зонтика-балдахина, царь Агриппа I предполагал, что это укрепит его царскую власть, что он управляет Иудеей с божественного одобрения.

Прута это медная монета малого достоинства, которая чеканилась династией Хасмонеев ( IIв. до н.э. – I в.н.э.). Агриппа I происходил из этой династии. Одна медная прута приравнивалась к чистому серебру весом 0,025 граммов. Столько же весило и ячменное зерно. Известно, что изначально во всех древнейших системах веса за минимальный вес принимали вес одного или половины зерен горчицы, ячменя, пшеницы или риса.

**Техника изготовления**

Эта необычная для монет, находимых в Средней Азии, находка была в составе Кендыкского клада и именно эта монета Агриппы I и стала датирующей начало чеканки древнечачских монет 41/42 годами нашей эры. Такая находка из Иудеи на первый взгляд кажется невероятной для клада чачских монет с точки зрения географии. Однако анализ клада показал, что ничего странного в том, что в этом кладе присутствует эта монета Иудеи, нет. При внимательном рассмотрении оказалось, что в составе Кендыкского клада есть монеты синхронные монете Агриппы I. Проведенный классификационный анализ позволил выделить из клада самые ранние монеты Чача и те, которые были выпущены намного позже.

Причём, самые ранние монеты имеют с одной стороны раннюю древнечачскую тамгу, а на другой стороне портрет правителя другого времени. Причём, на этих монетах представлены портреты разных правителей. Края монет имеют чёткие срезы, свидетельствующие о намеренной обрезке уже намного раньше выпущенных монет. Такое явление можно объяснить тем, что более ранние древнечачские монеты не изымались из обращения, а продолжали функционировать в перечеканенном виде. Но часть монет оказались перечеканенными только с одной стороны, и на этих монетах довольно ясно видна ранняя древнечачская тамга. Подтверждением этому являются срезы краев монет.

Обрезали более ранние монеты по нескольким причинам:

1. увеличение объёмов монетной массы в связи с расширением круга торговых операций, когда розничная, внутренняя торговля развивается и процветает, затрагивает все слои общества.
2. нехватка меди, в связи с новыми потребностями – все увеличивающимся количеством выпускаемых монет.
3. Экономия металла в этих условиях.

Поэтому более ранние монеты, хотя их вес был выше не изымали из обращения, а подгоняли под весовые нормы более позднего времени. Эта процедуру проводили путем подрезки ранних монет с обломавшимися от времени краями, которые подравнивали срезая края. Потом эти ранние монеты перечеканивали новыми штемпелями поверх старых изображений. И уже эти «новые» монеты с портретами разных правителей пускали в обращение. Обьём производства становится настолько огромным, что в спешке отдельные экземпляры успевают перечеканить только с одной стороны с лицевой, а оборотная сторона осталась той же – с древнечачской тамгой. По этим экземплярам более ранних перечеканенных с одной стороны монет удалось понять, что монета Иудеи, отчеканенная в Иерусалиме при царе Агриппе I, синхронна этим ранним экземплярам.

**Abstract:** This article analyzes the complex relationship between the two main pillars of knowledge in the Central Asian philosophical tradition: rational-logical observation (discourse) and direct inner understanding (intuition). The study compares the deductive method of the Peripatetic school and the intuitive views of Ishraqiism and Sufism. The article substantiates the epistemological unity of the concepts of "mind" and "heart" in the context of modern cognitive sciences.
**Keywords:** Intuition, discourse, epistemology, Central Asian philosophy, Sufism, Peripateticism, Ishraqiism, Ibn Sina, Imam Ghazali, insight, rationalism.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 6 Issue: 02 | 2026
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

**KIRISH**

Insoniyat tarixida bilimning kelib chiqishi va haqiqiyligi masalasi doimo ikki yo‘nalish: qat’iy mantiqiy izchillik (diskurs) va to‘satdan keladigan ichki yorishish (intuitsiya) atrofida shakllangan. G‘arb falsafasida bu ikki tushuncha ko‘pincha bir-biriga qarama-qarshi qo‘yilsa-da, Markaziy Osiyo falsafiy epistemologiyasida ularning sintezi kuzatiladi.

Markaziy Osiyo mutafakkirlari uchun bilish shunchaki ma’lumot to‘plash emas, balki borliqning mohiyatiga yetish jarayonidir. Bugungi kunda sun’iy intellekt va algoritmik fikrlash davrida intuitsiyaning o‘rnini ilmiy jihatdan qayta anglash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

**MATERIALLAR VA USULLAR**

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi: Qiyosiy-tarixiy tahlil orqali Ibn Sinoning "al-Ishorot va-t-tanbihot" va G‘azzoliyning "Munqiz minad-dalol" asarlaridagi bilish nazariyalari oid qarashlari qiyoslandi. Germenevtik metod yordamida Markaziy Osiyo mutafakkirlarining asarlaridan "aql","hads" va "kashf" terminlarining metafizik ma’nolari ochib berildi. Dialektik yondashuv orqali diskursiv bilimning chegarasi va intuitsiyaning boshlanish nuqtasi o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘rganildi.

Markaziy Osiyo peripatetizmi vakillari (Forobiy, Ibn Sino) fikricha, diskurs - nazariy aqlning bosqichma-bosqich harakatidir. Bu yerda bilim *sillogizm* (mantiqiy xulosa) orqali hosil bo‘ladi.

**Ibn Sino konsepsiyasida** inson aqli bir necha darajaga (hissiy, majmuiy, faol aql) ajratiladi. Diskurs insonni haqiqat ostonasiga olib keluvchi vosita sifatida talqin etiladi. Ibn Sino nafaqat mantiqchi, balki metafizik sifatida intuitsiyani "g‘ayritabiiy tasodif" emas, balki intellektual qobiliyatning eng oliy nuqtasi deb bilgan. Uning epistemologiyasida "hads" tushunchasi quyidagi uchta muhim jihat bilan xarakterlanadi:

An’anaviy mantiqda xulosa chiqarish uchun inson kichik va katta pog‘onalarni bosib o‘tishi kerak. Masalan: a - v ga teng, v - s ga teng, demak a - s ga teng. Ibn Sino ta’kidlaydi, "hads" sohibi bo‘lgan inson "v" ni (o‘rta hadni) qidirib o‘tirmaydi, u ong ostida lahza ichida paydo bo‘ladi. Bu - vaqtni tejovchi va haqiqatni bevosita "ko‘ruvchi" idrokdir.

Muqaddas aql (al-aql al-qudsiy): Ibn Sino intuitsiyani insonning "faol aql" (active intellect) bilan bog‘lanish darajasiga ko‘ra darajalaydi. Ba’zi insonlarda bu aloqa shu qadar kuchliki, ular ta’lim olmasdan turib ham metafizik haqiqatlarni anglaydilar. Buni Ibn Sino "nur ustiga nur" deb ataydi.

**Intuitsiya (Hads) – Ilohiy uchqun**

Sharq epistemologiyasida intuitsiya G‘arbdagi "sezish" tushunchasidan farq qilib, u **"hads"** deb ataladi. **Hads** - o‘rta bo‘g‘inni (mantiqiy isbotni) qidirmasdan, xulosani to‘satdan anglash qobiliyati. Ibn Sino bu jarayonni "muqaddas aql" (al-aql al-qudsiy) darajasi deb ataydi. I.Sino ta’kidlashicha, intuitsiya osmondan tushmaydi. U ko‘pincha muntazam fikrlash, kuzatish va poklanish natijasida "ongning porlashi" sifatida yuzaga chiqadi. Ya’ni, diskurs - zamin, intuitsiya esa hosildir.

Ibn Sino "hads"ni xulosa va natijaning ongda to‘satdan, vaqt sarflamasdan paydo bo‘lishi deb ta’riflaydi. Zamonaviy psixologiyada (masalan, Getshtalt psixologiyasida) “insayt” - muammoning yechimini to‘satdan, ma’lum bir "fikrlash portlashi" orqali anglashdir.

Ibn Sinoda intuitsiya talqini: ong mantiqiy zanjirning "o‘rta had"ini (illatni) izlab o‘tirmaydi, balki uni bevosita "ko‘radi".

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 6 Issue: 02 | 2026
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Zamonaviy ilmda intuitsiya talqini: bu jarayon kognitiv qayta qurilish (restructuring) deb ataladi, ya’ni ong ma’lumotlarni yangi tizimda bir lahzada birlashtiradi.

**Sufiylikdagi intuitsiya ya’ni "kashf" talqinida** intuitsiya subyekt va obyekt oʻrtasidagi pardaning koʻtarilishidir. Bilim oʻrganilmaydi, balki "yuqadi" yoki "beriladi". Tasavvuf gnoseologiyasida “kashf” - subyekt va obyekt (mutloq haqiqat) oʻrtasidagi ontologik pardalarning olib tashlanishi natijasida hosil boʻladigan metafizik intuitsiyadir. Bu jarayonda bilim diskursiv (mantiqiy-ketma-ket) oʻrganish natijasi emas, balki qalbning bevosita "nur" bilan yoʻgʻrilishi orqali sodir boʻladi. Bilimning "yuqishi" (ladunniy ilm)- bu jarayon fenomen falsafada "ilhomiy bilim" deb ataladi. Bunda bilim tashqi manbalardan (kitob, muallim) emas, balki "faol aql" yoki ilohiy manbadan bevosita qalbga quyilishi tushuniladi. “Kashf” - intellektual izlanishning yakuni emas, balki qalbning ruhiy transformatsiyasi natijasida haqiqatning subyektda "akslashishi"dir.

**Gʻazzoliy fenomeni:** Imom Gʻazzoliyning bilish nazariyasidagi fundamental hissasi shundaki, u diskursiv fanlarning (mantiq ва falsafa) gnoseologik chegaralarini qat’iy belgilab berdi. Gʻazzoliy oʻzining "Munqiz minad-dalol" asarida intellektual inqirozdan chiqish yoʻli sifatida "Gʻazzoliy muammosi" deb atash mumkin boʻlgan konsepsiyani ilgari suradi. Imom Gʻazzoliy diskursiv fanlarning (mantiq, falsafa) chegarasini koʻrsatib berdi. Imom Gʻazzoliyning fikricha, intuitsiya (iymon nuri) inson aqli yetmagan joyda yetakchilik qiladi, lekin aqlning mantiqiy qonuniyatlarini buzmaydi.

Gʻazzoliy diskursiv tafakkurni (aql) inkor etmaydi; aksincha, u mantiqni barcha ilmlar uchun zaruriy tahlil quroli deb hisoblaydi. Biroq, uning fikricha, mantiqiy-diskursiv usul faqat moddiy va cheklangan olam doirasidagina samaralidir. Metafizik haqiqatlar, mavjudlikning mohiyati va transsendent masalalarga kelganda, ratsional aql oʻzining metodologik "impas"iga (tuyqunigа) duch keladi.

Gʻazzoliy intuitsiyani ("iymon nuri" yoki "nuru-l-qalb") inson aqli yetmagan hududlarda boshlanadigan "yuqori darajali kognitiv kanal" sifatida ta’riflaydi. Bu iarayonda muhim bir ilmiy nuqta mavjud. Gʻazzoliy talqinida intuitsiya aqlga zid kelmaydi, balki uni toʻldiradi. Iymon nuri aqlning mantiqiy qonuniyatlarini buzmaydi, balki aql qamray olmagan "trans-ratsional" hududlarda yetakchilik qiladi.

Imom Gʻazzoliy ta’kidlashicha, agar inson aqli subyekt va obyekt oʻrtasidagi masofani saqlagan holda isbot qidirsa, intuitsiya bu masofani bekor qilib, haqiqatni bevosita "yashab oʻtish" (tajriba) orqali taqdim etadi.

**Zamonaviy ilmiy tahlil.** Zamonaviy ilm-fanda ushbu paradoks "cheklangan ratsionallik" (bounded rationality) va "metakognitsiya" tushunchalari bilan hamohangdir. Gʻazzoliy ta’kidlaganidek, intuitsiya aqlning "davomi" boʻlib, u mantiqiy algoritm toʻxtagan nuqtada sintetik xulosa yasash qobiliyatini namoyon etadi. Shunday qilib, Gʻazzoliy epitemologiyasi diskursiv mantiqni "tushuntirish" (explanation) uchun, intuitiv nurni esa "anglash" (understanding) uchun mas’ul deb belgilaydi. Bu yondashuv fanda ratsionalizm va irrasionalizm oʻrtasidagi sun’iy devorni yiqitib, ularning organik birligini – “trans-ratsionalizm” modelini asoslab beradi.

**Zamonaviy kognitivistika bilan bogʻliqlik:** Bugungi neyrofiziologiyada chap yarim shar (diskurs) va oʻng yarim shar (intuitsiya) funksional birligi Markaziy Osiyolik mutafakkirlarning "aql va qalb" birligi haqidagi gʻoyalarini ilmiy jihatdan tasdiqlamoqda.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 6 Issue: 02 | 2026
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Markaziy Osiyo falsafasida diskurs va intuitsiya bir-birini inkor etmaydi. Aksincha, diskurs - intuitsiya uchun tayyorgarlik bosqichidir. Ibn Sino ta’limotida kuchli diskursiv tayyorgarlikka ega bo‘lgan shaxsgina yuqori intuitiv qobiliyatga ega bo‘ladi. Ya’ni, aql charxlanmasa, intuitsiya "adashuv"ga aylanishi mumkin.

**Markaziy Osiyo mutafakkirlarining integral bilish modeli.**Tadqiqot davomida Markaziy Osiyo falsafiy tafakkuri, xususan, peripatetizm va ishroqiylik (illuminationism) an’analari o‘rtasidagi gnoseologik farqlar va mutanosibliklar o‘rganildi. To‘plangan ma’lumotlar asosida sharqona bilish modelining diskursiv (bahs) va intuitiv (ishroq) jihatlarini qiyosiy tahlil qilish imkonini beruvchi integral model ishlab chiqildi.

**Metodologik asoslar.** Diskursiv bilish, asosan, mantiqiy sillogizmlar, deduktiv isbotlar va tahliliy metodlarga tayanadi. Bu jarayonda aql bosqichma-bosqich harakat qilib, ma’lum xulosalardan noma’lum haqiqatlarga qarab boradi. Aksincha, intuitiv bilish (ishroq) metodologiyasi bevosita mushohada, ma’naviy zavq va "kashf" (spiritual unveiling) hodisasiga asoslanadi. Bu yerda subyekt va obyekt o‘rtasidagi mantiqiy masofa yo‘qolib, haqiqat bevosita qalb ko‘zi bilan idrok etiladi.

**Bilim manbalarining differensial tahlili.** O‘rganilgan modelga ko‘ra, diskursiv bilishning asosiy manbai tashqi omillar: tizimli ta’lim, o‘rganish va tajribadir. Bu bilim "kasbiy" (egallangan) xarakterga ega. Intuitiv bilish esa ichki transformatsiya natijasidir; uning manbai “ilohiy fayz” hamda inson ruhiyatining axloqiy va estetik jihatdan poklanishidir. Bu yerda bilim o‘rganilmaydi, balki "quyiladi" yoki "aks etadi".

**Vaqt.** Epistemologik jarayonning vaqt ko‘rsatkichi tahlil qilinganda, diskursiv tafakkurning vaqtga bog‘liqligi va uning chiziqli (linear) tabiati ayon bo‘ladi. Mantiqiy isbot ma’lum vaqt davomida shakllanadi. Biroq, intuitiv idrok  oniy xarakterga ega bo‘lib, u vaqt o‘lchamlaridan tashqarida sodir bo‘ladi. Bu holat zamonaviy psixologiyadagi "insayt" fenomeniga yaqin bo‘lib, haqiqatning bir lahzada ongda yashin kabi porlashini ifodalaydi.

**Bilishning yakuniy natijasi:** Bilish jarayonlarining yakuniy maqsadi va natijasi turlicha namoyon bo‘ladi: **“Ilm-ul-yaqin”:** Diskursiv yo‘l bilan erishilgan ishonch darajasi bo‘lib, u mantiqiy isbotlar orqali shakllanadi. Bunda inson haqiqat haqida ma’lumotga ega bo‘ladi. **“Haqq-ul-yaqin”:** Intuitiv bilishning cho‘qqisi bo‘lib, bunda biluvchi-inson haqiqat haqida shunchaki ma’lumotga ega bo‘lmaydi, balki haqiqatning o‘ziga aylanadi (fano va baqo holati). Bu subyektiv tajribaning obyektiv reallik bilan to‘liq birlashishidir.

**XULOSA**

Markaziy Osiyo mutafakkirlarining integral bilish modeli mantiqiy diskurs va intuitiv ishroqni bir-biriga qarama-qarshi qo‘ymaydi, balki ularni inson ma’naviy-intellektual kamolotining ikki zaruriy bosqichi sifatida baholaydi. Diskursiv bilim - poydevor, intuitiv bilim esa, ushbu binoning cho‘qqisi va haqiqiy maqsadi sifatida namoyon bo‘ladi. Markaziy Osiyo falsafiy epistemologiyasida diskurs va intuitsiya mutanosibligi "butunlik" prinsipiga asoslanadi. Diskurs bizga borliqning tashqi, qonuniyatli tomonlarini ochib bersa, intuitsiya uning ichki, mohiyatli va muqaddas jihatlarini namoyon etadi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Markaziy Osiyo mutafakkirlarining bilish nazariyasi faqatgina "quruq aql"ga yoki "ko‘r-ko‘rona his"ga tayanmaydi. Ular insonni koinotning kichraytirilgan nusxasi sifatida ko‘rib, uning ikkita "ko‘zi" - “aql: va qalbni birdek ishlatishga chaqiradilar. Bu konsepsiya hozirgi davrdagi texnokratik inqirozlardan chiqish uchun ma’naviy-gnoseologik asos bo‘lib xizmat qila oladi.

**References**

1. Ibn Sino. Al-Ishorot va-t-tanbihot– Toshkent: "Fan", 2010.
2. Ибн Сино. Китоб аш-Шифо. – Тошкент: "Фан", 1971.
3. Abu Homid G‘azzoliy. Ihyou ulumid-din – Toshkent: "Mo‘minlar", 2021.
4. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: "Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti", 1993.
5. Kounios, J., & Beeman, M. The Aha! Moment: The Cognitive Neuroscience of Insight. – Current Directions in Psychological Science, 2009.
6. Хайруллаев М. М. Ўрта Осиёда уйғониш даври фалсафаси. – Тошкент: "Фан", 1971.
7. Муҳаммадхўжаев А. Гносеология суфизма. – Душанбе: "Дониш", 1990.
8. Corbin, Henry. Avicenna and the Visionary Recital. – Princeton University Press, 1988.
9. Gutierrez, R. Intuition in Islamic Philosophy: Avicenna and Suhrawardi. – Journal of Islamic Studies, 2015.
10. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тасаввуф ҳақида тасаввур. – Тошкент: "Hilol-Nashr", 2019.
11. Rock, D. Your Brain at Work: Strategies for Overcoming Distraction and Regaining Focus. – Harper Business, 2009.

*International Journal of Intellectual and Cultural Heritage*
*Volume: 6 Issue: 02 | 2025*
*ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314*
*http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich*

**Barno Alijon qizi Kurbonova**

**ORCID ID:** https://orcid.org/0009-0001-6428-1978
Samarkand State University of Architecture and Civil Engineering,
140100, Samarkand, Uzbekistan

*Received 4th February 2026, Accepted 10th April 2026, Online 30th June 2026*

# SAMARKAND AS A LABORATORY FOR SUSTAINABLE WATER-LANDSCAPE DESIGN: PROBLEMS AND PROSPECTS

**Abstract:** This study investigates the transformation and ecological potential of traditional water-landscape systems in historic cities of Uzbekistan, focusing on Samarkand as a representative case. The research addresses the impacts of urbanization and climate change on historically formed environmental infrastructures that ensured microclimatic regulation and socio-cultural continuity.The aim is to develop a framework for ecological optimization through the regeneration of traditional elements such as irrigation canals (aryks), hauzes, and green corridors. The methodology integrates comparative-historical analysis, GIS-based spatial assessment, and environmental evaluation.

The results reveal that the fragmentation of these systems leads to reduced urban resilience and environmental degradation. The study proposes a "green-water framework" based on Water-Sensitive Urban Design (WSUD) principles. The scientific contribution lies in integrating heritage-based knowledge with contemporary sustainable urban planning for arid regions.

**Keywords:** Historical cities of Uzbekistan, urbanization pressure, sustainable development, urban heritage, traditional landscape, water systems, irrigation ditches, khauzes, green spaces.

# САМАРКАНД КАК ЛАБОРАТОРИЯ УСТОЙЧИВОГО ВОДНО-ЛАНДШАФТНОГО ПРОЕКТИРОВАНИЯ: ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ

**Аннотация:** В данном исследовании изучается трансформация и экологический потенциал традиционных водно-ландшафтных систем в исторических городах Узбекистана, на примере Самарканда. Исследование рассматривает влияние урбанизации и изменения климата на исторически сложившуюся экологическую инфраструктуру, обеспечивавшую регулирование микроклимата и социально-культурную преемственность.Цель исследования – разработка концепции экологической оптимизации посредством восстановления традиционных элементов, таких как ирригационные каналы (арики), хаузы и зеленые коридоры. Методология включает сравнительно-исторический анализ, пространственную оценку на основе GIS и экологическую оценку.

Результаты показывают, что фрагментация этих систем приводит к снижению устойчивости городов и деградации окружающей среды. В исследовании предлагается «зелено-водная концепция», основанная на принципах водосберегающего городского планирования (WSUD). Научный вклад заключается в интеграции знаний, основанных на культурном наследии, с современным устойчивым городским планированием для засушливых регионов.

**Ключевые слова:** Исторические города Узбекистана, урбанизация, устойчивое развитие, городское наследие, традиционный ландшафт, водные системы, ирригационные каналы, хаузы, зеленые зоны.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 6 Issue: 02 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

# САМАРҚАНД БАРҚАРОР СУВ-ЛАНДШАФТ ДИЗАЙНИ ЛАБОРАТОРИЯСИ СИФАТИДА: МУАММОЛАР ВА ИСТИҚБОЛЛАР

**Аннотация:** Ушбу тадқиқот Ўзбекистоннинг тарихий шаҳарларидаги анъанавий сув-ландшафт тизимларининг ўзгариши ва экологик салоҳиятини ўрганади, бунда Самарқандга эътибор қаратилади. Тадқиқотда урбанизация ва иқлим ўзгаришининг микроиқлимни тартибга солиш ва ижтимоий-маданий узлуксизликни таъминлайдиган тарихий шаклланган экологик инфратузилмаларга таъсири кўриб чиқилади. Мақсад суғориш каналлари (ариқлар), ҳовузлар ва яшил йўлаклар каби анъанавий элементларни қайта тиклаш орқали экологик оптималлаштириш учун асос яратишдир. Методология қиёсий-тарихий таҳлил, GIS асосидаги фазовий баҳолаш ва экологик баҳолашни бирлаштиради.

Натижалар шуни кўрсатадики, ушбу тизимларнинг парчаланиши шаҳарларнинг барқарорлигининг пасайишига ва атроф-муҳитнинг ёмонлашишига олиб келади. Тадқиқот сувга сезгир шаҳар дизайни (WSUD). тамойилларига асосланган “яшил сув доираси”ни таклиф қилади. Илмий ҳисса меросга асосланган билимларни қурғоқчил минтақалар учун замонавий барқарор шаҳарсозлик билан бирлаштиришда ётади.

**Калит сўзлар:** Ўзбекистоннинг тарихий шаҳарлари, урбанизация босими, барқарор ривожланиш, шаҳар мероси, анъанавий ландшафт, сув тизимлари, суғориш ариқлари, ҳовузлар, яшил майдонлар.

## Introduction

The current state of Uzbekistan's historic cities is characterized by a high degree of urbanization pressure, accompanied by the degradation of the surrounding climatic, cultural, and religious features, reflecting the persistent interconnection between the natural landscape and the sociocultural structure. Uzbekistan's historic cities—Samarkand, Bukhara, Khiva, Shakhrisabz, Kokand, and others—are unique bearers of the Eastern urban planning tradition, reflecting the profound connection between architecture, nature, and climate. These cities evolved over centuries, taking into account the natural conditions of the arid and sharply continental zone. Therefore, green spaces, water systems (aryks, Khanband reservoirs), shady streets, and gardens played a crucial role in their structure, ensuring comfort, sustainability, and social integrity of the urban environment.

One of the most important components of the sustainable development of such cities are traditional recreational and landscape elements: irrigation ditches, khauzes, shady courtyards, orchards and ornamental gardens, and green corridors, which provided not only microclimatic comfort but also cultural and aesthetic enrichment. However, today, these elements are being displaced from the urban landscape as a result of chaotic development, uncoordinated renovations, and the lack of mechanisms for regenerating the historical ecosystem. To address these challenges, the study applies the following research methodology.

## Research Methodology

This study employs an interdisciplinary and mixed-methods approach integrating urban planning, landscape ecology, and historical analysis to investigate ecological optimization in historic urban environments, using Samarkand as a case study.

The research is structured in three stages:

1. Comparative-historical analysis of traditional and contemporary water-landscape systems;
2. Spatial analysis based on GIS mapping of key layers (hydrological networks, green infrastructure, and urban fabric);
3. Development of applied regeneration strategies.

The empirical base includes archival sources, historical maps, GIS data, field observations, and regulatory documents. Special focus is given to traditional elements such as irrigation canals (aryks), hauzes, and green corridors as components of the urban ecological framework.

The methodological toolkit combines comparative-historical, morphological, spatial (GIS-based), and environmental analysis, allowing assessment of microclimatic performance, water balance, and ecological connectivity.

A case study approach enables in-depth evaluation of the transformation and current state of water-landscape systems under urbanization pressure. Analytical modeling and diagrammatic visualization are used to identify ecological corridors and propose a “green-water framework” based on Water-Sensitive Urban Design (WSUD) principles.

The validity of results is ensured through cross-analysis of historical and spatial data, field verification, and alignment with international sustainable urbanism practices.

The proposed methodology provides a scientifically grounded framework for integrating traditional water systems into contemporary urban planning, enhancing environmental resilience, and preserving

**Samarkand as a unique water-landscape and cultural phenomenon.**

Samarkand is one of the oldest cities in the world, with a history spanning over 2,750 years. Situated at the crossroads of the Silk Road trade routes, it has been an important center of civilization, culture, science, and crafts for centuries. Samarkand's uniqueness lies not only in its architectural monuments but also in the unique combination of natural conditions, water resources, and cultural heritage that have shaped the city's distinctive appearance.

Since ancient times, Samarkand's water supply has relied on a complex system of canals (aryks) originating from the Zeravshan River. These systems provided not only for the population's daily needs but also for the irrigation of agricultural lands.

Water also had a sacred significance: public spaces, markets, mosques, and madrassas were formed around springs and reservoirs. The competent management of water resources testifies to the high level of engineering and environmental awareness of the people of Samarkand.

Samarkand's uniqueness lies in the harmonious interaction between the natural environment and human activity. The aquatic landscape system did not destroy nature but rather complemented it, creating a sustainable model of urban life.

The city has become an example of how, in difficult climatic conditions, it is possible to create a developed civilization based on respect for natural resources and cultural traditions.

Samarkand is rightfully considered a unique water-landscape and cultural phenomenon. Its history, architecture, water supply system, and natural environment form a unified whole, reflecting a high level of social development. Today, Samarkand is not only a monument to the past but also a living example of the sustainable interaction of man and nature, of great significance to world culture.

**Hydrological structure of the territory (rivers, ditches)**

The main water source of the Samarkand oasis is the Zeravshan River. It originates in the Pamir Mountains and flows through the Samarkand region. Although the river currently does not reach the Aral Sea, historically the Zeravshan provided water to vast territories, creating favorable conditions for agriculture and urban life.

The waters of the Zeravshan were used for drinking water, irrigation of fields, orchards, and vineyards. The river played a vital role in shaping the landscape, contributing to the creation of fertile alluvial soils and the development of oasis culture.

**Ditches and irrigation canals**

Of particular importance in Samarkand's hydrological system was the extensive network of irrigation ditches and canals. These artificial waterways distributed the waters of the Zeravshan River

throughout the city and agricultural lands. The ditches passed through residential areas, markets, and public spaces, providing the population with water and improving the microclimate.

The irrigation ditch system was highly sophisticated. It allowed for the efficient use of limited water resources, prevented water loss, and supported sustainable urban development. Many elements of these systems remain in use today.

**Groundwater**

Groundwater was also an important component of Samarkand's hydrological structure. It was formed through the infiltration of river water and precipitation. In areas with close groundwater levels, wells and karezes were constructed to provide drinking water to the population during periods of low surface water levels.

The use of groundwater increased the sustainability of the city's water supply and reduced its dependence on seasonal fluctuations in river flows. This demonstrates a deep understanding of natural processes and the ability to adapt to the region's climatic conditions.

Thus, the hydrological structure of Samarkand's territory is a complex and interconnected system of rivers, irrigation ditches, and groundwater. Their rational use became the foundation for the city's development, the formation of its cultural landscape, and its sustainable existence over the centuries.

| **Component** | **Traditional System** | **Current State** | **Identified Problems** | **Proposed Strategy (WSUD-based)** |
|---|---|---|---|---|
| *Irrigation canals (aryks)* | Dense network integrated into urban fabric; multifunctional (irrigation + cooling) | Partially preserved, often degraded or covered | Loss of function, pollution, fragmentation | Restoration and integration into eco-corridors |
| *Hauzes (water reservoirs)* | Social and climatic centers of public space | Mostly lost or transformed | Loss of social function and microclimate regulation | Reconstruction as public water nodes |
| *Green corridors* | Continuous green-water system | Fragmented and reduced | Urban heat, lack of connectivity | Creation of green-water framework |
| *Groundwater systems (karez)* | Supplementary decentralized water supply | Almost non-functional | Neglect and loss of traditional knowledge | Selective revival and integration |
| *Public spaces with water* | Centers of social interaction | Reduced role of water elements | Decrease in comfort and identity | WSUD-based public space design |

*Table 1. Transformation of Water-Landscape Systems in Samarkand*

**Historical water-landscape systems of Samarkand**

Zarafshan was a key factor in the emergence of Samarkand:

- provided drinking water,
- served as a source of irrigation,
- formed a green oasis in the desert surroundings.

Due to the seasonal nature of the runoff, there was a need for artificial regulation of the water.

**Canal system (ditches)**

In Samarkand, a ramified system of irrigation ditches developed:

- open canals distributed water throughout the neighborhoods,
- provided gardens, fields, craft zones,
- formed a unique urban landscape.

The ditches served not only a utilitarian function, but also a climate-regulating function—they cooled the air and increased humidity during the hot season.

**Structure of traditional irrigation networks**

Traditional irrigation systems were differentlocality, adaptability, and multifunctionality. They included:

- main canals that drain water from rivers;
- distribution ditches passing through city blocks;
- regulating structures (locks, dams, spillways);
- storage elements (houses, pools, ponds);
- underground water conduits (karezes, qanats).

This structure made it possible to take into account seasonal fluctuations in runoff and minimize water loss.

**Socio-cultural significance of irrigation networks**

Irrigation was not only a technical but also a social system. Water management was based on:

- collective responsibility,
- traditional water use standards,
- public control over the distribution of resources.

Water bodies (houses, canals) served:

- places of public gatherings,
- centers of neighborhood life,
- elements of the city's cultural identity.

Thus, irrigation networks strengthened social resilience and the interconnectedness between residents.

**Traditional irrigation networks in the context of a modern city**

In the face of climate change and urban growth, traditional irrigation principles are taking on new meaning:

- decentralized water supply,
- local accumulation of water,
- integration of water and greenery,
- participation of local communities in resource management.

Adapting and rethinking traditional systems can form the basis for sustainable urban development and environmental planning.

Traditional irrigation networks form the foundation of urban resilience, integrating ecological, social, and economic functions. Their centuries-old experience demonstrates that resilience is achieved not through large-scale technologies, but through harmonious interaction with natural processes and collaborative resource management.

**Public spaces and water features**

In public spaces, water served a socially organizing function. Houses, fountains, and ponds:

- served as places for meeting and relaxation,
- contributed to the formation of public life,
- improved sanitary and hygienic conditions.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 6 Issue: 02 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

In hot climates, the availability of water:

- lowered the air temperature,
- increased the comfort of stay,
- stimulated the active use of space.

Thus, water enhanced the role of public spaces as hubs of urban communication. The interaction of water and architecture formed a holistic artistic image.

cultural landscape identity.

**Conclusions and recommendations**

Samarkand is one of the most ancient cities.

Central Asia, developed in an arid climate and limited water resources. Historically, the system of irrigation ditches, gardens, and ponds played a key role in urban ecology and social life. In the face of climate change, population growth, and urbanization, Samarkand can be viewed as a "laboratory" for testing sustainable water and landscape solutions.




*Figure 1. Key challenges affecting the water-landscape system in Samarkand*

**Sustainable Development Prospects**

1. Rehabilitation of traditional water systems. Adaptation of historical irrigation ditches to modern conditions using environmentally friendly technologies.
2. Integrating water into public spacesCreating parks, green corridors and water areas as elements of microclimate regulation.
3. Using Samarkand as a pilot siteThe city could become a model for other regions of Central Asia with similar climatic conditions.
4. Combining cultural heritage and innovationSustainable design based on traditional knowledge and modern principles of landscape architecture.

**Recommendations:**

- Implementation of Water-Sensitive Urban Design (WSUD) principles
- Use of rain gardens, bioswales and infiltration zones
- Developing an integrated waterscape management strategy

- Involvement of local communities and cultural heritage specialists
- Conducting scientific and design experiments in a "living laboratory" format

**Conclusion**

In conclusion, it should be noted that Samarkand represents a unique urban system among the historic cities of Central Asia, formed through the organic interplay of nature, water engineering, and architectural heritage. Currently, the pressures of urbanization, climate change, declining water resources, and landscape fragmentation pose serious threats to this integral ecosystem of Samarkand. Therefore, considering Samarkand as a "living laboratory" for engineering and environmental water and landscape design is a relevant scientific and practical approach not only at the local, but also at the regional and international levels.

**Firstly,** The analysis shows that in the historical urban environment, water-landscape elements (ditches, canals, ponds, shaded courtyards, gardens, and green corridors) served more than just decorative or utilitarian functions. They formed the fundamental "infrastructure framework" for the stability of the urban microclimate, sanitary and hygienic conditions, the system of social interactions, and cultural identity. Consequently, the current reduction or loss of these elements represents not just a problem of greenery, but the destruction of the city's overall architecture of sustainability.

**Secondly,** using Samarkand as an example, it is demonstrated that the seasonality of water resources has had a decisive influence on the development of urban development and landscape organization. Increased water volumes in the spring and increased water shortages in the summer historically determined the development of a network of canals, water storage structures, underground water systems, and distribution mechanisms. This experience remains relevant today, as climate change increases seasonal fluctuations in water resources, requiring the implementation of integrated models for managing the urban water environment.

**Thirdly,** the essence of the methodological approach proposed in the report lies not in opposing heritage preservation and environmental modernization, but in integrating them into a single system. The main methodological pillars of this approach are:

1. Rethinking and restoring traditional water-landscape networks – reconstruction of ditches, historical waterways, reservoirs and garden systems taking into account modern urban planning requirements;

2. The concept of eco-corridors is the formation of a continuous “green-water framework” that unites natural waterways, the lines of former city walls, gardens and the system of mahallas;

3. Water-Sensitive Urban Development (WSUD) tools – implementation of rain gardens, infiltration zones, bio-ponds, local mechanisms for water accumulation and reuse.

**Fourthly,** the key advantage of considering Samarkand as a "laboratory" is the replicability of this approach and its value as an exportable methodology. The water-landscape model developed for Samarkand can be adapted—taking into account climatic and cultural differences—to historic cities such as Bukhara, Khiva, Shakhrisabz, and Kokand. This creates the preconditions for the development of a national, and eventually regional, strategy for the sustainable urbanization of historic cities in Uzbekistan.

**Fifthly,** from the point of view of practical implementation, the proposed “living laboratory” model should be implemented in stages based on pilot territories:

— at the first stage — diagnostic mapping, inventory of water-landscape systems, analysis of seasonal water balance and risks;

— at the second stage — development of project scenarios at the level of eco-corridors and mahallas, creation of prototypes of WSUD elements;

— at the third stage — monitoring, social participation (mahalla), regulatory coordination and territorial scaling.

In conclusion, it can be argued that Samarkand's historical aquatic landscape heritage is not a monument to the past, but a knowledge system working for the future. By viewing the city as a laboratory for engineering and environmental aquatic landscape design, we simultaneously achieve three goals:

1. We preserve the historical environment and cultural identity;
2. We are creating a sustainable urban environment adapted to climate risks;
3. We are developing a scientifically based, practically testable universal model of solutions for arid territories.

Thus, for the international scientific community, Samarkand represents a significant research platform, demonstrating the possibility of rethinking sustainable urban development based on the harmonious interaction of nature and culture. Collaboration, joint research, and pilot projects in this area have the potential to take Samarkand to a new level—not only as a historical heritage center but also as a platform for sustainable urban innovation.

## LITERATURE REVIEW

1. Beatley T. Green Urbanism: Learning from European Cities. Washington, DC: Island Press, 2012.
2. Fletcher R., et al. Adaptive Heritage Reuse and Sustainable Urban Development. London: Routledge, 2019.
3. UNESCO Historic Urban Landscape: Recommendations and Guidelines.Paris: UNESCO Publishing, 2011. https://whc.unesco.org/en/activities/638/
4. Brown R., Keath N., Wong T. Urban Water Management in Cities: Historical, Current and Future Regimes. Water Science & Technology, 2009. https://doi.org/10.2166/wst.2009.029
5. Likhacheva E. A. Historical cities and sustainable development. Moscow: URSS, 2016.
6. Lavrov V. A. Urban development culture of Central Asia. Moscow: Nauka, 1982.
7. Rakhmatullaev Kh. A. Historical cities of Uzbekistan: problems of conservation and development. Tashkent: Fan, 2009.
8. Yusupov Sh. R. Traditional forms of water use in the cities of Uzbekistan. Tashkent: Architecture and Urban Development, 2018.
9. Ahern, J. (2011). From fail-safe to safe-to-fail: Sustainability and resilience in the new urban world. Landscape and Urban Planning, 100(4), 341–343.
10. Angelakis, A. N., & Snyder, S. A. (2015). Wastewater treatment and reuse: Past, present, and future.
11. Everard, M., & McInnes, R. J. (2013). Systemic solutions for multi-benefit water and environmental management. Science of the Total Environment
12. Larsen, T. A., Hoffmann, S., Lüthi, C., Truffer, B., & Maurer, M. (2016). Emerging solutions to the water challenges of an urbanizing world.
13. Newman, P., & Jennings, I. (2008). Cities as sustainable ecosystems: Principles and practices. Washington, DC: Island Press.
14. Wong, T. H. F., & Brown, R. R. (2009). The water sensitive city: Principles for practice. Water Science & Technology.

*International Journal of Intellectual and Cultural Heritage*
*Volume: 6 Issue: 02 | 2026*
*ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314*
*http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich*

***Mamatqulov Dilmurod Mamadaliyevich***

*Samarqand davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi*
*E-mail: dilmurodmamakulov5@gmail.com*

*Received 4th February 2026, Accepted 10th April 2026, Online 30th June 2026*

# QADIMGI TURONZAMINDA XALQ BILAN MULOQOT TIZIMI – ILK DEMOKRATIK UNSUR SIFATIDA

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada qadimgi Turonzamin hududida shakllangan xalq bilan muloqot tizimi tahlil qilinadi va u ilk demokratik unsurlar sifatida baholanadi. Tadqiqotda tarixiy manbalar, arxeologik topilmalar, afsonaviy rivoyatlar hamda qadimiy yozma yodgorliklar asosida xalqqa murojaat, jamoatchilik fikrini eshitish va qarorlar qabul qilishda keng ommaning ishtirokini ta’minlovchi mexanizmlar yoritiladi. Qadimgi davrda urug‘-qabila yig‘inlari, xalq majlislari, oqsoqollar kengashi orqali amalga oshirilgan ijtimoiy-siyosiy muloqot shakllari tahlil qilinib, ularning demokratik asoslari ochib beriladi. Shuningdek, maqolada bu tizimlarning zamonaviy fuqarolik jamiyati institutlari bilan bog‘liqligi va tarixiy ildizlari o‘rganiladi. Turonzamin madaniyatidagi muloqot an’analari xalq hokimiyatining erta ko‘rinishlari sifatida baholanadi.

**Kalit so‘zlar:** Turonzamin, qadimgi muloqot tizimi, xalq bilan muloqot, demokratiya, xalq majlislari, oqsoqollar kengashi, fuqarolik jamiyati, tarixiy meros, ijtimoiy-siyosiy tizimlar, xalq boshqaruvi.

# СИСТЕМА ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ С НАРОДОМ В ДРЕВНЕМ ТУРАНЕ КАК РАННИЙ ДЕМОКРАТИЧЕСКИЙ ЭЛЕМЕНТ

**Аннотация:** В данной статье анализируется система общественного диалога, сформировавшаяся на территории древнего Турана, и рассматривается как ранняя форма проявления демократических элементов. В исследовании на основе исторических источников, археологических находок, мифологических преданий и древних письменных памятников освещаются механизмы обращения к народу, учета общественного мнения и обеспечения участия широких масс в процессе принятия решений. Проанализированы формы социально-политической коммуникации, реализуемые в древности через родо-племенные собрания, народные сходы и советы старейшин, раскрываются их демократические основы. Кроме того, в статье исследуется взаимосвязь данных систем с институтами современного гражданского общества и их исторические корни. Традиции общественного диалога в культуре Турана оцениваются как ранние формы народовластия.

**Ключевые слова:** Туран, древняя система коммуникации, диалог с народом, демократия, народные собрания, совет старейшин, гражданское общество, историческое наследие, социально-политические системы, народное управление.

# THE SYSTEM OF PUBLIC ENGAGEMENT IN ANCIENT TURONZAMIN AS AN EARLY DEMOCRATIC ELEMENT

**Abstract.** This article analyzes the system of public communication that developed in the territory of ancient Turan and interprets it as an early manifestation of democratic elements. Drawing

on historical sources, archaeological findings, mythological narratives, and ancient written monuments, the study elucidates mechanisms of public address, consideration of public opinion, and the inclusion of broad segments of the population in decision-making processes. The forms of socio-political communication implemented in ancient times through tribal assemblies, popular gatherings, and councils of elders are examined, and their democratic foundations are revealed. Furthermore, the article explores the relationship between these systems and the institutions of modern civil society, as well as their historical roots. The traditions of communication in the culture of Turan are evaluated as early forms of popular governance.

**Keywords:** Turan, ancient communication system, public dialogue, democracy, popular assemblies, council of elders, civil society, historical heritage, socio-political systems, popular governance.

**Kirish (Introduction)**

Turonzamin xalqlari oʻzining turmush tarziga ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-madaniy tartibotni, qadriyatlar tizimi kiritgan eng qadimiy xalqlardan hisoblanishadi. Ajdodlarimiz tabiatga, bir-biriga, ijtimoiy munosabatlarga nisbatan ma’lum bir mezonlar va me’yorlarni bundan uch ming yil avval ishlab chiqishgani tarixiy manbaalardan bizga ma’lum. Eng qadimiy yozma manbalardan biri hisoblangan “Avesto” kitobi, insoniyat falsafiy tafakkuri rivojlanishida muhim oʻrin tutuvchi, qadimiy va barhayot qadriyatlarni oʻzida mujassam etgan manba sifatida e’tirof etiladi. Unda bayon etilgan gʻoyalar axloqiy me’yorlar tizimining shakllanishi, ezgulik va yovuzlik oʻrtasidagi qarama-qarshilik konsepsiyasi, shuningdek inson va tabiat oʻrtasidagi munosabatlarning falsafiy talqini kabi universal masalalarning rivojiga sezilarli ta’sir koʻrsatgan hamda keyingi davrlar intellektual taraqqiyoti uchun nazariy asos vazifasini bajargan. Nemis faylasufi Fridrix Nitshening “Zardoʻsht tavallosi” *(Also sprach Zarathustra)* asarida mavzudan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, qadimgi zardoʻshtiy xalqlar ijtimoiy hayotida demokratiyaning oʻziga xos va yuksak namunalari shakllanganligi alohida e’tirof etiladi[1]. Mazkur tadqiqotda ushbu falsafiy asar kontekstida ajdodlarimizning davlat boshqaruvi tizimida xalq bilan muloqot an’analarining genezisi va evolyutsion xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, qadim Turonzamin jamiyatida xalq bilan muloqot tizimining shakllanganligi uning ijtimoiy boshqaruv amaliyotidagi ilk demokratik unsurlardan biri sifatida namoyon boʻlgani ta’kidlanadi. Ushbu muloqot shakllari jamoaviy qaror qabul qilish, ijtimoiy munosabatlarni muvofiqlashtirish hamda jamiyat ichki barqarorligini ta’minlashda muhim omil boʻlib xizmat qilgan.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review)**

Buyuk tariximizning shonli davrlari va ajdodlarimizning ilmiy merosi oʻrgatish, ham tadqiq etilayotgan mavzuni yoritishda muhim manba sifatida xizmat qiladi. Jumladan, qomusiy olim “Beruniyning “Osor ul-boqiya”asari qadimgi xalqlarning kelib chiqishi, Sharq va yaqin Sharqda madaniy hayot taraqqiyoti asoslari, “Avesto” falsafasi, Zardushtiylik dinining paydo boʻlishiga doir qomusiy tadqiqotlari oʻzining betakrorligi va keng miqyosliligi bilan qimmatlidir” [2;33].

Istiqlol sharofati bilan respublikamizda “Avesto” kitobining gʻoyalarini yangicha yondashuvlar asosida tadqiq etish hamda uning turli qirralarini ochib berishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, A.Asqarov, M. Is’hoqov, T. Karim, A. Mahkam, T. Maxmudov, G. Maxmudova, F. Sulaymonova, A. Sagdullayev, R. Urazova, H.Homidov, M.Ergasheva kabi olimlarning ilmiy tadqiqot ishlari va

monografiyalari ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlar qatorida alohida ahamiyat kasb etib, mazmunan boy va ilmiy jihatdan ahamiyatli manbalar sifatida e’tirof etiladi. Jumladan, M.H.Ergasheva tomonidan “Avesto”dagi falsafiy g‘oyalarga sinergetik yondashuv (ontologik va gnoseologik tahlil)” mavzusida falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi har tomonlama ilmiy o‘rganishga, mavjud manbalar va nazariy yondashuvlar asosida chuqur tadqiq etishga harakat qilingan [3].

Umuman olganda, mazkur manbalar qadim Turonzamin jamiyatida xalq bilan muloqot tizimini ham nazariy, ham tarixiy-falsafiy jihatdan kompleks o‘rganishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular bugungi zamonaviy ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni tushunishda mustahkam metodologik asos vazifasini bajaradi.

**TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Ushbu tadqiqotda qadimgi Turonzamin hududida shakllangan xalq bilan muloqot tizimini ilk demokratik unsurlar sifatida o‘rganish uchun kompleks ilmiy yondashuvlar qo‘llanilgan. Tadqiqotning metodologik asosini tarixiylik, tizimlilik va mantiqiylik tamoyillari tashkil etadi. Shu kontekstda induktiv va deduktiv usullar yordamida alohida tarixiy faktlardan umumiy ilmiy xulosalar chiqarilgan bo‘lib, nazariy qarashlar asosida amaliy holatlar izohlangan.

**TAHLIL VA NATIJALAR**

“Avesto”ni bir butunlikda tahlil etganda, Zaratushtra yashagan davrga qadar ajdodlarimiz turli qabilaviy diniy tasavvurlar asosida yashaganliklari aniq ko‘rinadi. Miloddan avvalgi birinchi ming yillikka kelganda esa ibtidoiy munosabatlar o‘rnini sinfiy jamiyatning dastlabki bosqichi egallay boshlaydi. Ajdodlarimizning eng qadimiy jamoani boshqaruv shakli harbiy-demokratiya deb ta’riflanadi; bunday boshqaruv instituti o‘z davrining ijtimoiy-mafkuraviy ehtiyojlarini qondirish uchun shakllanganligi ko‘rinib turadi. Maqbul mafkuraviy g‘oya zarurati esa mazkur davrning transformatsiyasini rag‘batlantirdi, chunki mahalliy qabilaviy dinlar jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichiga ko‘tarilishiga to‘sqinlik qilib kelgan edi. Shunday murakkab zamon bahslari ichida qabilalararo birlikni ta’minlash, ularni ilk davlatchilik g‘oyasi atrofiga jamlash zaruriyati paydo bo‘ldi. Bu proses ijtimoiy konstruktsiya nazariyasi, institutsionalizatsiya va aksiologik talablarga mos ravishda o‘rganilganda, jamiyatning normativ-axloqiy asoslarini yangilanishi kabi natijalarga olib keldi va ibtidoiy jamiyatdan davlatchilik institutsiyasiga o‘tishni modellashtirdi.

Zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tafakkurda “Avesto” yodgorligida mujassam topgan konstruktiv g‘oyalarni, xususan, sotsiumning garmonik hamda barqaror taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qiluvchi ma'naviy-axloqiy imperativlarni qayta idrok etishga bo‘lgan ilmiy ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, mazkur tarixiy manbadagi sotsial kommunikatsiya (xalq bilan muloqot) hamda ijtimoiy konsensusga erishish modellari kabi umuminsoniy qadriyatlarni fundamental, aksiologik va konseptual jihatdan tadqiq etish bugungi kun sivilizatsiyasining obyektiv zaruratiga aylanib ulgurdi. Undagi “Ey, Ahura Mazda! Ey go‘zal Apdabihshit! Buni o‘zimizga munosib ko‘rdik: Ikki olamda ham eng go‘zal bo‘lgan fikr, kalom va olamni tanlaymiz” [4;15], g‘oyasi o‘z davri, shuningdek, bugungi kun uchun ham o‘zining mazmun-mohiyati va insonlarni ezgulikka undayotgani bilan qadriyatga aylanib ulgurgan.

Akademik A.Asqarov tadqiqotida keltirilganidek, “Zardushtiylik dinida imon uch tayanchga asoslanadi: fikrlar sofligi, so‘zning sobitligi, amallarning insoniyligi. "Avesto"da "bergan so‘zning uddasidan chiqish, unga sodiq qolish, savdo-sotiq va shartnomalarga qat’iy amal qilish, qarzni o‘z

vaqtida to'lash, aldamchilik va xiyonatdan xoli bo'lish imon alomatidir" deyilgan. Zaratushtra falsafasiga ko'ra, odam o'lgach, uning ruhi 3 kun o'z tanasida bo'ladi, to'rtinchi kunida go'zal qiz qiyofasidagi farishta kuzatuvida narigi dunyoga "chinvot" (qil ko'prik) ko'prigidan o'tib jannatga ketadi. Gunohkorlar esa chinvotdan o'tolmay jahannamga g'arq bo'ladilar. Yaxshilar esa yana yangi tanalarda yashashni davom ettiradilar"[5;128]. Bu muqaddas kitobda keltirilgan to'rt unsur – tuproq, olov, suv va havo to'g'risidagi g'oya insoniyat falsafiy tafakkurining katta yutug'i bo'lgan. "Avesto"da yozilishicha ularga ziyon keltirish katta gunoh hisoblangan va bunday insonlar qattiq jazolangan. Chunki, ular butun borliqning asosi deb qaralgan" [6].

Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, deyarli barcha muqaddas diniy kitoblar ilohiy buyruqlar majmuasi bo'lish bilan bir qatorda, ma'lum ma'noda o'sha xalq (yoki xalqlar)ning badiiy tafakkuri manbaiga ham aylanadi. Bunday asarlardagi diniy-nazariy asoslar, qoidalar, pandlar, da'vat va murojaatlar asl yechimlarini eng qadimiy og'zaki ijod — afsonalar, rivoyatlar, naqllar — orqali oldi va vaqt o'tgach yozma shakllarda boyitilib, ijtimoiy-ma'naviy merosga kirib keladi.

Tadqiqotchi M.Umarzoda quyidagilarni bayon etadi: "Zardushtiy falsafasiga ko'ra yaxshilik va yomonlik kishilarning botinida – ichki dunyosida yashaydi. Inson Axriman yo Axura Mazda tarafida bo'lishi mumkin, chunki ezgulik farishtasi uni hamisha yaxshilik qilishga, yovuz Axriman esa uni yomonlik qilishga undaydi va bu tortishuv kishi hayotining oxirgi damlarigacha davom etadi. Agar biz Avestoni ulug' axloq kitobi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Zardushtiylar yaxshi so'z, yaxshi amal va yaxshi andishani ilohiylashtirib, bu uch nomlar bilan atalgan muqaddas Ruhlarga bag'ishlab har kun uch martadan namoz o'qir edilar. Mozdaparastlik dinida yolg'on gapirish, birovni aldash kechirib bo'lmas gunoh hisoblanadi. Zardusht aqidasiga ko'ra inson zulmat ichida qolib, sargardon bo'lmasligi uchun rostlik va haqiqat chirog'ini qalbida yoqishi kerak"[7;199-200] , - degan edi

**XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, "Avesto" kitobi Markaziy Osiyo xalqlari ko'pming yillik tarixi mohiyatini o'zida mujassam etgan manba hisoblanadi. Uch ming yillik taraqqiyot yo'li kishilik jamiyati evolyutsiyasining global dinamikasini aks ettiruvchi mintaqaviy-lingvokultural mexanizmlar to'qnashuvida muhim rol tutgani ko'rsatilgan. Ushbu davrda ijtimoiy-iqtisodiy strukturalar va mentalitetlar o'zgarishlarni o'zgacha yuzaga chiqqan, natijada madaniy-ma'naviy olamda yangi qadriyatlar va norma-qoidalar takomil yo'lida islohotlar rivojlangan. "Avesto"ning mazhabiy-pendomi tarkibi ezgulik, adolat, bag'rikenglik, mehmondo'stlik va tinchlik kabi qadriyatlarning umumiy normalari orqasida xalqlar o'rtasida barqaror va sog'lom aloqalarni barpo etishda markaziy ahamiyat kasb etgan. Har xil ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar o'rtasidagi muqobil tegishlik quvvatlarni integratsiya qilishda ushbu qadriyatlar to'plami muhim regulyator rolini bajargan. Qadim Turonzaminning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, madaniy-ma'naviy olami va o'ziga xos beqiyos qadriyatlari ushbu tarixi-madaniy yodgorlikning mevasi sifatida tavsiflanadi va uning global tarixni tashkil etuvchi manbalar tizimining markaziy qismini tashkil etadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**


1. Nitshe F. Zardo‘sht tavallosi: Nasriy doston. Ibrohim G‘afurov tarjimasi. – Toshkent. Yangi asr avlodi, 2007. - 348 b.
2. Jurayev N.K. “Avesto” mo‘jizasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2014. - 48 b.
3. Ergasheva M.H. Avestodagi falsafiy g‘oyalarga sinergetik yondashuv (ontologik va gnoseologik tahlil). Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. - Samarqand, 2017. - 154 б.
4. Авесто: тарихий-адабий ёдгорлик / Н. Жўраев; таржимон А.Маҳкам.-Т.: Ғ.Ғулом, 2015, - 732 б.
5. Asqarov A. Qadimgi Turon eneolit, bronza va ilk temir davri sivilizatsiyalar tarixidan lavhalar. - Toshkent. Fan, 2023. - 275 b.
6. Отамуратов С. Шарқ ва Ғарб цивилизацияларини туташтирган мутафаккирлар // https://tilmoch.ai/uz/editor
7. Umarzoda M. “Ovesto” sirlari // Jahon adabiyoti jurnali. - 1997. - №4-son. – B.199-200.
8. Ризаев И., Хаккулов Н. Синергетический взгляд на философию и общество в трудах Абу Насра аль-Фараби: ключевые принципы и современная значимость //Hikmet. – 2025. – Т. 4. – №. 6. – С. 42-57.
9. Сафаров А. И., Хаккулов Н. К. Свойственные качества совершенному человеку в суфизме //Современная наука как социально-политический фактор развития государства. – 2019. – С. 48-50.

*International Journal of Intellectual and Cultural Heritage*
*Volume: 6 Issue: 02 | 2026*
*ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314*
*http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich*

***Khamdamova Sitora Safarovna***

*Senior Lecturer, Doctor of Philosophy, Associate Professor,*
*Academy of the Ministry of Internal Affairs*

*Received 4 th February 2026, Accepted 10 th April 2026, Online 30 th June 2026*

## XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHIDAGI MARKAZIY OSIYO ILM-MA'RIFATIDA KROSS-MADANIYAT FENOMENI

**Annotasiya:** Maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi Markaziy Osiyo ma'rifatparvarlik harakatida, xususan, Abdulla Abdulla Avloniy ijodida kross-madaniyatning falsafiy asoslari tadqiq etilgan. Uning falsafiy-ma'rifiy qarashlari Yevropa ilm-fani, madaniyati va ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan mahalliy milliy madaniyat, an'analar va qadriyatlarning o'zaro ta'siri va sintezi nuqtayi nazaridan tahlil qilingan. Muallif Abdulla Avloniy ijodida kross-madaniyatni statik emas, balki dinamik jarayon sifatida talqin etish, Yevropa tajribasini tanqidiy qabul qilish, milliy o'zlikni saqlagan holda yangi madaniy shakllarni yaratish g'oyalarini ochib bergan.

**Kalit so'zlari:** kross-madaniyat, ma'rifatparvarlik, falsafiy asoslar, madaniy aloqalar, Yevropa ta'siri, milliy o'zlik, ta'lim islohoti, madaniy muloqot, madaniy yangilanish.

## ФЕНОМЕН МЕЖКУЛЬТУРНОГО ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ В НАУКЕ И ОБРАЗОВАНИИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ В КОНЦЕ XIX И НАЧАЛЕ XX ВЕКОВ

**Аннотация:** В статье рассматриваются философские основы межкультурного взаимодействия в центральноазиатском движении Просвещения конца XIX и начала XX веков, в частности, в творчестве Абдуллы Авлони. Его философские и просветительские взгляды анализируются с точки зрения взаимодействия и синтеза европейской науки, культуры и идей Просвещения с местной национальной культурой, традициями и ценностями. В работах Авлони автор раскрывает идеи интерпретации межкультурного взаимодействия не как статичного, а как динамического процесса, критического принятия европейского опыта и создания новых культурных форм при сохранении национальной идентичности.

**Ключевые слова:** межкультурность, просвещение, философские основы, культурные связи, европейское влияние, национальная идентичность, реформа образования, культурный диалог, культурное обновление.

## THE PHENOMENON OF INTERCULTURAL INTERACTION IN SCIENCE AND EDUCATION IN CENTRAL ASIA IN THE LATE 19th AND EARLY 20th CENTURIES

**Abstract:** This article examines the philosophical foundations of intercultural interaction in the Central Asian Enlightenment movement of the late 19th and early 20th centuries, particularly in the work of Abdullah Avloni. His philosophical and educational views are analyzed from the perspective of the interaction and synthesis of European science, culture, and Enlightenment ideas with local national culture, traditions, and values. In Avloni's works, the author explores the concept of

intercultural interaction not as a static but as a dynamic process, critically embracing European experience and creating new cultural forms while preserving national identity.

**Keywords:** interculturalism, education, philosophical foundations, cultural ties, European influence, national identity, educational reform, cultural dialogue, cultural renewal.

**Kirish.** Abdulla Avloniy madaniyatning rivojini insonlarning moddiy hayoti ravnaqi bilan zich bog‘laydi. Jamiyatning moddiy farovonligi qanchalik yuqori va yaxshi bo‘lsa, madaniyat shuncha taraqqiy etgan bo‘ladi. Mushkul ahvoldagi kishilar madaniyatning chinakam qimmatini anglash darajasiga ko‘tarila olmaydilar. Uning “Madaniyat to‘lqunlari” maqolasidan parcha keltiramiz: “Har bir millat maishat tarafindan, taraqqiyga yuz qo‘ymasa, ma’rifat tarafidan ham taraqqiy qilolmas, bir kishining o‘z maishatiga yetarlik molu ashyosi bo‘lmasa va bularning sababiga harakat qilmasa, moddiy va ma’naviy ishlarni qilmoqdan ojiz qolur. Va bunday ochu yalang‘och o‘z avqotini o‘tkara olmayturgan bir xalqga ma’rifat, madaniyat, ulum va funundan dars vermak munosib bir ish o‘lmasa kerak, chunki faqir xalqlarning kechayu kunduz fikri zikri non topmak va bola-chaqasining qornini to‘yg‘uzmakdir. Taajjubki, mamlakatimizning yerlari, o‘simlik tuprog‘i barakatlik bo‘lib turub, yerli xalq och va yalang‘och, boyqush kabi vayronalarda umr o‘tkaradirlar”. [2:P,216-217.]

Bizning fikrimizcha, Abdulla Avloniy jamiyat va madaniyat rivoji o‘rtasidagi uzilishning sababini mutlaqo to‘g‘ri sharhlaydi. U madaniyatning rivojini xalqning o‘z yeriga, o‘zining odatiy va kundalik turmushiga chuqur mas’ulligida, kishilarning ma’naviy kamol topishida ko‘radi. Umuman, ushbu maqoladan yana bir muhim fikr kelib chiqadi: jaholat, qoloqlik doirasida qamab qo‘yilgan ma’rifat, dunyoni anglash, boshdan kechirish, anglash layoqatidan tashkil topgan chinakam madaniyatni bera olmaydi.

Abdulla Avloniy o‘zining gazeta va jurnallardagi maqolalarida Yevropa madaniyati va uning Markaziy Osiyo xalqlari hayotidagi o‘rni masalasiga katta e’tibor qaratdi. 1907-yili Abdulla Abdulla Avloniy muharrirligi ostida “Shuhrat” gazetasi chiqa boshladi – u orqali, Abdulla Avloniy – biz ilm-fanni, birlikni, ozodlikni, adolatni targ‘ib qilmoq istaymiz, - [4:P,77] deydi. Gazeta ta’lim tizimini yangilashga va Turkistondagi ijtimoiy hayotning ayrim jihatlariga katta e’tibor qaratdi. Ta’kidlash joizki, “Shuhrat” gazetasining atigi 10 ta soni chiqarildi, xolos. Gazeta nashri 1908-yil fevralda Turkiston general-gubernatorining farmoyishi bilan hukumatga qarshi yo‘l tutgan deb to‘xtatildi. [4:P,77-78]

O‘tgan asrning 20-yillarida Abdulla Avloniy Yevropaga Gasprinskiyning nigohi bilan qaraydi. Xuddi boshqa mutafakkirlar singari, Gasprinskiy ham Abdulla Avloniy uchun jamiyatni ma’rifat tamoyillari asosida yangilash ishida katta nufuzga ega edi. Abdulla Avloniy hatto Gasprinskiyning vafoti munosabati bilan unga bag‘ishlab “Marsiya” ham bitadi. Buxoro va Turkiston mutafakkirlari orasida yaxshi ma’lum bo‘lgan “Yevropa madaniyatiga beg‘araz nigoh” maqolasida quyidagilarni o‘qish mumkin: “Agar kishilarning kelgusi hayoti va madaniyati shunaqa bo‘ladigan bo‘lsa, unda insoniyatni katta baxtsizlik kutadi. Yevropada hamma narsa bor, faqat adolat yo‘q. Yevropa madaniyati Qadimgi Rim madaniyatiga asoslangan. U esa axloqsizlik ortidan vayron bo‘lgan. Uning o‘rnini kapitalistik madaniyat egalladi. Sotsialistlar uning samarasini rad etadilar. Sotsialistlarning adolatiga kelganda, u hammadan oshib ketadi. Nega? Chunki Yevropa madaniyatining eng katta aybi shundaki,

u adolatdan va halollikdan mahrum”. So‘ngra muallif I.Gasprinskiyning quyidagi so‘zlarini keltiradi: “Yevropa xuddi keksa chol singari katta hayotiy tajribaga ega. Biz uning mo‘tabar yoshini hurmat qilamiz va undan o‘rganishimiz, uning hayotiy tajribasidan foydalanishimiz kerak, ammo uning xatolarini takrorlamasligimiz lozim. Biz o‘zimiz ham maktablar universitetlar barpo etamiz. Ammo bizning aqlimiz undan qanchalik olishga qodir bo‘lsa – olamiz, vijdonan va bajonu dil hayotga tatbiq etamiz, biroq Yevropada nimani ko‘rsak, xuddi yoshlarga o‘xshab, uni ko‘r-ko‘rona qabul qilmaymiz. Bu o‘zi nima, uning oqibatlari qanaqa bo‘ladi? Or-nomus, adolatga mos keladimi? Bularni ko‘rsatish insonga xos, oqilona, mantiqiy. Har bir narsaga oqilona, o‘ylab yondashmoq lozim. Agar Yevropa madaniyati, unga tanqidiy yondashmasdan, hech bir mulohazasiz qabul qilinadigan bo‘lsa, albatta qandaydir ko‘ngilsizlik ro‘y beradi...”. [2:P,218]

Abdulla Avloniy o‘z mulohazalarini davom ettiradi: “Biz Yevropa fanini, ilmiy va ijodiy kashfiyotlarini rad etmasligimiz, balki ulardan foydalanishimiz lozim. Biroq islomni isloh qilish va rivojlantirish nomi bilan Yevropa madaniyatiga ko‘r-ko‘rona taqlid qilish hamda hech bir mulohazasiz, sog‘lom aql tarozisidan o‘tkazmasdan hamma narsani qabul qilish mumkin emas”. [2:P,218]

Abdulla Avloniyning pozitsiyasi tushunarli: u Markaziy Osiyo xalqlarining madaniy hayoti Yevropadan uzilib qolishiga qarshi va o‘zining ba’zi zamondoshlarining millatchilik ruhidagi qarashlarini qo‘llab-quvvatlamaydi. Markaziy Osiyo xalqlarining madaniyati faqat islom an’analari doirasida rivojlanishi mumkin emas. U barcha yangiliklar, foydali va ilg‘or narsalarni qabul qilmog‘i lozim. G‘arbning ta’siridan cho‘chish joiz emas. Ammo Yevropa madaniyatiga shunday yondashish zarurki, bundan islomga xos asriy eng yaxshi axloqiy ustunlarga ziyon yetmasin.

Abdulla Avloniy Ahmad Donish, I.Gaspriinskiy ruhidagi ma’rifatparvar shoir edi. Uning madaniyatga asoslangan g‘oyalari ko‘pincha islohotchilik yoxud ijtimoiy hayotni qayta qurish bilan bog‘liq edi. Romantik orzular, xuddi uning davridagi ko‘plab mutafakkirlarga xos bo‘lmagani singari, uning ijodiy faoliyatiga ham xos emas. U o‘z mamlakatida adolatni tiklashga, o‘z davri ijtimoiy hayotidagi illatlarni bartaraf etishga intildi. Bunday bartaraf etishga, Abdulla Avloniyning fikriga ko‘ra, birinchidan, Yevropa ilm-fani va dunyoviy bilimlarini qabul qilish, ikkinchidan, o‘z-o‘zini anglashga bo‘lgan intilish va o‘z axloqini poklash orqali erishish mumkin.

Agar Yevropa ma’rifatparvarligi klassiklari insonga ijtimoiy mavjudot sifatida murojaat qilishgan va adolatli jamiyat qurish yo‘lini dunyoviy bilimlarni yoyishda ko‘rishgan bo‘lsa, ma’rifatparvar Abdulla Avloniy esa insonga muxtor shaxs sifatida murojaat qildi va bilimlardan o‘z jamiyatining axloqiy zavolini qoralash uchun foydalanishga da’vat etdi. O‘zining “Madaniyat to‘lqunlari” maqolasida u madaniyatni tanazzuldan asrash lozim va nima bo‘lgan taqdirda ham biz o‘zimizning madaniy qadriyatlarimizni asrashimiz va saqlab qolmog‘imiz lozim deya qayd qildi. Abdulla Avloniy o‘zining “Turkiy Guliston...” asarida yozadiki, jamiyatning axloqiy poklanishi inson shuurida hayotning barcha qiymat o‘lchovlarini tubdan o‘zgartiradi. Natijada ilm-fan, dunyoviy bilim yetakchi ijtimoiy kuchlardan biriga aylanadi. Abdulla Avloniyning quyidagi so‘zlarini aynan shu ma’noda tushunmoq lozim:

*Ilm ila olam musaxxar bo‘ldi, biz johil hanuz,*
*Xobi g‘aflat boshimizga yetsa ham g‘ofil hanuz.*
*Ochmayin ibrat ko‘shzin biz uyquga moyil hanuz,*
*Ilmi hikmatlarga bizlar bo‘lmadik qobil hanuz.*[2:P,34]

She'rini virdi zabon qilmakdin boshqa choramiz yo'q, - degan u maqolaning oxirida.

Abdulla Avloniyning o'z zamonidan jamiyat, xalq ahvoli haqidagi qarashlari tasodifiy, yuzaki emas edi. U o'z vatanining sodiq farzandi sifatida jamiyatning ma'naviy inqirozini, ijtimoiy, iqtisodiy, axloqiy illatlarni ko'rib qayg'urishi tabiiy edi.

Xullas, Markaziy Osiyoda jadid davrida yevropacha teatr san'atining kirib kelishi ahamiyatini kitob bosish ixtiro qilinishiga o'xshatish mumkin. Buxoro amirligida va Turkistonda mutafakkirlar bilan qadimchilar o'rtasida yevropacha teatr san'atining foydasi va zarari haqida bahs- munozara boshlangan. Abdulla Avloniy, Fitrat, Behbudiy kabi olimlari teatr san'ati yosh avlod ta'limi va tarbiyasi uchun juda foydali ekanini targ'ib etganlar. Abdulla Avloniy "Teatr xususida munozara" maqolasida teatr san'atining musulmon yoshlar tarbiyasi uchun muhimligi, bu san'at islom diniga, shariatga zid emasligini e'tirof etgan: "Ba'zilar tiyotr harom, tiyotrdan kelgan oqcha ham harom, derlar. Holbuki tiyotr harom emas, bid'at. Bo'lsa ham "bid'ati hasanga". Bid'ati sa'iyalardanmas.Tiyotr har bir millatning yamon urf, yamon odatlarini yo'q qilmak uchun, o'zini ahvolini tuzatmak uchun boqadurg'on oinasidur". [3:P,92] Abdulla Avloniyning bu maqola-munozarasi Abdurauf Fitratning "Munozara"si kabi, yunon faylasuflari Suqrot va Aflotun dialoglarini eslatadi, bahs-munozara vaqti va joyi aniq tasvirlanadi. "Kunlar bahor fasli o'ldug'indan daraxtlar uyg'onib, yaproqlar orasidan rang-barang gullar chiqormish. Yer alvonlarini yuzaga chiqarib, ko'm-ko'k baxmal kabi yozmish. Qishning zulmidan qochgan qushlar kelib, har xil ovozlar ila nag'ma va faryod boshlamish. Go'yo butun olam uyqudan uyg'ongan kabi... Yangi bir his-tuyg'u va hayot asari ko'rinur edi". Abdulla Avloniy fikricha, teatr san'ati xalqqa ma'rifat tarqatishning eng ta'sirchan shakllaridan biri, u xalqni insonparvarlikka da'vat qiladi. Shu sababli Buxoro va Turkiston mutafakkirlari o'zlari drama yozib, o'zlari sahnalashtirib, rollarni o'zlari ijro qilar edilar. Ular teatr san'atidan xalqni ma'rifatli qilishda yaxshi foydalandilar.

Yana bir ma'rifat maskani va ilmni oshiruvchi vosita bu kitob do'konlari edi, inson ma'naviy ozuqasi, dunyoqarashi va badiiy estetik zavqini albatta kitob orqali egallaydi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Mutafakkirlar kitob do'konlarni ilm ulashadigan maskan sifatida bilishgan va xorij olimi Adib Xalidning "Musulmonlarni madaniy isloh qilish siyosati: Markaziy Osiyoda jadidchilik" asarida quydagicha tavsiflangan, 1910-yilda yetti kishi, jumladan Munavvar Qori, Abdussami Qori va Abdulla Avloniy kabi taniqli mutafakkirlar "Umid" nomli kitob do'konini ochishga ruxsat so'rashdi. Talab qat'iy rad etildi, shubhasiz, chunki Munavvar Qori va Abdulla Avloniy ilgari hukumatning g'azabini qo'zg'atishgan va 1906-yildan 1908-yilgacha mustaqil gazetalarda ishtirok etishgan. Abdulla Avloniy 1914-yilda, Toshkentning Rossiya qismida "Zamon" kitob do'konini ochganida yanada muvaffaqiyatli bo'ldi. 1916 yilda Behbudiyning faoliyatlari qatorida uning Samarqanddagi uyida joylashgan kitob do'koni ham bor edi. Abdulqodir Shakuriy 1915 yilda Zarafshon kitob do'koniga asos solgan. Kitob do'konlarining eng ko'p o'sishi Farg'ona vodiysining shaharlarida sodir bo'ldi, bu erda 1913-1915-yillarda bir nechta shunday kompaniyalar ish boshladi. [5:P,118-119]

A.Abdulla Sharqu G'arbda shuhrat qozongan Sa'diy Sheroziyning "Guliston" asaridan ilhomlanib, turkiy tilda "Guliston"ni yozib, o'z xalqiga eng muhim axloqiy, ma'naviy qadriyatlar–adolat, haqgo'ylik, ahillik-ittifoq, ilmsevarlik, vatanparvarlik, sa'y-g'ayrat, riyozat, shijoat, sabr, qanoat, vijdon, insof, havf va rajo(xudoning g'azabidan qo'rqish va dunyoda yaxshi ishlariga oxiratga

jannatga kirish umidi) sadoqat, xayrixohlik, oliyhimmat kabi fazilatlarni hosil qilish haqida ma'naviyat, ma'rifatga doir g'oyalarni ilgari surdi. Va aksincha, insonni halokatga boshlovchi yomonlik, illatlardan ogohlantiradi. A.Avloniy "Turkiy Guliston" asarida sharqona, islomiy axloq-odobga doir ma'rifat durdonalarini bayon qildi.

A.Abdulla Avloniy asarlarida Turkiston, Markaziy Osiyo olimligi, ma'naviy madaniyatining asoslari koʻrsatib berildi.

**Muhokama.** Mutafakkirlarning yangilik, rivojlanish tarafdori boʻlganliklari haqida xorij olimi Edvard Ollvortning "Zamonaviy oʻzbeklar. XIV asrdan hozirgi kungacha" asarida quydagicha tavsiflangan [1] *"Uzoq vaqt davomida Markaziy Osiyo boshdan kechirgan madaniy va ijtimoiy chekinishni toʻxtatish va jamoatchilikni yangi yoʻnalishda olgʻa siljitish uchun yoʻnalish rahbarlari bir qator muhim islohotlarni ommalashtirishga kirishdilar. Mintaqaning tub aholisi uchun ular oʻz maqsadlarini amalga oshirishda oltita vositani yaratdilar yoki oʻzgartirdilar: islohotchilik ta'lim, tarixshunoslik, adabiyot, matbuot va nashriyot, din va teatr dramalar bilan birgalikda. Bular biron bir kelishilgan mahalliy reja yoki sa'y-harakatlarga koʻra amalga oshmadi va aniq begona odamlarning aralashuvi bilan roʻy berdi. Ammo barchasi Markaziy Osiyo sivilizatsiyasiga ta'sir koʻrsatishi mumkin edi. Musulmon olimlari Samarqand, Xiva, Buxoro, Toshkentda yigʻilishgan boʻlib va boshqa bir qancha Markaziy Osiyoning uzoq sharq qadimiy shaharlari XX asr boshlarida koʻplab juda koʻp vazifalarni hal qilishga urinishdi. Markaziy Osiyoni zamonaviylashtirish harakatlarida ular etika, e'tiqod, huquqiy adolat, sogʻliqni saqlash, ayollarning jamiyatda tutgan oʻrni va qoʻshimcha ijtimoiy va madaniy sohalarda qayta baholash va yangilanishni talab qildilar".* [1:P,120-121]

Mahmudxoʻja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy Markaziy Osiyoda madaniy-ma'rifiy harakatining asosiy parametralini aniqlab berdilar va bu bilan madaniyatimizning keyingi taraqqiyoti uchun ham zamin tayyorladilar. Ular ma'rifiy tafakkurining oʻziga xosligi xalqimizning ma'naviy va tarixiy hamda milliy qadriyatlariga katta e'tibor berishida namoyon boʻladi. Ular kabi mutafakkir olimlar xalqimizning milliy urf-odatlari va an'analarini asrash va koʻpaytirish bilan birga, jahondagi ilgʻor xalqlarining ilm-fan, ma'naviyat va madaniyat sohasida erishgan yutuqlaridan foydalanib, ularning milliy madaniyatimizga integratsiya qilib, boyitish tarafdori edilar.

**Xulosa.** Markaziy Osiyo respublikalarining mustaqilligi sharoitida kross-madaniyat jiddiy konseptual yechimni talab qilib, mintaqaning mustaqilligi uchun kommunistik mafkuraga zid ravishda ma'naviy hodisa sifatida qabul qilishga xizmat qiladi.

Mustaqillik sharoitida mutafakkirga oid ma'lumotlar tiklandi va Markaziy Osiyo xalqlari, shu jumladan XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi oʻzbeklar madaniyatida buyuk aqliy va intellektual harakat sifatida qaraldi. Konseptual nuqtayi nazardan, biz tasavvur qilganimizdan koʻra katta

[1] To halt the cultural and social retreat that Central Asia had experienced for so long and to urge the public forward in a new direction, Jadid leaders undertook to popularize several important reforms. Reformist education, historiography, literature, press and publishing, religion, and theater with accompanying drama. These did not appear to unfold according to any coordinated local plan or effort, and some certainly occurred through the intervention of outsiders. All, however, would have an impact on Central Asian civilization. Muslim Innovators centered in Samarkand, Khiva, Bukhara, Tashkent, and several other ancient cities of Central Asia farther east grappled at the beginning of the twentieth century with a multitude of tasks. In their efforts to bring Central Asia up to date, they demanded a re-evaluation and improvement in ethics, faith, legal justice, public health, the status of women, and additional social and cultural fields.

salohiyatga ega. U mustaqilligimizni mustahkamlovchi turli ma’naviy imkoniyatlarni namoyon etadi, murakkab o‘tshmishimizni ijodiy tushunishimizga imkon beradi. Bizning davrimizda jadidchilikning ijodiy, ma’rifiy salohiyati yuqori ijtimoiy vazifalarimizni haqiqatda amalga oshirishni ta’minlaydigan ma’naviy poydevorligidan dalolat beradi.

Hozirgi vaqtda bu yanglish fikrni tuzatish, ikki xalq mutafakkirlari, Ahmad Donish olimligi, uning ma’naviy merosi o‘zbeklar uchun ham, tojiklar va turkmanlar uchun ham qadrli deyish vaqti keldi. Ahmad Donishning madaniy-ma’rifiy faoliyati, ma’naviy madaniyatga doir falsafiy qarashlari Markaziy Osiyo ziyolilarining qarashlariga ham muvofiq keladi. XIX asrning 2-yarimida Markaziy Osiyoda Ogahiy, Munis, Komil, Maxtumquli, Abay Qo‘nanboyev, Cho‘qon Valixonov, To‘qdagul Sotilganov, Siddiqxo‘ja Ajziy, Berdax, Avaztegin Kotibiy, Sayid Jamoliddin Afg‘oniy kabi olimlar yashab, ijod qildilar. Mana shu olimlardan birinchilar qatorida Ahmad Donish tojik va turkiy xalqlarni Yevropa madaniyati bilan tanishtirdi. U o‘zbek, tojik, turkman xalqlarini jaholatdan qutulishga, ko‘zini ochib, keng dunyoga qarashga da’vat qildi. Tilga olingan bu ziyolilarning har biri o‘z ijtimoiy, siyosiy, axloqiy, estetik qarashlariga ega bo‘lsa-da, barchasini birlashtiruvchi g‘oya madaniy-ma’rifiy, ta’lim, tarbiyaga doir ilg‘or qarashlar edi. Ularning maqsadi Markaziy Osiyo xalqlarini jaholatdan qutqazish, ma’rifatli, madaniyatli qilish edi. To‘g‘ri, Ahmad Donish faqat Rusiya poytaxtiga borgan, Parijda, Londonda bo‘lmagan, Ismoilbek Gaspirali, Jamoliddin Afg‘oniy, Abdurauf Fitrat kabi G‘arbiy Yevropa va musulmon mamlakatlariga sayohat qilmagan, yevropacha kostyum kiymagan, o‘zbekchachopon kiyib, salla o‘ragan, soqol qo‘ygan mahalliy ziyolilar qatorida kiyingan bo‘lsa-da, uning aql-idroki, dunyoqarashi zamondoshlariga nisbatan ancha ilg‘or edi, u zamondoshi, shoir Shamsiddin Shohin aytganiday, kabutarlar, qarg‘alar orasidagi burgutdek edi, u barchadan baland parvoz qilar va uzoqni ko‘rar edi. [6:P,59]

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Allworth Edward A. The modern Uzbeks. From the Fourteenth Century to the Present. – US.California. Hoover University Press, 1990.

2. Abdulla Avloniy Abdulla. Tanlangan asarlar. 2-jild. – T.: Ma’naviyat, 2006.

3. Abdulla Avloniy A. “Turkiy Guliston...”. Tanlangan asarlar. 2- jild. – T.: Ma’naviyat, 2006.

4. Вахидов Х. ПросветительскаяидеологиявТуркестане. – Т.: Фан, 1979.

5. Khalid Adeeb. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. – US. University of California Press, 1998.

6. Шоҳин Шамсиддин. Избранные произведения. – Душанбе “Ирфон”, 1987.

*International Journal of Intellectual and Cultural Heritage*
*Volume: 6 Issue: 02 | 2026*
*ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314*
*http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich*

**Qurbonov Umidjon Egamberdiyevich**

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti Samarqand kampusi,
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: umidjonkurbonov1981@mail.ru

*Received 4th February 2026, Accepted 10th April 2026, Online 30th June 2026*

## UYG'ONISH DAVRI DAHOLARINING MA'NAVIY TA'LIMOTI: TIL, MILLIY O'ZLIK VA ADABIY MEROS

**Annotatsiya**. Ushbu maqolada Uyg'onish davri daholarining ma'naviy ta'limotini til, milliy o'zlik va adabiy meros kontekstida o'rganilgan. Jumladan, fransuz olimi Mishel Montenning ilmiy-ijodiy merosi misolida Uyg'onish davri ma'naviyatining tilshunoslik, adabiyotshunoslik va identitetshunoslik sohalari tahlil qilingan. Maqolada Mishel Montenning ma'naviy ta'limotini til, adabiy meros va pedagogika bilan integratsiyalash orqali yangi talqinlar yaratadi. Xulosada matnlararo sinergiyasi orqali tilshunoslik, identitetshunoslik va ma'naviy ta'limotlar milliy o'zlikning shakllanishida muhim omil bo'lib qolishi mumkinligini ko'rsatadi va kelajakdagi tadqiqotlar uchun ilmiy yo'nalishlar tavsiya etiladi.

**Kalit so'zlar:** Uyg'onish davri, ma'naviy ta'limot, Mishel Monten, "Tajribalar" asari, til, tilshunoslik, adabiy meros, adabiyotshunoslik, milliy o'zlik.

## ДУХОВНОЕ УЧЕНИЕ МЫСЛИТЕЛЕЙ ЭПОХИ ВОЗРОЖДЕНИЯ: ЯЗЫК, НАЦИОНАЛЬНАЯ ИДЕНТИЧНОСТЬ И ЛИТЕРАТУРНОЕ НАСЛЕДИЕ

**Аннотация**. Настоящая статья исследует духовное учение деятелей эпохи Просвещения в контексте языка, национального самосознания и литературного наследия. В частности, на примере научно-творческого наследия французского учёного Мишеля де Монтенья анализируются области лингвистики, литературоведения и идентичности. В статье демонстрируется, что учение Монтенья о духовности может быть интегрировано с языком, литературным наследием и педагогикой, что позволяет выработать новые толкования. В заключении показано, что межтекстовая синергия между лингвистикой, исследованиями идентичности и духовным воспитанием может стать важным фактором формирования национального самосознания, и приводятся направления для будущих исследований.

**Ключевые слова:** Ренессанс, духовные учения, Мишель Монтень, «Опыт», язык, лингвистика, литературное наследие, литературоведение, национальная идентичность.

## SPIRITUAL TEACHINGS OF THE RENAISSANCE GENIUSES: LANGUAGE, NATIONAL IDENTITY, AND LITERARY HERITAGE

**Abstract**. This article examines the spiritual teachings of Enlightenment figures within the contexts of language, national identity, and literary heritage. In particular, using the scholarly-creative legacy of the French scholar Michel de Montaigne as a case, the study analyzes the domains of linguistics, literary studies, and identity studies in Enlightenment spirituality. The paper argues that Montaigne's spiritual teachings can be integrated with language, literary heritage, and pedagogy to generate new interpretations. In conclusion, it is shown that cross-textual synergy among linguistics,

identity studies, and spiritual education can be an important factor in shaping national identity; directions for future research are proposed.

**Keywords:** Renaissance, spiritual teachings, Michel Montaigne, "Experiences", language, linguistics, literary heritage, literary studies, national identity.

**Kirish (Introduction)**

Uygʻonish davri avvalo, Yevropaning eng rivojlangan hududlarida yuzaga kela boshlagan. Xususan, bu davrda Italiyadagi iqtisodiy taraqqiyot ijtimoiy-madaniy va falsafiy fikrlarning yuzaga kelishida ta’sir koʻrsatdi. Shu boisdan ham Uygʻonish davrining ilk bosqichi Italiyadan boshlandi. Shuni ta’kidlash lozimki, Renessans gʻoyalari Italiyada biroz oldinroq, ya’ni XII-asrdayoq vujudga kelgan edi. Bu davrni tadqiqotchilar ilmiy adabiyotlarda sof “italyancha voqea” sifatida kiritishgan.

Bu jarayon Italiyadagi ma’naviy taraqqiyot bilan bogʻliq edi. Bu vaqt Oʻrta asrlardan yangi zamonga oʻtish davri sifatida tavsiflanadi. Uning asosiy xususiyati - cherkov va teologiyaning koʻp asrlik cheksiz ustunligidan xalos boʻlish uchun universal impuls vazifasini bajarib, bu davr insoniyat tarixidagi eng buyuk progressiv inqilob boʻlish asnosida, titanlar uchun ehtiyoj boʻlgan fikrlarni, ehtiros va xarakter kuchida, hamda ularning koʻp qirrali va ilmiy jihatdan yetilishini yuzaga keltirgan edi.

Professor Q.B.Shodmonov ta’kidlaganidek, “har bir madaniyatning turli bosqichlarida, qarama-qarshi tendensiyalarning oʻziga xos turini - bir davr madaniyati doirasidagi uslubiy shakllanishning koʻpligini ajratish mumkin”, bunda “empirizm va ratsionalizm falsafiy fikrlari tarixidagi bunday hodisalarning ziddiyatli shakllarida” oʻrganilayotgan davr madaniyatining intellektual yadrosining rivojlanishi, tortishish markazining oʻzgarishi, madaniy kontekstning oʻzgarishi qiymat yoʻnalishlarining oʻzgarishidir”. [1, 264-b.].

Ushbu fikr tahlilidan shu narsa ayonlashadiki, oʻz davrining ilmiy-badiiy merosida va eng muhim asarlarida oʻsha davrning ma’naviy muhitini, dunyoqarashning mohiyatini, tafakkur tarzini tiklash orqali hayotning barcha jabhalari toʻliq aks ettiriladi. Nikolas Kopernikus, Djovanni Piko della Mirandola, Leonardo da Vinchi, Nikkolo Makiavelli, Albrext Dyurer, Martin Lyuter, Fransua Rable, Tasso, Per de Ronsar, Ludoviko Ariosto, Tomas Mor, Frensis Bekon, Uilyam Shekspir kabi taniqli olimlar, faylasuflar, rassomlar, haykaltaroshlar, shoirlar, siyosatchilar, jamoat arboblari ushbu davrning yangi ruhini ifoda etdilar.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review)**

Oʻzbekistonda Gʻarb uygʻonish davri bilan bogʻliq ilmiy-falsafiy merosni oʻrganish boʻyicha mahalliy tadqiqotlar hozirgi kunda keng qamrovli emas, biroq S. Yuldoshev, R. Karimov, Q. Nazarov, D. Normatova, G. Rozmatova, M. Usmonov, S. Choriyev, X. Shayxova, N.Shermuhamedova, Q.Shodmonov, G. Qobulniyozova kabi olimlarning tadqiqotlarida Gʻarb Uygʻonish davri namoyandalarining falsafiy-axloqiy ta’limotlari hamda yetuk axloqiy shaxsni tarbiyalashga oid yondashuvlar oʻrganilgan. Shuningdek, mazkur yoʻnalishda MDH mamlakatlari olimlarining tadqiqotlari orqali Gʻarb uygʻonish davridagi ilmiy-falsafiy va axloqiy qarashlar ham tahlil qilinmoqda.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Tadqiqot ilmiy xolislik va obyektivlik tamoyillariga rioya qilinishi asosida rejalashtirildi va amalga oshirildi. Analiz va sintez, abstraksiyalash

hamda umumlashtirish metodlari muhim vositalar sifatida qo‘llanildi. Bundan tashqari tizimli yondashuv, tarixiylik va mantiqiylik tamoyillari tadqiqot jarayoniga integratsiyalangan.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results)**

Uyg‘onish davrining eng ko‘zga ko‘ringan vakillarining ilmga bo‘lgan kuchli ishtiyoqi, turli xil sohalarda tinimsiz ijodiy ishlar olib borishi, idealga intilishlari oddiy qilib aytganda, axloqiy idel g‘oyaga bo‘lgan munosabati yaqqol ajralib turdi.

Fikrimizcha, Uyg‘onish davri ma’naviy muhiti, ikki yo‘nalish bo‘yicha shakllangan bo‘lib, yagona falsafiy fikr oqimiga birlashdilar. Eng avvalo, shahar sinflari tarkibidan Yevropa mamlakatlari aholisining keng qatlamlarini faol hayotga jalb qilish bilan bog‘liq tomon edi. Hayot minglab odamlarni o‘z uylaridan yulib tashladi, o‘z bilimlari va tajribalari ufqlarini qo‘zg‘atdi, inson tabiati tubida mudrab yotgan behisob qobiliyat va moyillik zahiralarini yo‘lga qo‘ydi. O‘rta asrlarning mo‘jizalarini jiddiy o‘zgarishlar shamoli olib ketdi, yangi kunning tongi kuch va yangilanish keltirgan holda namoyon bo‘lgan edi. Qadimgi madaniyat ruhining tiklanishi bilan bog‘liq bo‘lgan ikkinchi oqim hayratlanarli darajada burilish nuqtasiga to‘g‘ri keldi. Qadimgi donishmandlikning yumshoq nuri xristian asketizmining xiralashgan rangini yo‘q qildi. Bu davr odamlarining falsafasi va she’riyati yangi dunyo tug‘ilishiga yordam berdi, ritm, uyg‘unlik va o‘lchovlarni o‘z kuchlarining beg‘ubor, ba’zan vahshiyona o‘yiniga boshladi.

Ikkinchisi, bizningcha, Uyg‘onish davri daholarining ijodining ma’naviy yadrosini inson madhiyasi tashkil etdi. Ajablanarlisi shundaki, ularning sa’y-harakati bilan mislsiz madaniy durdonalar yaratdilar. Ular o‘z davri uchun eng yuqori darajadagi ijodkorlik va tafakkur cho‘qqilariga erishdilar. Ular kelgusi avlodlarga o‘zlarining yengilmas ruhlari o‘lik, eskirgan, cheklovchi va kamsitadigan barcha narsalarga qarshi kurashda jasorat ko‘rsatishdan iborat ekanligini yetkazishga harakat qildilar.

Insonning dunyodagi o‘ziga xosligini va abadiy dunyo oldida o‘lim holatini anglash haqiqati, unda ichki “Men” va tashqi “dunyo” ni bog‘lab turuvchi aloqalarini anglashga yordam beradi. Mutafakkirlarni qiziqtiradigan “inson mavjudligining asosiy hodisasi ana shunday vaziyatda falsafiy fikr yuritilishidan kelib chiqadi” [2;26.]. Bu jarayonda faylasuf olim o‘zi bilan butun olamni, jamiyatni, davlatni hamda ma’naviy dunyosini boshqalar bilan solishtiradi va o‘zining mezonlari yordamida taroziga tortadi. Insonning shaxs sifatida mavjudligi uning falsafiy tafakkuri bilan uzviy bog‘liqdir.

Uyg‘onish davrida vujudga kelgan madaniyatning va ayniqsa falsafaning o‘ziga xos xususiyati shundaki, bu davr faylasuflari inson eng oliy qadriyat ekanligini isbotladilar. Aynan shu davrda ijtimoiy munosabatlarga insonparvarlik mezoni asosida o‘lchash, unga yangicha baho berish vujudga keldi.

Bundan tashqari, ijtimoiy munosabatlar Uyg‘onish davri ijodiy muhitining o‘ziga xos xususiyatlariga singib borib, madaniy qadriyatlar ko‘rinishida namoyon bo‘la boshladi. Ammo madaniyat shunchaki tarixiy vaziyatni aks ettirmaydi, aksincha, unga singib boradi va uni qayta tiklaydi. M.Xaydegger ta’kidlaganidek, “o‘sha tarixiy davrdagi jamiyatning yangi g‘oyalarni rivojlantirgan gumanistik qatlami bir vaqtning o‘zida ushbu g‘oyalar ta’siri ostida shakllangan” [2;26].

Ilmiy doiralarda bu davrda yashab o‘tgan gumanistlarning tarjimai holi, yozishmalari, nutqlari hamda ilmiy izlanishlarida davr ruhi bilan sug‘orilgan she’riyat dunyosi, kartinalari uchun bir xil umumiylik xos bo‘lib, butun madaniyatning tipologik xususiyatlarini o‘zida aks ettiradi, deb ta’kidlanadi.

Volume: 6 Issue: 02 | 2026
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Aytish mumkinki, ushbu jihatdan gumanizm butun Uyg'onish davri madaniy olamining ichki ta'rifi sifatida tushunilishi mumkin. Tadqiqotchi olim L.P.Batkin: "Uyg'onish davri – bu, madaniyatning gumanistik turi. Insonparvarlik esa Uyg'onish davri hodisasidir va uning o'ziga xos namoyon bo'lishi G'arbiy Yevropaning mutlaqo o'ziga xos va takrorlanmas ma'naviy hodisasidir" [3;13], - deb yozdi.

XVI asrning ikkinchi yarmida fransuz nasridagi Montenning "Tajribalar" asarining muhim o'rni borligini ta'kidlash o'rinli – bu kitobning nafaqat o'ziga xosligi, o'sha davr uchun, hech bir mubolag'asiz, jahon adabiyotida o'z o'rni mavjudligidadir. XVI asrning 70-yillari Fransiyada Montenning "Tajribalar" asarining chop etilishi payti siyosiy fikrning favqulodda gullab-yashnashi davri ham edi. Inson ongining cheksiz imkoniyatlarini tasdiqlash ayni paytda Uyg'onish davri gumanistik ta'limotining muhim talabiga aylandi. Biroq bu davrning oxirlariga kelib, Yevropada shakllangan gumanizm murakkab va qiyin bosqichiga o'tdi, o'sha paytda tarixiy haqiqat gumanistlar kutgan natijalarni bermadi. Ularning hayotga ijobiy qarashlari, yetuk axloqli inson tabiati haqidagi idealistik qarashlari olamni yanada achchiq va fojiali tarzda namoyon qilishi bilan bir qatorda, teranroq va yorqinroq tarzda namoyon etdi. Uyg'onish davriga xos bo'lgan bunday dunyoni anglash Mishel Montenning "Tajribalar" asarida o'zining to'liq ifodasini topdi.

Mishel Monten barcha yangi davr faylasuflari kabi ijtimoiy muhitning xarakterli mahsuli bo'lib, tabiatan realist edi. Yuqori tabaqaga mansub bo'lsa-da, mamlakat ijtimoiy hayotini va fransuz qirollarining turmush tarzini xolisona kuzatishi, uning falsafiy qarashlari shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. U har qanday diniy dogmatik qarashlardan va bahslardan yiroq bo'lgan siyosatdonlar bilan hamfikr bo'lib, mamlakat farovonligi, tinchligi uchun kurash olib borgan. Monten falsafiy mulohazalarining eng muhim strategik nuqtalaridan biri uning "Tajribalar" asari bo'lib, quruq sxolastikadan iborat falsafiy mushohada va qarashlardan keskin farq qiladi. Uning falsafiy qarashlarining asosida "Inson" va "Men" ning asl mohiyatini ochish yotadi. Ana shu jihati bilan uning hayotiyligi o'zini namoyon qiladi. Chunki, insonning qiziqishlari, intilishlari, yurish-turishlari, turmush tarzi mushohada qilinadi.

Mishel Monten o'z davrida rasmiy nazariy hukmronlikni talab qilgan sxolastik falsafani keskin tanqid qilib, mazkur falsafa Uyg'onish davrida shakllangan yangi zamon talablariga javob bermay qo'yganligini ta'kidlaydi. U o'zining asarlarida sxolastik falsafa soxta bilimlar manbai ekanligini ta'kidlab, sxolastik falsafa uchun asos bo'lgan manbalarni tahlil qiladi. Unga ko'ra, "so'zlar fikrlarga bo'ysinishi hamda uning izidan borishi lozim, buning teskarisi bo'lishi kerak emas" [4;160], - deb yozdi. Monten sxolastik falsafani tanqid qilar ekan, insonparvarlik haqidagi g'oyalarini targ'ib qilishda skeptiklarning fikrlariga tayanib, ularning inson bilimlarining haqiqiyligi haqidagi qarashlarini boyitgan.

"Tajribalar" asarini mutola qilish jarayonida, Mishel Monten ilk skeptiklardan biri hisoblangan Pirronning falsafiy qarashlari ta'sirida bo'lganligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Chunki Monten skeptiklar antik dialektikadek qudratli qurolga ega, degan fikrlarni qo'llab-quvvatlaydi. Uningcha, skeptiklar Geraklit, Suqrot, Platon, Aristotellar dialektikasini o'zlaricha talqin etganliklarini qo'llab-quvvatlaydi. Shu o'rinda Mishel Monten skeptiklarning haqiqat sub'ektivdir, haqiqat ehtimolli deb ataganliklarini e'tirof qilar ekan, hissiy bilishning noaniqligi va nisbiyligiga alohida urg'u qaratadi.

Mishel Monten skeptiklar agnostizimidan ham ustalik bilan foydalanadi va o'zining "Tajribalar" asarida: "Men aslida nimani bilaman?", - degan savol qo'yadi va butun umri davomida unga amal qiladi. "Bilimsizlikdan qutulish uchun uni tan olish kerak, – deydi Monten. Har qanday falsafiy fikrning boshlanishi hayrat, rivojlanishi tadqiqot, yakuni esa bilimsizlik (yangi bilimga ehtiyoj ma'nosida) tashkil etadi" [4; 473], - deb yozadi.

Yuqoridagi fikr-mulohazalarga asoslanib, Mishel Montenning bu qarashlari va g'oyalari gnoseologik pessimizmga yaqin ekanligini ko'rish mumkin. Uning qarashlari skeptizmning o'zidir.

Ammo Monten qarashlari teologik dogmatizm va sxolastik avtoritarizmga qarshi qaratilgan boʻlib, oʻzining falsafiy qarashlarini mutlaq haqiqat, deb hisoblagan. Ratsional falsafiy mushohada tarafdori boʻlgan Monten teologik dogmatizmning fanatik qarashlarini ham qattiq qoralaydi. Monten oʻz asarida teologik dogmatizm tarafdorlarini “Odamlarni fikrlari uchun tiriklayin yoqib yuboruvchilar”, - deb qoralaydi. Montenning falsafiy qarashlarini oʻrganish shundan darak beradiki, unda skeptizm gʻoyalari aniq va yaqqol koʻrinib turadi. Chunki Monten oʻz asarida asosiy e’tiborni bilimlarning harakteriga qaratadi. Shuning uchun ham u insonning bilish faoliyatiga bilim va bilimsizlik orasidagi harakat deb qaraydi.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations)**

Fransuz olimi Mishel Monten ijodiy falsafasining muhim xususiyati uning har qanday moʻjizani inkor etishidir. Uning nazdida moʻjiza insonlarning ojizligi tufayli, ya’ni biror bir hodisaning sababini aniqlay olmaganlaridan vujudga keladigan tushunchadir. Bu oʻziga xos yondashuv Montenning naturalistik gʻoyasi boʻlib, bu gʻoya yangi falsafaning vujudga kelishiga fundamental asos boʻldi desak, mubolagʻa boʻlmaydi. Mishel de Montenning boy merosi Uygʻonish davri ma’naviyatini til, milliy oʻzlik va adabiy meros kontekstida oʻrganish uchun markaziy manba sifatida namoyon boʻladi.

“Tajribalar” asari insonparvarlik intilishlarini oʻz ichiga olgan holda axloqiy-nazariy qarashlar, bilimga intilish va hayotiy donolik sigʻasi sifatida shakllangan; bu xususiyatlar davrning etika-ethnografik va pedagogik yoʻnalishlariga mustahkam asos boʻlib xizmat etadi. Hozirgi filologiya amaliyotida asarning tilshunoslik jihatlari (janr turli oʻzaro ta’sirlari, metafora tizimi, intertekstual aloqalar), adabiy meros kontekstida milliy oʻzlikning rivojlanishi va tilning ma’naviy ta’limotlar bilan moslashuvi ochiqlanadi. Shuningdek, axloqiy-ijtimoiy taraqqiyot va estetik qadriyatlarga oid talqinlar integratsiyalashgan yondashuvlar orqali tahlil qilinadi.

Xulosa sifatida, Montaignening ijodi orqali Uygʻonish davri daholarining ma’naviy ta’limotlari tilshunoslik, adabiyotshunoslik va axloqiy nazariyalar hamkorligida oʻrganilganda, milliy identitet barqarorligi va tarjima-tushuncha jarayonlari uchun ilmiy asoslar beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati (References)**

1. Шадманов К.Б. Английская духовность и язык. - Дюссельдорф: Изд-во Lambert, 2015. - 264 с.
2. Хайдеггер М. Бытие и время / М. Хайдеггер; Пер. с нем. В.В. Бибихина. - Харьков: «Фолио», 2003. – 503 с.
3. Баткин Л.М. Итальянские гуманисты: стиль жизни и стиль мышления [Текст] / Л. М. Баткин. — Москва : Наука, 1978. — 198 с.
4. *Монтень М. Опыты. Книги 1,2. Издание подготовили А.С. Бобович, Ф.А. Коган-Бернштейн, Н.Я. Рыкова, А.А. Смирнов. 2-е издание. Ответственный редактор Ю.Б. Виппер. - Москва:«Наука», 1979.- 242 с.*
5. Normatova D.E. Mishel Eykem de Montenning ijtimoiy-axloqiy qarashlari // NamDU ilmiy axborotnomasi - Nauchniy vestnik NamGU, 2019 yil 10-son. -B.185.
6. Қурбонов У. Етук ахлоқий шахсни шакллантиришнинг фалсафий омиллари (Мишел Монтеннинг “Тажрибалар” асари асосида): Фалс. фан. бўй. фалс. док....дис. – Бухоро: 2022.
7. Gunnar Skirbekk., Nils Gile. Falsafa tarixi. -Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2002. - 716 b.

*International Journal of Intellectual and Cultural Heritage*
*Volume: 6 Issue: 02 | 2026*
*ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314*
*http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich*

***Muminov Olimjon***
***Oriental universiteti magistranti***

*Ilmiy rahbar: M.Yunusov*
*T.f.f.d, dotsent*

*Received 4th February 2026, Accepted 10th April 2026, Online 30th June 2026*

## O‘ZBEKISTONDAGI YODGORLIKLARNI SAQLASH VA RESTAVRATSIYA QILISHDA XALQARO LOYIHALAR TAJRIBASI

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O‘zbekistondagi tarixiy-me’moriy yodgorliklarni saqlash va restavratsiya qilishda xalqaro loyihalar tajribasi ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda YUNESKO, ICCROM, ICOMOS hamda Italiya, Fransiya, Germaniya va boshqa davlatlar bilan amalga oshirilgan hamkorlik dasturlarining asosiy yo‘nalishlari, amaliy natijalari va milliy madaniy merosni muhofaza qilish tizimiga ta’siri o‘rganilgan. Samarqand, Buxoro, Xiva va Shahrisabz kabi Jahon merosi obyektlari misolida xalqaro restavratsiya loyihalarining tarixiy yodgorliklarni konservatsiya qilish, ilmiy restavratsiya metodlarini joriy etish, boshqaruv rejalari ishlab chiqish, monitoring tizimlarini shakllantirish va mutaxassislar tayyorlashdagi ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot natijalari xalqaro hamkorlik O‘zbekistonda yodgorliklarni saqlash amaliyotini zamonaviy ilmiy standartlar asosida takomillashtirishga, milliy restavratsiya maktabining rivojlanishiga hamda madaniy meros obyektlarini kompleks boshqarish tizimini shakllantirishga xizmat qilayotganini ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar:**
madaniy meros, restavratsiya, konservatsiya, xalqaro hamkorlik, YUNESKO, ICCROM, ICOMOS, Jahon merosi, tarixiy yodgorliklar, Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, monitoring, boshqaruv rejasi, tarixiy muhit, madaniy turizm.

## ОПЫТ РЕАЛИЗАЦИИ МЕЖДУНАРОДНЫХ ПРОЕКТОВ ПО СОХРАНЕНИЮ И РЕСТАВРАЦИИ ПАМЯТНИКОВ В УЗБЕКИСТАНЕ.

**Аннотация.** В данной статье проводится научный анализ опыта международных проектов в области сохранения и реставрации историко-архитектурных памятников Узбекистана. В исследовании рассматриваются основные направления, практические результаты и влияние программ сотрудничества, реализованных совместно с ЮНЕСКО, ICCROM, ICOMOS, а также Италией, Францией, Германией и другими странами, на национальную систему охраны культурного наследия. На примере объектов Всемирного наследия — Самарканда, Бухары, Хивы и Шахрисабза — раскрывается значение международных реставрационных проектов в сфере консервации памятников, внедрения научных методов реставрации, разработки планов управления, формирования систем мониторинга и подготовки специалистов. Результаты исследования показывают, что международное сотрудничество способствует совершенствованию практики сохранения памятников в Узбекистане на основе современных научных стандартов, развитию национальной реставрационной школы и формированию комплексной системы управления объектами культурного наследия.

**Ключевые слова:**
культурное наследие, реставрация, консервация, международное сотрудничество, ЮНЕСКО, ICCROM, ICOMOS, Всемирное наследие, исторические памятники, Самарканд, Бухара, Хива, Шахрисабз, мониторинг, план управления, историческая среда, культурный туризм.

## EXPERIENCE OF INTERNATIONAL PROJECTS IN THE PRESERVATION AND RESTORATION OF MONUMENTS IN UZBEKISTAN

**Abstract.** This article provides a scientific analysis of the experience of international projects in the preservation and restoration of historical and architectural monuments in Uzbekistan. The study examines the main directions, practical outcomes, and impact of cooperation programs implemented with UNESCO, ICCROM, ICOMOS, as well as Italy, France, Germany, and other countries on the national cultural heritage protection system. Using the examples of World Heritage sites such as Samarkand, Bukhara, Khiva, and Shahrisabz, the article highlights the significance of international restoration projects in monument conservation, implementation of scientific restoration methods, development of management plans, establishment of monitoring systems, and professional capacity building. The research findings demonstrate that international cooperation contributes to improving monument preservation practices in Uzbekistan in accordance with modern scientific standards, strengthening the national restoration school, and developing an integrated management system for cultural heritage sites.

**Keywords:** cultural heritage, restoration, conservation, international cooperation, UNESCO, ICCROM, ICOMOS, World Heritage, historical monuments, Samarkand, Bukhara, Khiva, Shahrisabz, monitoring, management plan, historical environment, cultural tourism.

### Kirish

O‘zbekiston hududida joylashgan tarixiy-me’moriy yodgorliklar, qadimiy shahar markazlari va arxeologik obyektlar mamlakat madaniy merosining muhim tarkibiy qismini tashkil etadi. Mustaqillik yillarida ushbu yodgorliklarni saqlash, restavratsiya qilish va xalqaro miqyosda targ‘ib etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ayniqsa, Samarqand, Buxoro, Xiva va Shahrisabz kabi tarixiy shaharlarning YUNESKO Jahon merosi ro‘yxatiga kiritilishi O‘zbekistonda madaniy meros obyektlarini saqlash bo‘yicha xalqaro loyihalar ahamiyatini yanada oshirdi. Xalqaro tashkilotlar, xorijiy restavratsiya maktablari va ilmiy markazlar bilan hamkorlik yodgorliklarni faqat ta’mirlash emas, balki ularni ilmiy asosda konservatsiya qilish, tarixiy muhitini saqlash, boshqaruv rejalarini ishlab chiqish va monitoring tizimlarini shakllantirish imkonini berdi. YUNESKO, ICCROM, ICOMOS hamda Italiya, Fransiya, Germaniya, Yaponiya kabi davlatlar bilan amalga oshirilgan loyihalar O‘zbekistonda zamonaviy restavratsiya tajribasining rivojlanishiga xizmat qildi. Mazkur maqolada O‘zbekistondagi yodgorliklarni saqlash va restavratsiya qilishda xalqaro loyihalar tajribasi, ularning asosiy yo‘nalishlari, amaliy natijalari hamda madaniy merosni muhofaza qilish tizimidagi o‘rni tahlil qilinadi.

### Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

O‘zbekistonda yodgorliklarni saqlash va restavratsiya qilishda xalqaro loyihalar tajribasi masalasi madaniy merosni muhofaza qilish, restavratsiya nazariyasi, xalqaro hamkorlik va tarixiy

shaharlarni boshqarish bilan bog‘liq ilmiy adabiyotlarda yoritilgan. Mavzuga oid manbalarni shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin: xalqaro restavratsiya nazariyasiga oid asarlar, O‘zbekiston madaniy merosini saqlashga bag‘ishlangan tadqiqotlar hamda YUNESKO va ICCROM kabi tashkilotlar faoliyatiga oid rasmiy materiallar.

C. Brandi va B.M. Feilden asarlarida restavratsiyaning nazariy asoslari, yodgorlikning tarixiy substansiyasini saqlash, minimal aralashuv va ilmiy hujjatlashtirish tamoyillari yoritilgan. Ushbu nazariy yondashuvlar O‘zbekistondagi xalqaro restavratsiya loyihalarini baholashda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. K.B. Akilova ishlarida O‘zbekistonda moddiy tarixiy-madaniy merosni saqlashning dolzarb muammolari, restavratsiya jarayonida ilmiy yondashuv va xalqaro tajribadan foydalanish zarurati ko‘rsatib berilgan.

M. Khasanova tadqiqotida O‘zbekiston tarixiy-madaniy merosini saqlashda xalqaro hamkorlikning o‘rni tahlil qilingan. L. Xushnazarova va L. Babaxodjayeva ishlarida esa O‘zbekistonning xorijiy davlatlar bilan madaniy aloqalari va madaniy-gumanitar hamkorlik yo‘nalishlari yoritilgan. YUNESKO va ICCROM materiallari Samarqand, Buxoro, Xiva va Shahrisabz kabi tarixiy markazlarni saqlash, boshqaruv rejalari, monitoring tizimi va mutaxassislar tayyorlash masalalarini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi.

Mavjud adabiyotlar xalqaro loyihalarning umumiy ahamiyatini ochib beradi. Biroq ayrim tadqiqotlarda ushbu loyihalarning amaliy natijalari, mahalliy restavratsiya maktabiga ta’siri va tarixiy shaharlarni kompleks boshqarishdagi o‘rni yetarli darajada qiyosiy tahlil qilinmagan. Shu sababli mazkur maqola xalqaro loyihalar tajribasini aynan amaliy natijalar va institutsional o‘zgarishlar nuqtayi nazaridan umumlashtirishga qaratiladi.

## Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur maqolada O‘zbekistondagi yodgorliklarni saqlash va restavratsiya qilishda xalqaro loyihalar tajribasini o‘rganishda tarixiy-tahliliy, qiyosiy, tizimli va manbashunoslik metodlaridan foydalanildi. Tarixiy-tahliliy metod orqali mustaqillik yillaridan boshlab O‘zbekistonda madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va restavratsiya qilish bo‘yicha xalqaro hamkorlikning shakllanishi bosqichma-bosqich ko‘rib chiqildi. Xususan, Samarqand, Buxoro, Xiva va Shahrisabz kabi tarixiy markazlarda amalga oshirilgan xalqaro loyihalarning maqsadi, yo‘nalishlari va natijalari tahlil qilindi.

Qiyosiy metod yordamida YUNESKO, ICCROM, ICOMOS hamda xorijiy davlatlar ishtirokidagi loyihalar o‘zaro solishtirildi. Bu yondashuv xalqaro loyihalarning qaysi jihatlari restavratsiya, monitoring, boshqaruv rejalari, kadrlar tayyorlash yoki madaniy turizmni rivojlantirishga ko‘proq ta’sir ko‘rsatganini aniqlash imkonini berdi. Tizimli yondashuv asosida yodgorliklarni saqlash jarayoni alohida obyektlarni ta’mirlash bilan cheklanmay, balki tarixiy muhit, muhofaza zonalari, shaharsozlik bosimi, turizm oqimi va madaniy landshaftni boshqarish bilan bog‘liq kompleks jarayon sifatida baholandi.

Manbashunoslik usuli orqali ilmiy adabiyotlar, rasmiy axborotlar, xalqaro tashkilotlar materiallari va mavjud tadqiqotlar tahlil qilindi. Shuningdek, maqolada umumlashtirish va xulosalash metodlari qo‘llanilib, xalqaro restavratsiya loyihalarining O‘zbekistondagi madaniy merosni muhofaza qilish tizimiga ta’siri, samarali jihatlari hamda mavjud muammolari aniqlashga harakat qilindi.

## Tahlil va natijalar

O‘zbekiston Respublikasida madaniy merosni saqlash va tiklash bo‘yicha xalqaro loyihalar yodgorliklarni himoya qilish va mamlakatning global madaniy makonga integratsiyalashuvi bo‘yicha davlat siyosatida muhim o‘rin tutadi. YuNESKO va xalqaro tashkilotlar ishtirokida amalga oshirilayotgan Jahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan tarixiy shaharlarning me’moriy ansambllarini saqlashga qaratilgan loyihalar alohida ahamiyatga ega. Xalqaro hamkorlik Samarqand, Buxoro, Xiva

va Shahrisabzdagi yodgorliklarni saqlash va tiklashning zamonaviy usullarini joriy etish, ularning saqlanishi va ilmiy jihatdan tiklanishini ta’minlash imkonini beradi [4].

Samarqand Markaziy Osiyoning eng yirik tarixiy markazlaridan biri va 2001-yilda YuNESKOning Jahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan O‘zbekiston madaniy merosini saqlab qolish bo‘yicha xalqaro loyihalarda alohida o‘rin tutadi. Samarqanddagi xalqaro restavratsiya dasturlari Temuriylar davridan qolgan me’moriy yodgorliklarni va tarixiy shahar muhitini saqlab qolishga qaratilgan. Xalqaro hamkorlik zamonaviy restavratsiya usullarini joriy etish va milliy mutaxassislarni tayyorlash imkonini beradi [9]. Natijada, Samarqand O‘zbekistonda xalqaro restavratsiya hamkorligining yetakchi markaziga aylanib bormoqda.

Buxoro shahri ham xalqaro madaniy merosni saqlash loyihalarining asosiy yo‘nalishi hisoblanadi, chunki uning tarixiy markazi YuNESKOning Jahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan. Buxorodagi xalqaro restavratsiya dasturlari o‘rta asr islom me’moriy ansambllarini va tarixiy shahar tuzilishini saqlab qolishga qaratilgan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Poi-Kalon majmuasi, madrasalar va tarixiy markaz maqbaralarida restavratsiya ishlari xalqaro mutaxassislar ishtirokida amalga oshirilmoqda [7]. Xalqaro loyihalar materiallarni ilmiy tadqiq qilish, konstruktiv mustahkamlash va yodgorliklarning dekorativ xususiyatlarini tiklashni o‘z ichiga olgan.

Xiva saqlanib qolgan tarixiy shaharning noyob namunasidir, bu yerda xalqaro loyihalar Markaziy Osiyodagi birinchi YUNESKOning Jahon merosi ob’ektlaridan biri bo‘lgan Ichan-Qal’a me’moriy ansamblining yaxlitligini saqlashga qaratilgan. Xivadagi xalqaro hamkorlik tarixiy shaharning qal’a devorlari, masjidlari, madrasalari va turar-joy binolarini tiklashni o‘z ichiga oladi. Xalqaro tashkilotlarning ishtiroki an’anaviy qurilish usullarini saqlab qolish imkonini beradi va yodgorliklarning ilmiy jihatdan saqlanishini ta’minlaydi [4]. Xalqaro loyihalar turizmni rivojlantirish va shaharning tarixiy muhitini saqlashga ham hissa qo‘shadi.

Shahrisabz Temuriylar davrining tarixiy shahri sifatida xalqaro madaniy merosni saqlash loyihalarining ham mavzusi hisoblanadi. Shahrisabz tarixiy markazining YuNESKOning Jahon merosi ro‘yxatiga kiritilishi xalqaro yodgorliklarni monitoring qilish va tiklash dasturlarini amalga oshirish zaruratini yuzaga keltirdi. Xalqaro ekspertlar yodgorliklarning holatini baholash, boshqaruv rejalarini ishlab chiqish va tiklash ishlarini olib borishda ishtirok etmoqda [4]. Xalqaro hamkorlik Oqsaroy, Dor ut-tilovat va Dor us-saodat me’moriy majmualarini saqlab qolishga qaratilgan.

O‘zbekiston madaniy merosini saqlab qolish bo‘yicha xalqaro loyihalarning muhim jihati tarixiy shaharlardagi me’moriy yodgorliklarni tiklashda xorijiy mutaxassislar va restavratsiya maktablarining ishtirokidir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Italiya, Germaniya va Fransiya restavratorlari bilan hamkorlik tarixiy binolar uchun zamonaviy konservatsiya texnologiyalarini, jumladan, konstruktiv mustahkamlash, sopol qoplamalarni tiklash va dekorativ elementlarni tiklashni joriy etish imkonini beradi [9]. Xorijiy mutaxassislar, shuningdek, milliy restavratorlarni tayyorlash va yodgorliklarni saqlashning ilmiy usullarini ishlab chiqishda ishtirok etadilar.

Xalqaro tashkilotlarning grant dasturlari va moliyaviy ko‘magi ham O‘zbekistondagi xalqaro yodgorliklarni saqlash loyihalarining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. YUNESKO va Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi ko‘magida mamlakatda paxsa va xom g‘ishtli me’moriy yodgorliklarni saqlab qolish va tiklash loyihalari amalga oshirilmoqda. Ushbu loyihalar materiallarni ilmiy tadqiq qilish, konservatsiya texnologiyalarini ishlab chiqish va mutaxassislarni tayyorlashni o‘z ichiga olgan [9]. Xalqaro moliyalashtirish Samarqand, Buxoro va Xivadagi bir qator me’moriy yodgorliklarni saqlab qolish imkonini berdi. Natijada xalqaro tashkilotlarning grant dasturlari O‘zbekistonda restavratsiya faoliyati uchun muhim resursga aylandi.

O‘zbekistonda madaniy merosni saqlash sohasidagi xalqaro loyihalar qatoriga qadimiy yodgorliklarni o‘rganish va saqlashga qaratilgan transmilliy ilmiy tadqiqotlar va arxeologik dasturlar ham kiradi. Xorijiy olimlar ishtirokidagi qo‘shma ekspeditsiyalar arxeologik tadqiqotlar o‘tkazish,

arxeologik yodgorliklarni saqlash va mutaxassislarni tayyorlash imkonini beradi [1]. Xalqaro arxeologik loyihalar Markaziy Osiyoning qadimgi sivilizatsiyalarini o‘rganishga va O‘zbekistonning arxeologik merosini saqlashga hissa qo‘shadi.

O‘zbekiston yodgorliklarini xalqaro miqyosda tiklash loyihalari madaniy turizmni rivojlantirish va tarixiy shahar muhitini saqlash bilan chambarchas bog‘liq. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, Samarqand, Buxoro, Xiva va Shahrisabz me’moriy ansambllarini xalqaro tashkilotlar ko‘magida saqlab qolish mamlakatning sayyohlik jozibadorligini oshirishga va tarixiy shaharlarning barqaror rivojlanishiga hissa qo‘shadi [4]. Xalqaro dasturlar yodgorliklar va tarixiy muhitni, jumladan, infratuzilma, an’anaviy hunarmandchilik va madaniy landshaftlarni har tomonlama saqlashni ta’minlaydi.

O‘zbekistondagi xalqaro madaniy merosni saqlash loyihalaridagi mavjud tajriba yodgorliklarni tiklash, ilmiy tadqiqotlar, kadrlar tayyorlash va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishni o‘z ichiga olgan kompleks yondashuv bilan tavsiflanadi. Samarqand, Buxoro, Xiva va Shahrisabzda loyihalarni amalga oshirish milliy ilmiy tiklash tizimini yaratishga va yodgorliklarni saqlash bo‘yicha xalqaro standartlarni joriy etishga yordam berdi [4]. Xalqaro loyihalar ham merosni himoya qilishning institutsional tizimini mustahkamlashga va mamlakatning ilmiy salohiyatini rivojlantirishga hissa qo‘shdi.

O‘zbekistondagi yodgorliklarni saqlash va restavratsiya qilish bo‘yicha xalqaro loyihalar tajribasining muhim jihati shundan iboratki, ular alohida obidalarni ta’mirlash bilan cheklanmay, balki Jahon merosi obyektlarini kompleks boshqarish tizimini shakllantirishga ham xizmat qildi. YuNESKOning rasmiy materiallarida O‘zbekiston bilan hamkorlik doirasida Jahon merosi obyektlarini saqlash va targ‘ib qilish ustuvor yo‘nalish sifatida ko‘rsatilgan bo‘lib, bunda yodgorlikning o‘zi bilan bir qatorda uning tarixiy muhiti, himoya zonalari, boshqaruv rejasi va monitoring mexanizmlari ham e’tiborga olinadi. Xususan, O‘zbekiston hududidagi Jahon merosi obyektlari bilan ishlashni kuchaytirish maqsadida 2021-yilda Jahon merosi obyektlari bo‘yicha Xalqaro maslahat qo‘mitasi tashkil etilgan bo‘lib, bu tuzilma xalqaro ekspertiza va milliy boshqaruv amaliyotini yaqinlashtirishga xizmat qilmoqda. Mazkur tajriba O‘zbekistonda restavratsiya loyihalarining faqat texnik emas, balki institutsional va strategik xarakter kasb eta boshlaganini ko‘rsatadi.

Xalqaro loyihalar tajribasining yana bir muhim tomoni — boshqaruv rejalari va doimiy monitoring tizimlarining joriy etilishidir. Jahon merosi obyektlari bilan ishlashning zamonaviy modelida restavratsiya bir martalik qurilish-tiklash tadbiri sifatida emas, balki yodgorlikning uzoq muddatli saqlanishini ta’minlovchi uzluksiz boshqaruv jarayoni sifatida qaraladi. Shu ma’noda, Samarqand, Buxoro, Xiva va Shahrisabz kabi tarixiy markazlarda xalqaro loyihalar doirasida shaharsozlik bosimi, transport yuklamasi, turizm oqimi, yerosti suvlari, muhofaza hududlari va an’anaviy qurilish muhitiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni hisobga olgan boshqaruv yondashuvlari kuchaydi. Ilmiy adabiyotlarda bunday yondashuv tarixiy shaharlarni saqlashning eng maqbul shakllaridan biri sifatida baholanadi, chunki u alohida obidani emas, balki butun tarixiy makonni muhofaza qilish imkonini beradi. Shu jihatdan xalqaro loyihalar O‘zbekistonda tarixiy shaharlarni saqlashning kompleks modelini shakllantirishga turtki berdi.

O‘zbekistonda xalqaro restavratsiya loyihalarining samarali jihatlaridan biri konservatsiya va restavratsiyada ilmiy metodlarning kengroq joriy etilganidadir. Xorijiy mutaxassislar ishtirokidagi loyihalarda yodgorlikning konstruktiv holatini muhandislik jihatdan tahlil qilish, qurilish materiallarini laboratoriya usulida tekshirish, namlik va sho‘rlanish darajasini aniqlash, sopol qoplamalar va mayolika bezaklarining fizik-kimyoviy xususiyatlarini baholash kabi usullar qo‘llanildi [2]. Ayniqsa, xom g‘isht, paxsadan qurilgan yoki sirlangan koshinlar bilan bezatilgan obidalarda bunday ilmiy yondashuv katta amaliy ahamiyat kasb etdi. Restavratsiya nazariyasida ham yodgorlikning tarixiy substansiyasini saqlash, minimal aralashuv va hujjatlashtirish asosiy tamoyillar sifatida qayd etiladi.

Shu ma'noda O'zbekistondagi xalqaro loyihalar tajribasi mahalliy restavratsiya amaliyotini ilmiy konservatsiya standartlariga yaqinlashtirdi.

Xalqaro loyihalarning amaliy natijalaridan yana biri — milliy kadrlar salohiyatining oshganidadir. YuNESKO va ICCROM bilan bog'liq dasturlar, seminarlar, treninglar va tajriba almashuv platformalari orqali o'zbekistonlik me'mor-restavratorlar, arxeologlar, muzey mutaxassislari va muhofaza bo'yicha ekspertlar xalqaro metodika bilan bevosita tanishish imkoniga ega bo'ldilar. ICCROMning rasmiy ma'lumotiga ko'ra [3], O'zbekiston 2024-yil avgustida ushbu tashkilotning 138-a'zo davlati sifatida qabul qilingan bo'lib, bu restavratsiya va merosni boshqarish sohasidagi professional aloqalarni yanada kengaytirish uchun muhim huquqiy va institutsional asos yaratdi. 2025-yilda esa ICCROM va O'zbekiston o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish bo'yicha alohida rivojlanish bosqichi qayd etilgan. Bu holat xalqaro loyihalar faqat yodgorliklarni saqlash emas, balki milliy restavratsiya maktabini shakllantirishning ham muhim instrumenti ekanini ko'rsatadi.

O'zbekistondagi xalqaro loyihalar tajribasida tarixiy yodgorliklarni saqlash bilan turizm va hududiy rivojlanish manfaatlarini muvozanatlashtirish masalasi ham muhim o'rin egallaydi. Jahon merosi maqomiga ega tarixiy markazlarda xalqaro ekspertlar, odatda, yodgorlikni iqtisodiy faollik manbai sifatida rivojlantirish bilan uning tarixiy qiyofasi va autentik muhitini saqlash o'rtasida muvozanat bo'lishi kerakligini ta'kidlaydilar. Xususan, YuNESKO materiallarida Samarqand, Buxoro va Xiva kabi tarixiy shaharlar nafaqat me'moriy meros markazi, balki madaniy turizmning muhim nuqtalari sifatida talqin qilinadi, biroq bunday rivojlanish muhofaza tamoyillariga bo'ysundirilishi lozimligi ham qayd etiladi. Shu sababli O'zbekistondagi xalqaro loyihalar tajribasi yodgorliklarni saqlash, turizmni boshqarish, mahalliy hunarmandchilikni qo'llab-quvvatlash va tarixiy muhitning yashovchanligini ta'minlashni o'zaro bog'liq jarayon sifatida ko'rsatadi.

Shuningdek, xalqaro loyihalar O'zbekistonning Jahon merosi doirasidagi obyektlari bilan bir qatorda yangi nominatsiyalar va madaniy makonlarni ilmiy asosda tayyorlash tajribasini ham boyitdi. Masalan, YuNESKOning Tentative List materiallarida Toshkent modernistik arxitekturasi kabi yangi yo'nalishdagi meros obyektlarini xalqaro talablarga muvofiq tavsiflash, ularning umuminsoniy qiymatini asoslash va boshqaruv yondashuvlarini ishlab chiqish zarurati ko'rinadi [6,8]. Bu esa xalqaro loyiha tajribasi O'zbekistonda faqat o'tmishdagi mashhur tarixiy markazlar bilan ishlash emas, balki yangi turdagi meros kategoriyalarini aniqlash va ilmiy muomalaga kiritishga ham ta'sir qilayotganini ko'rsatadi.

O'zbekiston madaniy merosini saqlash bo'yicha xalqaro loyihalarning muhim yo'nalishi me'moriy yodgorliklarni, xususan, xom g'ishtli inshootlar va sopol bezaklarni saqlashning ilmiy usullarini joriy etishdir. Xalqaro restavratsiya loyihalari Temuriylar me'morchiligiga xos bo'lgan g'isht devorlarini mustahkamlash, poydevorini barqarorlashtirish va mayolika qoplamalarini saqlab qolish texnologiyalarini joriy etish imkonini berdi [7]. Samarqand va Buxoroda xalqaro restavratsiya usullarining qo'llanilishi yodgorliklarning asl tarixiy tuzilishini saqlab qolishni ta'minladi.

O'zbekistondagi xalqaro yodgorliklarni tiklash loyihalarining muhim natijasi madaniy merosni saqlash bo'yicha xalqaro standartlarga asoslangan milliy ilmiy tiklash maktabining shakllanishi bo'ldi. O'zbekistonlik mutaxassislarning xalqaro YUNESKO va ICCROM dasturlarida ishtiroki zamonaviy konservatsiya usullari bo'yicha malakali restavratorlar, me'morlar va arxeologlarni tayyorlashga hissa qo'shmoqda [5]. Xalqaro loyihalar stajirovkalar, o'qitish va tajriba almashishni o'z ichiga oladi, bu milliy merosni muhofaza qilish tizimining professional salohiyatini mustahkamlaydi.

O'zbekiston madaniy merosini saqlash bo'yicha xalqaro loyihalar ham Jahon merosi ob'ektlarini boshqarish va monitoring qilish tizimlarini rivojlantirishga hissa qo'shadi. Xalqaro mutaxassislar yordamida Samarqand, Buxoro va Shahrisabzning tarixiy markazlari uchun boshqaruv rejalari ishlab chiqilgan, jumladan, shaharsozlikni tartibga solish va tarixiy muhitni saqlashni ta'minlagan [4].

Xalqaro monitoring yodgorliklarni saqlashga tahdidlarni aniqlash va profilaktika choralarini ishlab chiqish imkonini beradi.

O‘zbekistondagi xalqaro yodgorliklarni tiklash loyihalari tajribasi tarixiy shaharlarni saqlashga kompleks yondashuvning samaradorligini ko‘rsatadi, jumladan, yodgorliklarni, tarixiy muhitni va madaniy landshaftni himoya qilishni o‘z ichiga oladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Samarqand, Buxoro va Xivadagi xalqaro dasturlar tarixiy ansambllarning yaxlitligini va an’anaviy shahar qiyofasini saqlashga qaratilgan [4]. Ushbu yondashuv tarixiy shaharlarning madaniy aslligini va ularning sayyohlik jozibadorligini saqlashga yordam beradi. Xalqaro loyihalar, shuningdek, an’anaviy hunarmandchilikni va tarixiy hududlarning madaniy infratuzilmasini rivojlantirishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston yodgorliklarini saqlash va tiklash bo‘yicha xalqaro loyihalar mamlakat tarixiy shaharlarining me’moriy va arxeologik merosini saqlashda muhim rol o‘ynadi. Samarqand, Buxoro, Xiva va Shahrisabzda YuNESKO, ICCROM, xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar ishtirokida loyihalarning amalga oshirilishi zamonaviy ilmiy tiklash usullarini joriy etish, milliy mutaxassislarni tayyorlash va Jahon merosi ob’ektlarini boshqarish tizimini ishlab chiqish imkonini berdi. Xalqaro grantlar va ilmiy dasturlar yodgorliklarning haqiqiyligini va tarixiy muhitni saqlashni ta’minladi. Natijada, xalqaro hamkorlik O‘zbekiston madaniy merosini saqlashning zamonaviy amaliyotining asosiga va mamlakatni global merosni himoya qilish tizimiga integratsiyalashuvida muhim omilga aylandi.

**Xulosa va takliflar**

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, xalqaro loyihalar O‘zbekistonda faqat alohida obidalarni ta’mirlash bilan cheklanmay, balki madaniy meros obyektlarini kompleks boshqarish, monitoring qilish, muhofaza zonalarini belgilash va turizm ta’sirini tartibga solish tajribasini ham shakllantirdi. Shu bilan birga, ayrim loyihalarning yakuniy natijalari, moliyalashtirish manbalari, bajarilgan ishlarning ilmiy hujjatlashtirilishi va uzoq muddatli monitoringi yetarli darajada ochiq yoritilmagani muammo sifatida ko‘zga tashlanadi.

Shu asosda quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin: *birinchidan,* O‘zbekistonda xalqaro restavratsiya loyihalari bo‘yicha yagona ochiq elektron ma’lumotlar bazasini yaratish zarur. *Ikkinchidan,* har bir yirik restavratsiya loyihasi bo‘yicha ilmiy hisobot, foto-hujjatlar va texnik tavsiflar jamoatchilik hamda mutaxassislar uchun ochiq bo‘lishi kerak. *Uchinchidan,* YUNESKO va ICCROM bilan hamkorlikda restavratorlar, arxeologlar, muhandislar va muzey mutaxassislari uchun doimiy o‘quv dasturlarini kengaytirish lozim. *To‘rtinchidan,* Jahon merosi obyektlarida turizm oqimi, shaharsozlik bosimi va ekologik xavflarni muntazam monitoring qilish tizimini kuchaytirish maqsadga muvofiq. Beshinchidan, xalqaro loyihalar natijalarini o‘zbek tilida ilmiy nashrlar, kataloglar va metodik qo‘llanmalar shaklida keng ommalashtirish zarur

**Adabiyotlar ro'yxati**

1. 18 aprel – Xalqaro yodgorliklarni va tarixiy joylarni asrash kuni (1983). https://zarnews.uz/uz/post/18-aprel-xalqaro-yodgorliklarni-va-tarixiy-joylarni-asrash-kuni-1983
2. Brandi C. Theory of Restoration. Florence: Nardini, 2005. 180 p.; Feilden B.M. Conservation of Historic Buildings. Oxford: Butterworth-Heinemann, 2003. 400 p.
3. ICCROM. Celebrating Uzbekistan, Our Newest Member State. 30.08.2024; ICCROM. ICCROM and Uzbekistan Forge Stronger Ties for Cultural Heritage Protection. 11.07.2025
4. Khasanova M. The Role of International Cooperation in Preserving Uzbekistan's Historical and Cultural Heritage. Society and innovations Journal home page: https://inscience.uz/index.php/socinov/index. P.35-44.
5. O'zbekiston madaniy yodgorliklar bilan bog'liq xalqaro hujjatga qo'shiladi. https://uza.uz/posts/625559
6. UNESCO World Heritage Centre. Tashkent Modernist Architecture. Tentative List, 2023;
7. Xushnazarova L. Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasining Yevropa mamlakatlari bilan madaniy aloqalarining shakllanishi va rivojlanishi. Ilm-fan va innovatsiya ilmiy-amaliy konferensiyasi. in-academy.uz/index.php/si. 33-35 betlar
8. Акилова К.Б. Актуальные проблемы сохранения материального историко-культурного наследия в Узбекистане. IV Международный конгресс «Культурное наследие Узбекистана - фундамент нового Ренессанса. https://uza.uz/posts/35787
9. Бабаходжаева, Л. (2023). Основные тенденции и направления международного культурногуманитарного сотрудничества Республики Узбекистан (период независимости). Каталог авторефератов, 1(1), 1–48. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/autoabstract/article/view/36562

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 6 Issue: 02 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

*ISMAILOVA DILFUZA USMONQULOVNA*
*Independent Researcher at the National Institute of Educational Pedagogy named after Qori Niyazi*

*Received 4th February 2026, Accepted 10th April 2026, Online 30th June 2026*

## MUZEY PEDAGOGIKASINING GLOBAL RIVOJLANISHI VA ZAMONAVIY TA'LIMDAGI AHAMIYATI

**Annotatsiya:** So'nggi davrda ta'lim tizimi an'anaviy sinf doirasidan chiqib, turli madaniy va ijtimoiy muhitlar bilan uyg'unlashib bormoqda. Shu jarayonda muzeylar ta'limning muhim platformalaridan biriga aylanishi natijasida muzey pedagogikasi mustaqil ilmiy-amaliy yo'nalish sifatida shakllandi. Mazkur maqolada uning xorijiy tajribasi, nazariy asoslari hamda ta'lim tizimidagi o'rni tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari muzey pedagogikasi Yevropada shakllanib, keyinchalik boshqa mamlakatlarda keng rivojlanganini ko'rsatadi. Hozirgi kunda muzeylar nafaqat madaniy merosni namoyish etadi, balki interaktiv va raqamli yondashuvlar orqali o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi. Bu esa yoshlarning tanqidiy fikrlashi, madaniy ong va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, muzey pedagogikasining ta'lim bilan integratsiyasi zamonaviy pedagogikaning dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

**Kalit so'zlar:** muzey pedagogikasi, muzey ta'limi, madaniy meros, interaktiv ta'lim, muzey ta'lim muhiti.

## ГЛОБАЛЬНОЕ РАЗВИТИЕ МУЗЕЙНОЙ ПЕДАГОГИКИ И ЕЁ ЗНАЧЕНИЕ В СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАНИИ

**Аннотация:** В последние годы система образования выходит за рамки традиционной классной среды и развивается во взаимодействии с различными социальными и культурными институтами. В этом контексте музеи становятся важной образовательной площадкой, а музейная педагогика формируется как самостоятельное научно-практическое направление. В данной статье анализируются зарубежный опыт развития музейной педагогики, её теоретические основы и роль в современной системе образования. Результаты исследования показывают, что музейная педагогика зародилась в Европе и впоследствии получила широкое распространение в других странах. В настоящее время музеи выполняют не только функцию сохранения культурного наследия, но и обеспечивают активное участие обучающихся посредством интерактивных и цифровых подходов. Это способствует развитию критического мышления, культурного сознания и социальных компетенций у молодёжи. Таким образом, интеграция музейной педагогики в образовательный процесс является одним из актуальных направлений современной педагогики.

**Ключевые слова:** музейная педагогика, музейное образование, культурное наследие, интерактивное обучение, образовательная среда музея.

## GLOBAL DEVELOPMENT OF MUSEUM PEDAGOGY AND ITS SIGNIFICANCE IN MODERN EDUCATION

**Abstract:** In recent years, the education system has expanded beyond the traditional classroom and increasingly integrates with various social and cultural institutions. In this context, museums have become important educational environments, and museum pedagogy has emerged as an independent

scientific and practical field. This article analyzes the international experience of museum pedagogy, its theoretical foundations, and its role in modern education. The findings indicate that museum pedagogy originated in Europe and later developed widely in other countries. Today, museums not only preserve cultural heritage but also promote active learner engagement through interactive and digital approaches. This contributes to the development of critical thinking, cultural awareness, and social competencies among young people. Therefore, the integration of museum pedagogy into the education system represents one of the key directions of contemporary pedagogy.

**Keywords:** museum pedagogy, museum education, cultural heritage, interactive learning, museum learning environment.

## KIRISH

Hozirgi davrda ta'lim jarayoni an'anaviy sinf xonalari bilan cheklanib qolmay, turli madaniy va ijtimoiy institutlar orqali ham amalga oshirilmoqda. Shu nuqtai nazardan qaralganda, muzeylar zamonaviy ta'lim tizimining muhim komponentlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Muzeylar nafaqat tarixiy va madaniy merosni saqlovchi maskan, balki jamiyatning ma'naviy, madaniy va intellektual rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim ta'limiy muhit hisoblanadi.

Tadqiqotchi Ye.A. Yakovleva ta'kidlashicha, muzeylar o'quvchilarga tarixiy jarayonlar, muhim voqealar, mashhur shaxslar hamda turli davrlar madaniyati bilan bevosita tanishish imkonini beruvchi noyob ta'limiy makon hisoblanadi. Muzeylarda tashkil etilgan o'quv faoliyati o'quvchilarda tarixiy ongni shakllantirish, turli madaniyatlarni hurmat qilish va ko'p madaniyatli muhitni anglash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi[1, 41].

Xalqaro muzeyshunoslik sohasida muhim hujjatlardan biri bo'lgan Xalqaro Muzeylar Kengashi (ICOM) nizomida muzey jamiyatga xizmat qiluvchi va uning rivojlanishiga ko'maklashuvchi notijorat muassasa sifatida ta'riflanadi. Mazkur ta'rifga ko'ra, muzeylar insoniyat va atrof-muhitning moddiy hamda nomoddiy merosini yig'ish, saqlash, tadqiq qilish va namoyish etish orqali ta'lim, ilmiy tadqiqot hamda madaniy ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiladi[2]. Shuningdek, Rossiya muzey ensiklopediyasida muzey jamiyatga xizmat qilish va uning rivojlanishiga ko'maklashish, inson va uning yashash muhiti to'g'risidagi moddiy dalillarni o'rganish, o'qitish va ma'naviy ehtiyojlarni qondirish uchun eksponatlarni yig'ish, saqlash, tadqiq qilish va namoyish etish bilan shug'ullanuvchi doimiy notijorat tashkilot sifatida tavsiflanadi[3, 395].

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, muzey pedagogikasi muzeyshunoslik, pedagogika va psixologiya fanlari kesishgan nuqtada shakllangan ilmiy-amaliy yo'nalish hisoblanadi[4, 150-164]. Ushbu yo'nalish muzey muhitida ta'lim jarayonini tashkil etish, tashrif buyuruvchilar bilan kommunikativ aloqalarni rivojlantirish hamda madaniy merosni pedagogik vositalar orqali o'rganish imkoniyatlarini tadqiq qiladi.

Zamonaviy ta'lim tizimida muzey pedagogikasi shaxsga yo'naltirilgan, interaktiv va inkluziv ta'lim muhiti yaratishga xizmat qiluvchi muhim pedagogik yo'nalish sifatida qaralmoqda. Raqamli texnologiyalar, interaktiv metodlar va innovatsion pedagogik yondashuvlar muzeylarning ta'limiy imkoniyatlarini yanada kengaytirib, tashrif buyuruvchilarni passiv kuzatuvchidan faol o'quv jarayoni ishtirokchisiga aylantirmoqda.

Shu sababli muzey pedagogikasining tarixiy rivojlanish jarayoni, nazariy asoslari va zamonaviy ta'lim tizimidagi o'rni masalalarini ilmiy jihatdan tahlil qilish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

## ADABIYOTLAR TAHLILI

Muzey pedagogikasining nazariy asoslari turli mamlakatlarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda keng yoritilgan. Tadqiqotchi A.S. Ogonovskaya muzey pedagogikasini muzey madaniyatini amalga oshirishga qaratilgan ilmiy bilimlar va amaliy pedagogik faoliyat sohasi sifatida tavsiflab, uning

shakllanishi muzey va pedagogika sohalarining oʻzaro yaqinlashuvi bilan bogʻliq murakkab tarixiy jarayon ekanini ta'kidlaydi[5, 22].

Muzey pedagogikasining tarixiy ildizlari qadimgi davrlarga borib taqaladi. Tadqiqotchi G.M. Kachenya qayd etishicha, qadimgi Yunoniston va Rim davrida san'at asarlari ibodatxonalarda saqlangan boʻlib, ruhoniylar ularni tashrif buyuruvchilarga namoyish qilish orqali ma'rifiy faoliyatni amalga oshirganlar[6, 7-8].

T.P. Mysheva muzeylarning rivojlanish tarixini bir necha bosqichlarga ajratib, dastlab qadimgi davrlarda turli tabiiy va madaniy obyektlarni yigʻish an'anasi shakllanganini, keyinchalik Uygʻonish davrida muzeylar ijtimoiy-madaniy institut sifatida shakllana boshlaganini ta'kidlaydi[7, 130-134].

XVII asrda Angliyada universitet muzeylari paydo boʻlib, ular ilmiy tadqiqot va ta'lim jarayonining muhim markazlariga aylangan. 1683-yilda Oksford universitetida tashkil etilgan Ashmolean muzeyi ilk universitet muzeylaridan biri hisoblanadi[8].

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Yevropada, ayniqsa Germaniyada muzey pedagogikasining nazariy asoslari shakllana boshladi. Nemis pedagoglari G. Kershenşteyner, A. Lixtvark, G. Freydental va A. Reyxveyn muzeylarni oʻquv jarayonida qoʻllash, ekspozitsiyalarni pedagogik tamoyillar asosida tashkil etish hamda oʻquvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish gʻoyalarini ilgari surdilar[9, 25-29].

XX asrda muzey pedagogikasining amaliy tajribasi kengayib, Amerika va Yevropaning koʻplab muzeylarida ta'limiy faoliyat pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etila boshlandi. E.W. Eisner va S.M. Dobbs muzeylarni interaktiv oʻquv maskani sifatida rivojlantirish zarurligini ta'kidlab, tashrif buyuruvchilarni faol ishtirokchi sifatida jalb qilish muhimligini qayd etganlar[10].

XX asr oxiriga kelib muzey pedagogikasida bolalar muzeylari konsepsiyasi shakllandi. AQSh va Germaniyada tashkil etilgan bolalar muzeylari oʻyin, tajriba va amaliy mashgʻulotlar orqali oʻrganishga asoslangan interaktiv ta'lim muhitini yaratishga qaratilgan edi[11].

Shuningdek, zamonaviy tadqiqotlar muzey pedagogikasining madaniy identitet, tarixiy xotira va etnomadaniy kompetensiyani shakllantirishdagi rolini ham ta'kidlaydi. Afanasyeva va Fedorova muzey muhitining yosh avlodda milliy madaniyatga hurmat tuygʻusini shakllantirishda muhim pedagogik vosita ekanini qayd etganlar[12, 108].

XXI asrda muzey pedagogikasi raqamli texnologiyalar, interaktiv metodlar va global kommunikatsiya platformalari bilan integratsiyalashgan holda rivojlanmoqda. Zamonaviy muzeylar virtual ekskursiyalar, multimedia resurslari va onlayn platformalar orqali ta'limiy faoliyatni keng auditoriyaga taqdim etmoqda[13].

Konstruktivistik pedagogik yondashuvga koʻra, muzeylar tashrif buyuruvchilarning shaxsiy tajribasi asosida bilim hosil qilishini qoʻllab-quvvatlovchi interaktiv ta'lim muhitini yaratishi zarur[14, 1-14]. Shu sababli zamonaviy muzey pedagogikasi tashrif buyuruvchini markazga qoʻygan ta'lim modeliga asoslanadi.

Umuman olganda, ilmiy adabiyotlar tahlili muzey pedagogikasining tarixiy rivojlanishi davomida muzeylar madaniy merosni saqlash bilan bir qatorda ta'lim va tarbiya jarayonining muhim tarkibiy qismiga aylanganini koʻrsatadi. Zamonaviy sharoitda esa muzey pedagogikasi interaktiv, konstruktivistik va raqamli yondashuvlar asosida rivojlanib, shaxsning madaniy, ijtimoiy va intellektual rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim pedagogik yoʻnalish sifatida namoyon boʻlmoqda.

**TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Mazkur tadqiqotda muzey pedagogikasining shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini oʻrganish uchun bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi. Avvalo, tarixiy-tahliliy metod yordamida muzey pedagogikasining paydo boʻlishi va turli davrlardagi rivojlanish jarayoni ilmiy manbalar asosida tahlil qilindi. Shuningdek, nazariy tahlil va umumlashtirish metodi orqali muzey pedagogikasiga oid ilmiy adabiyotlar, monografiyalar, dissertatsiyalar hamda xalqaro tashkilotlar hujjatlari oʻrganildi.

Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil metodi ham qo‘llanilib, turli mamlakatlar tajribasida muzey pedagogikasining rivojlanish xususiyatlari solishtirildi. Bundan tashqari, manbashunoslik va hujjatlarni tahlil qilish metodi orqali muzeylar faoliyatiga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlar ham o‘rganildi.

**NATIJALAR**

Tadqiqot natijalari muzey pedagogikasining rivojlanishi uzoq tarixiy jarayon bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatdi. Muzey pedagogikasining shakllanishi bir necha muhim tarixiy bosqichlardan iborat.

*Birinchi bosqich,* qadimgi davr bilan bog‘liq. Qadimgi Yunoniston va Rim davrida san’at asarlari ibodatxonalarda saqlanib, tashrif buyuruvchilarga namoyish etilgan. Bu jarayon ma’lum darajada ma’rifiy xarakterga ega bo‘lgan. Ruhoniylar san’at asarlari va tarixiy artefaktlar haqida tushuntirishlar berib, tashrif buyuruvchilarga madaniy bilimlar yetkazgan.

*Ikkinchi bosqich,* Uyg‘onish davriga to‘g‘ri keladi. Ushbu davrda qadimgi madaniyat va san’atga bo‘lgan qiziqish ortib, kolleksiyalar yig‘ish an’anasi shakllandi. Ko‘plab hukmdorlar va olimlar noyob san’at asarlarini to‘plab, ularni ilmiy tadqiqot va namoyish qilish uchun maxsus kolleksiyalar yaratdilar.

*Uchinchi bosqich*, XVII–XVIII asrlarda ilmiy muzeylarning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq. Bu davrda universitetlar qoshida muzeylar tashkil etila boshladi. Masalan, 1683-yilda Oksford universitetida tashkil etilgan Ashmolean muzeyi ilmiy tadqiqot va ta’lim jarayonining muhim markaziga aylandi.

*To‘rtinchi bosqich*, XIX asr oxiri va XX asr boshlariga to‘g‘ri keladi. Bu davrda Germaniyada muzey pedagogikasi ilmiy yo‘nalish sifatida shakllana boshladi. Nemis pedagoglari muzeylarni ta’lim jarayonining muhim qismi sifatida ko‘rib chiqib, muzey ekspozitsiyalarini pedagogik tamoyillar asosida tashkil etish zarurligini ta’kidladilar.

XX asr davomida muzey pedagogikasi Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlarida keng rivojlandi. Muzeylar interaktiv ta’lim muhitiga aylana boshladi. Bu jarayonda ekskursiyalar, seminarlar, ijodiy mashg‘ulotlar va interaktiv ko‘rgazmalar muhim rol o‘ynadi.

XXI asrda muzey pedagogikasi yangi bosqichga ko‘tarildi. Raqamli texnologiyalar va internet platformalarining rivojlanishi muzey ta’limining imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirdi. Zamonaviy muzeylar virtual ekskursiyalar, multimedia ekspozitsiyalar va interaktiv ta’lim dasturlari orqali keng auditoriya bilan muloqot qilish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy muzey pedagogikasi uchta asosiy yo‘nalishda rivojlanmoqda: interaktiv ta’lim metodlari, raqamli texnologiyalarni qo‘llash va madaniy kompetensiyalarni rivojlantirish. Bu yo‘nalishlar muzeylarning ta’lim tizimidagi rolini yanada kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

**MOHOKAMA**

Tadqiqot natijalari muzey pedagogikasining ta’lim tizimidagi ahamiyati tobora ortib borayotganini ko‘rsatadi. Tarixiy rivojlanish jarayonida muzeylar dastlab madaniy merosni saqlash va namoyish etish bilan shug‘ullanuvchi institut sifatida faoliyat yuritgan bo‘lsa, zamonaviy davrda ular ta’lim va madaniy kommunikatsiya jarayonining muhim elementi sifatida qaralmoqda. Ushbu o‘zgarish muzeylarning jamiyat hayotidagi rolini kengaytirib, ularni shaxsning intellektual va madaniy rivojlanishiga xizmat qiluvchi pedagogik muhitga aylantirdi.

Muzey pedagogikasining rivojlanish jarayonini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, bu yo‘nalish pedagogika, psixologiya va madaniyatshunoslik fanlari bilan chambarchas bog‘liq. Muzey muhiti tashrif buyuruvchilarning bilim olish jarayonini an’anaviy ta’lim shakllaridan farqli tarzda tashkil etadi. Sinf xonalarida o‘quvchilar ko‘pincha nazariy ma’lumotlarni o‘zlashtirsa, muzeylarda ular tarixiy artefaktlar, san’at asarlari va boshqa eksponatlar bilan bevosita tanishish imkoniyatiga ega

bo'ladi. Bu jarayon o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirib, ularning tarixiy tafakkuri va madaniy ongini rivojlantiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, muzey pedagogikasining muhim xususiyatlaridan biri uning interaktiv xarakterga ega ekanligidir. Zamonaviy muzeylar tashrif buyuruvchilarni passiv kuzatuvchidan faol ishtirokchiga aylantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvlarni qo'llaydi. Bu jarayonda "hands-on learning" tamoyili keng qo'llaniladi. Ushbu tamoyilga ko'ra, o'quvchilar eksponatlar bilan bevosita ishlash, tajriba o'tkazish va muammoli vaziyatlarni hal qilish orqali bilimlarni mustaqil ravishda o'zlashtiradi.

Interaktiv ta'lim metodlari muzey pedagogikasining samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Masalan, dramatizatsiya, rolli o'yinlar, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va loyiha asosida o'qitish kabi metodlar tashrif buyuruvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi. Ushbu metodlar o'quvchilarning tanqidiy fikrlash, ijodiy tafakkur va kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Muzey pedagogikasining zamonaviy rivojlanishida konstruktivistik pedagogik yondashuv muhim o'rin egallaydi. Konstruktivizm nazariyasiga ko'ra, bilimlar tayyor shaklda berilmaydi, balki o'quvchilarning shaxsiy tajribasi asosida shakllanadi. Muzey muhiti konstruktivistik o'qitish uchun qulay sharoit yaratadi, chunki tashrif buyuruvchilar eksponatlar bilan bevosita tanishib, ularni mustaqil ravishda tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu jarayon bilimlarni chuqurroq anglashga yordam beradi.

Zamonaviy muzey pedagogikasining yana bir muhim jihati raqamli texnologiyalarning keng qo'llanilishi hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar muzey ta'limining imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirdi. Virtual ekskursiyalar, interaktiv ekspozitsiyalar, multimedia materiallari va mobil ilovalar tashrif buyuruvchilarga yangi o'rganish imkoniyatlarini yaratmoqda. Bu ayniqsa pandemiya davrida muzeylarning ta'limiy faoliyatini davom ettirishda muhim rol o'ynadi.

Raqamli texnologiyalar yordamida muzeylar global auditoriya bilan muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'ldi. Masalan, ko'plab yirik muzeylar o'z veb-saytlari va ijtimoiy tarmoqlari orqali virtual ko'rgazmalar va onlayn ta'lim dasturlarini tashkil etmoqda. Bu esa muzey ta'limining geografik chegaralarini kengaytirib, turli mamlakatlardan tashrif buyuruvchilarni jalb qilish imkonini bermoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, muzey pedagogikasi yosh avlodning madaniy identifikatsiyasini shakllantirishda ham muhim rol o'ynaydi. Muzeylar tarixiy xotirani saqlash va madaniy merosni targ'ib qilish orqali jamiyatning madaniy qadriyatlarini avloddan-avlodga yetkazishga xizmat qiladi. Muzey eksponatlari orqali o'quvchilar o'z xalqining tarixi, madaniyati va an'analarini chuqurroq anglaydi.

Bundan tashqari, muzey pedagogikasi madaniy xilma-xillikni tushunish va turli madaniyatlar o'rtasida muloqotni rivojlantirishga ham yordam beradi. Zamonaviy muzeylar multiculturalizm tamoyillariga asoslangan ta'lim dasturlarini amalga oshirmoqda. Bu dasturlar turli madaniy guruhlar vakillari o'rtasida o'zaro tushunishni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Muzey pedagogikasining ta'lim tizimidagi ahamiyatini oshirishda maktab va muzeylar o'rtasidagi hamkorlik muhim rol o'ynaydi. Ko'plab mamlakatlarda maktab o'quvchilari uchun muzey ekskursiyalari, ta'limiy dasturlar va ijodiy mashg'ulotlar tashkil etiladi. Ushbu hamkorlik o'quvchilarning nazariy bilimlarini amaliy tajriba bilan boyitishga yordam beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, muzey pedagogikasi nafaqat tarix yoki san'at fanlarini o'qitishda, balki boshqa fanlar bilan integratsiyalashgan holda ham samarali qo'llanilishi mumkin. Masalan, ilmiy muzeylarda fizika, kimyo yoki biologiya fanlari bo'yicha interaktiv tajribalar tashkil etilishi o'quvchilarning ilmiy qiziqishini oshirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, tadqiqot natijalari muzey pedagogikasining zamonaviy ta'lim tizimidagi ahamiyati tobora ortib borayotganini ko'rsatadi. Muzeylar interaktiv, innovatsion va madaniy jihatdan boy ta'lim muhitini yaratish orqali yosh avlodning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

**XULOSA**

Mazkur tadqiqot xorijiy mamlakatlarda muzey pedagogikasining shakllanishi va rivojlanish tajribasini tahlil qilishga bag'ishlandi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, muzey pedagogikasi uzoq tarixiy rivojlanish jarayoniga ega bo'lib, dastlab madaniy merosni saqlash va namoyish qilish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat sifatida shakllangan. Biroq vaqt o'tishi bilan muzeylarning ta'limiy va tarbiyaviy funksiyalari kengayib, ular zamonaviy ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismiga aylandi.

Tadqiqot davomida o'rganilgan ilmiy manbalar muzey pedagogikasining XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Yevropa mamlakatlarida shakllanganini ko'rsatadi. Ayniqsa Germaniyada muzey pedagogikasi nazariy jihatdan asoslab berilgan bo'lib, keyinchalik bu yo'nalish boshqa mamlakatlarda ham rivojlandi. XX asr davomida muzeylar ta'lim jarayonining muhim muhitiga aylanib, interaktiv ta'lim metodlari keng qo'llanila boshladi.

XXI asrda muzey pedagogikasi yangi bosqichga ko'tarildi. Raqamli texnologiyalar, virtual ekspozitsiyalar va multimedia vositalari muzey ta'limining imkoniyatlarini kengaytirdi. Zamonaviy muzeylar tashrif buyuruvchilarni passiv kuzatuvchidan faol o'quv jarayoni ishtirokchisiga aylantiruvchi interaktiv ta'lim muhitini yaratmoqda.

Tadqiqot natijalari muzey pedagogikasining yosh avlodning tarixiy tafakkuri, madaniy ong va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynashini ko'rsatadi. Muzeylar tarixiy xotirani saqlash va madaniy merosni targ'ib qilish orqali jamiyatning madaniy qadriyatlarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, maktablar va muzeylar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ushbu hamkorlik o'quvchilarning nazariy bilimlarini amaliy tajriba bilan boyitib, ularning bilish faoliyatini faollashtiradi.

Shunday qilib, muzey pedagogikasi zamonaviy ta'lim tizimining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Kelajakda muzey pedagogikasini rivojlantirish, raqamli texnologiyalarni keng qo'llash va ta'lim tizimi bilan integratsiyani kuchaytirish ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

## ADABIYOTLAR

**1.** Yakovleva, E.A. Formation of value-semantic orientation of school students through museum pedagogy. Dissertation for the degree of Candidate of Pedagogical Sciences. Petrozavodsk, 2017. – p. 41.

**2.** The definition is given in accordance with the Charter of ICOM, adopted by the 22nd General Assembly in Vienna, Austria, on August 24, 2007. The concept has evolved in accordance with the development of society. Since its establishment in 1946, ICOM has updated the definition in line with the realities of the global museum community. (See: Museum Definition: ICOM [Electronic resource]. URL: http://icom.museum/the-vision/museum-definition/ (date of access: 20.10.2017)).

**3.** Russian Museum Encyclopedia: In 2 volumes. Moscow, 2001. Vol. 1. – p. 395.

**4.** Museums of the Russian Academy of Sciences / RAS Museum Council. Moscow: Nauchny Mir, 2004. – pp. 150–164.

**5.** Ogonovskaya, A.S. Actualization of students' personality through museum pedagogy. Abstract of dissertation for the degree of Candidate of Pedagogical Sciences. Ekaterinburg, 2007. – p. 22.

**6.** Kachenya, G.M. Museum pedagogy: textbook for students studying in the field 51.03.04 "Museology and protection of cultural and natural heritage objects" / Chelyabinsk State Academy of Culture and Arts; Department of Pedagogy and Psychology. Chelyabinsk: ChGAKI, 2015. – pp. 7–8.

**7.** Mysheva, T.P. Formation of museums and museum pedagogy. Bulletin of TGPI, Humanities. – pp. 130–134.

**8.** Rose, T.H. (1958). Museums and the Teacher. Ankara: Maarif Printing House, pp. 7–13.

**9.** Stolyarov, B.A. Museum pedagogy. History, theory, practice. Moscow: Higher School Publishing, 2004. – pp. 25–29.

**10.** Eisner, E.W., & Dobbs, S.M. (1986). The Uncertain Profession: Observations on the State of Museum Education in Twenty American Art Museums. A report to the J. Paul Getty Center for Education in the Arts. Santa Monica, CA: J. Paul Getty Trust.

**11.** Aktaş, Arnas, Yaşare (2017). The combination of play, learning and experience: Children's museums. Creative Drama Journal, Vol. 12, No. 2, pp. 17–30. // Avcan, A. Rıza (2017, March 13). On children, play and toy museums. Center for Urban Strategies. // Berk, Laura E. (2001). Development Through the Lifespan. Boston: Allyn and Bacon.

**12.** Afanasyeva, A.B. Improvement of ethnocultural education of the modern teacher. Human and Education, 2008, No. 4, pp. 34–38. // Fedorova, S.N. Ethnocultural competence of a teacher: monograph. Mari State Pedagogical Institute named after N.K. Krupskaya. Yoshkar-Ola, 2002. – 108 p.

**13.** Hansson, P., & Öhman, J. (2021). Museum education and sustainable development: A public pedagogy. European Educational Research Journal (online). https://doi.org/10.1177/14749041211056443

**14.** Todino, Michele Domenico, & Campitiello, Lucia. (2025). Museum Education. Encyclopedia, Vol. 5, No. 3, pp. 1–14.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 6 Issue: 02 | 2026
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

***Ismailova Shamsiya Kurultaevna***
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi
***shamsiyaismailova1963@gmail.com***

*Received 4th February 2026, Accepted 10th April 2026, Online 30th June 2026*

## GENDER STEREOTIPLARI SHAKLLANISHIGA TA’SIR QILUVCHI OMILLAR

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada gender stereotiplari shakllanishiga ta’sir qiluvchi asosiy psixologik omillar ilmiy-nazariy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda ijtimoiy o‘rganish nazariyasi (A. Bandura)[2, b. 22–60], ijtimoiy rollar nazariyasi (A. Iglay)[4, b. 573–598], gender sxemalari nazariyasi (S. Bem)[3, b. 354–364], psixoanalitik yondashuv (Z. Freyd, K.G. Yung)[17,18] va ijtimoiy-kognitiv nazariyalarga[9] tayanib, gender stereotiplari etiologiyasi va ularning ong hamda xulq-atvorga ta’siri ko‘rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, gender stereotiplari biologik jins belgilanganligi natijasida emas, balki oila, ta’lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari va tengdoshlar guruhi orqali yuz beradigan ijtimoiylashuv jarayonida shakllanadi[12]. Gender stereotiplari shaxs identifikatsiyasiga, kasbiy va shaxsiy motivatsiyasiga, liderlik potensialiga va umumiy psixologik salomatlikka salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi asoslanadi[4, b. 573–598; 10]. Maqola yakunida gender stereotiplarini kamaytirishga yo‘naltirilgan psixologik va pedagogik tavsiyalar beriladi.

**Kalit so‘zlar:** gender stereotiplari, ijtimoiylashuv, gender sxemalari, ijtimoiy rol, rolli kongruentlik nazariyasi, gender identifikatsiyasi, psixologik omillar, liderlik.

## FACTORS INFLUENCING THE FORMATION OF GENDER STEREOTYPES

**Abstract:** This article analyzes the key psychological factors influencing the formation of gender stereotypes from a scientific and theoretical perspective. Drawing on Social Learning Theory (A. Bandura) [2, p. 22–60], Social Role Theory (A. Eagly) [4, p. 573–598], Gender Schema Theory (S. Bem) [3, p. 354–364], the psychoanalytic approach (S. Freud, C.G. Jung) [17, 18], and social-cognitive theories [9], the study examines the etiology of gender stereotypes and their influence on cognition and behavior. The findings demonstrate that gender stereotypes are formed not as a result of biological sex determination, but through the process of socialization mediated by family, educational institutions, mass media, and peer groups [12]. The article substantiates that gender stereotypes may exert a negative impact on personal identity, professional and personal motivation, leadership potential, and overall psychological well-being [4, p. 573–598; 10]. The article concludes with psychological and pedagogical recommendations aimed at reducing gender stereotypes.

**Keywords:** gender stereotypes, socialization, gender schemas, social role, role congruity theory, gender identity, psychological factors, leadership.

## ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ФОРМИРОВАНИЕ ГЕНДЕРНЫХ СТЕРЕОТИПОВ

**Аннотация.** В данной статье с научно-теоретических позиций анализируются основные психологические факторы, влияющие на формирование гендерных стереотипов. Исследование опирается на теорию социального научения (А. Бандура) [2, с. 22–60], теорию социальных ролей (А. Игли) [4, с. 573–598], теорию гендерных схем (С. Бем) [3, с. 354–364],

психоаналитический подход (З. Фрейд, К. Г. Юнг) [17, 18], а также социально-когнитивные теории [9], что позволяет раскрыть этиологию гендерных стереотипов и показать их влияние на сознание и поведение личности. Результаты исследования свидетельствуют о том, что гендерные стереотипы формируются не вследствие биологически обусловленного пола, а в процессе социализации, осуществляемой через семью, образовательные учреждения, средства массовой информации и группы сверстников [12]. Обосновано, что гендерные стереотипы могут оказывать негативное влияние на гендерную идентичность личности, её профессиональную и личностную мотивацию, лидерский потенциал, а также на общее психологическое благополучие [4, с. 573–598; 10]. В заключение представлены психологические и педагогические рекомендации, направленные на снижение влияния гендерных стереотипов.

**Ключевые слова:** гендерные стереотипы, социализация, гендерные схемы, социальная роль, теория ролевой конгруэнтности, гендерная идентичность, психологические факторы, лидерство.

## KIRISh

Menejment yo‘nalishida gender stereotiplari masalasi eng ko‘p tadqiq etilayotgan mavzulardan biri bo‘lib qolmoqda[9]. Ayol va erkaklarning xulq-atvorlari, qobiliyatlari, kasbiy qiziqishlari, hissiy o‘zlarini namoyon qilishlari va ijtimoiy rollari haqidagi tasavvurlar, ya’ni gender stereotiplari, nafaqat jamiyatning umumiy qarashlarini, balki har bir shaxsning o‘ziga nisbatan ham «Men»ini, o‘zi haqidagi tasavvurlarini shakllantiradi. Ushbu hodisa inson ongi, motivatsiyasi, liderlik salohiyati va umumiy psixologik barqarorligiga chuqur ta’sir ko‘rsatadi[9; 10].

Milliy kontekstda gender stereotiplari masalasi o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Xalqimizning milliy ma’naviyati, o‘ziga xos madaniyati, urf-odat va an’analari, erkak va ayol kishi ijtimoiy qiyofasiga nisbatan munosabatlarda stereotipizatsiya jamiyatda gender me’yorlari tizimini shakllantiradi[14]. Bugungi kunda mamlakatda gender tengligini ta’minlash, ayollarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda faol ishtirokini kengaytirish borasida davlat siyosati darajasida jiddiy qadamlar qo‘yilmoqda. Shu bois gender stereotiplarining psixologik asoslarini o‘rganish dolzarb amaliy ahamiyatga ega[1].

Jahon psixologiyasi fanida gender stereotiplari masalasini o‘rgangan olimlar orasida A. Bandura (1977)[2], S. Bem (1981)[3, b. 354–364], A. Iglay va S. Karau (2002)[5, b. 573–598], R. Roydman (2004) va boshqalar alohida o‘rin tutadi. Rus psixologiyasi fanida T.V. Bendas[10], I.S. Kon[11], I.S. Klyosina[13] va O.A. Voronina[4] ishlari muhim ahamiyatga ega.

Maqolaning maqsadi gender stereotiplari shakllanishiga ta’sir qiluvchi asosiy psixologik omillarni nazariy jihatdan tasniflash, ularning shaxs psixologiyasiga ta’sirini ko‘rsatish va amaliy xulosalar chiqarishdan iborat[7; 1]. Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat: birinchidan, gender stereotiplari tushunchasining ta’rifi va ilmiy asoslarini aniqlashtirish; ikkinchidan, stereotiplar shakllanishiga ta’sir etuvchi psixologik omillarni tizimli tahlil qilish; uchinchidan, gender stereotiplarining shaxs rivojlanishiga ta’sir mexanizmlarini ochib berish; to‘rtinchidan, stereotiplarni kamaytirishga yo‘naltirilgan psixologo-pedagogik tavsiyalar ishlab chiqish.

## *ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA*

Gender stereotiplari muammosi psixologiya fanida turli nazariy yondashuvlar doirasida o‘rganilib kelinadi. Ushbu bo‘limda asosiy nazariy bazalar va metodologik yondashuvlar tahlil qilinadi.

***Ijtimoiy-kognitiv ta'lim nazariyasi (A.Bandura, 1977)***[2]/Albert Bandura tomonidan ishlab chiqilgan Ijtimoiy-kognitiv ta'lim nazariyasiga ko'ra, gender stereotiplari bolalarda kuzatish va taqlid qilish mexanizmlari orqali shakllanadi[2, b. 22–60]. Bolalar ota-onalar, tengdoshlar, o'qituvchilar va ommaviy axborot vositalaridagi obrazlarni kuzatib, «erkak» va «ayol» uchun xos xulq-atvor namunalarini o'zlashtirib oladilar. Mustahkamlash mexanizmi bu jarayonda hal qiluvchi rol o'ynaydi: ijtimoiy jihatdan «ma'qullangan» gender xulq-atvori maqtov va mukofot bilan kuchaytirilsa, «kutilmagan» xulq-atvor tanqid yoki rad etish orqali so'ndiriladi[2, b. 117–132; 12]. Shu tariqa, stereotiplar biologik zaruriyat sifatida emas, balki tashqi kuchtirish natijalari sifatida o'rganilgan modellar shakllanadi[2].

***Gender sxemalari nazariyasi (S. Bem, 1981)***[3, b. 354–364].Sandra Bemning gender sxemalari nazariyasi kognitiv psixologiya doirasida gender stereotiplarini tushuntiradi[3, b. 354–364]. Muallif fikriga ko'ra, bolalar jins bo'yicha bo'linadigan «sxemalar», ya'ni, ma'lumotni qayta ishlash uchun kognitiv filtrlash tizimlarini erta yoshdan boshlab o'zlashtirib oladilar. Ushbu sxemalar orqali ular dunyodagi hodisalarni, odamlarni va o'zlarini ham «erkakcha» yoki «ayolcha» deb tasniflashga moyil bo'ladilar. Sxemalar bir marta shakllangach, yangi ma'lumotlarni ham shu sxemaga muvofiq qayta ishlaydi va stereotiplarni o'zi-o'zidan mustahkamlab boradi[3, 9]. Bemning androginiya kontseptsiyasi esa ikki genderning ijobiy xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan shaxs psixologik jihatdan eng sog'lom deb hisoblashini asoslab berdi[3, b. 354–364; 11].

***Ijtimoiy rollar nazariyasi (A. Eagly, 1987)***[5, b. 573–598]. Alice Eaglining ijtimoiy rollar nazariyasiga ko'ra, gender stereotiplari asosan erkaklar va ayollarga nisbatan jamiyat tomonidan qo'yiladigan xulq-atvor kutuvlari (rol kutuvlari) shaklida namoyon bo'ladi[5, b. 573–598]. Jamiyatda erkaklar an'anaviy ravishda ish ta'minlovchi, lider va mustaqil shaxs sifatida ko'rilsa, ayollar parvarish qiluvchi, itoatkor sifatida tasavvur qilinadi[4; 10]. Ushbu rol bo'linishi vaqt o'tishi bilan stereotiplashib, ularni «tabiiy» ko'rinishga keltiradi. Eagly va Karauning (2002)[5, b. 573–598] rol kongruentlik nazariyasi esa ayollar liderlik mavqeiga ega bo'lganida rol-gender ziddiyati, ya'ni, «ikki tomonlama tuzoq» (double bind)ning paydo bo'lishini va bu holat ayollarni boshqaruv lavozimlari uchun «yaroqsiz» sifatida baholashga olib kelishini ko'rsatdi[4, b. 573–598].

***Psixoanalitik yondashuv (Z. Freyd, K.G. Yung)***[17,18]. Freydga ko'ra, bolalar 3–5 yosh oralig'ida ongsiz ravishda o'z jinslaridagi ota-ona bilan identifikatsiyalashadi va shu orqali genderga oid xulq-atvor normalarini internalizatsiyalashtrib oladilar[17]. Karl Gustav Yungning kollektiv ongsizlik va arxetiplar kontseptsiyasi esa gender stereotiplarini antropologik ko'lamda tushuntiradi: «Anima» va «Animus» arxetiplari madaniyatlararo umumiy gender tasavvurlarni shakllantirishda rol o'ynaydi[18].

***O'z-o'zini tasdiqlash nazariyasi (C. Steele, 1997)***[9, b. 613–629]. Klod Stilning «stereotip tahdidi» kontseptsiyasi gender stereotiplarining kognitiv samaradorlikka to'g'ridan-to'g'ri salbiy ta'sirini eksperimental tarzda isbotladi[9, b. 613–629]. Stereotip tahdidi — shaxsning o'z guruhiga nisbatan mavjud salbiy stereotipni tasdiqlashidan qo'rqishi natijasida kelib chiqadigan hissiy va kognitiv zo'riqish holati[9, b. 613–629; 9].

Metodologik jihatdan ushbu tadqiqot quyidagi metodlarga asoslanadi: nazariy adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirish, gender psixologiyasi sohasidagi empirik tadqiqotlar natijalarini meta-analiz qilish, ilmiy manbalarni qiyosiy tahlil qilish hamda O'zbekiston ijtimoiy-madaniy kontekstiga moslashtirilgan nazariy-metodologik sintez[7].

## *NATIJALAR*

Adabiyotlar tahlili va metodologik yondashuvlar asosida gender stereotiplari shakllanishiga ta'sir qiluvchi psixologik omillar uchta asosiy guruhga tasniflandi: ontogenetik (bosqichli rivojlanish), ekzogen (tashqi ijtimoiy) va endogen (ichki shaxsiy) omillar[9; 7].

**1. Ontogenetik omillar.** Gender stereotiplari ontogenezda ma’lum bosqichlarda shakllanadi[12]. Ilk bolalik davrida (2–3 yosh) bolalar o‘zlarini jins bo‘yicha ajrata boshlaydi. Maktabgacha yosh (4–7 yosh) — gender konstantligi shakllanadigan davr bo‘lib, bu vaqtda bola jins biologik o‘zgarmas degan tushunchani o‘zlashtiradi[3, b. 354–364; 12]. Kichik maktab yoshida (7–12 yosh) gender me’yorlariga qat’iy rioya qilish kuchayadi va tengdoshlar guruhining ta’siri ortadi[2; 12]. O‘smirlik davrida (12–18 yosh) gender identifikatsiyasi jinsiy va kasbiy o‘zini-o‘zi belgilash bilan uyg‘unlashib, ko‘pincha stereotip qoliplarni mustahkamlash yoki ularni qayta ko‘rib chiqishga olib keladi[9; 12].

***2. Ekzogen (tashqi ijtimoiy) omillar.*** Tashqi ijtimoiy omillar orasida shaxs ijtimoiylashuvida oila omili birinchi o‘rinni egallaydi[12]. Ota-onalarning o‘zaro munosabati namunasi, oilada mehnat taqsimoti, o‘g‘il va qizlarga nisbatan turli xil muomala, muloqot tarzi — bularning barchasi bolada gender rollarini yaqindan kuzatish va o‘zlashtirish uchun asosiy omil hisoblanadi[14]. Ta’lim muassasalari ham gender stereotiplarini takrorlash va mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi: darsliklardagi gender tasvirlari, o‘qituvchilarning o‘g‘il va qiz o‘quvchilarga nisbatan turlicha munosabatlari, sinf ichidagi o‘zaro ta’sir tizimi — bularning barchasi tadqiqotlar tomonidan tasdiqlangan[13].

***3. Endogen (ichki shaxsiy) omillar.*** Ichki psixologik omillar orasida o‘z-o‘ziga munosabat va o‘zini-o‘zini baholash tizimi alohida o‘rin egallaydi[7]. Shaxs o‘zini gender roliga qanchalik mos deb his etishi uning motivatsisi, o‘zini-o‘zi samarali deb bilishiga va umumiy psixologik farovonligiga bevosita ta’sir qiladi[2]. Atributsiya uslublari ham muhim omil hisoblanadi: xatolarni «gender asosli» deb tushuntirish («men erkak bo‘lganim uchun hissiyotlarimni ifodalay olmayman» yoki «men ayol bo‘lgani uchun texnik sohada yaxshi emasman») o‘zini-o‘zi cheklaydigan ishonchni mustahkamlaydi[2; 9]. Ijtimoiy taqqoslash jarayoni ham stereotip shakllanishida ishtirok etadi: insonlar o‘zlarini gender guruhi a’zolari bilan doimiy taqqoslaydi va guruh me’yorlaridan chiqishni «noto‘g‘ri» deb baholaydi.

Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, gender stereotiplari shakllanishi bir yoki ikki omilga bog‘liq bo‘lmay, balki ko‘p omillar o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga keladigan murakkab psixologik fenomendir[9; 11]. Bu omillar statik emas. Ular ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlar, ta’lim tizimi islohotlari va media muhit transformatsiyasi orqali o‘zgaradi va modifikatsiya qilinadi[11; 3, b. 354–364].

## *MUHOKAMA*

Liderlik potensialiga ta’sir. Eagly va Karau (2002)[4, b. 573–598] ning rolli kongruentlik nazariyasi ayol liderlar uchun «ikki tomonlama tuzoq» (double bind) fenomenini batafsil ko‘rsatib berdi. Ushbu fenomenga ko‘ra, ayol rahbar «liderlik uchun zarur» hisoblangan qat’iylik va ta’sirchanlik xislatlarini namoyon etsa, uni «ayollik tabiatiga xos emas» deb baholashadi; aksincha, muloyim bo‘lsa, «lider sifatida kuchsiz» deb ko‘riladi[4, b. 573–598]. Bu ziddiyat ayollarda kognitiv dissonans va o‘zini-o‘zi noto‘g‘ri baholash holatini yuzaga keltiradi[11].

Kasbiy motivatsiya va o‘zini-o‘zi samarali deb bilish. Banduraning o‘zini-o‘zi samarali deb bilish nazariyasi (1977)[2, b. 247] shuni ko‘rsatadiki, inson «o‘zim uchun xos emas» deb hisoblagan sohada vazifani bajarishga kam urinadi va tez taslim bo‘ladi. Ayollar ko‘p hollarda texnika, matematika, boshqaruv kabi sohalarni «erkaklarning maydoni» deb o‘zlashtirgani uchun bu sohalarda muvaffaqiyatga erishishga bo‘lgan ishonchlari pasayib ketadi[2; 9].

Psixologik salomatlikka ta’sir. Gender stereotiplari faqat kasbiy rivojlanishga emas, balki umumiy psixologik salomatlikka ham ta’sir etadi[10]. Stereotip ta’siri (Steele, 1997)[8, b. 613–629] sharoitida doimiy mavjud bo‘lgan psixologik zo‘riqish aniqlik, diqqat va ijodiy fikrlashni pasaytiradi. Erkaklar uchun emotsional yordam so‘rash va hissiyotlarni ifodalash «zaiflik» deb tavsiflanadigan stereotip oqibatida ular orasida stressni yashirin kechirish va psixologik yordamni rad etish holatlari

kuzatiladi[10]. Jinslar orasidagi depressiya va tibbiy ko‘mak so‘rash xulqidagi farqni ham bu stereotiplar bilan bog‘lash mumkin[8, b. 613–629; 9].

**XULOSA**

Mazkur tadqiqot natijalari gender stereotiplarining shakllanishi ko‘p omilli, uzluksiz va o‘zaro ta’sirchan jarayon ekanligini tasdiqladi[9; b. 613–629]. Gender stereotiplari biologik determinizm mahsuli emas. Ular ijtimoiy o‘rganish[2], kognitiv tizimlashtirish[3, b. 354–364], ijtimoiy rollar kutilmalari[4, b. 573–598] va ongsiz identifikatsiya jarayonlari orqali shakllanuvchi ijtimoiy-psixologik tuzilmalardir[11].

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi psixologik-pedagogik tavsiyalar ishlab chiqildi: birinchidan, ta’lim muassasalarida talabalarning gender stereotiplari to‘g‘risidagi tasavvurlarini o‘rganish maqsadida ijtimoiy tadqiqotlarni o‘tkazish[7] va olingan natijalar asosida tizimli ishlarni tashkil qilish[13]; ikkinchidan, oilaviy psixologik maslahatlashuv xizmatlari orqali ota-onalarni shaxs ijtimoiylashuvida oila omili haqida xabardor qilish[12; b.74]; uchinchidan, davlat boshqaruvi tizimida gender treninglari o‘tkazish va rahbar kadrlar orasida gender stereotiplarni tanish va ularni oldini olish maqsadida ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarni rivojlantirish[4]; to‘rtinchidan, akademik tadqiqotlarda respublikamiz kontekstiga xos gender stereotiplari empirik tadqiqotini kuchaytirish[11].

**ADABIYoTLAR RO‘YXATI:**

1. Avazbekova F. Developing women’s leadership in public administration: Strategies and achievements in Uzbekistan’s civil service. (2025). International Journal of Civil Service Reform and Practice. https://astanahubjournal.org/index.php/ijcsrp/article/view/175
2. Bandura A. (1977). Social Learning Theory. Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall. — 247 p.
3. Bem, S.L. (1981). Gender schema theory: A cognitive account of sex typing. Psychological Review, 88(4), 354–364.
4. Воронина О.А. (2001). Феминизм и гендерное равенство. Москва: URSS. — 320 с.
5. Eagly A.H., & Karau, S.J. (2002). Role congruity theory of prejudice toward female leaders. Psychological Review, 109(3), 573–598.
6. Juraev Z., & Ahn, Y. J. (2022). The spatiality of gender equality and women’s leadership positions in new Uzbekistan. SSRN. https://doi.org/10.2139/ssrn.4157912
7. Kannazarova Z. Women’s leadership in science in Uzbekistan. (2025). In Women in STEM Leadership. Springer. https://link.springer.com/chapter/10.1007/978-3-031-81950-6_5
8. Kamilova X. Fan va kasbiy faoliyatda gender tengligining muammolari (2023). O‘tmishga nazar.-4(10). https://inscience.uz/index.php/socinov/article/view/3505

9. Steele C.M. (1997). A threat in the air: How stereotypes shape intellectual identity and performance. American Psychologist, 52(6), 613–629.

10. Бендас Т.В. (2006). Гендерная психология. Санкт-Петербург: Питер. — 431 с.

11. Кон И.С. (2009). Мужчина в меняющемся мире. Москва: Время. — 496 с.

12. Здравомыслова Е.А., Тёмкина, А.А. (2003). Российский гендерный порядок: социологический подход. Санкт-Петербург: Изд-во Европейского университета. — 306 с.

13. Клёцина И.С. (2004). Гендерная социализatsія. Санкт-Петербург: РГПУ им. А.И. Герцена. — 92 с.

14. Nishonova Z.T., Qurbonova Z., Qarshieva D.S., Atabaeva N.B.. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. – T.: Fan va texnologiyalar, 2014.

15. Urazalieva G.B. O‘zbekistonni yangilashda gender tengligining ilmiy-amaliy jihatlari. (2021). O‘tmishga nazar. https://www.tadqiqot.uz/index.php/history/article/view/3018

16. Ройдман, Л.А. (2004). Гендерная психология. Москва: Академический проект. — 311 с.

17. Фрейд З. (1989). Введение в психоанализ. Москва: Наука. — 456 с.

18. Юнг К.Г. (1994). Психологические типы. Санкт-Петербург: Ювента. — 716 с.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 6 Issue: 02 | 2026
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

**Xuriyatxon G'afurjon qizi Xamidova**
EMU universiteti katta o'qituvchisi

**Naima Zokir qizi Shahobiddinova**
EMU universiteti talabasi

*Received 4th February 2026, Accepted 10th April 2026, Online 30th June 2026*

## SAMARQAND VILOYATIDAGI GEOLOGIK IZLANISHLAR (XIX ASR OXIRI VA XX ASR BOSHLARIDA)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Samarqand viloyati hududida XIX asr oxiri va XX asr boshlarida olib borilgan geologik izlanishlar tahlil qilinadi. Tadqiqotda mintaqaning geologik tuzilishini o'rganish jarayonining boshlanish bosqichlari, ilmiy ekspeditsiyalarning tashkil etilishi hamda ularning natijalari yoritilgan. Ayniqsa, Zarafshon tog' tizmasi hududida olib borilgan dala kuzatuvlari, tadqiqotlar va foydali qazilmalarni aniqlashga qaratilgan ishlar ilmiy jihatdan tavsiflanadi. Tarixiy ahamiyati bilan mashhur bo'lgan Samarqand hali ham Markaziy Osiyoda mashhur, sharqliklar uni butun dunyoning markazi deb bilishlari ajablanarli emas, u haqiqatan ham tarixda ilm-fan va ma'rifat markazi bo'lgan. Bugungi kungacha u turli tarixchi olimlar uchun katta qiziqish uyg'otadi.

**Kalit so'zlar:** Samarqand, Maraqand xarobalari, Siyob, A. Temur maqbarasi, Nefrit toshi, ohaktosh, Zarafshon vodiysi.

## ГЕОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ (КОНЕЦ XIX — НАЧАЛО XX ВЕКА)

**Аннотация:** В данной статье анализируются геологические исследования, проводившиеся в Самаркандской области в конце XIX и начале XX веков. Исследование охватывает начальные этапы процесса изучения геологического строения региона, организацию научных экспедиций и их результаты. В частности, научно описаны полевые наблюдения, стратиграфические исследования и работы, направленные на идентификацию минералов в районе Зерафшанского горного хребта. Самарканд, известный своим историческим значением, до сих пор знаменит в Центральной Азии, неудивительно, что восточные народы считают его центром всего мира, он действительно был центром науки и просвещения в истории. И по сей день он представляет большой интерес для различных историков.

**Ключевые слова:** Самарканд, руины Мараканда, Сиёб, мавзолей А. Темура, нефрит, известняк, Зерафшанская долина.

## GEOLOGICAL INVESTIGATIONS IN THE SAMARKAND REGION (LATE 19 th AND EARLY 20 th CENTURIES)

**Annotation:** This article analyzes the geological research conducted in the Samarkand region at the end of the 19th and beginning of the 20th centuries. The study covers the initial stages of the process of studying the geological structure of the region, the organization of scientific expeditions and their results. In particular, field observations, stratigraphic studies and work aimed at identifying minerals in the area of the Zarafshan mountain range are scientifically described. Samarkand, famous for its historical significance, is still famous in Central Asia, it is not surprising that the Orientals

consider it the center of the whole world, it was truly a center of science and enlightenment in history. To this day, it is of great interest to various historians.

**Keywords:** Samarkand, Maraqand ruins, Siab, A. Temur mausoleum, Jade stone, limestone, Zarafshan valley.

## KIRISH

XIX asrning ikkinchi yarmida Turkiston hududi Rossiya imperiyasi tarkibiga kiritilgach, mintaqani tabiiy resurslar nuqtai nazaridan o‘rganishga ehtiyoj ortdi. 1868-yilda Samarqand Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingach, hududda ilmiy ekspeditsiyalar tashkil etila boshlandi. Shundan kelib chiqib, istilodan so‘ng bu yerdagi qazilma boyliklarni aniqlash, ishga tushirish va tog‘-kon sanoatini o‘z manfaatlariga mos ravishda yo‘lga qo‘yishga qattiq kirishildi. Bu davrda asosiy e’tibor yer osti boyliklarini aniqlash, tog‘ jinslarining tarkibini o‘rganish va geologik xaritalar tuzishga qaratildi. Chunki sanoatning rivojlanishi uchun xomashyo bazasini aniqlash muhim strategik vazifa edi. Konstantin Petrovich Kaufman tomonidan 1873-yili Samarqand viloyatining ko‘pgina hududlarida I.V.Mushketov rahbarligi ostida geologik izlanishlar olib borildi. Xususan, Samarqand Turkistondagi boshqa har qanday shaharga qaraganda ko‘proq qiziqish uyg‘otadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Xoroshxin “Samarqand Chorbagi-buzrukon”, ya’ni avliyolar bog‘i deb ta’rif bergan edi. Qazishmalar davomida Samarqand yaqinida, Siyob va Siyobcha sug‘orish inshootlari yaqinida, Aleksandr Makedonskiydan ancha oldin hukmronlik qilgan shoh Afrosiyob tomonidan qurilgan qadimgi Maraqand xarobalari mavjudligi aniqlandi. Hozirgi kunda bu xarobalarning barcha ko‘plab g‘orlari Afrosiyob umumiy nomi ostida ataladi. Xarobalar hozirgi Samarqand shahri va Siyob xandaqi o‘rtasida ancha katta maydonni egallaydi. Bu katta shahar bo‘lib devor bilan o‘ralgan. Devor qoldiqlari Toshkentga olib boradigan eski yo‘l bo‘ylab cho‘zilgan lyoss jarlik bo‘ylab joylashgan Shohizinda masjidi yonida, shuningdek, Siyobning lyoss chiqishlarining shimoliy tomonida aniq ko‘rinadi. Bundan tashqari, ba’zi joylarda chuqurligi 4 sajungacha bo‘lgan quduqlar ko‘rinishidagi chuqurliklarni ko‘rish mumkin, ular ko‘pincha pastki qismida kengayib, g‘isht bilan qoplangan. Afrosiyobning shimoli-g‘arbiy burchagidagi ba’zi joylarda bunday quduqlarning butun qatorlari mavjud. 1873-yilda mahalliy ma’muriyat tomonidan olib borilgan qazishmalardan ma’lum bo‘lishicha, tuproq xuddi shu o‘rmonni ifodalovchi quyma materialdan iborat, ammo qum, ohak, g‘isht parchalari va turli xil idishlar bilan aralashtirilgan[1].

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Siyob vodiysining chuqur qismiga tushadigan yangi post yo‘li qurilishi jarayonida to‘ldirilgan tuproqning tabiati ko‘rinib turadigan qism ko‘rildi, unda turli xil odam, qo‘chqor, ot suyaklari va aytilishicha, hatto tangalar ham topilgan. Bu qismda, boshqa narsalar qatori, bir nechta chirindi qatlamlari kuzatiladi, ulardan biri, qalinligi 20 deametrgacha bo‘lgan, o‘simlik qoldiqlaridan iborat. Siyob arig‘i bo‘yida 100 futgacha va undan ham ko‘proq qalinlikdagi kuchli o‘rmon yotadi. Bu lyossda turli o‘lchamdagi ko‘plab g‘orlar tarqalgan bo‘lib, ularning barchasi deyarli vertikal jarliklarda joylashgan gorizontal kirishdan boshlanadi. Lyossning eroziyasi tufayli ko‘plab kirish joylariga kirish imkoni bo‘lmay qolgan. I.V.Mushketov Siyobga quyiladigan Otchapar deb nomlangan meridianal chuqur jarlikning g‘orlarini tekshirishga muvaffaq bo‘ldi. Uning baland qirg‘oqlari qalinligi 100 futdan ortiq bo‘lgan odatiy lyosslardan iborat. O‘ng sharqiy qirg‘oqda, juda tik qiyalikning deyarli yarmida, diametri 2 futdan oshmaydigan kichik, yumaloq teshiklar shaklida kirish mavjud edi. G‘or tubida qalin lyoss chang qatlami bilan qoplangan bo‘lib, u eng kichik harakatda ustun deb ataladigan narsada ko‘tariladi. Samarqand atrofida bunday g‘orlar juda ko‘p bo‘lgan.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 6 Issue: 02 | 2026
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Professor Barbot de Marni Samarqandda olib borilgan qazishmalar natijasida “geolog uchun masjidlarning ichki qismi, ayniqsa Temur maqbarasi bilan qoplangan qurilish materiallarini oʻrganish qiziqarli” deb aytgan edi. Samarqand bu borada Turkistondagi boshqa har qanday shaharga qaraganda koʻproq qiziqish uygʻotadi. Shaharning oʻzi ham, uning atrofi ham turli xil qadimiy yodgorliklarga juda boy, ular orasida turli avliyolarning qabrlari birinchi oʻrinni egallashi "bejiz emas", deydi Xoroshxin. Barcha qadimiy binolarda eng keng tarqalgan material toʻq kulrang marmarga oʻxshash ohaktoshdir. Masalan, shahar tashqarisida joylashgan Shohi-Zinda xazratidagi 40 pogʻonali zinapoya qadimiyligi taxminan 500 yilni tashkil etadi, butun hovli va hatto ichki xonalarning poli ham bir xil marmar bilan qoplangan. Tillakori, Sherdor va Ulugʻbek hamda Temur maqbarasida, Goʻri-Amir masjidida hovli va zinapoyalar bir xil marmardan yasalgan. Ilgari juda katta foydalanilgan va XIV asr oxirida, deyarli 600 yil oldin qurilgan qadimiy binolarning mustahkamligiga bogʻliq boʻlgan marmarga oʻxshash ohaktosh qazishmalar davomida aniqlandi. Bu ohaktosh juda zich, toʻq kulrang, koʻk-kulrang, oq yoki hatto deyarli qora rangda, koʻpincha qoʻpol kristalli boʻlib, keyin ochroq va yumshoqroq, lekin koʻpincha qattiqroq va toʻqroq boʻladi. Qora ohaktoshda tomirlar, chiziqlar va sof ohakli shpat choʻntaklari mavjud. Koʻrinishidan, bu ohaktosh Samarqand yaqinida, Aksay-tau togʻlarida qazib olingan boʻlib, sut yoki yashil rangdagi, chekkalari shaffof, yumshoq, tolali tuzilishga ega, hech qanday aralashmalarsiz turdagi ohaktosh ichki devor bezaklari uchun ishlatilgan va faqat vaqti-vaqti bilan qabr toshlari uchun ishlatilgan. Qazishmalar natijasida ohaktosh Temur masjidida aniqlandi va u yerda devor bezaklari undan alohida olti burchakli plitalar shaklida yasalgan. Temur qabrining toʻq yashil monolit joylashgan pastki plitasi ham undan yasalgan. Gips koʻplab qadimiy va yangi binolarda juda keng tarqalgan, shuningdek, granit qumi ham. Yuqorida ta’kidlangariidek, gips Choponotada qazib olinadi, lyoss Samarqand tuprogʻidir va granit qumi Dargʻom ariqchasidan unchalik uzoq boʻlmagani joyda, lyoss ostida katta qalinlikda joylashgan. Samarqandning qadimiy binolarida ishlatilgan barcha mineral materiallar asl kelib chiqishiga ega. Ularning barchasi Samarqand yaqinida qazib olingan. Ular orasida, shubhasiz, birinchi oʻrinni Goʻri-Amir masjididagi Temur qabri ustidagi qabr toshi egallaydi, u uzoq vaqtdan beri olim tadqiqotchilar e’tiborini tortmoqda. Bu yodgorlik koʻplab sayohatchilar tomonidan tasvirlangan. Xususan, Vamberi uni "toʻq yashil tosh" deb ataydi, Goʻri-Amir masjididagi qabrlar joylashuvining batafsil, ammo toʻliq aniq boʻlmagan chizmasini taqdim etgan Radlov esa uning qora marmardan yasalganini aytadi[2].

Nefrit nafaqat mineralogik, balki tarixiy va arxeologik nuqtayi nazardan ham muhim boʻlgan kam sonli minerallardan biri edi. Chaqmoqtosh va obsidian singari, qadimgi davrlardan beri ma’lum boʻlgan. Uning ekspluatatsiyasi tosh davriga borib taqaladi. Oʻshandan hozirgi kungacha u koʻplab xalqlar tarixida juda muhim rol oʻynagan. Ba’zilar undan mudofaa yoki maishiy ehtiyojlar uchun turli xil asboblar yasashgan, boshqalari nefritdan bezak sifatida foydalangan, boshqalari esa diniy ehtirom buyumi boʻlgan va hokazo. Nefritning turli xalqlar orasida va turli davrlarda keng tarqalishi bir xil toshni anglatuvchi nomlarning xilma-xilligidan dalolat beradi. Ammo bu nomlar Osiyoda ayniqsa katta hurmatga sazovor va yuqori qadrlanadi. Shuning uchun xitoyliklar orasida u “yuy” yoki “yuy-shi” deb ataladi. Lechlerining soʻziga koʻra, “yuy” soʻzi odatda qimmatbaho toshni, “yuy-shi” esa asl ma’noda nefritni anglatadi. Markaziy Osiyo xalqlari oʻrtasidagi savdo aloqalarining boshlanishi eng qadimgi davrlarga borib taqaladi. "Miloddan avvalgi V asrda," deydi Katter Abel-Remusatga iqtibos-keltirib, "Xan sulolasi davrida “yuy” eng qimmat mahsulot sifatida Xotandan import qilingan. “Yuy” toshi tufayli bu mamlakat qadimgi davrlardayoq sezilarli darajada ta’lim olgan va boshqa xalqlar bilan ancha muhim savdo aloqalariga kirgan edi. Boshqa bir joyda u qoʻshimcha qiladiki, "ilgari bu tosh mahalliy hukmdorlarga sovgʻa sifatida yuborib, xorijiy yerlar bilan muhim siyosiy aloqalarni saqlab qolish imkoniyatini bergan" edi deyiladi.

1874-yilda Konchilik instituti professori N.P. Barbot-de-Marni bu toshning bir nechta boʻlaklarini ajratib olishga va uning tabiatini aniqroq aniqlashga muvaffaq boʻldi; u oʻz sayohati

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 6 Issue: 02 | 2026
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

haqidagi qisqacha hisobotda uni nefrit yoki sharqona nefrit deb ataydi, ammo batafsil tavsif bermaydi. Keyinchalik, Barbot-de-Marne barcha namunalarini taniqli nefrit mutaxassisi professor Fisheruga bergani ma’lum bo‘ldi, u bu haqda o‘zining maqolalaridan birida tilga olgan.

V.Mushketov esa 1879-yilda ushbu mineralning bir nechta bo‘laklarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri qabrlardan olish va uni batafsil o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘lgan edi. Nefrit nafaqat mineralogik, balki tarixiy va arxeologik nuqtai nazardan ham muhim bo‘lgan kam sonli minerallardan biridir. Nefrit, chaqmoqtosh va obsidiy toshi singari, qadimgi davrlardan beri ma’lum bo‘lgan; uni ekspluatatsiya qilish hatto tosh davridan ham boshlangan. O‘shandan to hozirgi kungacha u ko‘plab xalqlar tarixida juda muhim rol o‘ynagan; Ba’zilar undan turli xil asboblar yasashgan, boshqalari esa nefritdan bezak sifatida foydalanishgan, boshqalari esa diniy ehtirom buyumi bo‘lganligi tadqiqotlar davomida aniqlandi[3].

Syu-Shenyuning so‘zlariga ko‘ra, xitoyliklar nefrit toshini uning ramziy va axloqiy fazilatlari uchun afzal ko‘rishardi: 1) uning yorqinligi, jozibadorligi, insoniyligi; 2) Uning qattiqligi halokat va adolatni anglatadi; 3) Uning ovozi yoyilayotgan nurga o‘xshaydi; 4) Uning egiluvchanligi, yopishqoqligi va o‘zgarmasligi jasoratni anglatadi; 5) Uning donasi poklik ramzidir.

Amir Temur nefritining rangi to‘q yashil u juda oz miqdorda oltingugurt piritlarining mayda qo‘shimchilarini o‘z ichiga oladi. Singan joyi parchalanganib ketgan, chekkalari yashil rangda shaffof holda oqich rang hosil qoladi. Uning tahlilini konchilik instituti laboratoriyasi yordamchisi P.D.Nikolaev olib bordi. Bu hududdan topilgan nefrit Yorkent hududidan topilgan nefrit toshi bilan bir xil tuzilishga ega ekanligi ilmiy izlanishlar natijasida o‘z isbotini topdi[1]. Robert Shou Sharqiy Turkistonning eng qimmatli mahsuloti nefrit ilgari Baliqchi yaqinidagi, Qorakash vodiysining sharqiy yonbag‘irlaridagi, Kuenlun tog‘larida qazib olinganini ta’kidlaydi. Xattoki nefrit toshi Karib dengizi davlatlari orasida oq va yashil nefrit pul sifatida ishlatilgan.

Geologik izlanishlar davomida X, XI va XII asrlarga oid juda qadimiy qabrlarda topilgan yana bir turdagi qabr toshi ekspeditsiya a’zolarini e’tiborini tortdi. Bularning ichida Samarqand yaqinidagi mahalliy hokimilarning kichik antiqa buyumlar to‘plamidan topilgan ikkita tosh ayniqsa qiziqarlidir. Ikkalasi ham turli o‘lchamlarda, lekin taxminan bir xil shakldа, cho‘zinchoq, yumaloq, silliq toshlar shaklida: ulardan biri taxminan 1,1 arshin uzunlikda, kengligi 1,5 arshin va qalinligi biroz kichikroq, ikkinchisi esa arshinning taxminan 3% uzunlikda kengligi va qalinligi 1/4 arshin. Bir qarashda ular zich afanit (magmatik jinslarning tarkibiy qismlari oddiy ko‘z bilan ko‘rinmaydigan, juda mayda donali yoki shishasimon tuzilishga ega bo‘lgan, o‘ta nozik kristalli jins hisoblanadi)larga juda o‘xshash, ammo yaqindan tekshirilganda, ikkalasi ham zich jins ekanligi ma’lum bo‘ldi[2].

Zarafshon vodiysi XIX asr oxirida geologlar tomonidan alohida o‘rganilgan hududlardan biri bo‘ldi. Bu yerda oltin, mis, temir va boshqa foydali qazilmalarning mavjudligi haqidagi ma’lumotlar tadqiqotchilarni qiziqtirdi. XX asr boshlarida o‘tkazilgan izlanishlar davomida Zarafshon tizmasining janubiy yon bag‘irlarida oltin konlari mavjudligi to‘g‘risidagi ilmiy xulosalar mustahkamlandi. Bu esa keyinchalik konchilik sanoatining rivojlanishiga zamin yaratdi.

Nurota tog‘lari hududi ham XIX asr oxiri – XX asr boshlarida geologlar e’tiborini tortdi. Bu yerda asosan paleozoy davriga oid ohaktosh, slanets va granit jinslari o‘rganildi. Hududda polimetall rudalar, jumladan qo‘rg‘oshin va rux konlari mavjudligi aniqlangan. Zirabuloq tog‘lari esa geologik tuzilishi jihatidan Zarafshon tizmasining davomi hisoblanadi. Bu hududda olib borilgan izlanishlar natijasida karbonat jinslar va magmatik intruziyalar o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘rganildi. Ayrim joylarda temir va marganets konlarining mavjudligi aniqlangan[4].

## XULOSA

[1] Мушкетов И.В. Туркестан. Геологическое и орографическое описание по данным, собранным во время путешествий с 1874 г. по 1880 г. Т.1. СПб, 1886 С 370

Ushbu tadqiqotlar hududning tektonik rivojlanish tarixini aniqlashga ham xizmat qildi. Koʻrib oʻtilgan maʼlumotlar shundan dalolat beradiki, Samarqand oʻlkasi tabiiy boylik manbalarini oʻrganish, aniqlash va ulardan foydalanish masalasi Rossiya imperiyasi hukumati, amaldorlar va tadbirkorlarni qiziqtirgan masalalardan biri boʻlgan. Bu boradagi huquqiy hujjatlar va soha boshqaruvi oʻlka boyliklarini imperiya manfaatlari yoʻlida tasarruf etish uchun xizmat qilgan. Olimlar Samarqand viloyati hududi qadimiy geosiyosiy mintaqaga kirishini ilmiy asoslab berdilar. Geologik ekspeditsiyalar davomida vodiyning stratigrafiyasi, togʻ jinslarining yoshi va tarkibi aniqlashtirildi. Ayniqsa, Temuriylar davriga mansub qadimiy va geologik yodgorliklar roʻyxati qayd etildi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Мушкетов И.В. Туркестан. Геологическое и орографическое описание по данным, собранным во время путешествий с 1874 г. по 1880 г. Т.1. СПб, 1886
2. Мушкетов Д. И. Геологический Очер к туркестана. Ленинград. 1928
3. Краткий очерк геологичесих изысканий, произведенних в Туркестанском крае в течении 1869 года. Туркестанские ведомости. 1871. №1.
4. Мышенков Д. Геологические заметки из дневника по экспедиции к верховьям Заравшана // Материалы для статистики Туркестанского края. Ежегодник. Под ред. Н.А. Маева. Выпуск II. СПб, 1873.
5. Ganiev, Johongir Xakimjanovich On the role of Hellenistic culture in the activities of Greco-Bactrian statehood // International Journal of Scientific Researcher. 1.2025/12. 1116–1119.
6. Xamidova X. Mustamlaka turkistonda yer osti qazilma boyliklarining oʻzlashtirilishi xususida. international journal of philosophical studiesand social sciencesissn-e: 2181-2047, issn-p: 2181-2039.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 6 Issue: 02 | 2026
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

**Kosbergenova Nargiza**

*Basic doctoral student of the Department of Architecture, Faculty of Architecture; Karakalpak State University, Nukus city*
*kosbergenovanargiza04@gmail.com*

*Received 4th February 2026, Accepted 10th April 2026, Online 30th June 2026*

# HISTORICAL AND ARCHITECTURAL CHARACTERISTICS OF THE UNIQUE MONUMENTS OF THE REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN

**Abstract.** This article examines the unique architectural monuments of the Republic of Karakalpakstan, which are a vital component of the cultural heritage of ancient Khorezm. The paper analyzes defensive structures, urban planning approaches, and construction methods through the examples of Ayaz-kala, Janbas-kala, the Mizdakhan necropolis, and Chilpyk. It identifies the key features of local architecture, shaped by the region's natural-climatic conditions and historical development. Particular attention is given to the necessity of preserving these monuments as sites of national and global significance.

**Keywords:** Ancient fortresses, fortification architecture, historical heritage, archaeology, structures, region, monument, culture.

# ИСТОРИКО-АРХИТЕКТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ УНИКАЛЬНЫХ ПАМЯТНИКОВ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН

**Аннотация.** В статье рассматриваются уникальные памятники архитектуры Республики Каракалпакстан, являющиеся неотъемлемой частью культурного наследия древнего Хорезма. На примере Аяз-калы, Жанбас-калы, некрополя Миздахкан и Чилпыка анализируются оборонительные сооружения, градостроительные принципы и строительные технологии. В работе выявляются ключевые особенности местной архитектуры, сложившиеся под влиянием природно-климатических условий и исторического развития региона. Особое внимание уделяется необходимости сохранения этих памятников как объектов национального и мирового значения.

**Ключевые слова:** Древние крепости, фортификационная архитектура, историческое наследие, археология, сооружения, регион, памятник, культура.

# QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI NOYOB YODGORLIKLARINING TARIXIY-ME’MORIY XUSUSIYATLARI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada qadimgi Xorazm madaniy merosining muhim tarkibiy qismi hisoblanadigan Qoraqalpog‘iston Respublikasining noyob me’moriy yodgorliklari o‘rganiladi. Tadqiqotda Ayozqal’a, Jonbosqal’a, Mizdaxqon nekropoli va Chilpiq misolida mudofaa inshootlari, shaharni rejalashtirish yondashuvlari hamda qurilish uslublari tahlil etiladi. Unda o‘lkaning tabiiy-iqlimiy sharoitlari va tarixiy taraqqiyoti ta’sirida shakllangan mahalliy me’morchilikning asosiy xususiyatlari aniqlab berilgan. Mazkur yodgorliklarni milliy va umumjahon ahamiyatiga ega obyektlar sifatida saqlab qolish zaruratiga alohida e’tibor qaratiladi.

**Kalit so‘zlar:** Qadimiy qal’alar, mudofaa me’morchiligi, tarixiy meros, arxeologiya, inshootlar, o‘lka, yodgorlik, madaniyat.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 6 Issue: 02 | 2026
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

## INTRODUCTION

Karakalpakstan is a territory with deep historical roots and a rich cultural heritage. Many archaeological and architectural monuments of antiquity and the Middle Ages are concentrated here. This region, representing a unique historical and cultural area of Central Asia, holds a significant number of artifacts from ancient Khorezm. It played a key role in shaping the civilizational processes of Central Asia, being one of the most important centers of the ancient Eastern cultural paradigm [1].

The relevance of this study is driven by the need for a comprehensive examination of the architectural aspects of Karakalpakstan's monuments within the context of their historical development. It is also motivated by the need to ensure the preservation of this cultural heritage amidst modern transformations of the natural landscape and anthropogenic impacts.

The aim of the research is to identify and systematize the historical and architectural features of the distinctive monuments of the Republic of Karakalpakstan.

**The objectives of this study are to:**

- Examine the historical background of the monuments in question.
- Analyze their architectural and structural features.
- Identify the distinctive characteristics of the fortifications of ancient Khorezm.
- Assess the current cultural significance of these sites.

## METHODS

This study of the archaeological sites of ancient Khorezm in modern Karakalpakstan employed a range of methodological approaches. The historical-genetic method was applied to understand the development of architectural forms, while a comparative-analytical method was used to identify similarities and differences among the region's monuments. Architectural-typological analysis helped determine common structural and layout principles. Additionally, archaeological data from the works of both domestic and foreign scholars were studied and interpreted.

## RESULTS

The architectural heritage of Karakalpakstan is primarily represented by monuments from antiquity and the early Middle Ages (4th century BCE - 8th century CE). This period saw the flourishing of urban life, the strengthening of fortifications, and the construction of large-scale palace complexes. The region's territory was part of ancient Khorezm, which, despite its distinct identity, experienced significant cultural influence from Persia, the Hellenistic world, and later, the Arab Caliphate, all of which are reflected in its architecture.

The defensive structures of Karakalpakstan are distinguished by their developed fortification system. Typical features of most ancient settlements in this region include:

- Strong walls made of unfired brick.
- Semi-circular or rectangular towers.
- Toothed wall finishes.
- Protected entrances with intricate corridors.

The use of unfired bricks was dictated by the local climate and the availability of raw materials. Despite their apparent weakness, these structures were quite reliable due to their impressive wall thickness reaching 8-10 meters.

As a prime example of palace architecture, we can cite Toprak-kala, the capital of ancient Khorezm between the 1st and 3rd centuries AD (Figure 1).

Archaeological excavations have revealed a complex palace ensemble consisting of ceremonial halls, administrative blocks, and living quarters. The regular planning of the city testifies to the developed urban planning principles of that time. The ruler's palace occupied a dominant position,

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 6 Issue: 02 | 2026
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

rising above the other buildings. The interior decoration of the walls, decorated with paintings and sculptural compositions, emphasizes the high level of artistic culture.

**Tactical advantages of defensive structures: Ayaz-Kala and Janbas-Kala**

The strategy of Ayaz-Kala defense consisted of using natural elevations to create a complex of fortresses that provided a wide view of the terrain. Architectural solutions here are dictated by the desire to maximize the use of landscape features


a)


b)


c)



d)

***Figure 1. a** – The walls of Ayaz-Kala, **b** - Plan of Ayaz-Kala I, **c** - Plan of Ayaz-Kala II, **d** - Plan of Ayaz-Kala III*

Janbas-kala is a border fortress on the south-eastern border of ancient Khorezm, located on the road to Turtkul. It represents a spectacular and captivating ruins on the slope with a view of the old Amu Darya branch. The fortress has a rectangular shape measuring 200 by 170 meters. Like many other fortresses, Janbas-Kala dates back to the early antique period. It was founded in the 4th century BC and was used until about the 1st century AD. The walls of the fortress have been well preserved and in some places reach a height of 20 meters. Monumental gates have also been preserved, however, Dzhanbas-kala differs from most other fortresses in that it has no towers on its outer walls. Nevertheless, despite the absence of towers, the fortress was well protected. The double walls had inner corridors at two levels from which archers could shoot, and over a thousand shells were created on the outer surface. In the direction southeast of the main gate, there is a street with residential quarters leading to the top of the city, where a monumental building is located, which is believed to be the Temple of Fire. The finds at this site suggest that this fortress was used from the 4th century BC to the 1st century AD. Janbas-Kala is visible from the main road, however, the road leading to it is sandy and can only be driven by cars with high traffic lights [6]. Unlike Mizdakhan, Janbas-kala demonstrates a well-thought-out rectangular layout and massive walls designed to repel attacks. The internal structure of the fortress is rationally distributed between defensive elements and economic zones (Figure 2).



**Figure 2**. Plan of Dzhanbas-kala

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 6 Issue: 02 | 2026
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Mizdakhan is an outstanding archaeological monument that combines burial structures and cultic structures belonging to different historical periods. The architectural appearance of the necropolis demonstrates the progressive development of religious views and construction techniques. The combination of pre-Islamic and Islamic architecture elements determines the complex's significance as a research object for cultural continuity in this region (figure 3).



**Figure 3.** Mizdakhan Necropolis, Karakalpakstan.

**Chilpik architectural and archaeological complex**

The Chilpik architectural and archaeological complex, located in the Republic of Karakalpakstan on the right bank of the Amu Darya River, 40 km south of Nukus, is one of the most valuable and unique monuments of ancient Khorezm. Its outstanding architecture and undeniable historical significance make it a key research object for archaeologists, historians, and architects studying Central Asia [1].

Located on a natural elevation of about 30-35 meters, the complex gives the impression of monumentality and occupies a dominant position in the landscape. Its main architectural element is a large circular structure with a diameter of about 60-70 meters. The walls of this structure are made of raw bricks, joined with a clay mortar, which is characteristic of the construction practice of ancient Khorezm [2].

The circular shape of the structures is a key feature of Chilpiq architecture, ensuring structural integrity and uniform load distribution, as well as protection from harsh climates through massive walls. The archaeological interpretation of Chilpiq reduces to its understanding as an ancient cult complex associated with Zoroastrian religious traditions. The prevailing scientific viewpoint identifies it as a dahma - a structure designed for burial rituals, where, according to Zoroastrian doctrines, the bodies of the deceased were subjected to natural decomposition in open areas, and subsequent collection of bones and their placement in special vessels or ossicles was an integral part of the ritual (figure 4).

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 6 Issue: 02 | 2026
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich



**Figure 4.** Plan of Chilpik

The results of archaeological excavations confirm the long-term use of this structure. There is a hypothesis put forward by some scientists that its construction began at the turn of the 1st millennium BC, however, subsequent centuries were marked by numerous reconstructions and partial reconstructions [2]. In addition to its sacred function, the strategic location of the complex on high ground likely played a significant role. From the top of the hill, a panoramic view of the adjacent territories opened up, which ensured control over the lands and routes of movement. Today, Chilpiq is recognized as a key cultural heritage site in Karakalpakstan and one of the most significant archaeological monuments in the region. Studying its architectural solutions and archaeological materials contributes to a deeper understanding of religious practices, engineering achievements, and the cultural evolution of ancient Khorezm.

## DISCUSSION

Analysis of the architectural structures of Karakalpakstan reveals characteristic features:

- The presence of fortified structures due to the high level of political tension in the region.
- Adapting buildings to the climatic characteristics of the territory - using local building materials and applying massive structures.
- The high level of urban planning development, manifested in the carefully thought-out composition of urban ensembles.
- The unification of various cultural traditions, which testifies to the important trade position of Khorezm at the intersection of routes.

It should be noted that a significant portion of the facilities are currently suffering from destruction due to erosion processes and the deterioration of the ecological situation around the Aral Sea. This increases the relevance of creating comprehensive measures for the protection and restoration of historical and architectural heritage. Compared to similar monuments in other regions of Central Asia, the architecture of Karakalpakstan is distinguished by increased monumentality and clearly expressed defensive functions.

## CONCLUSION

The study revealed the main historical and architectural features of the monuments of the Republic of Karakalpakstan, demonstrating that their formation was determined by the interaction of

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 6 Issue: 02 | 2026
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

complex historical currents and features of the local natural environment, which gave the region's architecture an exceptional uniqueness.

The ancient fortifications and religious buildings of the region represent significant examples of fortification and palace architecture of the antique and early medieval periods. Preserving these objects and studying their characteristics in depth is crucial for the development of historical knowledge and the implementation of cultural strategies.

Thus, the monuments of Karakalpakstan reflect the high level of social and artistic development of ancient Khorezm and occupy a worthy place in the global cultural and historical heritage of humanity.

## REFERENCES

1. Толстов С.П. Древний Хорезм. — М.: Издательство АН СССР, 1948.
2. Вайнберг Б.И. Археологические памятники Хорезма. — Ташкент: Фан, 1977.
3. Пугаченкова Г.А. Искусство Средней Азии. — М.: Искусство, 1986.
4. Ходжайов Т.К. Архитектурное наследие Каракалпакстана. — Нукус, 2005.
5. Материалы Института археологии АН РУз.
6. В.Н. Ягодин., А.В.Г.Беттс.Золотое кольцо Хорезма – UNESCO, T-2009.

**INTERNET SOURCES**

1. UNESCO World Heritage Centre. Ancient Khorezm fortresses. URL: https://whc.unesco.org
2. Central Asian Archaeological Landscapes. Chilpik Tower of Silence. URL: https://www.silkroadsprogramme.org
3. Encyclopaedia Britannica. Khorezm civilization and archaeological monuments. URL: https://www.britannica.com
4. National Geographic. Archaeological sites of ancient Khorezm. URL: https://www.nationalgeographic.com
5. Министерство культуры Республики Узбекистан. Исторические памятники Каракалпакстана. URL: https://www.madaniyat.uz

*International Journal of Intellectual and Cultural Heritage*
*Volume: 6 Issue: 02 | 2026*
*ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314*
*http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich*

***Nabiyeva Naima Kamolovna***

*Samarqand davlat pedagogika instituti*
*Tarix kafedrasi o'qituvchisi*

*Received 4th February 2026, Accepted 10th April 2026, Online 30th June 2026*

## THE PLACE OF ORGANIZATIONAL AND INSTITUTIONAL MUSEUMS IN THE PEDAGOGICAL PROCESS

**Abstract.** This article analyzes the importance of museums of organizations and institutions in the pedagogical process, their role in shaping the spirituality of young people, and their impact on increasing educational effectiveness. The educational, enlightening, and scientific functions of museums are discussed, and methods for their effective use in the educational process, including creative ideas such as "mobile museum" and "student-created mini-museum", are proposed.

**Keywords**: museum, pedagogy, education, upbringing, spirituality, youth, cultural heritage, innovative education, museum pedagogy.

## МЕСТО ОРГАНИЗАЦИОННЫХ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫХ МУЗЕЕВ В ПЕДАГОГИЧЕСКОМ ПРОЦЕССЕ

**Аннотация.** В статье анализируется значение музеев организаций и учреждений в педагогическом процессе, их роль в формировании духовности молодёжи и влияние на повышение эффективности образования. Рассматриваются воспитательные, просветительские и научные функции музеев, предлагаются методы их эффективного использования в образовательном процессе, включая креативные идеи, такие как «передвижной музей» и «мини-музей, созданный студентами».

**Ключевые слова:** музей, педагогика, образование, воспитание, духовность, молодёжь, культурное наследие, инновационное образование, музейная педагогика.

## TASHKILOT VA MUASSASA MUZEYLARINING PEDAGOGIK JARAYONDAGI O'RNI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada tashkilot va muassasa muzeylarining pedagogik jarayondagi ahamiyati, yoshlar ma'naviyatini shakllantirishdagi o'rni hamda ta'lim samaradorligini oshirishdagi ta'siri tahlil qilingan. Muzeylarning tarbiyaviy, ma'rifiy va ilmiy funksiyalari yoritilib, ulardan ta'lim jarayonida samarali foydalanish usullari, jumladan "ko'chma muzey" va "talabalar tomonidan yaratilgan mini-muzey" kabi kreativ g'oyalar ilgari surilgan.

**Kalit so'zlar:** muzey, pedagogika, ta'lim, tarbiya, ma'naviyat, yoshlar, madaniy meros, innovatsion ta'lim, muzey pedagogikasi.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 6 Issue: 02 | 2026
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

## KIRISH

Bugungi globallashuv davrida yosh avlodni milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ularning ma’naviy va intellektual salohiyatini rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda tashkilot va muassasa muzeylari muhim ma’rifiy maskan sifatida xizmat qiladi. Maktab darsligi yoki ma’ruza matni o‘quvchiga faktlarni yetkazadi, ammo ularni his qildirish, ongida uzoq muddatli iz qoldirish har doim ham mumkin emas. Aynan shu bo‘shliqni tashkilot va muassasa muzeylari to‘ldiradi.

Muzey – bu nafaqat tarix saqlanadigan joy, balki “tirik darslik” dir. Unda har bir eksponat – voqea, kashfiyot yoki mehnatning guvohidir. O‘zbekistonning ko‘plab tashkilotlari (zavodlar, ilmiy markazlar, oliy o‘quv yurtlari) o‘z muzeylariga ega. Afsuski, ulardan pedagogik maqsadlarda foydalanish darajasi hali yetarli emas. Shu sababli mazkur maqolada ushbu muassasa muzeylarining ta’lim-tarbiya jarayonidagi potensialini ochish, ularni maktab va oliy ta’lim dasturlari bilan bog‘lashning samarali mexanizmlarini taklif etish asosiy vazifa qilib belgilangan. Ayniqsa, “ko‘chma muzey” *(mobile museum)* g‘oyasi – maxsus jihozlangan avtobus yoki kontener yordamida eksponatlarni chekka hududlarga olib borish – qishloq maktablarida o‘qiyotgan yoshlar uchun katta imkoniyatlar ochadi[3]. Ushbu yondashuv ta’limda ijtimoiy adolat va teng imkoniyatlar tamoyilini amalga oshirishga xizmat qiladi.Muzeylar nafaqat tarixiy yodgorliklar saqlanadigan joy, balki inson tafakkurini boyituvchi, yoshlarda milliy g‘urur va vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantiruvchi muhim pedagogik vosita hamdir. Ta’lim tizimida an’anaviy dars usullari bilan bir qatorda amaliy va vizual yondashuvlarning ahamiyati oshib bormoqda. Shu nuqtai nazardan muzeylar o‘quvchilar va talabalar uchun nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash imkonini yaratadi. Mazkur maqolada tashkilot va muassasa muzeylarining pedagogik jarayondagi o‘rni, ularning tarbiyaviy va ilmiy funksiyalari, shuningdek, ta’limda ulardan samarali foydalanishning yangi usullari tahlil qilinadi.

## ASOSIY QISM

Muzeylarning pedagogik ahamiyatini chuqurroq tushunish va anglashimiz uchun ularning quyidagi jihatlarini alohida ko‘rib chiqish lozim. *Birinchidan,* bu muzeylar kasbiy yo‘naltirish vositasi sifatida korxona yoki zavod muzeyida talabalar ishlab chiqarishning evolyutsiyasini, turli kasb egalarining mehnat qurollarini ko‘radi, muhandis, texnolog, konstruktor kabi mutaxassislarning faoliyati bilan yaqindan tanishadi[4]. Bu ularning kelajak kasb tanlashiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ikkinchidan, muzeylar tadbirkorlik va innovatsiya ruhini tarbiyalashda muhim rol o‘ynaydi. Tashkilotning o‘tmishdagi muvaffaqiyatlari, qiyinchiliklari, ularni yengish strategiyalari yoshlarda tashabbuskorlik va mas’uliyat hissini uyg‘otadi[3].

Uchinchidan, muzeylar kommunikativ va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Muzey darslari davomida talabalar guruh bo‘lib ishlaydi, eksponatlar haqida bir-biriga ma’lumot beradi, savol-javob qiladi, bahs-munozaralarda qatnashadi. Bu ularning muloqot qilish va jamoada ishlash qobiliyatini oshiradi[5]. To‘rtinchidan, tashkilot muzeylari tarixiy tafakkurni rivojlantirishning samarali vositasidir. Eksponatlar orqali yoshlar o‘z korxonasi yoki tashkilotining butun mamlakat hayotidagi o‘rnini, uning iqtisodiy va madaniy taraqqiyotga qo‘shgan hissasini tahlil qilishga o‘rganadi. Bu makro darajada tarixiy jarayonlarni tushunishga yordam beradi. Bundan tashqari, maqolada ilgari surilgan “talabalar tomonidan yaratilgan mini-muzey” konsepsiyasi amaliyotda quyidagicha tashkil etiladi: har bir sinf yoki guruh o‘z o‘quv mavzusi (masalan, “Buyuk ipak yo‘li”, “Paxta terimining tarixi”, “Maktabimiz bitiruvchilari – fan nomzodlari”) bo‘yicha eksponatlarni to‘playdi, ularni tartibga soladi, kichik vizitkalar tayyorlaydi va bir oy mobaynida maktab koridorida namoyish etadi. Bu jarayon talabalarning tadqiqotchilik, dizaynlik va tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantiradi[6]. Tajriba shuni ko‘rsatadiki,

bunday loyihalarda qatnashgan o‘quvchilar keyinchalik akademik fanlardan ko‘rsatkichlarini 20-30% ga yaxshilagan (mualliflarning kuzatuvi). Zamonaviy texnologiyalar bilan integratsiyalashgan “virtual muzey” yoki “muzey metaversi” esa darslarni butunlay interaktiv muhitga o‘tkazish imkonini beradi: talabalar VR ko‘zoynak orqali tashkilotning o‘tmishiga sayohat qiladi, sun’iy intellekt yordamida tarixiy shaxslar bilan suhbatlashadi, eksponatlarning 3D modellarini o‘rganadi. Tashkilot va muassasa muzeylari ta’lim jarayonida bir nechta muhim vazifalarni bajaradi. Ularning eng asosiysi – tarixiy xotirani shakllantirishdir. Muzeylarda saqlanayotgan hujjatlar, eksponatlar va arxiv materiallari orqali yoshlar o‘tmish haqida aniq tasavvurga ega bo‘ladi. Bu esa ularda milliy o‘zlikni anglash hissini kuchaytiradi[3]. Masalan, korxona yoki tashkilot tarixiga bag‘ishlangan muzeylar yoshlarning mehnatga bo‘lgan munosabatini, mehnatkash avlodga hurmatini shakllantiradi. Maktab, kollej, universitet yoki zavod, korxona muzeylari o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish, mehnat ta’limi va ma’naviy tarbiyada alohida o‘rin tutadi. Muzeylarning ikkinchi muhim funksiyasi – tarbiyaviy funksiyadir. Muzey muhiti inson qalbiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi [1]. Ayniqsa, buyuk ajdodlar, olimlar va qahramonlar hayotiga bag‘ishlangan ekspozitsiyalar yoshlarda mehnatsevarlik, matonat va vatanparvarlik kabi fazilatlarni shakllantiradi [4]. Yoshlar muzeyga kelganda, ular faqat bilim olib qolmay, balki o‘z qalbidan o‘tkazib, his qilib, o‘rganadilar. Bu esa oddiy darslik sahifalarida uchrash mumkin bo‘lmagan chuqur ta’sir ko‘rsatadi. Inson miyasi vizual va taktil ma’lumotlarni ko‘proq eslab qoladi, shuning uchun muzeyda o‘tkazilgan dars yoki ekskursiya o‘quvchilarning xotirasida uzoq saqlanadi.

Zamonaviy muzeylar multimedia texnologiyalari, interaktiv ekranlar va virtual ekskursiyalar orqali ta’lim samaradorligini oshirmoqda[5]. Bu esa o‘quvchilarning qiziqishi va faolligini kuchaytiradi. Innovatsion ta’lim imkoniyati muzeylarni an’anaviy “qarab chiqish” maskanidan “ishtirok etish” maskaniga aylantirmoqda. Talabalar sensorli ekranlar orqali eksponatlarni aylantirib ko‘rish, qo‘shimcha ma’lumotlar olish, hatto virtual tarixiy shaxslar bilan suhbatlashish imkoniyatiga ega. Bu esa darslarni yanada jonli va qiziqarli qiladi. Muzey pedagogikasida “ko‘chma muzey” (mobile museum) konsepsiyasini joriy etish orqali muzey eksponatlarini bevosita maktab va oliygohlarga olib borish mumkin. Maxsus jihozlangan avtobus yoki kichik konteyner ko‘rinishidagi ko‘chma muzey qishloq maktablariga borib, u yerdagi o‘quvchilarni muzey eksponatlari bilan tanishtiradi.

Bu g‘oya hali O‘zbekiston ta’lim tizimida keng qo‘llanilmagan, ammo katta istiqbolga ega. Muzey materiallari talabalar va tadqiqotchilar uchun muhim manba hisoblanadi. Ular orqali mustaqil izlanish va tahlil qilish ko‘nikmalari rivojlanadi [6]. Ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirishda muzeylarning o‘rni beqiyos. Oliy ta’lim muassasalarining fan muzeylari talabalar ilmiy ishlari uchun asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Talabalar muzey materiallari asosida kurs ishi, magistrlik dissertatsiyasi tayyorlashi, maqolalar yozishi mumkin. Bu ularda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantiradi va ularni akademik faoliyatga tayyorlaydi. Pedagogik jarayonda muzeylardan samarali foydalanish usullari muhim ahamiyatga ega. Bularga muzey darslarini tashkil etish, tarixiy eksponatlar asosida muhokamalar o‘tkazish, talabalar ishtirokida ekskursiya va taqdimotlar tashkil qilish, virtual muzey platformalaridan foydalanish va fanlararo integratsiyani yo‘lga qo‘yish kiradi. Masalan, tarix, adabiyot va madaniyat fanlarini muzey materiallari bilan bog‘lash orqali o‘quvchilarning bilish faolligi yanada kuchayadi [7]. Yana bir kreativ g‘oya – “talabalar tomonidan yaratilgan mini-muzey”dir. Har bir sinf yoki guruh o‘z mavzusiga oid eksponatlarni (rasmlar, maketlar, qo‘lyozma nusxalari, 3D modellar) to‘plab, kichik muzey tashkil qilishi mumkin. Bu jarayon talabalarning mustaqil izlanishini, ijodkorligini va jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bunday mini-muzeylarni maktab koridorlari, o‘quv xonalari yoki kutubxonalarda joylashtirish mumkin.

Muzeylar inson ma’naviyatini yuksaltirishda alohida o‘rin tutadi. Chunki muzeyda inson millat tarixi, madaniyati va qadriyatlari bilan yuzma-yuz keladi. Bu esa yoshlarda milliy iftixor,

ajdodlarga hurmat va kelajak oldida mas’uliyat hissini uyg‘otadi[8]. Mustaqillik yillarida yurtimizda tashkil etilgan muzeylar yoshlarni milliy g‘oya va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qilmoqda. Shu jihatdan muzeylarni ta’lim muassasalari bilan uzviy bog‘lash muhim ahamiyat kasb etadi. Muzeylarning yana bir muhim funksiyasi – empatiya tarbiyasidir. Tarixiy shaxslarning qiyin hayot yo‘li, qahramonliklari, fidoyiligi ko‘rgazma orqali ko‘rsatilganda, yoshlar ulardan o‘rnak oladi, o‘zini ularning o‘rniga qo‘yib his qiladi. Bu esa axloqiy fazilatlarni shakllantirishda kuchli vosita hisoblanadi. Maktab va oliy o‘quv yurtlarida “Muzey pedagogikasi” fanini joriy etish, o‘qituvchilar va muzey xodimlarini birgalikda o‘qitish, o‘quv rejalarga muzey darslarini majburiy qism sifatida kiritish orqali bu jarayonni tizimli yo‘lga qo‘yish mumkin. Kelajakda tashkilot muzeylari nafaqat eksponat saqlovchi ombor, balki jonli ta’lim platformasiga aylanishi lozim. Bu borada tajriba almashish, xorijiy mamlakatlar (Germaniya, Yaponiya, AQSh) ilg‘or usullarini o‘rganish va mahalliy sharoitga moslashtirish muhimdir [9]. Masalan, Yaponiyada ko‘plab korxonalar o‘z muzeylarini nafaqat tarixni saqlash, balki yosh ishchilarni tarbiyalash va kompaniya ruhini shakllantirishda faol ishlatadi. Bu tajribani O‘zbekiston korxona va tashkilotlarida ham joriy etish mumkin.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganimizda, tashkilot va muassasa muzeylari pedagogik jarayonning ajralmas qismi hisoblanadi. Ular ta’lim samaradorligini oshirish, yoshlarning ma’naviy dunyoqarashini boyitish va milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shuning uchun ta’lim tizimida muzey pedagogikasini yanada rivojlantirish, zamonaviy texnologiyalar asosida muzey faoliyatini takomillashtirish va ulardan o‘quv-tarbiyaviy jarayonda keng foydalanish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

“Ko‘chma muzey” va “talabalar mini-muzeyi” kabi kreativ g‘oyalarni amalga oshirish, xorijiy tajribalarni o‘rganish va mahalliy sharoitga moslashtirish orqali muzeylarning pedagogik salohiyatidan yanada samarali foydalanish mumkin. Muzey pedagogikasiga tizimli yondashuv kelajakda yoshlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi va ta’lim sifatini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.Tadqiqotlarimizning yakuniy xulosasi sifatida shuni ta’kidlashimiz kerakki, tashkilot va muassasa muzeylari faqatgina ekskursiya tashkil etishning obyekti emas, balki tizimli pedagogik yondashuvni talab qiluvchi muhim resursdir. Ular maktab va oliy ta’lim o‘quv dasturlariga fanlararo va loyihaviy metodlar orqali integratsiya qilinishi lozim [7]. “Ko‘chma muzey” va “talabalar mini-muzeyi” kabi kreativ g‘oyalarni qo‘llab-quvvatlash, muzey pedagogikasini o‘qituvchilar malakasini oshirish markazlarida alohida modul sifatida o‘qitish, tashkilot rahbarlarini muzeylarining ta’limiy salohiyatidan foydalanishga rag‘batlantirish – bugungi kunning dolzarb vazifalaridir. Kelgusida O‘zbekistonda “Muzey pedagogikasi assotsiatsiyasi”ni tashkil etish, xalqaro tajribalarni (Finlandiya, Yaponiya, Germaniya) o‘rganish va mahalliy sharoitga moslashtirish, shuningdek, har bir hududdagi yetakchi tashkilot muzeylari negizida “Ochiq ta’lim laboratoriyalari”ni tashkil etish mumkin [8]. Bunday chora-tadbirlar nafaqat yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, balki ularning intellektual salohiyatini va ijtimoiy mas’uliyatini oshirishga ham xizmat qiladi. Muzey pedagogikasiga tizimli yondashuv Yangi O‘zbekistonning uyg‘onish davrida barkamol avlodni tarbiyalashning muhim omillaridan biriga aylanadi.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 6 Issue: 02 | 2026
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining “Muzeylar to‘g‘risida”gi Qonuni. 2019.

2. “Museum and Education” – UNESCO International Report, Paris, 2022.

3. Karimov I. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. Toshkent, 2008.

4. “The Role of Museums in Formal Education” – Cambridge Journal of Education, 2021, Vol. 51, Issue 3.

5. Hooper-Greenhill E. “Museums and Education: Pedagogy, Practice and Performance”. Routledge, 2017.

6. “Pedagogical Museums: Historical and Contemporary Perspectives”. Oxford University Press, 2019.

7. Shavkat Mirziyoyev. “Yangi O‘zbekiston strategiyasi”. Toshkent, 2021.

8. “Museum Pedagogy in the 21st Century” – Journal of Museum Education, 2023, Vol. 48.

9. “Organization Museums as Educational Resources”. International Council of Museums (ICOM), 2020.

*Eslatma:* Ushbu maqolada keltirilgan “ko‘chma muzey”, “talabalar tomonidan yaratilgan mini-muzey” kabi konsepsiyalar muallif Nabiyeva Naima Kamolovnaning ilmiy-ijodiy izlanishlari mahsuli hisoblanadi.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 6 Issue: 02 | 2026
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

*JAMSHID MATNAZAROV*

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti*
*Mustaqil tadqiqotchi*

*Received 4th February 2026, Accepted 10th April 2026, Online 30th June 2026*

# ARALASH TA’LIM SHAROITIDA TALABALARNI KIBER-IJTIMOIYLASHTIRISHNING PEDAGOGIK LOYIHALASH MODELI VA UNI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMLARI

**Annotatsiya:** Maqolada aralash ta’lim (blended learning) sharoitida talabalarning kiber-ijtimoiyizatsiyasini optimallashtirishning pedagogik loyihalash usullari tahlil qilingan. Tadqiqotda loyiha asosida o‘qitish, shaxsiylashtirilgan ta’lim va "teskari sinf" (flipped classroom) kabi metodlarning raqamli xavfsizlik va ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirishdagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, kiber-ijtimoiyizatsiyaning tamoyillari, raqamli vositalar (LMS, VR/AR, gamifikatsiya) va ushbu jarayonning ijtimoiy-pedagogik funktsiyalari atroflicha bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** aralash ta’lim, kiber-ijtimoiyizatsiya, pedagogik loyihalash, raqamli fuqarolik, teskari sinf, gamifikatsiya, kiber-xavfsizlik, raqamli odob, masofaviy ta’lim.

# PEDAGOGICAL DESIGN MODEL OF CYBER-SOCIALIZATION OF STUDENTS IN BlENDED EDUCATION AND MECHANISMS FOR ITS IMPLEMENTATION

**Abstract:** The article analyzes the pedagogical design methods of students’ cyber-socialization in the context of blended learning. It explores the role of methods such as project-based learning, personalized learning, and the "flipped classroom" in developing digital safety and social skills. Furthermore, the principles of cyber-socialization, digital tools (LMS, VR/AR, gamification), and the socio-pedagogical functions of this process are described in detail to prepare students for the digital world responsibly.

**Keywords:** blended learning, cyber-socialization, pedagogical design, digital citizenship, flipped classroom, gamification, cyber-security, digital etiquette, distance education.

# ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ ПРОЕКТИРОВАНИЯ КИБЕРСОЦИАЛИЗАЦИИ УЧАЩИХСЯ В СМЕШАННОМ ОБРАЗОВАНИИ И МЕХАНИЗМЫ ЕЁ ВНЕДРЕНИЯ.

**Аннотация:** В статье анализируются методы педагогического проектирования киберсоциализации студентов в условиях смешанного обучения (blended learning). Рассматривается роль таких методов, как проектное обучение, персонализированное обучение и «перевернутый класс» (flipped classroom) в формировании цифровой безопасности и

социальных навыков. Также подробно описаны принципы киберсоциализации, цифровые инструменты (LMS, VR/AR, геймификация) и социально-педагогические функции этого процесса в современной образовательной среде.

**Ключевые слова:** смешанное обучение, киберсоциализация, педагогическое проектирование, цифровое гражданство, перевёрнутый класс, геймификация, кибербезопасность, цифровой этикет, дистанционное обучение.

**1. Introduction (Kirish).** Texnologiyaning jadal rivojlanishi talabalar oʻrtasida internet va ijtimoiy mediadan foydalanish imkoniyatini oshirdi, bu kiberbulling va nomaqbul kontentga ta'sir qilish kabi xavflar bilan birga keladi. Ushbu muammolarni hal qilish uchun aralash ta'limga asoslangan talabalarni kiber ijtimoiylashtirishning pedagogik loyihasi taklif etiladi. Ushbu dizayn sifat va miqdoriy tadqiqot usullari, jumladan, adabiyotlarni koʻrib chiqish, fokus-guruhlar, soʻrovlar va amaliy tadqiqotlarni oʻz ichiga oladi. Ushbu dizaynni dasturlash oʻquv dasturlarini ishlab chiqish, oʻqituvchilar tayyorlash, ota-onalar ta'limi, talabalarni qoʻllab-quvvatlash va texnologiya integratsiyasini oʻz ichiga oladi. Ushbu dizaynni amalga oshirish orqali biz talabalar oʻrtasida ijobiy kiber ijtimoiylashuvni targʻib qilishimiz va ularga internet va ijtimoiy mediadan mas'uliyat bilan foydalanish uchun zarur boʻlgan koʻnikmalarni rivojlantirishga yordam berishimiz mumkin. D.R.Garrison va T. Anderson ta'kidlaganidek, XXI-asrda elektron ta'lim nafaqat bilim berish, balki tadqiqot va amaliyot ramkasi sifatida xizmat qilishi kerak [5].

**2. Methods (Tadqiqot usullari).**

Tadqiqotda kiber-ijtimoiylashtirishni optimallashtirish uchun sifat va miqdoriy tadqiqot usullari qoʻllanilgan:

Adabiyotlar tahlili: Aralash ta'lim va raqamli pedagogikaga oid xalqaro tajribalarni oʻrganish.

Pedagogik loyihalash: "Teskari sinf" (flipped classroom), loyiha asosida oʻqitish va shaxsiylashtirilgan ta'lim modellarini integratsiya qilish.

Texnologik integratsiya: LMS (Learning Management Systems), VR/AR va gamifikatsiya vositalaridan foydalanish usullarini ishlab chiqish.

**3. Results (Natijalar).**




**1-rasm. Aralash ta'limga asoslangan talabalarni kiber-ijtimoiylashtirishni pedagogik loyihalash usullari**

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 6 Issue: 02 | 2026
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Aralash ta'limga asoslangan talabalarni kiber-ijtimoiylashtirishni pedagogik loyihalash usullari. Aralash ta'limga asoslangan talabalarni kiber-ijtimoiylashtirishni pedagogik loyihalash quyidagi usullar orqali amalga oshirilishi mumkin:

1. Aralashtirilgan ta'lim: Bu usul an'anaviy sinfda o'qitishni onlayn ta'lim bilan birlashtiradi. Bu talabalarga o'z tezligida o'rganish imkonini beradi va ularga turli xil manbalardan, jumladan, videolar, maqolalar va interaktiv tadbirlardan foydalanish imkonini beradi.

2. Loyiha asosida o'qitish: Bu usul talabalardan o'rgangan bilim va ko'nikmalarini qo'llashni talab qiladigan loyiha ustida ishlashni o'z ichiga oladi. Bu hamkorlikni, tanqidiy fikrlashni va muammolarni hal qilishni rag'batlantiradi.

3. Shaxsiylashtirilgan ta'lim: Bu usul o'rganish tajribasini har bir talabaning individual ehtiyojlari va qiziqishlariga moslashtiradi. U talabalar qo'shimcha yordamga muhtoj bo'lishi mumkin bo'lgan sohalarni aniqlash uchun ma'lumotlar tahlilidan foydalanadi va ularga moslashtirilgan ko'rsatmalar va fikr-mulohazalarni taqdim etadi.

4. Flipped classroom: Bu usul talabalarning darsga kelishidan oldin oldindan yozib olingan ma'ruzalarni tomosha qilishlari yoki onlayn tadbirlarni bajarishlarini o'z ichiga oladi. Bu ko'proq interaktiv va qiziqarli sinf muhokamalari va faoliyatiga imkon beradi.

5. Tengdoshlari bilan o'rganish: Bu usul talabalarni bir-biridan o'rganish maqsadida guruhlarga bo'linib ishlashni o'z ichiga oladi. Bu hamkorlikni, muloqotni va jamoada ishlashni rag'batlantiradi.

Ushbu usullarning kombinatsiyasidan foydalangan holda, o'qituvchilar kiber-ijtimoiylashuvni rag'batlantiradigan va talabalarni raqamli dunyoga tayyorlaydigan dinamik va qiziqarli o'quv muhitini yaratishi mumkin.

Aralash ta'limga asoslangan talabalarni kiberijtimoiylashtirishni pedagogik loyihalash usullarida qo'llaniladigan raqamli vositalar

1. Ta'limni boshqarish tizimlari (LMS): LMS - bu o'qituvchilarga onlayn kurslar va o'quv materiallarini yaratish, boshqarish va yetkazib berish imkonini beruvchi dasturiy dastur.




2-rasm. Aralash ta'limga asoslangan talabalarni kiberijtimoiylashtirishni pedagogik loyihalash usullarida qo'llaniladigan raqamli vositalar

2. Videokonferensaloqa vositalari: Bu vositalar o‘qituvchilarga virtual darslar va talabalar bilan uchrashuvlar o‘tkazish imkonini, real vaqt rejimida o‘zaro muloqot va hamkorlik qilish imkoniyatini beradi.

3. Ijtimoiy media platformalari: Facebook, Twitter va Instagram kabi ijtimoiy media platformalaridan talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi muloqot va hamkorlikni osonlashtirish uchun foydalanish mumkin.

4. Onlayn munozara forumlari: Bu forumlar talabalarga savollar berishlari, fikr almashishlari va tengdoshlari va o‘qituvchilari bilan munozaralarda qatnashishlari uchun joy beradi.

5. Gamifikatsiya vositalari: Kahoot! va Quizlet talabalarga ma’lumotni o‘rganish va saqlashga yordam beradigan interaktiv viktorinalar va o‘yinlarni yaratish uchun ishlatilishi mumkin.

6. Kengaytirilgan reallik (AR) va virtual haqiqat (VR) vositalari: AR va VR vositalari talabalarni o‘ziga jalb etadigan va ularning murakkab tushunchalarni tushunishlarini kuchaytiradigan immersiv o‘rganish tajribasini yaratish uchun ishlatilishi mumkin.




**3-rasm. Kiber ijtimoiyizatsiyada qo‘llaniladigan tamoyillar**

Ushbu raqamli vositalarni o‘zlarining pedagogik dizayniga kiritish orqali o‘qituvchilar kiber-ijtimoiylashuvni targ‘ib qiluvchi va talabalarni raqamli dunyoga tayyorlaydigan yanada qiziqarli va interaktiv o‘quv muhitini yaratishi mumkin.

Kiber ijtimoiyizatsiyada qo‘llaniladigan tamoyillar

1. Muloqot: Kiber ijtimoiyizatsiya samarali muloqotga, jumladan yozma, vizual va audio aloqaga tayanadi. Bu raqamli platformalar orqali g‘oyalar, his-tuyg‘ular va ma’lumotlar almashinuvini o‘z ichiga oladi.

2. Hurmat: Yuzma-yuz muloqotda bo‘lgani kabi, kiber ijtimoiyizatsiya ham ishtirokchilar o‘rtasida o‘zaro hurmatni talab qiladi. Bunga boshqalarning fikrini, maxfiyligini va chegaralarini hurmat qilish kiradi.

3. Maxfiylik va xavfsizlik: kiber ijtimoiyizatsiya ishtirokchilari o‘zlarining, shuningdek, boshqalarning shaxsiy hayoti va xavfsizligini yodda tutishlari kerak. Bunga shaxsiy ma’lumotlarni almashishda ehtiyot bo‘lish va kiberbulling va onlayn ta’qib kabi potentsial xavflardan xabardor bo‘lish kiradi.

4. Inklyuzivlik: Kiber ijtimoiyizatsiya inklyuziv bo‘lishi va turli kelib chiqishi va nuqtai nazariga ega bo‘lgan odamlar uchun yoqimli bo‘lishi kerak. U odamlarga kamsitish yoki chetlanishdan qo‘rqmasdan o‘zini ifoda etishi va boshqalar bilan bog‘lanishi uchun bo‘sh joy berishi kerak.

5. Raqamli fuqarolik: kiber ijtimoiyizatsiya bilan shug‘ullanish mas’uliyatli raqamli fuqaro bo‘lishni o‘z ichiga oladi. Bu raqamli vositalar va platformalardan ijobiy va axloqiy tarzda foydalanish, intellektual mulk huquqlarini hurmat qilish va xavfsiz va ijobiy onlayn hamjamiyatga hissa qo‘shishni anglatadi.

6. Empatiya: Kiber ijtimoiyizatsiya boshqalarga nisbatan empatiya va tushunishni talab qiladi. Bu hatto raqamli kontekstda ham boshqalarning his-tuyg‘ulari, istiqbollari va tajribalariga e’tibor berishni o‘z ichiga oladi.

7. Hamkorlik: Kiber ijtimoiylashuv ko‘pincha loyihalarda birgalikda ishlash, resurslarni almashish va bir-biridan o‘rganish kabi hamkorlikdagi faoliyatni o‘z ichiga oladi. Bu hamkorlik qilish va umumiy maqsad va manfaatlarga hissa qo‘shish istagini talab qiladi.

Kiber ijtimoiyizatsiyada qo‘llaniladigan tamoyillarning kamchiliklari va afzalliklari

Afzalliklari:

- Samarali muloqot mazmunli aloqalar va qimmatli ma’lumotlar va g‘oyalar almashinuviga olib kelishi mumkin.
- O‘zaro hurmat ijobiy va qo‘llab-quvvatlovchi onlayn hamjamiyatni rivojlantiradi, bunda odamlar o‘zlarini qadrli va qo‘shilgan deb bilishadi.
- Maxfiylik va xavfsizlik choralari odamlarni mumkin bo‘lgan zararlardan himoya qilishga va xavfsiz onlayn muhitni saqlashga yordam beradi.
- Inklyuzivlik xilma-xillikni targ‘ib qiladi va keng ko‘lamli istiqbollar va tajribalarni baham ko‘rish va qadrlash imkonini beradi.
- Raqamli fuqarolik mas’uliyatli va axloqiy xulq-atvorni rag‘batlantiradi, bu esa yanada ijobiy va konstruktiv onlayn makonga olib keladi.
- Empatiya shaxslar o‘rtasida chuqurroq aloqalar va tushunishga olib keladi, jamiyat va qo‘llab-quvvatlash tuyg‘usini uyg‘otadi.
- Hamkorlik bilim va resurslarni almashish imkonini beradi, bu esa onlayn muloqotlarda katta ijodkorlik va samaradorlikka olib keladi.

Kamchiliklari:

- Samarali muloqot raqamli kontekstda qiyin bo‘lishi mumkin, bu noto‘g‘ri tushunish va noto‘g‘ri talqinlarga olib keladi.
- O‘zaro hurmat har doim ham qo‘llab-quvvatlanmasligi mumkin, bu nizolar va salbiy o‘zaro munosabatlarga olib keladi.
- Shaxslarning shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish harakatlariga qaramay, maxfiylik va xavfsizlik muammolari hanuzgacha xavf tug‘dirishi mumkin.
- Inklyuzivlikka amalda erishish qiyin bo‘lishi mumkin, chunki onlayn bo‘shliqlar baribir eksklyuziv yoki kamsituvchi bo‘lishi mumkin.
- Raqamli fuqarolik barcha shaxslar tomonidan qo‘llanilmasligi mumkin, bu axloqsiz xatti-harakatlar va salbiy onlayn tajribaga olib keladi.

- Onlayn muloqotda empatiya etishmasligi mumkin, bu boshqalarni tushunish va qo‘llab-quvvatlashning etishmasligiga olib keladi.

- Raqobat yoki birgalikda ishlash istagi yo‘qligi kabi muammolar hamkorlikka to‘sqinlik qilishi mumkin.

Bu afzalliklar va kamchiliklar bilan birga kiberijtimoiylashuv funksiyalari xam ta’lim tizimiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Kiberijtimoiy funktsiyalar deganda shaxslar onlayn yoki raqamli ijtimoiy makonlarda shug‘ullanadigan turli maqsadlar va faoliyatlarni nazarda tutadi. Ushbu funktsiyalarni ushbu onlayn o‘zaro ta’sirlarning tabiati va maqsadlariga qarab har xil turlarga bo‘lish mumkin. Kiberijtimoiy funktsiyalarning ba’zi keng tarqalgan turlari:

1. Ijtimoiylashish va tarmoqqa kirish: Bu funktsiya boshqalar bilan onlayn aloqada bo‘lish va o‘zaro aloqada bo‘lishni, munosabatlarni o‘rnatish va qo‘llab-quvvatlashni hamda ijtimoiy tarmoqlarni kengaytirishni o‘z ichiga oladi. Masalan, ijtimoiy media platformalari, onlayn forumlar yoki virtual hamjamiyatlardan yangi odamlar bilan tanishish, do‘stlar yoki hamkasblar bilan muloqot qilish va tajriba almashish uchun foydalanish.

2. Axborot almashish va kirish: Bu funksiya axborotni onlayn tarqatish va iste’mol qilishga qaratilgan. U yangiliklar, maqolalar yoki blog postlarini almashish, onlayn resurslarga kirish yoki bilim almashish platformalarida ishtirok etish kabi faoliyatlarni o‘z ichiga oladi. Masalan, onlayn ensiklopediyalar, ta’lim veb-saytlari yoki foydalanuvchilarga ma’lumot va resurslarni taqdim etadigan professional jamoalar.

3. Hamkorlik va hamkorlikdagi ish: Bu funktsiya qo‘shma faoliyat yoki onlayn loyihalarda qatnashishni o‘z ichiga oladi, ko‘pincha boshqalar bilan muvofiqlashtirish va hamkorlikni talab qiladi. Bu umumiy hujjatlar bo‘yicha jamoaviy ishlash, hujjatlarni hammualliflik qilish yoki raqamli vositalar yoki platformalar yordamida ijodiy loyihalarda hamkorlik qilish kabi faoliyatni o‘z ichiga olishi mumkin.

4. O‘yin-kulgi va hordiq: Bu funksiya onlayn platformalardan dam olish maqsadida foydalanish, o‘yin-kulgi izlash va bo‘sh vaqt faoliyati bilan shug‘ullanishni o‘z ichiga oladi. U video tomosha qilish, onlayn o‘yinlar o‘ynash, ijodiy kontent almashish yoki ma’lum sevimli mashg‘ulotlari yoki qiziqishlari atrofidagi virtual hamjamiyatlarda ishtirok etish kabi faoliyatlarni o‘z ichiga oladi.

5. Yordam va yordam izlash: Bu funksiya onlayn kanallar orqali yordam, yo‘l-yo‘riq yoki yordam izlash va taqdim etishni o‘z ichiga oladi. Bu onlayn qo‘llab-quvvatlash guruhlarida ishtirok etish, forumlar yoki ijtimoiy tarmoqlarda maslahat so‘rash yoki umumiy tajriba yoki muammolarni baham ko‘radigan boshqalar bilan bog‘lanishni o‘z ichiga olishi mumkin.

6. Fuqarolik faolligi: Bu funksiya fuqarolik faoliyatida ishtirok etish, fikr bildirish, sabablarni himoya qilish yoki ijtimoiy va siyosiy o‘zgarishlarni safarbar qilish uchun onlayn platformalardan foydalanishga qaratilgan. Masalan, onlayn petitsiyalarni imzolash, onlayn faollik kampaniyalarida qatnashish yoki raqamli targ‘ibot harakatlarida qatnashish.

7. Shaxsiy ifoda va identifikatsiyani shakllantirish: Bu funktsiya raqamli bo‘shliqlarda o‘zini namoyon qilish, iste’dodlarni namoyish qilish yoki shaxsiyatni o‘rganish uchun onlayn platformalardan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Bu shaxsiy manfaatlar yoki shaxsiyat jihatlarini o‘rganish uchun blog yuritish, vloglar yozish, fotosuratlar yoki san’at asarlarini almashish yoki onlayn hamjamiyatlarda qatnashish kabi faoliyatlarni o‘z ichiga oladi.

**4. Discussion (Muhokama).** Kiber-ijtimoiylashtirish jarayoni ko‘p qirrali bo‘lib, u ham afzalliklarni, ham qiyinchiliklarni o‘z ichiga oladi. Afzalliklar: Raqamli platformalar orqali axborot almashish tezlashadi, hamkorlik ko‘nikmalari rivojlanadi va shaxsiy o‘zini-o‘zi ifoda etish imkoniyatlari kengayadi. Kamchiliklar: Raqamli kontekstda muloqotdagi tushunmovchiliklar, maxfiylik xatarlari va empatiya yetishmasligi muammolari saqlanib qolmoqda.

Kiber-ijtimoiy funktsiyalar (ijtimoiylashish, hamkorlik, o‘yin-kulgi, fuqarolik faolligi) ta’lim tizimiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bu jarayonda o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishi (professional development) hal qiluvchi rol o‘ynaydi [8]. Mazkur loyihani amalga oshirish orqali talabalarda mas’uliyatli raqamli xatti-harakatlarni shakllantirish mumkin.Ushbu kiberijtimoiy funktsiyalar bir-birini istisno qilmaydi va odamlar bir vaqtning o‘zida bir nechta funktsiyalarni bajarishlari yoki maqsadlari va afzalliklariga qarab turli funktsiyalarni almashtirishlari mumkin. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi kiberijtimoiy o‘zaro aloqalar imkoniyatlarini kengaytirib, shaxslarga onlayn makonlarda ulanish, hamkorlik qilish va ishtirok etish uchun keng imkoniyatlarni taqdim etdi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Al-Sarayreh K. T., Meridji K., Abran A. Software engineering principles: A systematic mapping study and a quantitative literature review // Engineering Science and Technology. – 2021. – Vol. 24. – № 3. – P. 768–781.

2. Bykov V. Yu., Shyshkina M. P. The conceptual basis of the university cloud-based learning and research environment formation and development in view of the open science priorities // Information Technologies and Learning Tools. – 2018. – Vol. 68. – № 6. – P. 1–19.

3. Rostoka M. [et al.] Philosophy of a Transdisciplinary Approach in Designing an Open Information and Educational Environment of Institutions of Higher Education // Revista Romaneasca pentru Educatie Multidimensionala. – 2021. – Vol. 13. – № 3. – P. 548–567.

4. Budgen D. [et al.] The contribution that empirical studies performed in industry make to the findings of systematic reviews: A tertiary study // Information and software technology. – 2018. – Vol. 94. – P. 234–244.

5. Garrison D. R., Anderson T. E–Learning in the 21st century: A framework for research and practice. – London: Routledge/Falmer, 2003. – 117 p.

6. Bonk C. J., Graham C. R., Cross J. The Handbook of Blended Learning: Global Perspectives, Local Designs. – Pfeiffer, 2012. – 640 p.

7. Freeman D. Teacher training, development, and decision making: A model of teaching and related strategies for language teacher education // TESOL Quarterly. – 1989. – Vol. 23. – № 1. – P. 27.

8. Richards J. C., Farrell T. S. Professional development for language teachers. 1st ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2005. – 210 p.

*International Journal of Intellectual and Cultural Heritage*
*Volume: 6 Issue: 02 | 2026*
*ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314*
*http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich*

***A.A. Rakhmanova***

*PhD, Associate Professor,*
*Tashkent Pharmaceutical Institute, Tashkent, Uzbekistan*
*Email: azizahonraa@gmail.com*

*Received 4th February 2026, Accepted 10th April 2026, Online 30th June 2026*

## LINGUISTIC FOUNDATIONS OF UZBEK–ENGLISH PROFESSIONAL VOCABULARY

**Abstract.** This article examines the linguistic foundations of Uzbek–English professional vocabulary, focusing on its structural, semantic, and functional characteristics through comparative analysis. The study explores the mechanisms of terminology formation, the degree of cross-linguistic equivalence, and challenges encountered in translation processes. Using corpus linguistics and natural language processing (NLP) approaches, the research analyzes the actual use of terminology in authentic contexts. The findings indicate that full equivalence is relatively limited, and contextual as well as functional adaptation is often required. The study contributes to translation studies, foreign language teaching, and terminology standardization [1], [2].

**Keywords:** professional vocabulary, terminology, equivalence, corpus linguistics, comparative analysis, translation, NLP

## ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ УЗБЕКСКО-АНГЛИЙСКОЙ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ЛЕКСИКИ

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются лингвистические основы узбекско-английской профессиональной лексики, её структурные, семантические и функциональные особенности на основе сравнительного анализа. В исследовании анализируются механизмы формирования терминов, степень межъязыковой эквивалентности и проблемы перевода. На основе корпусной лингвистики и технологий обработки естественного языка (NLP) изучается использование терминов в реальном контексте. Результаты показывают, что полная эквивалентность встречается редко и требует контекстуальной адаптации. Исследование имеет важное значение для теории перевода и преподавания иностранных языков [1], [2].

**Ключевые слова:** профессиональная лексика, терминология, эквивалентность, корпусная лингвистика, сравнительный анализ, перевод, NLP

## O‘ZBEK–INGLIZ KASB-HUNAR SO‘ZLARINING LINGVISTIK ASOSLARI

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada o‘zbek va ingliz tillaridagi kasb-hunar leksikasining lingvistik asoslari, ularning struktur, semantik va funksional xususiyatlari qiyosiy tahlil asosida o‘rganiladi. Tadqiqotda terminlarning shakllanish mexanizmlari, tillararo ekvivalentlik darajasi hamda tarjima jarayonidagi muammolar ilmiy asosda yoritiladi. Korpus lingvistikasi va tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) texnologiyalariga asoslangan yondashuv orqali terminlarning real nutqdagi qo‘llanilishi tahlil

qilinadi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, kasb-hunar leksikasida to‘liq ekvivalentlik kam uchraydi va ko‘pincha kontekstual hamda funksional moslashtirish talab etiladi. Tadqiqot tarjima, til o‘qitish va terminologiyani standartlashtirishda muhim ahamiyatga ega [1], [2].

**Kalit so‘zlar:** kasb-hunar leksikasi, terminologiya, ekvivalentlik, korpus lingvistikasi, qiyosiy tahlil, tarjima, NLP

**Kirish**

Hozirgi globallashuv, raqamlashtirish va xalqaro ilmiy integratsiya sharoitida kasb-hunar leksikasini o‘rganish zamonaviy tilshunoslikning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda. Kasbiy terminlar nafaqat muayyan soha doirasidagi bilimlarni ifodalovchi lingvistik birliklar sifatida, balki ilmiy-texnik taraqqiyot, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish hamda madaniy jarayonlarning muhim indikatorlari sifatida namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan kasb-hunar leksikasi til tizimining funksional-semantik qatlamini tashkil etib, unda kognitiv, lingvokulturologik va pragmatik xususiyatlar mujassamlashgan bo‘ladi [2]. Zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda terminologiya tizimlari va ularning struktura-semantik xususiyatlarini o‘rganish, ayniqsa, korpus lingvistikasi asosida amalga oshirilishi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Korpus yondashuvi til birliklarini real nutqiy muhitda tahlil qilish, ularning chastotasi, kollokatsion xususiyatlari va kontekstual funksiyalarini aniqlash imkonini beradi.

Xususan, J. Sinclair tomonidan ishlab chiqilgan korpus lingvistikasi nazariyasi va T. McEnery hamda A. Hardie tomonidan rivojlantirilgan metodologik yondashuvlar til birliklarini empirik asosda o‘rganishning samarali modelini taklif etadi [3], [4]. Ushbu yondashuvlar kasb-hunar terminlarining haqiqiy qo‘llanilishini aniqlashda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Tarjimashunoslik doirasida esa terminologik ekvivalentlik muammosi alohida ilmiy e’tiborga ega. M. Baker, E. Nida va P. Newmark kabi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan nazariyalar terminlarning tillararo mosligi, ularning funksional va dinamik ekvivalentligi, shuningdek, tarjima jarayonida yuzaga keladigan semantik transformatsiyalarni ilmiy asosda izohlab beradi [1], [5], [6]. Ushbu nazariy qarashlar kasb-hunar terminlarini qiyosiy o‘rganishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, o‘zbek tilshunosligida terminologiya va leksikologiya masalalari muayyan darajada o‘rganilgan bo‘lsa-da, o‘zbek va ingliz tillaridagi kasb-hunar terminlarini korpus lingvistikasi hamda zamonaviy kompyuter lingvistikasi metodlari asosida kompleks, tizimli va qiyosiy tahlil qilish yetarli darajada amalga oshirilmagan. Ayniqsa, terminlarning semantik strukturasini, ularning kontekstual qo‘llanilishini hamda tillararo ekvivalentlik darajasini statistik va empirik ma’lumotlar asosida o‘rganish zarurati mavjud. Mazkur holat ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi hamda o‘zbek–ingliz kasb-hunar leksikasining lingvistik asoslarini qiyosiy va korpus yondashuvi asosida o‘rganish zaruratini yuzaga keltiradi. Ushbu tadqiqot natijalari nafaqat nazariy tilshunoslikni boyitadi, balki tarjimashunoslik, terminologiyani standartlashtirish hamda kasbiy tilni o‘qitish metodikasini takomillashtirishga ham xizmat qiladi.

**Metodlar**

Mazkur tadqiqotda o‘zbek va ingliz tillaridagi kasb-hunar terminlarini chuqur tahlil qilish maqsadida kompleks metodologik yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot metodlari sifatida qiyosiy-tipologik, tavsifiy hamda korpus lingvistikasi yondashuvlari tanlandi, bu esa terminlarning struktur, semantik va funksional xususiyatlarini tizimli ravishda o‘rganish imkonini berdi.Tadqiqot materiali sifatida o‘zbek va ingliz tillaridagi ilmiy matnlar, terminologik lug‘atlar, o‘quv qo‘llanmalar hamda soha doirasidagi autentik matnlar korpus ko‘rinishida shakllantirildi. Ushbu materiallar terminlarning real nutqdagi qo‘llanilishini aniqlash va ularning semantik yuklamasini tahlil qilish uchun asos bo‘lib

xizmat qildi. Tahlil jarayoni bir necha bosqichlarda amalga oshirildi. Avvalo, terminlarning semantik xususiyatlari aniqlanib, ularning asosiy ma’nolari va qo‘shimcha konnotativ jihatlari tahlil qilindi. Keyingi bosqichda terminlarning struktur tuzilishi, ya’ni ularning morfologik va sintaktik xususiyatlari o‘rganildi. Shuningdek, tillararo ekvivalentlik darajasi aniqlanib, terminlar to‘liq, qisman va ekvivalentsiz guruhlarga ajratildi.Korpus lingvistikasi yondashuvi asosida terminlarning real nutqdagi qo‘llanilishi, ularning chastotasi, kollokatsion xususiyatlari hamda kontekstual moslashuv darajasi o‘rganildi. Statistik tahlil orqali terminlarning qo‘llanish chastotasi va birikish modellari aniqlanib, ular ilmiy asosda baholandi [2], [7]. Ushbu metodologiya terminlarni nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham tahlil qilish imkonini berdi.

**Natijalar .**

Tadqiqot natijalari o‘zbek va ingliz tillaridagi kasb-hunar terminlari o‘rtasida sezilarli lingvistik tafovutlar mavjudligini ko‘rsatdi. Statistik tahlil natijalariga ko‘ra, terminlarning taxminan 45 foizi to‘liq ekvivalentlikka ega bo‘lsa, 35 foizi qisman mos keladi, qolgan 20 foizi esa kontekstual yoki funksional tarjimani talab qiladi [1], [6]. Ushbu ko‘rsatkichlar kasb-hunar leksikasining murakkab semantik tuzilishga ega ekanligini hamda tillararo moslik doimo to‘liq darajada ta’minlanmasligini ko‘rsatadi. Amaliy misollar orqali bu holat yanada aniqroq namoyon bo‘ladi. Masalan, ingliz tilidagi “data processing” termini o‘zbek tilida “ma’lumotlarni qayta ishlash” shaklida ifodalanib, semantik va funksional jihatdan to‘liq mos keladi. Biroq “learning outcomes” termini “ta’lim natijalari” tarzida tarjima qilinib, ma’no jihatidan umumlashtirish va kengaytirishni talab etadi. Shuningdek, “curriculum framework” termini “o‘quv tizimi” yoki “o‘quv dasturi tuzilmasi” kabi moslashtirilgan shakllarda ifodalanadi, bu esa terminning kontekstga bog‘liqligini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, korpus tahlili natijalari ingliz tilida terminlar ko‘proq qat’iy kollokatsiyalar orqali ifodalanishini ko‘rsatdi. Masalan, “conduct research”, “perform analysis” kabi birikmalar barqaror leksik birliklar sifatida qo‘llaniladi. O‘zbek tilida esa “tadqiqot olib borish”, “tahlil qilish” kabi variantlar sintaktik jihatdan erkinroq shaklda namoyon bo‘ladi. Bu holat o‘zbek tilining analitik va moslashuvchan tuzilishga ega ekanligini tasdiqlaydi [4]. Shunday qilib, olingan natijalar kasb-hunar terminlarining til tizimidagi o‘rni va ularning tarjima jarayonidagi murakkabligini ko‘rsatadi. Terminlarning semantik, struktur va funksional xususiyatlarini kompleks o‘rganish ularning to‘g‘ri tarjima qilinishini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Muhokama**

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, kasb-hunar leksikasi til tizimining mustaqil elementi bo‘lib qolmay, balki lingvistik, madaniy va ijtimoiy omillar bilan uzviy bog‘langan murakkab tizimni tashkil etadi. Korpus tahlili natijalariga ko‘ra, o‘rganilgan 3200 ta terminning atigi 45 foizi to‘liq ekvivalentlikka ega bo‘lib, 35 foizi qisman mos keladi, 20 foizi esa kontekstual yoki funksional tarjimani talab qiladi. Ushbu statistik ko‘rsatkichlar terminologik tizimlarda semantik nomuvofiqlikning yuqori darajada ekanligini ko‘rsatadi va tarjimada formal ekvivalentlikning yetarli emasligini isbotlaydi. Shu bois, funksional va kontekstual yondashuvni qo‘llash zarurati yuzaga keladi, bu esa terminlarning pragmatik va kommunikativ funksiyalarini to‘liq yetkazishga xizmat qiladi [5], [6]. Amaliy misollar bu fikrni yanada tasdiqlaydi. Masalan, ingliz tilidagi “data processing” termini o‘zbek tilida “ma’lumotlarni qayta ishlash” tarzida bevosita tarjima qilinib, semantik va funksional jihatdan to‘liq moslikni ko‘rsatadi. Biroq “learning outcomes” termini “ta’lim natijalari” shaklida ifodalanib, mazmun jihatidan umumlashtiriladi va qisman moslikni tashkil etadi. Yana bir misol sifatida “curriculum framework” terminini keltirish mumkin bo‘lib, u “o‘quv dasturi tuzilmasi” yoki “o‘quv tizimi” tarzida tarjima qilinadi, bu esa kontekstual moslashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Ushbu misollar terminlarning semantik tuzilishi turli tillarda bir xil darajada ifodalanmasligini yaqqol namoyon etadi. Korpus lingvistikasi mazkur jarayonni empirik asosda tahlil qilish imkonini beradi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, ingliz tilida terminlar ko‘pincha qat’iy kollokatsiyalar orqali qo‘llaniladi, masalan, “conduct research”, “perform analysis”, “make a diagnosis”. Ushbu birikmalar 78% holatda o‘zgarmas shaklda uchraydi. O‘zbek tilida esa mos birliklar “tadqiqot olib borish”, “tahlil qilish”, “tashxis qo‘yish” kabi variantlarda uchrab, ularning sintaktik erkinligi yuqoriroq bo‘lib, bir nechta muqobil shakllarda qo‘llanishi kuzatiladi. Bu holat o‘zbek tilining analitik va moslashuvchan tuzilishga ega ekanligini tasdiqlaydi [2], [7].

Bundan tashqari, zamonaviy tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) texnologiyalarining qo‘llanilishi terminologik tahlil samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Tadqiqotda qo‘llangan avtomatik termin aniqlash tizimlari 87% aniqlik (precision) va 83% to‘liqlik (recall) ko‘rsatkichlariga erishdi. Bu esa katta hajmdagi matnlarni tezkor va samarali tahlil qilish imkonini beradi. Natijada terminlarni avtomatik ajratish, tasniflash va semantik guruhlash jarayoni soddalashadi, bu esa tarjima, leksikografiya va til o‘qitish sohalarida muhim amaliy natijalarga olib keladi [8]. Shunday qilib, olingan dalillar kasb-hunar leksikasining murakkab, ko‘p qatlamli tizim ekanligini va uni o‘rganishda an’anaviy lingvistik yondashuvlar bilan bir qatorda korpus lingvistikasi hamda zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanish zarurligini isbotlaydi.

**Xulosa**

Mazkur tadqiqot o‘zbek va ingliz kasb-hunar leksikasining lingvistik xususiyatlarini qiyosiy tahlil asosida ochib berdi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, terminlarda to‘liq ekvivalentlik kam uchraydi, ko‘pincha qisman yoki kontekstga bog‘liq moslik kuzatiladi. Bu esa tarjimada funksional va kontekstual yondashuvning muhimligini tasdiqlaydi. Shuningdek, korpus lingvistikasi terminlarni real nutq asosida o‘rganishda samarali metod ekanligi aniqlandi. Zamonaviy NLP texnologiyalari esa terminlarni aniqlash va tahlil qilish jarayonini sezilarli darajada optimallashtiradi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari tarjima sifatini oshirish, terminologiyani rivojlantirish va kasbiy tilni o‘qitishni takomillashtirishga xizmat qiladi.

## References

1. Baker, M. (1992). In Other Words: A Coursebook on Translation. Routledge, pp. 12–25.
2. McEnery, T., & Hardie, A. (2012). Corpus Linguistics: Method, Theory and Practice. Cambridge University Press, pp. 1–20.
3. Crystal, D. (2008). A Dictionary of Linguistics and Phonetics. Blackwell, pp. 275–280.
4. Sinclair, J. (1991). Corpus, Concordance, Collocation. Oxford University Press, pp. 45–67.
5. Nida, E. (1964). Toward a Science of Translating. Brill, pp. 159–171.
6. Newmark, P. (1988). A Textbook of Translation. Prentice Hall, pp. 103–120.
7. Hunston, S. (2002). Corpora in Applied Linguistics. Cambridge University Press, pp. 13–29.
8. Jurafsky, D. (2020). Speech and Language Processing. Pearson, pp. 25–50.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 6 Issue: 02 | 2026
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

**Bahodir Mirvokhitovich Mirraximov**
Independent Researcher, National University of Uzbekistan
E-mail: rbahtier860@gmail.com

*Received 4th February 2026, Accepted 10th April 2026, Online 30th June 2026*

## YOUTH MEDIA CULTURE IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION: THREATS AND SOLUTIONS

**Abstract:** This article analyzes the main threats affecting youth media culture and ideological immunity in the context of globalization. In particular, the ideological vacuum in the post-Soviet space, information manipulation, transformation of values, and social contradictions are assessed as significant factors influencing the consciousness of young people. The study also examines political and cultural mechanisms for ensuring interethnic and interreligious stability and countering information attacks under conditions of the spread of alien ideas through the Internet. Using the example of Uzbekistan, the high level of youth political culture and its functions are analyzed as preventive factors that contribute to strengthening the ideological immunity of society.

**Keywords:** media culture, ideological immunity, globalization, information security, youth, manipulation.

## МЕДИАКУЛЬТУРА МОЛОДЁЖИ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ: УГРОЗЫ И РЕШЕНИЯ

**Аннотация.** В данной статье анализируются основные угрозы, влияющие на медиакультуру молодёжи и её идеологический иммунитет в условиях глобализации. В частности, идеологический вакуум на постсоветском пространстве, информационные манипуляции, трансформация ценностей и социальные противоречия рассматриваются как важные факторы, оказывающие воздействие на сознание молодого поколения. Кроме того, исследуются политико-культурные механизмы обеспечения межэтнической и межконфессиональной стабильности, а также противодействия информационным атакам в условиях распространения через Интернет чуждых идей. На примере Узбекистана высокий уровень политической культуры молодёжи и её функции анализируются как превентивный фактор, способствующий укреплению идеологического иммунитета общества.

**Ключевые слова:** медиакультура, идеологический иммунитет, глобализация, информационная безопасность, молодёжь, манипуляция.

## ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТИДА ЁШЛАР МЕДИА МАДАНИЯТИ: ТАҲДИД ВА ЕЧИМЛАР

**Аннотация.** Мазкур мақолада глобаллашув шароитида ёшлар медиамаданияти ва мафкуравий иммунитетига таъсир этувчи асосий таҳдидлар таҳлил қилинади. Хусусан, постсовет маконида мафкуравий бўшлиқ, ахборот манипуляциялари, қадриятлар трансформацияси ва ижтимоий қарама-қаршиликлар ёшлар онгига таъсир этувчи муҳим омиллар сифатида баҳоланади. Шунингдек, Интернетдаги ёт ғоялар таъсири шароитида этник-диний барқарорликни таъминлаш ва ахборот хуружларига қарши курашишнинг сиёсий-

маданий механизмларини тадқиқ этади. Ўзбекистон шароитида ёшларнинг юксак сиёсий маданияти ва унинг функциялари жамиятнинг мафкуравий иммунитетини мустаҳкамловчи превентив омил сифатида таҳлил қилинган.

**Калит сўзлар:** медиа маданият, мафкуравий иммунитет, глобаллашув, ахборот хавфсизлиги, ёшлар, манипуляция.

**КИРИШ.** Глобаллашув ва кескин трансформациялар даврида миллий хавфсизлик архитектурасининг устувор йўналишларидан бири сифатида жамиятда диний бағрикенглик ва миллатлараро тотувликни сақлаш масаласи муҳим аҳамият касб этмоқда. Бугунги кунда **“юмшоқ куч”** воситалари, хусусан, ахборот маконидаги миллатчилик ва экстремистик тарғиботлар бевосита жамиятнинг ижтимоий-маънавий тузилмаси ҳамда мафкуравий иммунитетини нишонга олмоқда.

Таҳлиллар шуни кўрсатмоқдаки, айрим постсовет ҳудудларида кузатилаётган мафкуравий бўшлиқ ва Ғарб демократияси экспортига мойиллик, биринчи навбатда, ёшларнинг сиёсий маданияти ҳамда тарбиясига салбий таъсир кўрсатмоқда. Глобал ахборот маконида ёшлар нафақат ахборот истеъмолчиси, балки ташқи деструктив мафкуравий таъсирларнинг асосий объектига айланиб улгурган. Ушбу таҳдидларга қарши тизимли курашиш мақсадида Ўзбекистонда ёш авлоднинг сиёсий онги ва мафкуравий иммунитетини мустаҳкамлаш давлат сиёсатининг энг долзарб вазифаларидан бири ҳисобланади. Ўзбекистонда ёшлар сиёсий маданиятини ривожлантириш масаласи долзарб илмий аҳамият касб этади, бугунги кунда мамлакатда ёшлар (14-30 ёшдаги аҳоли) сони 10 млн дан ортиқни ташкил этади.

Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёев таъкидлаганидек: “Юксак маънавиятли, замонавий билим ва касб-ҳунарларга, ўз мустақил фикрларига эга бўлган ёшларни миллий ва умуминсоний қадриятлар руҳида тарбиялаш биз учун энг муҳим масалалардан биридир” [1]. Ушбу концептуал мақсаддан келиб чиқиб, ёшлар қалбига “Ўзбекистонни севаман” каби миллатпарварлик ғояларини сингдириш ва уларда объектив сиёсий маданиятни шакллантириш стратегик вазифадир.

**АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ.**

Глобаллашув шароитида ёшлар сиёсий маданияти ва ахборот хавфсизлиги масалалари маҳаллий ва хорижий олимлар томонидан кенг тадқиқ этилган. Хусусан, Г. Алмонд ва С. Верба сиёсий маданиятни тизимга нисбатан муносабат сифатида баҳоласа, Ф. Моғаддам ва Ж. Бергер каби тадқиқотчилар радикаллашув ва нафрат тилининг *(hate speech)* деструктив оқибатларини таҳлил қилган. Ўзбекистон шароитида ёшларнинг сиёсий маданияти ва мафкуравий иммунитети масалалари Б. Омонов ва Х. Жабборов изланишларида, шунингдек, сиёсий менталитет хусусиятлари Нигора Телмановна Умарованинг илмий ишларида ёритилган. Ушбу тадқиқотларда ёшларнинг ахборот хуружларига қарши иммунитетини шакллантириш жамият барқарорлигининг асосий омили сифатида эътироф этилади.

**МЕТОДОЛОГИЯ.**

Тадқиқотда замонавий сиёсий фанларнинг тизимли-структуравий ва қиёсий таҳлил методларидан фойдаланилган. Ахборот маконидаги таҳдидлар (фейк хабарлар, нафрат тили) ва уларнинг ижтимоий оқибатларини ўрганишда контент-таҳлил ҳамда кейс-стади (Чехия, Ҳиндистон ва Шри-Ланкадаги ҳолатлар мисолида) усуллари қўлланган. Сиёсий маданиятнинг когнитив, эмоционал ва баҳолаш компонентларининг жамиятдаги “ижтимоий иммунитет” функцияси функционал ёндашув асосида очиб берилган.

**АСОСИЙ ҚИСМ.** Замонавий глобаллашув шароитида этник ва диний барқарорликка таҳдидлар сифат жиҳатдан трансформацияланиб, ахборотлашган ва асимметрик хусусият касб

этмоқда. Хусусан, анъанавий конфликтоген омиллар энди фақат ижтимоий-сиёсий майдонда эмас, балки рақамли муҳит орқали ҳам фаол намоён бўлиб, уларнинг таъсир доираси ва интенсивлиги сезиларли даражада ортиб бормоқда. Бу жараёнда Telegram, TikTok ва YouTube каби платформалар асосий трансляция каналлари сифатида иштирок этмоқда.

Бунинг натижасида мазкур платформалар орқали тарқатилаётган контент доирасида "рақамли радикаллашув" (digital radicalization) ва ахборот пропагандаси ўзаро интеграциялашган ҳолда намоён бўлиб, жамиятда ижтимоий қутблашув жараёнларини кучайтирувчи муҳим омилга айланмоқда. Бу эса ўз навбатида ёшлар сиёсий маданиятининг шаклланишига салбий таъсир кўрсатиб, этник ва диний барқарорликни таъминлашда янги турдаги таҳдидларни юзага келтирмоқда. Бу каби ҳолатларни биз Чехияда бир гуруҳ ёшларнинг "ИД" террористик ташкилоти тарафдорлари томонидан онлайн радикаллаштирилиши натижасида содир этилган террористик ҳужум мисолида кўришимиз мумкин [2]. Замонавий шароитда ахборот макони диний бағрикенгликни мустаҳкамлаш билан бир қаторда, этник ва конфессионал низоларни келтириб чиқарувчи трансчегаравий хавфлар манбаига айланди. Бугунги кунда деструктив кучлар томонидан ижтимоий барқарорликка раҳна солишда қуйидаги замонавий усулларидан тизимли фойдаланилмоқда:

1. Ёлғон ахборотлар ва манипулятив контентларни тезкор тарқатилиши. Ахборот маконида этник ёки диний гуруҳлар ҳақида ёлғон ва манипулятив маълумотларни тарқатиш замонавий таҳдидларнинг энг хавфли кўринишларидан бири сифатида намоён бўлмоқда. Хусусан, айрим жамиятларда оддий маиший низолар рақамли муҳит орқали атайлаб "диний тўқнашув" ёки "этник қарама-қаршилик" сифатида талқин қилиниб, кенг аудиторияга тарқатилмоқда. Бу каби ахборот манипуляцияси жамоатчилик онгига кучли эмоционал таъсир кўрсатиб, ижтимоий ишончнинг пасайиши ва гуруҳлараро муносабатларнинг кескинлашувига олиб келади, натижада эса "портлаш эффекти" юзага келади.

Халқаро тажриба шуни кўрсатадики, бундай ҳолатлар кўпинча рақамли платформалар, жумладан Telegram, TikTok ва YouTube орқали тарқатилган сохта контент таъсирида янада тезлашади. Масалан, 2013 йилда Ҳиндистондаги диний низолар ижтимоий тармоқларда жойлаштирилган сохта видео *(аслида Покистонда олинган эски видео)* туфайли авж олганлиги қайд этилган [3]. Шунингдек, 2018 йилда Шри-Ланкада ижтимоий тармоқларда мусулмонлар дўконларидаги озиқ-овқатларга *"бепушт қилувчи дорилар"* қўшилгани ҳақидаги сохта хабарлар тарқалиши натижасида мусулмон ва буддавий жамоалари ўртасида адоват кучайиб, мусулмонларга тегишли дўкон ҳамда масжидларга ҳужумлар уюштирилган [4]. Мазкур ҳолатлар шуни кўрсатадики, ахборот маконидаги фейк контент ва манипулятив интерпретациялар маҳаллий низоларни сунъий равишда этник ёки диний қарама-қаршилик даражасига кўтариб, жамият барқарорлигига жиддий таҳдид солувчи омилга айланмоқда.
2. Рақамли макондаги мақсадли радикал контентлар. Илмий манбаларга кўра, нафрат тили - муайян шахс ёки ижтимоий гуруҳга нисбатан ирқ, миллат, дин ёки бошқа белгилар асосида нафрат ва зўравонликни қўзғатувчи баёнотлар мажмуидир [5]. Бундай ифода жамиятда муросасизлик муҳитини шакллантириб, ижтимоий ишонч ва фуқаролик бирдамлигини заифлаштиради. Нафрат тили радикаллашув жараёнида муҳим ахборот-мафкуравий омил бўлиб, "биз-улар" қарама-қаршилигини кучайтириш орқали гуруҳларни ижтимоий таҳдид сифатида талқин қилишга хизмат қилади [6].

Радикаллашув босқичма-босқич кечади ва нафрат тили бу жараёнда экстремистик ғояларни қабул қилиш учун мафкуравий замин яратади [7]. Бунинг энг кенг кўламли мисоли сифатида “ИД” террористик ташкилотининг ижтимоий тармоқлар (Twitter, Telegram, YouTube) имкониятларидан профессионал тарғибот ва “нафрат тили” (hate speech) воситасида фойдаланганини кўрсатиш мумкин. Юқори сифатли медиа-маҳсулотлар ва диний-этник душманлик мафкураси 70 000 дан ортиқ хорижий жангариларни жалб этишга ҳамда айрим гуруҳлар ўртасида Сурия ва Ироқдаги қирғинларни мафкуравий жиҳатдан оқлашга замин яратди [8].

3. Ахборот урушларида этник-диний омиллардан фойдаланиш орқали ёшлар онгини “бошқариладиган хаос”га айлантириш усули.

Гибрид урушлар шароитида этник ва диний омиллардан инструментал тарзда фойдаланиш ижтимоий дестабилизациянинг самарали механизмига айланмоқда. Бу жараён, айниқса, ёшлар сиёсий маданиятига бевосита таъсир кўрсатиб, уларнинг қадриятлар тизими ва сиёсий қарашларини манипуляция қилиш имкониятини кенгайтиради. Мазкур стратегиянинг асосий мақсади жамият ички якдиллигини издан чиқариш, сунъий қутблашувни кучайтириш ва “бошқариладиган хаос” ҳолатини шакллантириш орқали давлат институтларининг легитимлигини заифлаштиришдан иборат.

Мазкур жараёнда деструктив технологиялар орқали амалга оширилмоқда:

- астротурфинг ва бот-тармоқлар: сунъий аккаунтлар ёрдамида радикал қарашларни оммавий равишда генерация қилиш орқали жамиятда сохта қутблашув иллюзиясини яратиш;
- ахборот сегментацияси ва “акс-садо камералари” (echo chambers): алгоритмик танлов асосида аудиторияни фақат сегментланган салбий контент билан таъминлаш орқали ижтимоий гуруҳлар ўртасидаги ахборот узилишини чуқурлаштириш;
- сентиментал манипуляция: Диний ва миллий қадриятларга оид визуал дезинформация орқали ёшларнинг ижтимоий-психологик реакцияларини бошқариш.

Таъкидлаш жоизки, бугунги кунда Ўзбекистон ёшлари сиёсий маданиятида айрим ахборот-психологик ва мафкуравий бўшлиқлар сақланиб қолмоқда. Хусусан, ушбу ҳолат Б.Омонов томонидан ёшлар орасида мафкуравий онгнинг пастлиги, яъни мафкурага бўлган қизиқиш ва билимлар етарли эмаслиги билан изоҳланади [9].

Шу билан бирга, ўзбек ёшларида мафкуравий иммунитетнинг “ахборотни саралаш”, “салбий ахборотга нисбатан ҳимоя”, “бузғунчи ахборотга қарши кураш” ҳамда “ўзини-ўзи бошқариш” каби муҳим ижтимоий-психологик компонентлари етарлича ривожланмагани кузатилади [10].

Мазкур ҳолат ёшларни ташқи ахборот-мафкуравий таъсирларга нисбатан таъсирчан қатламга айлантирмоқда. Шу нуқтаи назардан, ушбу муаммоларни бартараф этишда ёшлар сиёсий маданияти стратегик аҳамият касб этади. Ривожланган сиёсий маданият ёшларда танқидий фикрлаш, ахборотни саралаш ва мафкуравий иммунитетни шакллантириб, уларнинг ахборот-психологик таҳдидларга нисбатан барқарорлигини таъминлайди. Демак, ёшлар сиёсий маданиятини юксалтириш ижтимоий барқарорлик ва жамият яхлитлигини мустаҳкамловчи муҳим институционал ресурс сифатида намоён бўлади.

Ёшлардаги юксак сиёсий маданиятнинг жамиятда барқарорлигини таъминлашдаги ўрни.

Юксак сиёсий маданият ижтимоий барқарорлик, диний бағрикенглик ва миллатлараро тотувликни таъминлашнинг институционал механизми бўлиб, низоларни олдини олиш ва жамият бирдамлигини кучайтиради. Юнон файласуфи Платон ўз асарларида “Сиёсий маданиятда оммавий норозилик ва зўровонликнинг ҳалокатли элементларига қаршилик кўрсатишга қодир воситани кўради [11].

Г.Алмонд ва С.Вербанинг фикрича, “сиёсий маданият” ҳар бир инсоннинг мавжуд сиёсий тизимдаги роли ва қарашларига нисбатан муносабатини ифодалайди [12].

Сиёсий маданиятнинг таркибий элементлари ёшлар онгида барқарор ва конструктив ижтимоий муносабатларни шакллантиришда муҳим роль ўйнайди. Хусусан, когнитив (билим) компонент этник ва диний хилма-хилликка нисбатан онгли ҳурматни қарор топтирса, эмоционал (ҳиссий) жиҳатлар бағрикенглик ва ҳамжиҳатликни ривожлантириш орқали радикаллашув хавфини пасайтиради. Шу билан бирга, қадриятларга оид (баҳолаш) компонент танқидий фикрлаш ва адолатли мулоқот механизмлари орқали эҳтимолий зиддиятларни конструктив ҳал этишга хизмат қилади.

Ахборот маконида диний ва этник адоватларни келтириб чиқарувчи ахборот хуружларига қарши курашишда ёшлар сиёсий маданиятини юксалтиришнинг истиқболли йўналишлари.

Диний ва этник адоват (экстремизм, ксенофобия, радикализм) глобаллашув шароитида жамият барқарорлигига энг жиддий таҳдидлардан бири ҳисобланади. Ушбу таҳдидларга қарши самарали мафкуравий иммунитетни шакллантиришда ёшлар сиёсий маданиятини юксалтириш ҳал қилувчи аҳамият касб этади.

Ахборот маконида бундай деструктив таъсирлар, одатда, муайян алгоритм асосида амалга оширилади: аввал жамиятдаги энг нозик нуқта — диний эътиқод ёки миллатлараро муносабатлар танланади; сўнг ҳақиқатга яқин, аммо манипулятив тарзда таҳрирланган фейк хабар ёки монтаж қилинган видео яратилади; кейин эса ботлар ва “троллар” орқали кенг аудиторияга тарқатилади. Натижада, фойдаланувчилар ахборотни текширмасдан, эмоционал таъсир остида уни оммавий равишда тарқатиб, деструктив ахборот занжирининг бир қисмига айланади.

Бундай механизмлар орқали ахборот хуружини амалга оширувчи субъектлар жамиятни “биз-улар” дихотомияси асосида психологик жиҳатдан қутблаштириб, унинг ички якдиллигини заифлаштиришни мақсад қилади. Шу нуқтаи назардан, ёшларнинг юқори даражада шаклланган сиёсий маданияти мазкур таҳдидларга қарши энг самарали профилактик омил сифатида намоён бўлади. Чунки ривожланган сиёсий маданият ахборотни танқидий таҳлил қилиш, манбаларни текшириш ва деструктив ғояларга нисбатан барқарор позицияни шакллантириш имконини беради. Демак, жамият сиёсий маданияти ахборот хуружларига қарши “ижтимоий иммунитет” функциясини бажаради.

Ахборот маконидаги манипуляцияларга қарши энг самарали ҳимоя воситаси - интеллектуал салоҳияти юксак, танқидий тафаккурга эга ва фуқаролик позицияси шаклланган ёшлар қатламидир. Сиёсий маданияти ривожланган шахс ҳар қандай эмоционал ва провокацион мазмундаги ахборотга нисбатан вазмин, рационал ва таҳлилий ёндашиб, унинг манбаси ва мазмунини чуқур ўрганади ҳамда деструктив таъсирларнинг объектига айланиш эҳтимолини минималлаштиради.

Сиёсий маданиятни ривожлантириш орқали ахборот хуружларини жиловлашнинг асосий йўналишларини қуйидагича ифодалаш мумкин: 1. Ахборот маконида миллий ўзлик ва сиёсий маданиятни ошириш бўйича комплекс ахборот-тарғибот ишларини олиб бориш. Ахборот маконида ёшларда миллий ўзликни шакллантиришни устувор йўналиш сифатида белгилаш орқали уларнинг сиёсий маданияти ва мафкуравий иммунитетини кучайтириш мақсадга мувофиқ. Бунинг учун миллий қадриятлар ва тарихий хотирага асосланган таълимий ҳамда медиа дастурларни жорий этиш, ёшларда ахборотни танқидий таҳлил қилиш ва саралаш кўникмаларини ривожлантириш зарур. Мазкур ёндашув натижасида ёшлар ташқи ахборот-идеологик таъсирларга нисбатан барқарор позицияга эга бўлиб, жамиятда ижтимоий барқарорлик ва фуқаролик фаоллигининг мустаҳкамлашда муҳим аҳамиятга эга.

2. Сиёсий онгни медиасаводхонлик орқали ривожлантириш.

Медиасаводхонликнинг паст даражаси сиёсий маданият эрозиясига ва ижтимоий онгнинг дезинформацияга нисбатан заифлашишига олиб келади. Натижада фуқаролик жамияти бошқарилувчи “омма”га айланиш хавфига дуч келади. Шу боис, ёшлар сиёсий онгини юксалтиришнинг асосий шартларидан бири уларда ахборот билан ишлашнинг когнитив кўникмаларини ривожлантириш орқали манипуляцияга қарши мафкуравий иммунитетни шакллантиришдир.

Медиасаводхонлик индекси бўйича Европа етакчиси ҳисобланган Финландия тажрибаси (2014 йилдан буён) мазкур соҳада юқори самарадорликни намойиш этмоқда [13]. Фин моделининг ўзига хослиги, унда медиасаводхонликнинг алоҳида фан сифатида эмас, балки миллий ўқув дастурининг барча босқичларига интеграция қилинган универсал кўникма сифатида жорий этилганлигидадир.

3. Замонавий ахборот жамиятида ёшлар сиёсий маданиятини “Ягона Ватан” мафкураси асосида медиа-технологиялар орқали ривожлантириш деструктив ахборот хуружларига қарши “интеллектуал қалқон” вазифасини ўтайди. Мазкур жараёнда қадриятлар интеграцияси (этник хилма-хилликни давлат қудрати омили сифатида талқин этиш) ва тарихий давомийлик (тарихни муштарак мерос сифатида ёритиш) тамойиллари жамиятда “ягона тақдир” тушунчасини мустаҳкамлаб, этник адоватга йўналтирилган дезинформация ҳамда тарихни сиёсийлаштиришга қаратилган манипуляцияларга нисбатан тизимли ижтимоий иммунитетни шакллантиради.

Ахборот макони таҳлилидан келиб чиқиб ёшлар сиёсий онгини оширишга қаратилган мақсадли ахборот-психологик компаниялар доирасида “Ватандош” туркумидаги видеороликларни яратиш, ушбу видеоларда турли миллат вакилларининг давлат ривожига қўшган ҳиссаси, уларни этник гуруҳ вакиллари бўлган замонавий лидерлар, олимлар ва спортчилар образини тарғиб қилиш, мамлакат муваффақиятларини барча миллатларнинг ҳамкорликдаги ҳаракати сифатида кўрсатувчи қисқа ва таъсирли ҳикояларни ёритиш.

4. Миллий контент орқали ёшлар сиёсий онгини геосиёсий билимлар билан бойитиш. Ёшлар геосиёсий онгини миллий манфаатлар кесимида шакллантириш, ташқи кучлар учун жамиятнинг парчаланиши - бу ресурс ва таъсир ўтказиш имконияти эканини тарихий мисоллар (“бўлиб ташлаб ҳукмронлик қил” стратегиялари, рангли инқилоблар, турли давлатлардаги низолар ва манипуляция) орқали кўрсатиб бериш.

Ёшлар сиёсий қадриятлар тизимида тинчликни олий қадрият сифатида мамлакатдаги ислоҳотлар ва келажак учун энг асосий ресурс тарғиб қилиш.

5. Ёшлар сиёсий фаоллигида жамоатчилик назорати тизимини кучайтириш. Интернетдаги диний-этник низоларни келтириб чиқарувчи деструктив ахборотлар бўйича фуқаролар томонидан ҳукумат вакилларига онлайн мурожаат қолдириш орқали ахборот хуружларига қарши курашиш бўйича жамоатчилик ёрдамидан фойдаланиш мумкин.

Ушбу йўналиш бўйича Сингапурда ўзига хос самарали тизим яратилган бўлиб, фуқаролар махсус портал мавжуд бўлиб [14], фуқаролар ёлғон ёки этник низо қўзғатувчи хабарлар ҳақида тезкор хабар беришади. Бу тизим ва фуқаролар фаоллиги жамиятда ахборот хавфсизлигини таъминлаш ва ижтимоий барқарорликни сақлашда муҳим восита бўлиб хизмат қилмоқда.

**ХУЛОСА**

Умуман олганда глобаллашув шароитида ёшлар сиёсий маданияти жамият барқарорлиги ва миллий хавфсизликни таъминлашнинг стратегик омилига айланмоқда. Ахборот маконида деструктив кучлар томонидан амалга оширилаётган манипулятив таъсирлар, фейк контент ва “рақамли радикаллашув” жараёнлари, айниқса, ёшлар қатламини асосий нишонга айлантирмоқда. Бу эса этник ва диний барқарорликка нисбатан янги, ахборотлашган ва асимметрик таҳдидларни юзага келтириб, жамиятда ижтимоий қутблашув ва ишонч инқирозини кучайтирмоқда.

Ушбу таҳдидларга қарши самарали қарши таъсир механизми сифатида ёшлар сиёсий маданиятини ривожлантириш алоҳида аҳамият касб этади. Хусусан, сиёсий маданиятнинг когнитив, эмоционал ва қадриятларга оид компонентлари ёшларда бағрикенглик, танқидий фикрлаш ва конструктив мулоқот кўникмаларини шакллантириб, деструктив ғояларга нисбатан барқарор иммунитетни таъминлайди. Шу маънода, сиёсий маданият жамиятда “ижтимоий иммунитет” функциясини бажаради.

Шу билан бирга, ёшларда миллий ўзликни мустаҳкамлаш, медиасаводхонликни ошириш ва ахборот билан ишлашнинг когнитив кўникмаларини ривожлантириш мазкур жараённинг фундаментал шартлари ҳисобланади. Таълим ва ахборот муҳитини модернизация қилиш, миллий контентни ривожлантириш ҳамда ёшларнинг фаол фуқаролик позициясини рағбатлантириш орқали ахборот хуружларига қарши барқарор ижтимоий тизимни шакллантириш мумкин.

Хулоса қилиб айтганда, ёшлар сиёсий маданиятини юксалтириш бу фақат таълимий ёки тарбиявий вазифа эмас, балки глобал ахборот хатарлари шароитида жамият барқарорлиги, миллатлараро тотувлик ва давлат суверенитетини таъминловчи стратегик ресурс сифатида намоён бўлади.

## ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. -Т.: Oʻzbekiston NMIU, 2017. – б. 88-89.

2. Czech authorities say 2 teenagers were radicalized by the Islamic State group // AP News: 2024. 23 июля. URL: https://apnews.com/article/czech-teenagers-radicalized-islamic-state-97d0ee730763a53ac69508309ec48db4.

3. Shoot the Traitors”: Discrimination against Muslims under India’s New Citizenship Policy // Human Rights Watch:. 2020. 9 апреля. URL: https://www.hrw.org/report/2020/04/10/shoot-traitors/discrimination-against-muslims-under-indias-new-citizenship-policy.

4. Safi M., Perera A. Sri Lanka declares state of emergency after communal violence // The Guardian. – 2018. – 6 March. – URL: https://www.theguardian.com/world/2018/mar/06/sri-lanka-declares-state-of-emergency-after-communal-violence).

5. Council of Europe. Recommendation No. R (97) 20 of the Committee of Ministers to Member States on “Hate Speech”. – Strasbourg: Council of Europe, 1997. – URL: https://rm.coe.int/1680505d5b (date of access: 24.12.2025).

6. Waldron J. The harm in hate speech. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 2012. – 292 p.

7. Moghaddam F. M. The staircase to terrorism: A psychological exploration // American Psychologist. – 2005. – Vol. 60, № 2. – P. 161–169.

8. Berger J. M., Morgan J. The ISIS Twitter Census: Defining and describing the population of ISIS supporters on Twitter. – Washington, D.C.: The Brookings Institution, 2015. – 68 p.

9. Омонов Б.А. Ёшлар сиёсий маданияти. – Тошкент, “Дулбаржин” НМИУ, 2025. – Б. 60.

10. Жабборов Х. Ёшларда таҳдидларга нисбатан мафкуравий иммунитет шакллантиришнинг таъсирчан психологик услублари. Таълим ва инновацион тадқиқотлар (2021 йил, №5). – Б. 318-319.

11. Almond G.A. Comparative Political Systems // Journal of Politics. – Gainesville, 1956. – Vol. 18. – № 3. – P. 391–409.

12. Almond G. A., Verba S. The Civic Culture: Political Attitudes and Democracy in Five Countries. – Princeton: Princeton University Press, 1963 – 562 p.

13. World Economic Forum. How Finland is fighting fake news in the classroom // World Economic Forum: [Electronic resource]. 2019 21 May – URL: https://www.weforum.org/stories/2019/05/how-finland-is-fighting-fake-news-in-the-classroom/.

14. POFMA Office. How to report falsehoods // Ministry of Communications and Information: [Electronic resource]. – 2025. – URL: https://www.pofmaoffice.gov.sg/report-falsehoods/ .

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 6 Issue: 02 | 2026
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

*Amirxo'ja Jaloliddin o'g'li Toirxo'jaev*

*O'zbekiston tarixi davlat muzeyi ilmiy xodimi.*

*Received 4th February 2026, Accepted 10th April 2026, Online 30th June 2026*

## XIX-ASRDAGI TOSHKENT DARVOZALARINING TARIXIY AHAMIYATI

**Anotatsiya**. Mazkur maqola XIX asrda Toshkent shahrining mudofaa tizimida muhim o'rin tutgan darvozalar tarixiy ahamiyatini yoritishga bag'ishlanadi. Tadqiqotda shahar devorlari va 12 ta asosiy darvozaning (jumladan, Ko'kcha, Samarqand, Beshyog'och, Chig'atoy, Qorasaroy va boshqalar) siyosiy, harbiy-iqtisodiy hamda ijtimoiy hayotdagi o'rni tahlil qilinadi. XIX asrda Toshkent Qo'qon xonligi tarkibida bo'lib, darvozalar nafaqat mudofaa inshooti, balki boj yig'ish, savdo nazorati va tashqi aloqalarni tartibga solish markazi vazifasini bajargan.Darvozalar orqali Toshkentning ichki va tashqi savdo yo'llari, xususan, Samarqand, Qo'qon va Turkiston yo'nalishlari bilan bog'liqligi ochib beriladi. Natijada Toshkent darvozalari XIX asr shaharsozligi, harbiy arxitekturasi hamda mintaqaviy savdo-iqtisodiy munosabatlarini o'rganishda muhim tarixiy manba ekanligi asoslab beriladi.

**Kalit so'zlar:** Shoshtepa,Binkat,Chorsu,Xadra,Shaxriston,Jangoh,Rakat,Kallaxona,
12 darvoza,Chorhokim.

## ИСТОРИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ТАШКЕНТСКИХ ВОРОТ В XIX ВЕКЕ

**Аннотация.** Данная статья посвящена освещению исторического значения ворот, сыгравших важную роль в оборонительной системе города Ташкента в XIX веке. В исследовании анализируется роль городских стен и 12 главных ворот (включая Кокчанские, Самаркандские, Бешийогочские, Чигатайские, Карасаройские и др.) в политической, военно-экономической и общественной жизни. В XIX веке Ташкент входил в состав Кокандского ханства, и ворота служили не только оборонительным сооружением, но и центром сбора таможенных пошлин, контроля за торговлей и регулирования внешних связей. Ворота свидетельствуют о связи Ташкента с внутренними и внешними торговыми путями, в частности с Самаркандским, Кокандским и Туркестанским путями. В результате утверждается, что Ташкентские ворота являются важным историческим источником в изучении градостроительства, военной архитектуры и региональных торгово-экономических связей XIX века.

**Ключевые слова:** Шоштепа, Бинкат, Чорсу, Хадра, Шахристан, Джангох, Ракат, Каллахона, 12 ворот, Чорхоким.

## HISTORICAL SIGNIFICANCE OF THE GATES OF TASHKENT IN THE 19th CENTURY

**Abstract.** This article examines the historical significance of the gates that played a crucial role in the defensive system of the city of Tashkent during the nineteenth century. The study analyzes the functions of the city walls and the twelve principal gates (including Kokcha, Samarkand, Beshyagach, Chigatay, Karasaray, and others) in the political, military, economic, and social life of the city. During the nineteenth century, Tashkent was part of the Kokand Khanate, and its gates served not only as

defensive structures but also as centers for customs collection, trade control, and the regulation of external relations. The gates also reflected Tashkent's strategic connections with internal and international trade routes, particularly those leading to Samarkand, Kokand, and Turkestan. The study concludes that the gates of Tashkent constitute an important historical source for the study of nineteenth-century urban development, military architecture, and regional trade and economic networks.

**Keywords:** Shashtepa, Binkat, Chorsu, Khadra, Shakhristan, Jangoh, Rakat, Kallakhona, Twelve Gates, Charkhakim.

**KIRISH**. Toshkent – nafaqat Oʻzbekistoning poytaxti balki,[1,10-15b] 2200 yoshdan oshgan qadimgi shaharlaridan biri hisoblanadi va uning tarixiy nomi mil.avv.IV-III asrlardan boshlab tilga olina boshlangan. Aleksandir Makedonskiyning Oʻrta Osiyoga qilgan harbiy yurushlarida ham Toshkent nomi yozib qoldirilgan, lekin bu yerni toʻliq bosib olganligi haqidagi maʼlumotlar yoʻq. Toshkent qadimda mil.avv III-asrda Qangʻ davlati boʻlgan yani “qovunchi madaniyati” tashkil topgan maskan boʻlib Buyuk ipak yoʻli chorahasida joylashgan Yaqin Sharq va Chin yurtini uzviy bogʻlovchi koʻprik vazifasini oʻtuvchi shahar boʻlgan. Qangʻ davridayoq mudofaa devorlari bilan mustahkam oʻrab olingan,uning hududiy yaxlitligi hozirgidanda 10 barobar katta yerlarni tashkil qilgan, Qadimdan hozirgacha turli xil nomlar bilan atalib kelib, rasman XVIII-XIX-asrlarga kelib Toshkent deb atalgan va bu hozirgacha shunday, unga qadar Shoshtepa, Shosh, Choch, Binkat kabi turli nomlar bilan atab kelingan. XIX asrda yashagan tarixchi muharrir Muhammad Solihning “Tarixi jadidayi Toshkand” nomli asarida bular batafsil yoritilgan. Toshkent asrlar davomida bosqichma bosqich rivojlanib kelmoqda hozirgi kunga kelib Oʻzbekiston tarixidagi uchinchi Renessans amalga oshirish yoʻlida Markaziy Osiyodagi eng zamonaviy, aqlli shaharga aylanmoqda. Demak Toshkent oʻzini shunday saqlab qolishda qadimdan shahardagi mudofaa devorlari va shaharning 12 darvozalari sabab boʻlgan. Ularning nomlari qanday boʻlgan? Va qanday tarixiy jaroyonlarga guvoh boʻlgan? Mana shu kabi savollarga javob yozishga harakat qilamiz.

Shoshga Arab xalifaligi bostirib kelgandan soʻng ancha zaiflashadi, ijtimoiy-iqtisodiy hayotida ancha pasayishlar vujudga keladi, oʻzini qayta tiklab olishga bir necha asrlar kerak boʻladi. [1,72-78b]. IX-XII asrlarda yana gullab yashnaydi va ravnaq topadi, Shosh – Binkat nomi bilan ham atab kelinadi. Yozma manbalardan keltirilgan maʼlumotlar va arxeologik tadqiqotlardan aniq boʻlishicha, Binkat shahrining oʻrni Toshkentning toʻrt dahasi (tumanidan), asosan uchtasi Sebzor, Koʻkcha, Beshyogʻoch hududlarida joylashgan boʻlib, u alohida-alohida qalin devorlar bilan oʻrab olingan toʻrt qism ark (oʻrda), shaxriston shaharning asosiy qismi hamda ichki va tashqi rabod (mikrorayonlardan) iborat boʻlgan. Yozma manbalarda ichki rabod al-dohil, tashqi rabod esa al-xorij nomlari bilan tilga olingan. Shaharning boʻyi ham, eni ham bir farsax (6-7 kilometr) uzunlikka teng boʻlgan. Shaharning markazi hisoblangan ark va shahriston qismlari hozirgi Toshkentning Zarqaynar va Navoyi koʻchalari, Chorsu maydoni, Chorsu bozori Eski juva maydonida joylashgan boʻlib, arkning umumiy sahni 1 gektar. Shahristoning maydoni esa 15 gektarga teng boʻlgan. Bu hudud shaharning hozirgi mikrorelefda doʻnglik boʻlib koʻzga tashlanadi. Bu yerdan topilayotgan moddiy-madaniyat izlari va arxeologik topilmalar, [2,58b] IX-XII asrlardagi Binkat shahrining qiyofasi, hunarmandchiligi, madaniyati va uning atrof viloyatlar bilan olib borgan savdo-sotiq munosabatlarini oʻrganishda tadqiqotchilar qoʻlida nodir va nihoyatda qimmatli manba boʻlib xizmat qilmoqda. X asr yozma manbalarida keltirilgan maʼlumotlarga qaraganda, Binkat ikki darvozasi boʻlib, ulardan biri orqali shaxristonga va ikkinchisi orqali rabotga chiqilgan. Shahristoning Abul Abbos, Qasr va Gumbaz deb atalgan uchta darvozasi boʻlgan. Bu darvozalardan biri shahristoning sharqiy tomoniga boʻlib taxmin qilishicha, u hozirgi

"Abror Hidoyatov" nomidagi teatri binosi oldida joylashgan. G'arbdan sharqqa tomon shaharni kesib o'tgan asosiy yo'l shu yerda tugagan. Shunga asoslanib ayrim tadqiqotchilar o'sha paytlarda shahristoning darvozasi tashqarisida joylashgan maydon Xadirgoh (Xad–chegara, roh–yo'l, ko'cha) yani yo'lning ohiri deb yuritilgandir, keyinchalik bu joy xalq tilida Xadra bo'lib ketgan deb, izohlaydilar.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** [2,60b] 1966-yil Toshkent zilzilasidan so'ng poytaxtimizda ulkan qurilishlar munosabati bilan akademik Yahyo G'ulomov tashabbusi bilan tashkil etilgan maxsus "Toshkent arxeologik ekspeditdiyasi" bu borada sinchikovlik bilan tadqiqot ishlarini olib bordi. Arxeologlarimiz eski shahar maydonida qurilayotgan har bir imorat, har inshoot va komunikatsiya, poydevori va zovurlarda kuzatish va qazishlar o'tkazib, Abdulahad Muhammadjonov. "Qang' - qadimgi Toshkent va Toshkentliklar" asarida quydagi malumotlar joy olgan, Haydarbek Bobobekov, Maxmudjon Sodiqovlarning "Toshkent tarixi" asari Toshkentning qadimgi davridan XXI asr boshigacha bo'lgan tarixi yoritilgan, Toshkent tarixi Arxeologik topilmalar va tarixiy manbalar asosida yozilgan, Toshkentning siyosiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishi tahlil qilingan. "Toshkentnoma" da esa Toshkentning tarixiy obidalari, mahallari va Toshkentning mashhur boylari haqida ma'lumot bergan. Qolaversa foydalanilgan barcha adabiyotlarda XIX asr Toshkentning 12 darvozasi, ularning joylashuvi va vazifalari haqida batafsil ma'lumotlar, hamda ular bilan bog'liq tarixiy ko'chalar tahlil qilingan. Toshkentning 4 dahasi va 12 darvozasi tarixan muhim inshootlar hisoblangan.

Toshkentning [8]IX–XII asr tarixiy topografiyasiga ko'pgina oydinlik kiritdilar. Yozma manba va arxeologik tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, shahar devoridan tashqarida, janub-g'arb tomonida joylashgan yerlar Binkatning shahar tashqarisidagi eng sersuv, o'zlashtirilib obod etilgan maydoni hisoblangan. Shaharliklarning bog'-rog'lari, tokzorlari, ekin maydonlari ko'proq shu hududda joylashgan. U hozirgi Samarqand darvoza, Chilonzor oqtepasi hamda Chilonzor massividagi Cho'ponota, Qatortol, Qoziravot, Do'mbiravot va Qani kabi aholi yashaydigan mavzelar joylashgan hududlarga to'g'ri keladi. Shahardan janubga tomon ketgan katta karvon yo'li Rohikat, yani kat yo'li yoki "shaharga olib boradigan keng yo'l" nomi bilan mashhur bo'lgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot jarayonida mavzuga oid xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyotlar yig'ilib, tizimli tahlil qilindi. O'zbekiston Respublikasi poytaxti Toshkent shahrining 2200 yildan ortiq davomida bunyod etilib kelayotganligi haqida, ilmiy xodimlar bilan suhbatlar tashkil etildi. Yig'ilgan ma'lumotlar xalqaro metodik tavsiyalar bilan qiyoslanib, mahalliy sharoitga moslashtirish imkoniyatlari aniqlashtirildi. Toshkent bizning asosiy madaniy meroslarimizdan biridir uni asrab avaylash va yuksaltirish asosiy burchumizdir.

**Tahlil va natijalar.** Toshkent sharqdagi mash'al bo'lib, unda har yilgi ijtimoiy taraqqiyot, fan va texnika madaniyat va san'at hamda ekologiya masalalariga bag'ishlangan o'nlab anjuman va yig'ilishlar, kinofestivallar, xalqaro sport musobaqalari o'tkazililib kelinmoqda. Toshkent ko'p millatli baynalmilal shahar bo'lib unda istiqomt qilivchi qariyib 6 million aholi 130 ortiq millat farzandlaridir.

Bu yo'l yoqasida keyinchalik tashkil topgan mahalla bizning davrimizgacha Rakat talaffuzida yuritilib kelmoqda. Rohikat Chinochkat (Chinos) orqali Sirdaryo bo'ylariga va u yerdan Dizak (Jizzah) orqali Samarqandga tomon yo'nalgan. Shaharning sharqiy tomonida joylashgan Fargad (Parkat) darvozasi orqali chiqqan yo'lining bir tirsagi Chirchiq daryosining o'ng sohili bo'ylab hozirgi Bo'stonliq tumaniga, ikkinchi tirsagi daryoni kesib o'tib Parkatga va uchinchi tirsagi Pskat (aslida Paskat yani quyi qishloq yoki quyi shahar orqali Ohangaron va u yerdan Farg'ona vodiysi tomon yo'nalgan. Shahar atrofida sug'orish tarmoqlari hamda karvon yo'llari bo'ylab ba'zan istehkomli, ba'zan istehkomsiz yalong'och katta kichik qishloqlar joylashgan. Bu qishloqlarning har biri hunarmandchilikning ma'lum bir turi bo'yicha iqtisoslashgan. Ishlab chiqargan o'z hunarmandchilik mahsulotlari bilan bu qishloqlar Shoshning ichki va tashqi savdosini jonlantiribgina qolmay, uning

ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

iqtisodiy taraqqiyotiga ham muhim ro‘l o‘ynagan .[3]Beshyog‘och yaqinida Xo‘jaalambardor mozori biqinida joylashgan qadimgi Oqqo‘rg‘on Taxtapuldagi Kohakota, hozirgi Toshkent qandolat fabrikasi, Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandisligi instituti o‘rnida bo‘lgan qadimgi Chimrabod yoki Oqqo‘rg‘on, Shayxontohurda joylashgan. Aslida Qariyadeh, yani “qishloq” deb atalib xalq tilida Qoryog‘di deb yuritilib ketgan joylar Binkat shahri atrofidagi mavzelardan hisoblanadi. Binkatga Toshkand deb so‘nggi nomi berilgan asrlar tarixida eng obodonlashgan davr sanaladi. Bu davrda qadimgi shaxriston ichki hamda tashqi rabotlarda aholi soni ortib, hunarmandchilik mahalla va guzarlari nihoyatda zichlashib ketadi.Shahar o‘zining qadimgi devorlari doirasidan toshib chiqadi.

Ayniqsa hozirgi Chorsu bozorining kun botish tomonidagi avvalgi Kalloxona, Kesak qo‘rg‘on va Sassi (yani Sasli – ovozli) hovuz mahalalarigacha bo‘lgan joylarda ko‘proq hunarmandlarning uy-joylari, hunarxonalari bo‘lib, aholi ancha muncha zich joylashib yashagan. Bulardan tashqari shahar ichida amirlarning qarorgohlari – saroylar, yirik yerdor va mulkdorlarning (o‘sha vaqtlarda bu tabaqa dehqon, yani qishloq hokimi deb yuritilgan) ko‘shk qo‘rg‘onlari hamda bozorlari bo‘lgan. Buni hatto shahar darvozalaridan bizgacha saqlanib qolgan ba’zi bir toponimlar (ko‘cha va mahalla nomlari) dan bilib olish mumkin.[7]Masalan shahar darvozalaridan Qo‘shki dehqon –mulkdor hokim, Sangdijak – Toshqalacha, Bakridijak –Bakr qizlar qal’achasi, Roshidijak –vayron bo‘lgan qal’aning marzasi, Quyi xoqon–xoqon yashaydigan xiyobon, Quyi Sahl–xoqon yashaydigan xiyoboni ma’nolarini anglatadi. Manbalarda tasvirlanishicha, xomg‘isht va paxsadan bino qilingan shahar imoratlari bu davrda o‘zining ulug‘vorligi bilan ko‘zga tashlanar edi. Shahar suvga nihoyatda serob bo‘lib, har bir hovlidan zilol obiravon o‘tgan.

Suv tarmoqlarining aksariyati shaxriston hamda ichki va tashqi rabotlarni kesib o‘tar edi. Ayniqsa rabotlar bog‘-rog‘li va sersuv edi. O‘rta asr mualliflari Binkatning ko‘kalamzorlikka burkangan Movarounnahrdagi eng bahova shaharlar qatorida ta’riflaydilar. Toshkent metrosi trassasi, Istiqlol maydoni, Chorsu mehmonxonasi, Olmazor, Labzak, Xadra va Jangoh mavzelarini (avvalgi markaz hududlarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlarda qayd etilgan [4]XI-XII va XIV-XVI asr madaniy qatlamlari kovlab topilgan moddiy-madaniyat qoldiqlari, shaharning tarixiy topografiyasi va bizgacha saqlanmagan ayrim yodgorliklari tarixini o‘rganishda ayniqsa qimmatli ma’lumot berdi. Bu maydonda qayd etilgan shahar madaniy qatlamlarining davrma-davr tarqalgan chegaralariga qaraganda,[6]XI asrda shaharning chegarasi hozirgi xadra maydonidan boshlanib, Zarqaynar ko‘chasi, Toshkent metrosining Chorsu bekatigacha borgan Bekat o‘rni Labzakning oqava va sizot suvlaridan hosil bo‘lgan to‘qay va botqoqlikdan iborat bo‘lib, u Chorsugacha cho‘zilgan.

Shahar devorining tashqarisidan kovlangan xandaqdan sharqroqda, shahardan tashqarida katta qabriston bo‘lib, uning o‘rni sobiq Deroz (Degrezlik) mahallasi, hozirgi 42-son maktab atroflariga to‘g‘ri keladi. Hozirgi Labzak, Xadra va Jangoh mavzelari hamda tarixiy Shayxontahur tomon cho‘zilgan yerlar bog‘ va maydonlardan iborat bo‘lgan. Shaharning janubiy chegarasi hozirgi Istiqlol maydonida qad ko‘targan Kino-konsert saroyi atrofidan o‘tgan. Undan bir oz shimoli-g‘arbda, shahar chegarasiga yaqin joyda ilk o‘rta asrlarda suvoriylardan tashkil topgan harbiy navkar-chokarlarning qal’asi — Chokardiza joylashgan bo‘lib, keyinchalik bu yerda qad ko‘targan mahalla Chokar nomini olgan. Bu toponim bizning davrimizgacha Chaqar talaffuzida yetib kelgan. Chaqardan bir muncha sharqroqdagi joylar O‘rpapoya, ya’ni «jar qovog‘ining etagi» deb yuritilgan. Chunki shahardan tashqarida joylashgan bu yerlar jarlikdan iborat bo‘lib, keyingi asrlarda bu yerda tashkil topgan mahalla toshkentliklar orasida Arpapoya nomi bilan shuhrat topgan. Hozirgi vaqtda qadimgi O‘rpapoya hududida O‘zbekiston Respublikasi O‘rmon xo‘jaligi vazirligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasining binolari qad ko‘tarib turibdi. O‘rpapoyadan sharqda, Anhorning so‘l qirg‘og‘ida, hozirgi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi binosi joylashgan hududda ilk o‘rta asrlarda qurilgan Qaymas, aslida Qo‘ymas

ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

istehkomi bo‘lgan. Uning qoldiqlari manbalarda Tali Qaymas, ya’ni Qo‘ymastepa nomi bilan qayd etilgan.[8]

1865-yilda Toshkent Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingach, uning o‘rnida «Tuproq qo‘rg‘on» harbiy istehkomi qad ko‘targan. XVIII asrning ikkinchi yarmida Toshkent shahri to‘rt daha (tuman)ga bo‘lingan edi. Manbalarda shimoliy daha — Kaffol Shoshiy, janubiy daha — Zangiota, sharqiy daha — Shayxontahur va g‘arbiy daha — Shayx Zayniddin nomlari ostida ta’rif etilsa-da, shahar aholisi o‘rtasida ular ko‘proq Sebzor, Beshyog‘och, Shayxontahur va Ko‘kcha nomlari bilan yuritilgan. Bu davrda Toshkentda shaharliklar tomonidan tan olingan va saylangan yagona hokim, ya’ni shahar boshqaruvchisi mavjud emas edi. Shu bois shahar to‘rt mustaqil qism — dahalarga bo‘linib ketgan edi. Har bir daha o‘z hokimini saylar, u esa shaharliklar va chorvador aholi vakillari ishtirokida o‘tkazilgan umumqurultoyda tasdiqlanar edi. Har bir daha hokimi tasdiqlangach, dahani boshqarish ma’muriyatining qozisi, raisi va boshqa mansabdor shaxslari shahar mulkdor aslzodalari orasidan tayinlanar edi. Bozor ishlari hamda shaharning mudofaasi bilan bog‘liq masalalar to‘rt hokim tomonidan birgalikda hal etilar edi. Shu sababli bu davr shahar tarixida «Chorhokimlik» nomi bilan shuhrat qozongan. Hokimlar yov bostirib kelgan davrlarda navbatma-navbat harbiy qo‘shin safiga o‘z navkarlarini yuborib turganlar.

Muhim masalalarni birgalikda hal etganlar. Ko‘pincha ular bosh hokimlikni egallash uchun bir-birlari bilan to‘qnashib turganlar. Bunday shahar hokimlarining o‘zaro nizolari kuchayib, shahar goh u, goh bu hokim qo‘liga o‘tar edi. Bunday sharoitda, shubhasiz, shahar nihoyatda notinch bo‘lib, Toshkent ahli juda azob-uqubatda yashar edi. Ko‘pincha Sebzor dahasi bilan Ko‘kcha dahasi birlashib, Shayxontahur dahasiga qarshi kurash boshlar edi. Bunday vaziyat sodir bo‘lgan vaqtda Shayxontahur dahasi bilan Beshyog‘och dahasi birlashar edi. O‘zaro nizo kuchaygan paytlarda shahar markazidan oqib o‘tadigan Labzak suvining (hozirgi Abdulla Qodiriy nomidagi shahar istirohat bog‘i va Eski Juva avtobuslar bekati) ikki tarafi jang maydoniga aylanardi. Shu boisdan Labzak suvining nomi shaharliklar orasida «Jangob», ya’ni «Jang suvi», bu anhorning ikki yoqasi esa «Jangoh», ya’ni «Olishuv joyi» yoki «Jang maydoni» deb shuhrat topgan edi. Toshkentning bu mashhur atamalari hozirgi vaqtgacha xalq og‘zida saqlangan. Toshkent bu davrda ham O‘rta Osiyodagi boshqa shaharlar kabi baland paxsa devor bilan olingan edi.[9]

XIX asrda yashagan toshkentlik muarrix Muhammad Solih «Tarixi jadidayi Toshkent» nomli asarida o‘rta asrlarda to‘rt dahani o‘rab o‘tgan shahar devori darvozalari: Qiyot, Turklar, O‘zbek, Taxtapul, Qorasaroy, Chig‘atoy, Suboniyon, Ko‘kcha, Komandaron, Qang‘li, Beshyog‘och, Qatag‘on kabi nomlarni ketma-ket, nomma-nom to‘la ro‘yxatini keltiradi. Shahar darvozalari atamalarini izohlar ekan, u o‘z vaqtida har bir darvozaning ma’lum bir qabila vakillariga topshirilganligi uchun ular shu qabilalar nomlari bilan atalgan, deb yozadi. Shahar maydoni kengayishi bilan darvozalarning o‘rni ham, soni ham, hatto nomi ham o‘zgarib turgan. Shu boisdan bo‘lsa kerak, shahar darvozalarining soni turli davrlarda yozilgan manbalarda turlicha ko‘rsatilgan. Masalan, 1738–1739-yillarda Toshkentga kelgan birinchi rus savdo karvoni boshlig‘i Millerning yozishicha, Toshkentda 8 ta darvoza bo‘lgan; 1800-yilda Toshkent hokimining taklifi bilan kelgan rus tog‘ injeneri M. Pospelovning ko‘rsatishicha, 6 ta; Filipp Nazarovning (1813–1814) sayohatnomasida esa 12 ta bo‘lgan. Hatto Miller darvozalarning nomi va shaharning qaysi tomonida joylashganini ham aytib o‘tgan: Samarqand darvozasi — janubi-g‘arbda; Beshyog‘och va Tersariq darvozalari — janubda; Shayxontohur darvozasi — sharqda; Tarsaxon darvozasi — shimoli-g‘arbda; Qopqon (Qopqa) darvozasi — shimolda; Tochki (Ko‘kcha) darvozasi – g‘arbda. [5]

**Xulosa**. XIX asr boshlarida beklarbegi hokimligi davrida qayta tiklanib, uning atrofi bo‘ylab Qo‘ymas, Qo‘qon, Qashg‘ar, Labzak, Taxtapul, Qorasaroy, Sag‘bon, Chig‘atoy, Ko‘kcha, Samarqand, Kamolon, Beshyog‘och kabi 12 darvoza qurilgan [10]. Bu darvozalardan 4 tasi — Labzak, Oqqo‘rg‘on (Qashg‘ar), Qo‘qon va Qo‘ymas — sharq tomonda, shaharga keyinchalik qo‘shib olingan qismdagi

ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

yangi devorga o‘rnatilgan edi. Muhammad Solihning yozishicha, shahar devorining 12 darvozasidan tashqari devor bo‘ylab har ming qadamda bittadan «boru» (mo‘la), har 4 ming qadamda bittadan burj (minora) bino qilingan. Shaharning sharqiy darvozalaridan to g‘arbiy darvozalarigacha 8500 qadam, shimoldan janubgacha esa 8100 qadamni tashkil etgan. Shahar ichi esa yoz oylarida nihoyatda dim, serchang va oftobli edi, deb yozadi. Keltirilgan tasvirlar va ayrim tarixiy ma’lumotlar, shubhasiz, Toshkent shahrining va toshkentliklarning uzoq hamda yaqin o‘tmishidan kichik-kichik lavhalargina, xolos. Uning nihoyatda qiziqarli va boy tarixining ko‘pgina sahifalarini tiklash borasida arxeologik va tarixiy tadqiqotlar davom etmoqda. Ayniqsa, poytaxtimizning mustaqillik davri tarixini o‘rganish alohida diqqatga molikdir. Chunki nisbatan juda qisqa tarixiy davr mobaynida uning qiyofasi tanib bo‘lmaydigan darajada o‘zgarib ketdi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1 Abdulahad Muhammadjonov. “Qang‘ - qadimgi Toshkent va Toshkentliklar” Toshkent - 2009.

2 Muhammad Solih “Tarixi jadidayi Toshkant” XIX asr

3 D.Alimova va M.Filanovich “Toshkent tarixi”

4 https://bilim.ucoz.net Ilk o‘rta asrlarda “choch -, shosh-,”

5 Qodirov.F. Toshkentning tarixiy xaritasi. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2003.

6 Usmonov.A. Urbanizatsiya jarayonida tarixiy merosni saqlash muammolari.- ilmiy jurnal,2009

7 Semenov.A Toponimika Markaziy Osiyo.Moskva ,1955.

8 Филанович,М.И “Древняя и Средневековая История Ташкента в Археологических Источниках. Ташкент: Фан Узбекистан,2010, 311с.

9 Bobobekov.H,Sodiqov.M,Mirkomilov.M “Toshkent tarixi” 2009

10 “Toshkentnoma” 2009,Toshkentning 2200 yilligiga bag‘ishlangan to‘plam kitob

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 6 Issue: 02 | 2026
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

**Sarvinoz Uralovna Ashurova**

O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligi Akademiya
Xizmat psixologiya va kasbiy madaniyati kafedrasi dotsenti v.b

*Received 4 thFebruary 2026, Accepted 10 th April 2026, Online 30 th June 2026*

---

## IJTIMOIY MADANIY KOMMUNIKATSIYALARNING BARQARORLIK VA BEQARORLIK OMILI SIFATIDAGI SINERGETIK TAHLILI

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ijtimoiy madaniy kommunikatsiyalarning barqarorlik va beqarorlik omili sifatidagi sinergetik tahlili haqidagi fikrlar tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada uchinchi ming yillikda shakllangan zamonaviy madaniyat dunyoni an'anaviy bilish bilan bir qatorda, insonning texnogen tafakkuri va uning ta'sirida ijtimoiy qiyofasini shakllantirayotganligi haqida fikrlar ilmiy jihatdan yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** jamiyat, ijtimoiy, madaniy, kommunikatsiya, barqarorlik, beqarorlik, sinergetika tahlil, sivilizatsiya, jamiyat.

## СИНЕРГЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ СОЦИАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫХ КОММУНИКАЦИЙ КАК ФАКТОРА СТАБИЛЬНОСТИ И НЕСТАБИЛЬНОСТИ

**Аннотация.** В данной статье анализируются мнения о синергетическом анализе социокультурных коммуникаций как фактора устойчивости и нестабильности. Также в статье с научной точки зрения освещаются мнения о том, что современная культура, сформировавшаяся в третьем тысячелетии, наряду с традиционным познанием мира, формирует техногенное мышление человека и его социальный облик под его влиянием.

**Ключевые слова.** Общество. социальное, культурное, коммуникация, стабильность, нестабильность, синергетический анализ, цивилизация, общество.

## SYNERGIC ANALYSIS OF SOCIO-CULTURAL COMMUNICATIONS AS A FACTOR OF STABILITY AND INSTABILITY

**Annotation.** This article analyzes views on the synergistic analysis of socio-cultural communications as a factor of stability and instability. The article also highlights from a scientific perspective that modern culture formed in the third millennium, alongside traditional worldview, is shaping human technogenic thinking and its social image under its influence.

**Keywords.** Society, social, cultural, communication, stability, instability, synergistic analysis, civilization, society.

**Kirish(Introdustion).**Uchinchi ming yillikda shakllangan zamonaviy madaniyat dunyoni an'anaviy bilish bilan bir qatorda, insonning texnogen tafakkuri va uning ta'sirida ijtimoiy qiyofasini shakllantirdi. Ijtimoiy ongning beqarorligi va odamlarninng doimiy yangilikga extiyoji mahsuli sifatidagi beqarorlik hozirgi kunda barqaror voqelikga aylandi. Bu iqtisodiy ijtimoiy jarayonlarning barcha sohalarida axborot kommunikatsiyalaridan foydalanish va ularning kundalik ehtiyoj darajasiga ko'tarilishida namoyon bo'ldi. Madaniy yangilanish ba'zi hollarda aksil madaniyatni shakllantirsa, boshqa hollarda ma'naviy qadriyatning mutanosibligini saqlab qolish istagida namoyon bo'ldi.

Masalan, ba’zi odamlar yangilanayotgan O‘zbekistondagi islohotlarning mohiyatini yetarli darajada tushunmasligi oqibatida, ularni aksil islohotlarga almashtirishga urinishlari madaniy buzilishga harakat bo‘lib, bu jarayon davlat boshqaruvi tomonidan nazorat qilinadi va tegishli choralar ko‘riladi, ammo Nizomulmulk aytganidek: «boshqaruvdagi beqarorlik jamiyatning tanazzulining boshlanishidir»,[1] bu esa, madaniy taraqqiyotdagi yagona ijtimoiy-madaniy jarayonni anglatadi.

An’anaviy sivilizatsiyada ijtimoiy barqarorlik amal qiladi va har qanday madaniy munosabatlar, turg‘un munosabatlarni saqlab qolish eng asosiy maqsad hisoblanadi, texnologik taraqqiyot inkor etiladi va eski madaniyat yangi madaniyat me’yorlarini jamiyatning asosiy qoidasiga aylantiradi, bunday madaniyat ba’zi hollarda elitar madaniyat deb nomlanadi, bu muayyan tizimda elitizmning demokratik madanyai shakli sifatida rivojlanishiga ta’sir etadi va yangilik rad etiladi har qanday yangilikga intilish amalga oshirilmagan madaniyat shakli sifatidagina e’tirof etiladi.

Biroq, dunyo xalqlarining madaniyatlararo muloqoti shakllangan an’anaviy madaniyat me’yorlarini buzadi va har qanday barqaror madaniyat tizimi tafakkurdagi doimiy yangilanishga ehtiyoj natijasida beqarorlik orqali yangi barqaror madaniyat tizimini yaratadi. Masalan, XX asr dunyoda madaniyatlararo dialogning yangi bosqichi texnogen tafakkurning shakllanishiga yangi ijtimoiy munosabatlarga ta’sir etgan va hozirgi kunda yagona texnogen madaniyat makoni dunyo xalqlarinnig muloqot makoniga aylandi. Bu jamiyat taraqqiyotidagi barqarorlik va beqarorlikni tahlil qilishning innovatsion usullaridan foydalanishni taqozo qilmoqda. Shu nuqtai nazardan jamiyat barqarorligini ta’minlashga ishtirok etuvchi madaniy an’analarning beqarorligiga olib keluvchi ijtimoiy texnologiyalarning makon va vaqt me’yolari orasida amal qilishining ijtimoiy ahamiyatini tushunish imkonini beradi. Bu jarayonning bosh omili bo‘lib beqarorlikning sabablarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Jamiyatdagi barqaror va beqaror jarayonlar nafaqat tashqi iqtisodiy, balki ichki ijtimoiy omillar bilan ham tavsiflanadi. Bunda dunyoning madaniy manzarasi va madaniy an’analarga amal qilish yoki amal qilmaslikda barqarorlik mavjud muammolarni hal qilishning muhim vositalari sifatida namoyon bo‘ladi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Shu ma’noda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning “Odamlarning tinch yashashi uchun butun mamlakatimizda jinoyatdan xolit muhit yaratish”[2] haqidagi g‘oyasi jamiyat barqarorligini ta’minlashda jinoyatga qarshi kurashning ahamiyati namoyon bo‘ladi. Beqarorlik odamlarning bir madaniy munosabatlar va aloqalar tizimidan boshqa madaniy munosabatlar tizimiga o‘tishi tizimning nomuvoziy holatini belgilaydi. Masalan, postsovet makoni mamlakatlarida o‘tish davrida shakllangan siyosiy vaziyat dunyoqarashda mutlaq xukmronlik va o‘zaro hamkorlik inkor etilgan bo‘lsa, 30 yillik mustaqil taraqqiyot tajribasi bu rivojlanish yo‘li noto‘g‘ri ekanligi va uning davom etishi beqarorlikning kuchayishi va pirovard natijada xaosning keskinlashishi va yangi ijtimoiy beqarorlikning shakllanishi aniqlandi. Shu bois, hozirgi davrda iqtisodiy beqarorlikni to‘xtatish maqsadida siyosiy xamkorlikning turli yo‘nalishlaridan foydalanishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, O‘zbekistonga 2017 yilning o‘zida 60 milliard dollar miqdorida tashqi investitsiya kiritildi, 2021 yilda tashqi investiya trilliondan oshib ketdi, bu investitsiyalar iqtisodiy beqarorlikdan ijtimoiy barqarorlikni shakllantirishga yo‘nalgan bo‘lib, bu o‘z navbatida xalqaro do‘stlik aloqadorlini mustahkamlash vositasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu ijtimoiy sherikchilik qoidalariga amal qilish va qonun ustuvorligini ta’minlash, yangi ijtimoiy xamkorlikning yo‘nalishlarini aniqlashni talab qilmoqda. Jamiyatda qonunning ustuvorligi jazoning muqarrarligi bilan belgilanadi, xususiy mulkchilikning rivojlantirishi, ishsizlik bilan bog‘liq beqarorlikni bartaraf etish omili hisoblanadi, xalqaro huquq me’yorlariga amal qilish, ularni ratifikatsiya qilish va mamlakatning barqaror taraqqiyotini ta’minlashda foydalanish mamlakatning xalqaro maydondagi nufuzini oshiradi, yangi huquqiy madaniyatning vujudga kelishiga va ijtimoiy-madaniy ongning yangi voqeliklarni qabul qilishiga jarimalar tizimining joriy etilishi ta’sir etadi. An’anaviy jamiyatda yangi barqaror tizimlarni shakllanadi.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 6 Issue: 02 | 2026
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Biz I.Kantning ijtimoiy tizimlarni tahlil etib, unda «Tartib va tartibsizlikka olib keladigan barqarorlik va beqarorlik manbalarini aniqlashi ijtimoiy tizimlarning bir munosabatlar tizimidan boshqasiga oʻtish uchun koʻprik vazifasini bajaradi»[3], degan fikriga qoʻshilamiz, chunki u ijtimoiy-madaniy jarayonlarni muvofiqligini tan oladi. I.Kantning «Qarshilik, - odamlarning doʻstona munosabati, yaʼni ularning muloqotga boʻlgan moyilligi»[4] ni namoyon etadi degan fikri haqiqatga mos. Boshqa tomondan, oʻzgarayotgan, rivojlanayotgan jamiyatda ijod erkinligi va innovatsiyalarga ehtiyoj ortadi, bu esa barqarorlik va beqarorlik dialektikasini namoyon etmoqda va ular vaqt sinovidan oʻtib, umuminsoniy qadriyatga aylanadi. Innovatsion tafakkurni inkor etish madaniy tanazzulni aks ettiradi, bu esa oʻz navbatida madaniy jarayonlardagi yangi uslublarda turgʻunlikni shakllantiradi. Buning bosh omili sifatida barqaror va beqaror elementlarning oʻzaro taʼsiri namoyon boʻladi va jamiyatning tizim sifatida rivojlanishiga salbiy taʼsir etadi. Masalan, Qirgʻizistonda 30 yil davomida besh marta davlat toʻntarishi boʻlishi, aholi turli qatlamlari ongida beqarorlik, davlat boshqaruviga ishonchsizlikni shakllantirsa, Turkmanistonda madaniy taraqqiyotning «gettoizolyatsiya» holatida boʻlishi, yaʼni oʻzga madaniyatni qabul qilmaslik va oʻz madaniyatida yangilanishlarga qonun bilan cheklovlarning qoʻyilishi tafakkurdagi beqarorlikni, norozilik kayfiyatini shakllantiradi.

Uchinchi ming yillikda yangi madaniy qadriyatlar tizimi odamlarning individual va jamoaviy ijodiy faoliyatining majmui sifatida rivojlanmoqda, individual ong imkoniyatlari uning yaratuvchisi sifatida amal qilmoqda. Madaniyatlararo muloqotning yangi shakllari jamiyat taraqqiyotining barcha sohalarini qamrab olmoqda. Bu, umumiy tarixiy jarayonning asosiy harakatlantiruvchi kuch rolini oʻynamoqda.

Beqarorlik madaniyatning eski ishlab chiqarish va ijtimoiy-madaniy munosabatlarni saqlab qolish uchun emas, balki barqarorlashtiruvchi tamoyil vazifasini bajaradi, Shuningdek, moddiy ehtiyojlarni qondiradi, jamiyatni ijtimoiy-madaniy rivojlanishning yangi bosqichiga olib chiqish uchun imkoniyat berish beqarorlikning davomiyligini taʼminlaydi. Ilmiy maʼlumotlar tarixiy xotira sifatida odamlarning yagona gʻoya atrofida birlashishiga madaniyat doirasida millati, dinidan qatʼiy nazar raqobatbardosh ishlab chiqarish tizimidagi ishtirokini taʼminlaydi. Bu esa, ijtimoiy guruhlarning hamkorligini yagona ijtimoiy-madaniy makonni yaratishini taqozo qiladi, iqtisodiy samaradorlikni taʼminlashga yoʻnalgan ijtimoiy faoliyat mahsuli sifatida yagona barqaror aloqani ushlab turadi. Gettoizolyatsiya (oʻzganing madaniyatini inkor etish)inkor etiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi (Researsh Methodology).** Ilmiy, tarixiy, falsafiy adabiyotlarda beqarorlikning omili inson ekanligi asoslangan. Masalan, I. Prigojin «Beqarorlik va ijodkorlikka asoslangan dunyoda, insoniyat yana koinot qonunlarining markazida turadi»[5] deb beqarorlikning umumiy harakat manbai ekanligini asoslashga harakat qilgan. U «mavjud boʻlish muammolarini tahlil qilib, unda uchta obʼektni ajratib koʻrsatgan: birinchi - harakatsiz, ikkinchisi - oʻz-oʻzidan harakatlanadigan va uchinchisi - harakatga bogʻliq»[6]. Bu fikrga tayangan holda biz, har qanday oʻzgarish noaniqlikka olib keladi, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Umuman olganda, barcha moddiy jarayonlarning asosini korpuskulyar toʻlqinning taʼsir darajasi ifodalaydi, deb taʼkidlash mumkin. I.Prigojinning fikriga koʻra, «Dunyoning asosiy tamoyili, barcha fizik tadqiqotlar axborot-toʻlqiniga tayanadi»[7]. Bizning fikrimizcha, aylanma harakat korpuskulyar toʻlqin barqarorlik va beqarorlikning birligidir. Ammo «toʻlqinlar har doim yangi sharoitlarga oʻtishi sababli, ularning natijasi har doim yangi boʻladi»[8], bu ularning ontologik asoslarida turli xil obʼekt-hodisalarning birlashuvini taqozo etadi. Madaniy taraqqiyotda «insonparvarlik» tamoyillari kuchsizlarga yordam berish, dushmanlarni kechirish bilan belgilanadi. Natijada, madaniy qadriyatlarni beqarorlashtiruvchi muayyan omillarning xavf darajasi oshadi, biroq u yoki bu darajadagi beqarorlik tuzatib boʻlmaydigan yoʻqotishlarga olib kelmaydi.

Bizning fikrimizcha, diniy madaniyatda xususan, jahon dinlarida yorugʻlik haqidagi gʻoya mavjud boʻlishning asosiy tamoyilidir. Masalan, Qurʼonning 96-surasida «ilm»[9] egallash barqarorlik

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 6 Issue: 02 | 2026
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

omili sifatida talqin qilinsa, Iso Masihning «Men olamning nuriman»[10], - deyishi masihiylarning o‘zlarini «olam bolalari» deb atashiga asos bo‘ladi. Shunday qilib, islom dinida barqarorlik omili ilm bo‘lsa, xristian dinida odamga muhabbat sifatida ko‘rib chiqilgan. Shuning uchun bu madaniyat poydevori ma’naviy sohasining global siklini topish zarurligini isbotlaydi.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Bizning fikrimizcha, agar faoliyatning asosiy tamoyili tizim beqarorligiga moslashish bo‘lsa, u xolda shu tizim entropiyasi moslashish omili hisoblanadi va muayyan vaziyatda kumatoidlar kabi yo‘qoladi. Bu bir vaqtning o‘zida minimal beqarorlikning yagona axborot makoniga kiritilishi bilan olib tashlanadi, bu madaniyatlarning uzluksizligini va madaniy qadriyatlarni to‘plash imkoniyatini ochib beradi.

Bizning fikrimizcha, kundalik madaniy muloqot insonning o‘zaro aloqalarining rivojlanish manbai va moddiy-axborot to‘lqini sifatida qabul qilinadi. Boshlang‘ich korpuskulyar to‘lqinning beqarorlikga ta’sir darajasi ijobiy yoki salbiy qiymati barqarorlik yoki beqarorlikni belgilaydi. Barqarorlikning ijobiy qiymati axborot to‘lqinining aylanishiga salbiy ta’sir qiladi. Bu umumiy ma’noda dunyo madaniyatining tarixiy almashinuvini belgilaydi. Biz ob’ektiv voqelikning asosiy tamoyilini Patanjalining «tafakkur to‘lqinlari»[11] nazariyasining miya faolligini ta’minlashda jismoniy faollik birlashadi degan fikriga qo‘shilamiz, shu nuqtai nazardan tabiiy va ideal jarayonlarni bir butunda - ob’ektiv haqiqatning, ajralmas qism sifatida ko‘rib chiqamiz. Jon bo‘lmaganda, bu mavjudlik mutlaq yovuzlik, imkonsizlikning mavjudligi sifatida amal qilgan. Bu esa, beqaror dunyo hodisalarini tartibga solish, tizimlashtirish funksiyasini bajaradi, degan xulosaga kelish mumkin. Ammo, yuqorida aytib o‘tilganidek, bu qarama-qarshilik faoliyatda, amaliyotda, fikrlashda namoyon bo‘ladi. Kompyuterda ma’lumot mulohaza ob’ekti sifatida maqsad ham bilishning natijasi ham bo‘lib, idrok va aql o‘rtasidagi tub farqni ifodalaydi. Bugungi kunda barcha sun’iy tizimlar mexanik energiya asosida harakat qiladi. Insonda ijodkorlik axborotni qayta ishlashning ma’naviy vositasi sifatida amal qiladi, bunda miyaning fikrlashi ma’lumotni o‘zgartiradigan antrop tamoyil neyropsixik energiya asosida ishlaydi. U real dunyoning ideal modelini o‘zida namoyon etadi. Tafakkur uslubi qoidalariga muvofiq axborot qayta ishlanadi va beqarorlik mavhumlikning faol tomoni sifatida inkor etadi. Unda milliy qadriyatlarda amalga oshiriladigan qonunlarning almashishi sodir bo‘ladi. Masalan, madaniy yutuqlar odamlar xotirasida saqlanadigan jarayonlarga munosabat sifatida amal qiladi.

Tabiat barqarorligini tarixiy makon va vaqtda inson idrok etadi. Inson ongi uzluksizlikning birligi sifatidagi munosabatlarni qabul qiladi. Miya faoliyati beqaror dunyoni barqarorlashtirishga intilishining ifodasidir va umumiy beqarorlik yangilanadi, ular genetik va tarixiy xotira rolini o‘ynaydi, tabiat va jamiyatdagi barqarorlik va beqarorlikning almashinuvi narsalarning mohiyatida namoyon bo‘ladi. Shunday qilib, ongning beqarorligi jamiyatdagi an’anaviy qarama-qarshiliklarning mohiyatini aks ettiradi. Shu ma’noda, I. Kantning «Inson aqli quruvchilikka shunchalik moyilki, u ko‘p marotaba minora qurgan va poydevor qo‘yilganligini bilish uchun uni yana buzib tashlagan»[12] degan fikrida tafakkurdagi barqarorlik va beqarorlikka ishorani ko‘rish mumkin.

Shunday qilib, barqarorlik va beqarorlikning dialektikasi ma’naviy hayotning asosini tashkil etadi. Bu ularga mexanik determinizm nuqtai nazaridan tushuntirib bo‘lmaydigan fazoviy-vaqtli yo‘nalishni aniq beradi. Masalan, Spinoza «tasodifiylikni rad etgan, chunki axborot tushunchasini kiritmasdan determinizm va indeterminizm nisbatini hal qila olmagan»[13]. Noaniqlik bilim chuqurlashgani sayin, tasodif uchun har doim to‘g‘ri tushuntirishlar mavjud. Bizning fikrimizcha, Spinoza barqaror va beqaror dunyoning qarama-qarshi tamoyillarini birlashtirgan, ba’zi jarayonlarni mutloqlashtirgan. I. Prigojin «bilim olamni anglash yo‘lidagi kichik bir qadam ekanligini va dunyoning beqarorligi tufayli biz keng qamrovli bilimga ega bo‘lish orzusidan voz kechishimiz kerak»[14] ligini ta’kidlaydi. Inson ongining o‘zgaruvchanligi koinotning dinamikasini boshqaruvchi mexanizm sifatida amal qiladi.

Bizning fikrimizcha, I.Prigojinning «dalillari ko‘proq ma’lumotlarga, mantiqqa asoslangan universal ma’lumotlarda dunyoning universal xususiyatlarini izlay oladigan falsafaga emas, balki aniq fanlarga tegishlidir»[15], degan fikri mavhum tushunchalar bilan ishlash uchun bilim imkoniyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq degan fikri asoslidir. Bizning fikrimizcha, tafakkur qonunlari dunyo mantig‘ining aksidir. Bu beqarorlikni tasodifiylik bilan bog‘lashga yordam beradi va zaruriyatning namoyon bo‘lish shaklidir.

Bizning fikrimizcha, barqarorlik va beqarorlik ijtimoiy muammolarning yechimini topish imkonini beradi, masalan: jamoat ongidagi beqarorlik yangi imkoniyatlarni yaratishga jalb qilinadi. Masalan, ijtimoiy hayotda erishilgan yutuqlar ijodiy faoliyat mahsuli, ammo betartiblik ham faol, chunki unda asta-sekin barqaror tuzilmalar paydo bo‘ladi, chunki betartiblik I. Prigojin yozganidek, «ularni doimo o‘z-o‘zini tashkil qilish bilan bog‘laydi»[16]. Bu tartibsiz jarayonlarni o‘zgartirishning tartibsizlikdan tartiblilik tomon xarakatidir deb ta’kidlash mumkin.

**Xulosa va takliflar (Conslusion/Resommendations)**. Xulosa qilib shuni aytish lozimki, beqarorlikning salbiy tomoni voqealarni hissiy idrok etish bilan bog‘liq axloqiy jarayonlarni qamrab oladi va faqat inson ongida mavjuddir. Ijtimoiy-madaniy jarayonlarda beqarorlik o‘z ahamiyatini yo‘qotishi bilan, u bilan bog‘liq voqealar o‘z ahamiyatini yo‘qotadi. Masalan, 1999 yildagi Toshkent, 2005 yildagi Andijon, 2010 yildagi Qirg‘izistondagi voqealar jamoatchilik ongida axloqiy va madaniy jihatdan qoralanmaydi. Chunki ularning faoliyati natijasida vujudga kelgan tarixiy beqarorlik to‘lqinlari yo‘qoladi va madaniyat lahzasiga aylanadi. Shu bilan birga, bu tarixiy rivojlanish va sivilizatsiya yo‘li bo‘lib ko‘rinadi. Masalan, bozor iqtisodiyoti deterministik xaosning sintezi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu sinergetikaning barcha tamoyillarining ishlashiga zamin yaratadi va pirovardda, xaosdan tartib tug‘iladi. Xaosning o‘zi ham tartibdir. Shunday qilib, tartibsiz rivojlanishning ilmiy bashorati haqida ketma-ket ijtimoiy-madaniy lahzalar shaklida namoyon bo‘lishi ijtimoiy ҳаётнинг зарурий шартидир.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Низомулмулк. Сиёсатнома. –Тошкент: Маънавият, 2013. Б.165.
2. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон: тараққиёт сари дадил одимлар// Нияти улуҳ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. 3жилд. Тошкент: Ўзбекистон, 2019, Б.47.
3. Кант И. Критика чистого разума. –Москва: Наука, 2016.-С.344
4. Кант И. Критика чистого разума. -Москва: Наука, 2016. – С.345.
5. Пригожин И. Философия нестабильности// Вопросы философии. 1991.№6. – С.43.
6. Пригожин И. Философия нестабильности//Вопросы философии.1991.№6. –С. 52.
7. Пригожин И. Философия нестабильности//Вопросы философии.1991.№6. –С. 52.
8. https://www.gumer.info/bogoslov_Buks/Philos/ontologia/08.php
9. Қурьон. М.Усмонов таржимаси. -Тошкент: 2001

10. https://www.gumer.info/bogoslov_Buks/Philos/ontologia/08.php
11. Патанжали Йога сутра. – Москва: АСТ, 20021
12. Кант И. Критика чистого разума. –Москва: Наука, 2013.-С.234.
13. Спиноза избранные произведения. –Москва: Наука, 2005 .-С.67
14. Пригожин И. Философия нестабильности.// Вопросы философии.1996.-С.15
15. Пригожин И. Философия нестабильности.// Вопросы философии.1996.-С.78.
16. Ўша ерда С.78.
17. Пригожин И. Философия нестабильности// Вопросы философии.№6. –С. 50.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 6 Issue: 02 | 2026
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

**SANGIROVA DILORAM XUJAMKULOVA**

*Guliston davlat universiteti dotsenti*
*e-mail: diloramsangirova@gmail.com*

*Received 4th February 2026, Accepted 10th April 2026, Online 30th June 2026*

## BALXDA BUNYODKORLIK ISHLARINI AMALGA OSHIRGAN NADR MUHAMMAD (KICHIK) XON

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada XVII asrning birinchi yarmida Balx vohasida Ashtarxoniylar sulolasi vakili Nadir Muhammadxon tomonidan amalga oshirilgan keng koʻlamli bunyodkorlik, irrigatsiya va iqtisodiy-maʼmuriy islohotlar tadqiq etilgan. Davr yilnomachilari va adabiyotlari maʼlumotlariga tayangan holda, hukmdorning suv taʼminotini yaxshilash yoʻlidagi strategik loyihalari (Bandi Amir toʻgʻoni, Faxir va Hijnahr kanallari) hamda landshaft meʼmorchiligi rivojiga qoʻshgan hissasi (“Bogʻi xoniy”, “Bogʻi Xurramsaro” kabilar) tizimli tahlil qilingan. Shuningdek, xonlik tasarrufidagi maxsus saroy ustaxonalari (korxonajoti xossa) va yirik shaxsiy mulklarning (zarxarid yerlar) davlat iqtisodiy qudrati hamda sulolaviy diplomatiyani mustahkamlashdagi oʻrni ochib berilgan.

**Kalit soʻzlar:** Ashtarxoniylar sulolasi, Nadr Muhammad xon, Balxda bunyodkorlik ishlari, chorbogʻlar, suv taʼminoti, zarxarid mulklar,saroy ustaxonalari, iqtisodiy salohiyat

## NADR MUHAMMAD (KICHIK) KHAN, WHO CARRIED OUT CONSTRUCTIVE WORKS IN BALKH

**Abstract.** This article examines the extensive construction, irrigation, and socio-economic reforms implemented by Nadir Muhammad Khan, a prominent ruler of the Ashtarkhanid dynasty, in the Balkh oasis during the first half of the 17th century. Drawing upon contemporary chronicles and literature, the study provides a systematic analysis of the rulers strategic projects aimed at improving water supply (the Band-i Amir dam, the Fakhir and Hijnahr canals) and his contribution to the development of landscape architecture (such as gardens like Bagh-i Khani, Bagh-i Khurramsara, etc.). Furthermore, the role of royal workshops (karkhanajat-i khassa) and extensive private estates (zarkharid lands) in strengthening the state's economic power and dynastic diplomacy is highlighted.

**Keywords:** Ashtarkhanid dynasty, Nadir Muhammad Khan, Construction works in Balkh, Charbagh gardens, Water supply, Purchased estates (zarkharid property), Royal workshops, Economic potential.

## НАДР МУХАММАД (МЛАДШИЙ) ХАН, КОТОРЫЙ ПРОВОДИЛ СТРОИТЕЛЬНЫЕ РАБОТЫ В БАЛХЕ

**Аннотация.** В данной статье исследуются масштабные строительные, ирригационные и социально-экономические реформы, осуществленные представителем династии Аштарханидов Надиром Мухаммад-ханом в Балхском оазисе в первой половине XVII века. На основе данных хроник и литературы той эпохи проведён систематический анализ стратегических проектов правителя по улучшению водоснабжения (плотина Банди Амир, каналы Фахир и Хижнахр) и его вклада в развитие ландшафтной архитектуры (таких как «Боги хони», «Боги Хуррамсаро» и др.). Также раскрыта роль специализированных дворцовых мастерских (*корхонажоти хосса*) и крупных частных владений (*земли зархарид*) в укреплении экономического потенциала государства и династической дипломатии.

**Ключевые слова:** Династия Аштарханидов, Надир Мухаммад-хан, Строительные работы в Балхе, Чорбоги, Водоснабжение, Покупные имения (имущество зархарид), Дворцовые мастерские, Экономический потенциал.

**Kirish (Introduction).** XVI asr oxirlarida Balx viloyati strategik geografik joylashuvi, harbiy-iqtisodiy salohiyati hamda Xuroson bilan chegara hududi sifatida ilk ashtarxoniy sultonlar diqqat markazidagi muhim siyosiy maydonga aylangan edi.

Dinmuhammad sulton faoliyatining dastlabki bosqichida shayboniy shahzodalarga sadoqatli xizmat qildi hamda Balx viloyatida sayyidlar xonadoni bilan oʻrnatilgan qarindoshlik aloqalari tufayli oʻzining siyosiy va ijtimoiy taʼsirini mustahkamladi. Biroq, Dinmuhammad sultonning 1599 yili vafot etishi natijasida uning ukasi Boqiy Muhammad sulton va oʻgʻillari Imomquli hamda Nadr Muhammad sultonlar maʼlum muddatga Movorounnahrga koʻchib oʻtishga majbur boʻldilar.

Boqi Muhammad sulton Buxoro xonligi boshqaruvini qoʻlga kiritganidan keyin 1602 yilga kelib, Balxni egallab mazkur hudud ustidan nazorat oʻrnatadi va Vali Muhammad sultonni 1602 -1605 yillari mazkur hududga valiahd etib tayinlaydi. Shu vaqtdan boshlab Balx viloyati hududi ustidan Ashtarxoniylar sulolasi hukmronligi boshlandi.

**Tadqiqot metodologiyasi.**

Nadr Muhammad sultonning Balx viloyatida amalga oshirgan bunyodkorlik ishlariga oid tadqiqotda tarixiylik, xolislik va tizimli tamoyillarga tayanilgan holda, tarixiy-qiyosiy, tarixiy-xronologik, analiz va sintez, manbashunoslik hamda germenevtik tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar (Analyses and results).** 1605 yilda Vali Muhammad sultonning Buxoro xoni taxtiga kelishi bilan janubiy hududlarni mustahkamlash uchun jiyani Nadr Muhammad sultonni 1612 yilda Balx noibi etib tayinlaydi va u oʻttiz yil yaʼni, 1642 yilgacha Balxni boshqaradi.

Nadr Muhammad sulton [1] 1592 yilda Balxda, shayboniylar jiyani Dinmuhammad va onasi eronlik sayyidlar xonadoni vakili Shahribonu begim nikohidan dunyoga kelgan. Shu bois u ham chingiziylar, ham sayyidlar naslini oʻzida jamlagan edi[2]. Uning tugʻilishi va keyingi taqdiri hamda tarixi Balx hududi bilan chambarchas bogʻliqligini hisobga olib, uni uzoq yillar mazkur hududni boshqargan deyishimizga asos boʻladi.

Manbalarda keltirilgan Nadr Muhammad sultonga oid maʼlumotlar aynan Balx viloyatidagi tarixiy jarayonlar bilan chambarchas bogʻliq. Qayd etilishicha, uning otasi Dinmuhammad keroyi qabilasi kishilari tomonidan oʻldirilganidan soʻng, Shahr begim va Haqqul yasovul koʻmagida yosh Nadr Muhammad va akasi Imomquli sulton bilan birgalikda Movorounnahrga yetkaziladi. Ushbu jarayonda Nadr Muhammadning oyogʻi ogʻir shikastlanib, umrining oxirigacha oqsoqlanib yurishiga sabab boʻladi.

Tadqiq etilayotgan davrning shoiri va tazkiranavisi Mutribiy Samarqandiy Nadr Muhammad haqida “Kichik ersa-da, sogʻlom tabʼi ulugʻlik va shavkat debochasining matlaʼsi va oʻtkir zehni fazlu kamol qasidasi baytidir. Sultonlik va jahonbonlik martabasiga qaramay, yogʻdulik koʻnglini suxandonlik yurtlarini ham egallamoqqa yoʻnaltirib, doimo yarashiqli oʻtirishlarini olimlar va fozillar yigʻiniga aylantiradi. Va bu mazali va nafis chiqqan bayt Nasaf viloyatining hukumati va boshqaruvini (1604/5 yil) qoʻlda tutgan Nadr Muhammad ul saltanatpanohga nisbat berilgan edi [3]:

*Yongan koʻksimdan chekardim men shundayin ohkim,*
*Koʻk yashini alangalatdi, sachratib uchqun ul ohim.*

Voyaga yetgach u nufuzli Joʻybor shayxlari xonadoni vakili Oyposhsho bibiga uylanadi (aynan shu nikohdan keyinchalik Buxoro xonlari boʻlgan Abdulaziz va Subhonqulixonlar dunyoga kelgan)[ 4].

Vali Muhammad xon davlat boshqaruvida qobiliyatli Nadr Muhammad sultonni mamlakat janubiy hududularida yuzagan kelgan xavf-xatarni bartaraf etish uchun Balx viloyatiga hokim qilib tayinlaydi va unga yordamchi etib Hoji Biy Qushchi va Mansur Hojini biriktiradi. Biroq, 1607 yilda Vali Muhammad Balxda shahar aholisi Nadr Muhammadni qo‘llab-quvvatlashidan xavotirga tushadi. Sultonning tobora ortib borayotgan nufuzini chegaralashga qaror qilib, unga yangi otaliq Shohbek ko‘kaldoshni tayinlaydi [5]. Mazkur otaliq o‘zboshimcha boshqaruvi va ko‘plab jinoiy ishlari tufayli jazolangach, Nadr Muhammad sulton Balxda yana mustahkam hokimiyatga ega bo‘ladi.

O‘n besh yoshli Nadr Muhammad sulton Balx xoni sifatida mamlakatni boshqara boshlaydi va qirq yilga yaqin mazkur boshqaruv davom etadi. Shu yillar davomida Nadr Muhammad tomonidan Balx shahrida keng ko‘lamli bunyodkorlik ishilari amalga oshiriladi.

Nadr Muhammad akasi Imomquli (Buxoro xoni) bilan birga qozoqlarga qarshi bir necha harbiy yurishlarda qatnashib, uni moliyaviy jihatdan qo‘lab quvvatlab[6], boburiy hukmdor Jahongir va Savafiy shoh Abbos bilan faol diplomatik aloqalar o‘rnatgan [7]. Shuningdek, mashhur tarixchi Mahmud ibn Valining “Bahr al-asror” (“Sirlar dengizi”) nomli mashhur qomusiy asarni yozilishiga homiylik qilish [8] barobarida, Balx va uning atroflarida keng ko‘lamli bunyodkorlik ishlarini amalga oshirgan.

Xususan, hukmdorning madaniy-ma’rifiiy hayotga qaratgan alohida e’tibori shaharda yirik me’moriy obidalar madrasalar bunyod etilishida yaqqol namoyon bo‘ladi. Balxdagi Oliy Abdulla xon madrasasi qarshisida va vazir Ollohyor devonbegi (vafoti 1635/36) madrasasi yaqinida Nadr Muhammad madrasasini bunyod etadi [9]. Manbalarda ta’kidlanishicha, ushbu madrasa Abdulla xon madrasasidan bir necha bor baland bo‘lgan. Madrasa hovlisida to‘rtta darsxona, masjid va kutubxona mavjud bo‘lib, kichik xon madrasa vaqfi uchun o‘z kutubxonasidan 2 ming jild kitob ajratgan. Shuningdek, u majmua uchun hammom, tegirmon va bir necha qo‘sh yer vaqf qilgan.

Balx shahrining sharqiy tomonida, shahar ichi qismi (shaxr-i birun)da joylashgan) avvalgi nomi Hinduvon bo‘lgan Ishqobod darvozasi ham Nadr Muhammad davrida qayta qurilgan [10].

Hukdorning shaharsozlik faoliyati nafaqat muhtasham me’moriy obidalar barpo etish, balki Balx va uning atroflarida mahobatli bog‘lar hamda ko‘rkam hordiq maskanlarini yaratishda ham yaqqol namoyon bo‘ladi.

“Bog‘i xoniy” – Balxdagi shahristonining g‘arbiy qismida joylashgan ulkan chorbog‘dir. Manbalarda uning topografik chegaralari sharqdan g‘arbga qarab Jankeldibiy masjididan Jabbaxon darvozasigacha, kengligi esa Dah Shayx darvozasidan Jabbaxonning shimoliy burchlarigacha cho‘zilganligi qayd etiladi. Bog‘ ichida muhtasham imoratlar (imorat-i oliy), ko‘rkam qasrlar (qusur-i mufarruh as-sarvar), gulzorlar va egarsozlik (sirajxona) ustaxonalari faoliyat ko‘rsatgan. Majmua tarkibida davlatxona binolaridan biri 1020/1611 yilda qurilib, uzunligi taxminan 50 jaribni, kengligi esa 2 shar’iy jaribni tashkil qilgan. Ushbu mahobatli binoning 12 ta kirish eshigi mavjud bo‘lib, shundan 8 tasi fuqaro (oddiy xalq) uchun ochiq bo‘lgan. Imorat devorlari marmar bilan qoplangan, ichki xonalari va yo‘laklari naqshkor tasvirlar bilan bezatilgan. Bundan tashqari bog‘ hududida farroshxona (kundalik buyumlar, gilam va poloslar tayyorlangan), to‘shakxona, qushxona va kutubxona mavjud bo‘lgan. Janub tomondan katta ariq oqib o‘tgan. Ichki hovlida so‘lim va katta hovuz barpo etilgan [11].

“Bog‘i Xurramsaro” – qadimiy Navbahor darvozasi yaqinida joylashgan bo‘lib, uning hududi bir farsaxga (taxminan 5,6 km dan 8 km gacha bo‘lgan masofa) [12] cho‘zilgan. Mahmud ibn Valining asarida bu bog‘ning ilgari ham mavjud bo‘lganligi, biroq Nadr Muhammad davrida u yerda qayta qurish va obodonlashtirish ishlari olib borilganlini qayd etiladi [13].

“Bog‘i gilzamin” – Ishqobod darvozasi yaqinida, yangi Ark yonidagi Nafzamin mavzesida joylashgan bo‘lib, u xonning onasi Xonbibi tasarrufida bo‘lgan. U 1631 yilda vafot etgandan so‘ng,

o‘z vasiyatiga ko‘ra, shu chorbog‘ga dafn etilgan. Keyinchalik Nadr Muhammad tomonidan xonaqoh va masjid ham barpo etilgan [14].

Nadr Muhammad hukmronligi va undan keyingi davrlarda Balxda qad rostlagan yashil majmualar tarixi keyingi davr yozma manbalarida ham o‘z aksini topgan. Muhammad Yusuf munshiy o‘zining tarixiy asarida Nadr Muhammad asos solgan obodonchilik ishlari uning farzandlari uchun ham namuna bo‘lganligini birdiradi. Xonning o‘g‘li Subhonquli sulton tomonidan shahr-i darunning sharqiy qismida Ishqobod darvozasi ro‘parasida “Bog‘-i Zag‘on” bog‘i bunyod etilgan [15].

Nadr Muhammad boshchiligida amalga oshirilgan keng ko‘lamli obodonchilik ishlarining ajralmas qismi – shahar ichi va tashqarisidagi yashil hududlarni kengaytirish hamda ularni noyob o‘simlik turlari bilan boyitishdan iborat edi. Bu davrda barvo etilgan chorbog‘lar nafaqat mahalliy mevalar va manzarali daraxtlar bilan bezatilgan. Hindiston va Xitoy kabi xorijiy mamlakatlardan olib kelingan noyob gullar ham ekilgan. Mahmud ibn Valining bergan ma’lumotlari bu fikrni to‘la tasdiqlaydi: muallifning qayd etishicha, birgina shaharning o‘zida 500 ming tupga yaqin manzarali va mevali daraxt ekilgan bo‘lib, bu raqam vohada bog‘dorchilik san’ati yuksak darajada rivojlanganligidan dalolat beradi [16].

Balxning Shahri darun (ichki shahar) qismida sug‘orish inshootlarining nochor holati tufayli suv taqchilligi kuzatilgan. Nadr Muhammad davrida, xususan 1043/1635 yilida Bandi Amir, sug‘orish tarmog‘i (kanal) Faxir va boshqa suv tarmoqlari qayta tiklanishi natijasida butun viloyatning suv ta’minoti yaxshilandi [17]. Tarixchi Mahmud ibn Vali ushbu davrdagi Hijnahr sug‘orish kanallari qurilishiga xonlikdan 300 ming kishi jalb qilingani haqida yozadi [18], bu esa islohotlarning keng ko‘lamda olib borilganligini ko‘rsatadi.

Leningradlik sharqshunos M.A. Salaxetdinova XVII asrda Balx va uning atrofini sug‘orib turgan 18 ta suhorish tarmog‘ini sanab o‘tadi: Nahr-i Shohi, Kuddar, Siyahjard, Balx, Dastjard, Chimtal, Nahr-i Mushtak, Nahr-i Isfahon, Nahr-i Abdalloh, Nahr-i Baxshvar, Nahr-i Arg‘andab, Nahr-i Fayzobod, Nahr-i Aliobod, Nahr-i Adina masjid, Nahr-i Qoracha, Buralik, Nahr-i Qut, Nahr-i Shayx Sharik (mazkur kanallar XX asrning 20-yillarigacha o‘sha nomlar bilan saqlanib qolgan) [19 ].

Davrning yetakchi yilnomachisi Mahmud ibn Vali Balx xonlarining asosiy mulklari poytaxt viloyatining o‘zida joylashganlini qayd etadi. Xonning boshqa viloyatlarda masalan, Qunduz, Arxangsaroy va Jo‘zjonda sotib olingan (zarxarid) obod yerlari bo‘lgan. Mazkur mulklar quyidagicha tavsiflanadi: “Unda ko‘plab qishloq va manzilgohlar mavjud bo‘lib, ularning eng kattasi Xonaqohdir. Ularning aksariyati hazrati oliylari Nadr Muhammad xonning sotib olingan (zarxarid) mulklari hisoblanadi”. Xonning shaxsiy mulki tarkibiga eng yaxshi yaylovlar va qo‘riqxonalar ham kirgan. Ular: Bog‘-i Habashdagi ov maydonlari, Xulmdagi Shamar qo‘riqxonasi, Dara-yi Gezdagi Og‘a jilg‘a, Zari-u Qipchoq viloyatidagi Dara-yi Amrax ov hududi, Balx Xonabodi yaqinidagi qo‘riqxonalar hisoblangan. Shuningdek, Balx bilan Hirot chegarasida, Andxudning g‘arbida joylashgan Cho‘l-i Zardaq hududida ham xonning qo‘riqxona va ov yerlari mavjud bo‘lgan [20].

Nadr Muhammad hukmronligi davrida Balx mamlakati iqtisodiy hayoti va davlat xo‘jaligini ta’minlashda hukmdorning bevosita nazoratida bo‘lgan maxsus ishlab chiqarish majmualari alohida o‘rin tutgan. Hunarmandchilik ustaxonalari faoliyat yuritadigan uchta chorbog‘ mavjud bo‘lib, bunday ustaxonalar (korxonajoti xossa) Shahrayi, Yangikent, Siyohjerd, Davlatobod, Misrobod, Dara-yi Gez va Bada Alisher kabi qishloqlarda keng yo‘lga qo‘yilgan. Ushbu markazlarda Markaziy Osiyo uchun an’anaviy hisoblangan va nafaqat ichki ehtiyojlarni qondirgan, balki tashqi bozorlarda ham katta talabga ega bo‘lgan deyarli barcha turdagi mahsulotlar ishlab chiqarilgan.

Davlat ahamiyatiga molik yirik korxonalarning yetakchi tarmoqlaridan biri paxta va ipak matolar to‘qishga ixtisoslashgan bo‘lib, ushbu yuqori sifatli mahsulotlar poytaxt Balx va xonlikning boshqa yirik shaharlari savdo rastalarini muntazam ravishda to‘ldirib turgan. Yuqorida tilga olingan “Bog‘i xoniy” chorbog‘ida faqat ot anjomlari uchun mahsulot tayyorlangan (Nadr Muhammad xon zotdor

otlarga qiziqqani bois) [21], ot anjomlari tayyorlash sohasining alohida rivojlanishiga turtki bo‘lgan degan fikrga kelishimizga asos bo‘ladi.

Nadr Muhammad xon tomonidan tashkil etilgan ishlab chiqarish mujmualari davlatning iqtisodiy ehtiyojlarini ta’minlash bilan birga, sulola ichidagi inqirozlarni tinch yo‘l bilan hal etishda muhim mablag‘ va mulk manbai bo‘lib xizmat qilgan. Xonning o‘g‘li Abdulaziz sulton 1631/32 yili Xurosonga o‘z boshimchalik bilan harbiy yurish qilganida, uni Balxga chaqirib, murosaga keltirish uchun unga naql pullar, turli buyumlar va bir necha korxonalar bilan birga, to‘shakxona, farroshxona, ot va tuyalar to‘dasi, qurol aslahalar sovg‘a qilgan[22]. Demak, “korxona - yi to‘shakxona” asosan harbiy anjomlar ishlab chiqaradigan korxona[23] bo‘lib, xonning shaxsiy tasarrufida bo‘lgan.

Nadr Muhammad xon yirik davlat arbobi va bunyodkor hukmdor, balki o‘z davrida Markaziy Osiyodagi eng boy va eng yirik yer egasi sifatida ham tanilgan. Uning iqtisodiy qudrati va saroyining beqiyosligini Muhammad Yusuf munshiy asarida shunday yozadi: “Shayboniylar va Ashtarxoniylar sulolasida unga teng keladigan boy hukmdor bo‘lmagan. Uning 600 otor yuklangan tuyasi, 8 ming sara oti bor edi. Qorako‘l qo‘ylarining o‘zi 80 ming boshga yetgan. Saroy omborlarida farangi zarg‘aldoq baxmal to‘ldirilgan 400 sandiq saqlangan”[24]. Mazkur ulkan moddiy boyliklar, yuqorida tahlil etilgan yuz minglab tup daraxtlaridan iborat yashil bog‘lar, yirik sug‘orish kanallari va mahobatli me’moriy inshootlarning qad rostlashini ta’minlagan asosiy moliyaviy poydevor bo‘lib xizmat qilgan.

“Bahr al-asror” asarida Nadr Muhammadxonning moliyaviy qudrati quyidagicha keltirilgan: “1638 yili Ramazon hayitini akasi Imomqulixon bilan birga nishonlash uchun Balxdan Buxoroga kelgani bayon qilinadi. Shuningdek, asarda 300 amir va a’yonlar bilan kelgan xon yasovuli Bekmuhammadning Imomqulixonga atab olib kelgan sovg‘alari 200 tuya va otga yuklangan”ligi keltirilgan [25]

1639 yil ramazon oyi 25 sanasida (30 yanvarda) Bog‘-i xonimda bo‘lib o‘tgan qabul marosimida Nadr Muhammadning yasovuli Imomquli xonga 7000 tanga naqd pul, 30 arab oti, 200 boshqa ot, 100 qator tuya, shuncha xachir, la’l, zumrad va feruza solingan 50 ko‘za, inju bilan bezatilgan xon taxti, xitoy va rumning zarhal idishlari, oltin bilan tikilgan katta saroparda, balandligi o‘n gaz va aylanasi 80 qadam bo‘lgan tilla tikilgan chodir, qullar va cho‘rilar kabi qimmatbaho sovg‘alar taqdim etgan. Shu yig‘inda 700 ga yaqin buxorolik a’yonlar ham qimmatbaho to‘nlar, qurollar, kamarlar va otlar bilan siylangani haqida ma’lumotlar saqlangan [26]. Ulkan miqyosdagi iqtisodiy xarajatlar va qimmatbaho metallar hamda noyob mahsulotlar aylanishi Nadr Muhammad xon ixtiyoridagi xazinaning nechog‘lik baquvvat bo‘lganligini va bu omil viloyatdagi iqtisodiy-me’moriy bunyodkorlik ishlarini izchil moliyalashtirishga xizmat qilganligini ko‘rsatadi.

**Xulosalar va takliflar** (Conclusions and Recommendations). Balx viloyati Buxoro xonligining muhim hududlaridan biir hisoblanib, qirq yilga yaqin mamlakatni boshqargan Nadr Muhammad (kichik) xon shahar va uning atrofida suv ta’minotini yaxshilash maqsadida Bandi Amir to‘g‘oni, Faxir va Hijnaxr suv tarmoqlarining davlat miqyosida qayta tiklanishi qishloq xo‘jaligi va shaharsozlik infratuzilmasini tubdan jonlantirdi.

“Bog‘i xoniy”, “Bog‘i Xurrasaro”, “Bog‘i Gulzamin” kabi yirik chorbog‘larning barpo etilishi hamda ularda 500 ming tupga yaqin mahalliy va xorijdan keltirilgan noyob daraxt va gullarning parvarishlanishi hududda bog‘dorchilik ishlarining yuksak darajaga chiqqanligini ko‘rsatadi.

Maxsus saroy ustaxonlari va chorbog‘dagi to‘qimachlik, qurolsozlik va egar jabduq mahsulotlarining keng miqyosda ishlab chiqarilishi, bunyodkorlik loyihalari uchun moddiy baza bo‘lib xizmat qilganligini anglatadi.

Nadr Muhammad xon ixtiyoridagi behisob xazina va yirik shaxsiy mulklar ichki sulolaviy inqirozlarni bartaraf etish hamda vohada ulkan ishlarni moliyalashtirishning asosiy manbai bo‘lib xizmat qilgan degan xulosani beradi.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 6 Issue: 02 | 2026
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Tadqiqot doirasiga tortilgan manbalarni o‘rganish va tahlil qilish, vohaning raqamli xaritasini yaratish, iqtisodiy yo‘nalishlarga oid bog‘liq ma’lumotlarni qo‘shni xonliklar bilan qiyosiy o‘rganish hamda olingan ma’lumotlarni oliy tizimdagi maxsus kurslarda keng foylanilish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

**Манба ва адабиётлар:**

1. Абдусаттор Жуманазаров тадқиқотларига кўра, Надр Муҳаммадхоннинг шажараси қуйидаги келтирилган: “Надр Муҳаммадхон ибн Дин Муҳаммадхон ибн Жонибек султон ибн Ёрмуҳаммадхон Надр Муҳаммаднинг она томондан келиб чиқиши саййидларга бориб тақалиб, манбаларда қуйидагича шажараси келтирилган: “Надр Муҳаммад ибн Шамсиябону бинти Мирзо Саййид Бадиуззамон ибн Мирзо Муҳаммад Амин Машҳадий ибн Мирзо Муҳаммад Сафар ибн Мирзо Муҳаммад Муҳсин ибн Мирзо Али Ризо ибн Мирзо Муҳаммад Тақи ибн Мирзо Саййид Абу Солих ибн Мир Саййид Муҳаммад Муъин ибн Мирзо Ҳидоятуллоҳ ибн Мир Саййид Нуриддин Муҳаммад ибн Мир Жалолиддин Муҳаммад ибн Мир Саййид Абу Муҳаммад ибн Имом Муҳаммад Аскарий ибн Имом Али Нақи ибн Имом Муҳаммад Тақи ибн Имом Мусо Али Ризо ибн Имом Муҳаммад Козим ибн Имом Муҳаммад Жаъфар Содиқ ибн Имом Муҳаммад Боқир ибн Имом Зайнулобидин ибн Имом Муҳаммад Ҳусайн ибн амир ал-мўъминин Али ибн Абу Толибибн Манғишлоқ ибн Чавоқ ибн Муҳаммадхон ибн Темур султон ибн Темур Қутлуғ ибн Али Темур ибн Қутлуғ Темур ибн Тумаған ибн Абай ибн Ўзтемур ибн Тўқай Темур ибн Жўжихон ибн Чингизхон[1]”.
2. Мухаммед Юсуф мунши**.** Мукимханская история / Перевод с таджикского, введение, примечания и указатели профессора А.А. Семенова; Академия наук Узбекской ССР, Институт востоковедения. – Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1956. – 304 с.
3. Мутрибий Самарқандий. Тазкират уш-шуаро. / Форс тилидан таржима, кириш сўзи ва изоҳлар муаллифи И. Бекжонов. Т.: Мумтоз сўз, 2013. 64–65-б.
4. Жуманазар А**.** Бухоро таълим тизими тарихи. – Тошкент: Akademnashr, 2017. – Б. 273
5. Мухаммед Юсуф мунши**.** Мукимханская история / Перевод с таджикского, введение, примечания и указатели профессора А.А. Семенова; Академия наук Узбекской ССР, Институт востоковедения. – Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1956. –С. 94
6. Burton A. The Bukharans: A Dynastic, Diplomatic and Commercial History, 1550–1702. – Richmond: Curzon Press, 1997. – P. 178.
7. Burton A. The Bukharans: A Dynastic, Diplomatic and Commercial History, 1550–1702. – Richmond: Curzon Press, 1997. – Pp Ахмедов Б. А. История Балха (XVI – первая половина XVIII в.). – Ташкент: Фан, 1982. – С.7. 186, 187.
8. Ахмедов Б. А. История Балха (XVI – первая половина XVIII в.). – Ташкент: Фан, 1982. – С.7
9. Ахмедов Б. А. История Балха (XVI – первая половина XVIII в.). – Ташкент: Фан, 1982. – С. 29
10. Ахмедов Б. А. История Балха (XVI – первая половина XVIII в.). – Ташкент: Фан, 1982. – С.27
11. Ахмедов Б. А. История Балха (XVI – первая половина XVIII в.). – Ташкент: Фан, 1982. – С.30
12. https://www.dkm.gov.uz/uz/tradicionnye-mery-vesa-i-dliny-centralnoj-azii?utm_source=chatgpt.com
13. Ахмедов Б. А. История Балха (XVI – первая половина XVIII в.). – Ташкент: Фан, 1982. – С.30

14. Ахмедов Б. А. История Балха (XVI – первая половина XVIII в.). – Ташкент: Фан, 1982. – С.30
15. Ахмедов Б. А. История Балха (XVI – первая половина XVIII в.). – Ташкент: Фан, 1982. – С.30
16. Мухтаров А. Позднесредневековый Балх (Материалы к исторической топографии города в XVI- XVIII вв.).– Душанбе: Дониш, 1990. – С. 98
17. Ахмедов Б. А. История Балха (XVI – первая половина XVIII в.). – Ташкент: Фан, 1982. – С.52
18. Ахмедов Б. А. История Балха (XVI – первая половина XVIII в.). – Ташкент: Фан, 1982. – С.131
19. Мухтаров А. Позднесредневековый Балх (Материалы к исторической топографии города в XVI- XVIII вв.).– Душанбе: Дониш, 1990. – С. 102-103
20. Ахмедов Б. А. История Балха (XVI – первая половина XVIII в.). – Ташкент: Фан, 1982. – С.131
21. Сангирова Д.Х. Эрон ва Бухоро хонлиги тарихига оид бир мактуб тарихи. / Марказий Осиё тарихи расмий ҳужжатларда (VII-XIX асрлар). Халқаро анжуман материаллари. –Тошкент. Фан, 2021. –Б. 90-100.
22. Семенов А. А. Бухарский трактат о чинах и званиях // Советское востоковедение. – 1948. – Т. V. – С. 137–153.
23. Ахмедов Б. А. История Балха (XVI – первая половина XVIII в.). – Ташкент: Фан, 1982. – С.132
24. Мир Мухаммед Амин-и Бухари. Муким-ханская история / Пер. с тадж. А.А. Семенова. – Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1956. – С.94
25. Мухтаров А. Позднесредневековый Балх (Материалы к исторической топографии города в XVI- XVIII вв.).– Душанбе: Дониш, 1990. – 128 с.
26. Мухтаров А. Балх (История, культура и памятники средневекового города). – Душанбе: Дониш, 1989. – С.128.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 6 Issue: 02 | 2026
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

**Shohidjon Orifboyevich Nayimov**
*Navoiy innovatsiyalar universiteti tarix yo'nalishi magistranti*

*Received 4th February 2026, Accepted 10th April 2026, Online 30th June 2026*

## SOVET DAVRIDA NAVOIY VILOYATIDA SHAHAR INFRATUZILMASINING RIVOJLANISHI TARIXI

**Annotatsiya:** Ushbu maqola Sovet davrida Navoiy viloyati shahar infratuzilmasining shakllanishi va rivojlanishini tahlil qiladi. Tadqiqot davrida viloyat shaharlarida uy-joy fondi, kommunal xo'jalik, transport va ijtimoiy infratuzilma ob'ektlarining kengayishi ko'rib chiqiladi. Sanoatlashtirish siyosati va markazlashgan rejalashtirishning Navoiy, Zarafshon, Uchquduq kabi shaharlarning urbanistik qiyofasini o'zgartirishdagi o'rni yoritilgan. Maqolada ushbu davrda amalga oshirilgan loyihalar va ularning mintaqa aholisi hayotiga ta'siri atroflicha o'rganiladi. Natijada, Sovet davri me'moriy va muhandislik yechimlarining bugungi kundagi ahamiyati va merosi baholanadi.

**Kalit so'zlar:** Navoiy viloyati, sovet davri, shahar infratuzilmasi, urbanizatsiya, sanoatlashtirish, uy-joy qurilishi, kommunal xo'jalik, me'morchilik.

## ИСТОРИЯ РАЗВИТИЯ ГОРОДСКОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ НАВАЙСКОГО РЕГИОНА В СОВЕТСКИЙ ПЕРИОД

**Аннотация:** В данной статье анализируется формирование и развитие городской инфраструктуры Навоийской области в советский период. Рассматривается расширение жилищного фонда, коммунальной, транспортной и социальной инфраструктуры в городах региона в исследуемый период. Подчеркивается роль политики индустриализации и централизованного планирования в изменении городского облика таких городов, как Навои, Зарафшан и Учкудук. В статье всесторонне изучаются проекты, реализованные в этот период, и их влияние на жизнь жителей региона. В результате оценивается значение и наследие архитектурно-инженерных решений советской эпохи в наши дни.

**Ключевые слова:** Навоийская область, советская эпоха, городская инфраструктура, урбанизация, индустриализация, жилищное строительство, коммунальные услуги, архитектура.

## HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF URBAN INFRASTRUCTURE IN NAVAI REGION IN THE SOVIET PERIOD

**Abstract:** This article analyzes the formation and development of the urban infrastructure of the Navoi region during the Soviet period. The expansion of the housing stock, utilities, transport and social infrastructure facilities in the cities of the region during the research period is considered. The role of industrialization policies and centralized planning in changing the urban appearance of cities such as Navoi, Zarafshan, and Uchkuduk is highlighted. The article comprehensively studies the projects implemented during this period and their impact on the lives of the region's residents. As a result, the significance and legacy of architectural and engineering solutions of the Soviet era are assessed today.

**Keywords:** Navoi region, soviet era, urban infrastructure, urbanization, industrialization, housing construction, public utilities, architecture.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 6 Issue: 02 | 2026
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

**KIRISH**

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – Oʻzbekistonning Navoiy viloyatida Sovet davrida shahar infratuzilmasining shakllanishi va rivojlanish jarayonlarini tarixiy-tanqidiy tahlil qilishdan iborat. Xususan, uy-joy, kommunal xoʻjaligi, transport, ijtimoiy va madaniy ob'ektlarning qurilishi hamda ularning aholi turmush tarziga ta'sirini oʻrganish nazarda tutilgan. Sovet davri shaharsozlik tamoyillarining Navoiy viloyati misolida amalga oshirilishi, sanoatlashtirishning shahar infratuzilmasiga ta'siri va aholi dinamikasi bilan oʻzaro bogʻliqligini yoritish tadqiqotning markaziy vazifalaridandir.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, Sovet davrida qurilgan shahar infratuzilmasi bugungi kunda ham Oʻzbekiston shaharlarining asosiy tayanchini tashkil etadi. Ushbu davrdagi rejali rivojlanish, resurslarni taqsimlash va shaharsozlik qarorlarining zamonaviy shahar muhitiga ta'sirini tushunish muhim ahamiyatga ega. Navoiy viloyati, ayniqsa, sanoat markazi sifatida shakllanganligi sababli, uning shahar infratuzilmasi rivoji oʻziga xos xususiyatlarga ega boʻlgan. Bugungi kunda shaharlarni modernizatsiya qilish va barqaror rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishda tarixiy tajribani hisobga olish zarurligi mavzuning ilmiy va amaliy ahamiyatini oshiradi [1]. Shuningdek, Sovet davri merosini xolisona baholash, uning ijobiy va salbiy jihatlarini aniqlash kelgusi shaharsozlik siyosati uchun muhim saboq boʻlib xizmat qiladi [2].

**Tadqiqot metodologiyasi** tarixiy-qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv va sintez usullariga asoslanadi. Mavzuga oid arxiv hujjatlari, davriy nashrlar, rasmiy statistika ma'lumotlari va mavjud ilmiy adabiyotlar chuqur oʻrganiladi. Shaharsozlik rejalari, qurilish loyihalari va aholi punktlarining rivojlanish dinamikasi tahlil qilinib, Sovet davrining turli bosqichlarida infratuzilmadagi oʻzgarishlar aniqlanadi. Bundan tashqari, Navoiy viloyatidagi shaharlarning rivojlanishini Oʻzbekistonning boshqa hududlaridagi yoki Markaziy Osiyodagi oʻxshash jarayonlar bilan qiyoslash orqali umumiy tendensiyalar va oʻziga xos xususiyatlar aniqlanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Sovet davrida shahar infratuzilmasining rivojlanishi, xususan, Markaziy Osiyo va Oʻzbekiston misolida, keng qamrovli tadqiqotlar ob'ekti boʻlib kelgan. Biroq, soʻnggi yillarda, ayniqsa 2020 yildan keyin, bu mavzuga nisbatan yangicha yondashuvlar, tanqidiy tahlillar va Sovet merosini zamonaviy kontekstda qayta baholashga qaratilgan ishlar koʻpaymoqda. Ushbu tadqiqot Navoiy viloyatining oʻziga xos misolida shahar infratuzilmasining shakllanishini oʻrganish orqali mavjud adabiyotlarga muhim hissa qoʻshishni maqsad qilgan.

Sovet shaharsozligi tamoyillari va uning Markaziy Osiyodagi amaliyotiga bagʻishlangan ilmiy ishlar an'anaviy ravishda rejali iqtisodiyotning afzalliklarini, yangi sanoat markazlarining paydo boʻlishini va aholi uchun qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan sa'y-harakatlarni yoritib kelgan. Biroq, soʻnggi davrdagi tadqiqotlar bu jarayonlarning murakkab jihatlariga, jumladan, markazlashtirilgan rejalashtirishning kamchiliklariga, mahalliy sharoitlar va ehtiyojlarning yetarlicha hisobga olinmaganligiga, shuningdek, ekologik oqibatlarga e'tibor qaratmoqda. Masalan, ayrim mualliflar Sovet davridagi shaharsozlik siyosatini geosiyosiy va ideologik maqsadlar bilan uzviy bogʻliq holda tahlil qilib, uning mintaqadagi demografik va etnik tarkibga ta'sirini oʻrganganlar [1]. Bunday yondashuvlar Sovet davridagi infratuzilma loyihalarining nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy-siyosiy omillar bilan ham belgilanganini koʻrsatadi.

Navoiy viloyati kabi sanoatga yoʻnaltirilgan yangi shaharlarning paydo boʻlishi va rivojlanishi Sovet iqtisodiyotining muhim xususiyati boʻlgan. Bunday shaharlar, odatda, muayyan bir sanoat tarmogʻi (masalan, konchilik, kimyo yoki energetika) atrofida qurilgan va ularning infratuzilmasi asosan shu sanoatning ehtiyojlariga xizmat qilishga qaratilgan edi. Soʻnggi yillardagi tadqiqotlar bunday monofunksional shaharlarning rivojlanish modellarini, ularning iqtisodiy barqarorligini va aholining ijtimoiy-madaniy hayotiga ta'sirini chuqurroq oʻrganmoqda. Xususan, sanoat

korxonalarining shahar infratuzilmasiga, jumladan, uy-joy fondi, kommunal xo‘jaligi va transport tizimiga bevosita ta’sirini tahlil qiluvchi ishlar mavjud. Bu tadqiqotlar sanoatning shahar infratuzilmasiga nafaqat moddiy resurslar va ishchi kuchi yetkazib berish orqali, balki shaharning umumiy rejalashtirilishi va funksional zonalashtirilishiga ham qanday ta’sir ko‘rsatganini yoritib beradi.

Uy-joy qurilishi Sovet davri shaharsozligining markaziy yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan. Ko‘plab ilmiy ishlar Sovet uy-joy siyosatining evolyutsiyasini, turli davrlardagi qurilish standartlarini va aholini uy-joy bilan ta’minlashdagi muvaffaqiyatlar hamda muammolarni tahlil qilgan. 2020 yildan keyingi adabiyotlarda Sovet davrida qurilgan uy-joylarning bugungi holati, ularning energiya samaradorligi va modernizatsiya qilish zarurati kabi masalalarga alohida e’tibor qaratilmoqda [2]. Navoiy viloyati misolida, sanoat korxonalari tomonidan qurilgan uy-joylarning o‘ziga xos xususiyatlari, ularning sifati va aholining ijtimoiy tarkibiga mosligini o‘rganish mavjud adabiyotlardagi bo‘shliqni to‘ldirishga yordam beradi. Kommunal xo‘jaligi (suv ta’minoti, kanalizatsiya, issiqlik ta’minoti, elektr energiyasi) ham Sovet shaharlarining ajralmas qismi bo‘lib, uning rivojlanishi ko‘pincha sanoat korxonalarining ehtiyojlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Bu sohadagi tadqiqotlar, asosan, tizimlarning texnik holati, ularning quvvati va aholiga xizmat ko‘rsatish darajasini baholashga qaratilgan.

Transport infratuzilmasi, xususan, temir yo‘l va avtomobil yo‘llarining rivojlanishi Sovet davrida iqtisodiy integratsiya va sanoat mahsulotlarini tashish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan. Navoiy viloyati kabi yirik sanoat markazlarida transport tarmog‘ining shakllanishi, xomashyoni yetkazib berish va tayyor mahsulotni tashish ehtiyojlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan. So‘nggi tadqiqotlar transport infratuzilmasining nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy jihatlariga, ya’ni aholining harakatchanligiga, shaharlar o‘rtasidagi aloqalarga va mintaqaviy rivojlanishga ta’siriga ham e’tibor qaratmoqda. Bundan tashqari, Sovet davrida qurilgan transport tizimlarining bugungi kundagi samaradorligi va modernizatsiya qilish zarurati ham dolzarb mavzulardan biridir.

Ijtimoiy va madaniy infratuzilma (maktablar, kasalxonalar, madaniyat saroylari, sport inshootlari) Sovet davrida aholining turmush darajasini oshirish va kommunistik g‘oyalarni targ‘ib qilish vositasi sifatida muhim rol o‘ynagan. Bu sohadagi adabiyotlar, asosan, bu ob’ektlarning qurilishi ko‘lami, ularning funksional xususiyatlari va aholiga ko‘rsatilgan xizmatlar sifatini tahlil qiladi. 2020 yildan keyingi tadqiqotlar esa bu ob’ektlarning postsovet davridagi taqdiri, ularning xususiylashtirilishi yoki yangi funksiyalarni bajarishga moslashtirilishi kabi masalalarga e’tibor qaratmoqda. Navoiy viloyati misolida, sanoat korxonalari tomonidan qurilgan va moliyalashtirilgan ijtimoiy-madaniy ob’ektlarning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish, ularning aholining ijtimoiy birdamligini shakllantirishdagi rolini aniqlash muhim ahamiyatga ega.

Aholi dinamikasi, migratsiya jarayonlari va ularning shahar infratuzilmasiga yuklamasi Sovet davri shaharsozligining yana bir muhim jihatidir. Sanoat markazlariga ishchi kuchining oqib kelishi yangi uy-joylar, kommunal xo‘jaligi va ijtimoiy ob’ektlarga bo‘lgan talabni oshirgan. Bu sohadagi tadqiqotlar, asosan, migratsiyaning sabablarini, uning shaharlarning demografik tarkibiga ta’sirini va infratuzilmaning bu talablarni qondirishdagi imkoniyatlarini o‘rganadi. So‘nggi yillardagi ishlar esa Sovet davridagi migratsiya siyosatining uzoq muddatli oqibatlariga, jumladan, shaharlarning etnik va madaniy xilma-xilligiga ta’siriga e’tibor qaratmoqda. Navoiy viloyatida, ayniqsa, uran va oltin konlarining ochilishi bilan bog‘liq ravishda yuz bergan migratsiya jarayonlarining infratuzilmaga ta’sirini chuqurroq tahlil qilish mavjud adabiyotlardagi umumiy yondashuvlarni boyitishi mumkin.

Sovet davri merosini baholashga qaratilgan adabiyotlar ham so‘nggi yillarda sezilarli darajada kengaydi. Bu ishlar Sovet davridagi rivojlanishning nafaqat ijobiy yutuqlarini (masalan, sanoatlashtirish, urbanizatsiya, aholining turmush darajasini oshirish), balki uning salbiy oqibatlarini (masalan, ekologik muammolar, mahalliy madaniyatga ta’sir, markazlashtirilgan boshqaruvning kamchiliklari) ham xolisona tahlil qilishga intilmoqda. Bunday tadqiqotlar Sovet davridagi

shaharsozlik qarorlarining bugungi kundagi shahar muhitiga qanday ta'sir ko'rsatayotganini va ushbu merosni qanday boshqarish kerakligini tushunish uchun muhim asos yaratadi. Navoiy viloyati misolida, Sovet davridagi infratuzilmaning bugungi kundagi holatini, uning barqarorligini va modernizatsiya qilish imkoniyatlarini o'rganish bu umumiy baholash jarayoniga o'ziga xos mintaqaviy nuqtai nazarni qo'shadi.

Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Sovet davridagi shahar infratuzilmasining rivojlanishiga oid umumiy va mintaqaviy tadqiqotlar mavjud bo'lsa-da, Navoiy viloyatining o'ziga xos xususiyatlarini, xususan, uning sanoat markazi sifatida shakllanishini, uy-joy, kommunal, transport, ijtimoiy va madaniy infratuzilmaning alohida tarmoqlarini chuqur va kompleks tahlil qilgan, 2020 yildan keyin nashr etilgan maxsus ishlar yetarli emas. Ko'pgina tadqiqotlar umumiy tendensiyalarni yoki yirik shaharlar misolini o'rganadi, ammo Navoiy viloyatidagi Uchquduq, Zarafshon, Nurota kabi shaharlarning infratuzilmaviy rivojlanish jarayonlarining o'ziga xos jihatlari, sanoatning bevosita ta'siri va aholi dinamikasi bilan o'zaro bog'liqligi yetarlicha yoritilmagan.

Shuningdek, Sovet davri shaharsozlik tamoyillarining Navoiy viloyati sharoitida qanday amalga oshirilgani, markazlashtirilgan rejalarning mahalliy sharoitlarga moslashuvi yoki moslashmasligi, hamda buning infratuzilma sifati va samaradorligiga ta'siri haqidagi tanqidiy tahlillar ham cheklangan. Ushbu tadqiqot aynan shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan bo'lib, Navoiy viloyati misolida Sovet davridagi shahar infratuzilmasining shakllanishi va rivojlanishini tarixiy-tanqidiy nuqtai nazardan, keng qamrovli manbalar asosida o'rganish orqali mavzuga yangicha yondashuv va chuqurroq tushuncha berishni maqsad qilgan. Bu, o'z navbatida, Sovet davri merosini xolisona baholash va zamonaviy shaharsozlik siyosatini ishlab chiqish uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot, shuningdek, Navoiy viloyati shaharlarining rivojlanishini O'zbekistonning boshqa hududlaridagi yoki Markaziy Osiyodagi o'xshash jarayonlar bilan qiyoslash orqali umumiy tendensiyalar va o'ziga xos xususiyatlarni aniqlashga intiladi. Bunday qiyosiy tahlil mavjud adabiyotlardagi umumiy xulosalarni Navoiy viloyatining o'ziga xos kontekstida sinab ko'rish va yangi ilmiy natijalarga erishish imkonini beradi. Xususan, sanoatning shahar infratuzilmasiga ta'sirini o'rganishda, Navoiy viloyatidagi konchilik sanoatining boshqa mintaqalardagi qishloq xo'jaligi yoki yengil sanoatga asoslangan shaharlardan farqli jihatlarini aniqlash muhimdir. Bunday yondashuv mavjud adabiyotlardagi umumiy nazariy qarashlarni amaliy misollar bilan boyitib, ularning mintaqaviy xususiyatlarini ochib beradi.

Sovet davridagi shahar infratuzilmasining rivojlanishini tahlil qilishda, shuningdek, davlat siyosatining o'zgarishlari, iqtisodiy rejalarning amalga oshirilishi va aholining ehtiyojlari o'rtasidagi muvozanatni o'rganish muhimdir. Mavjud adabiyotlar, ko'pincha, yo davlat siyosatiga yoki aholining ijtimoiy hayotiga alohida e'tibor qaratadi. Ushbu tadqiqot esa bu ikki omilning o'zaro ta'sirini, xususan, Navoiy viloyatidagi shaharlarning rivojlanishida qanday namoyon bo'lganini kompleks tarzda o'rganishga harakat qiladi. Bunday yondashuv Sovet davridagi shaharsozlik jarayonlarining ko'p qirrali tabiatini va uning uzoq muddatli oqibatlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, mavzuga oid adabiyotlar Sovet davridagi shahar infratuzilmasining rivojlanishiga oid keng qamrovli ma'lumotlarni taqdim etsa-da, Navoiy viloyatining o'ziga xos misolida, uning sanoatga yo'naltirilgan rivojlanish modelini, infratuzilmaning alohida tarmoqlarini va aholi dinamikasi bilan o'zaro bog'liqligini tarixiy-tanqidiy nuqtai nazardan, so'nggi ilmiy yondashuvlar asosida chuqur o'rganishga bo'lgan ehtiyoj saqlanib qolmoqda. Ushbu tadqiqot aynan shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan bo'lib, Navoiy viloyati shahar infratuzilmasining Sovet davridagi rivojlanishini kompleks va xolisona tahlil qilish orqali mavjud ilmiy adabiyotlarga yangicha qarash va muhim empirik ma'lumotlar qo'shadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot metodologiyasi Navoiy viloyati shahar infratuzilmasining Sovet davridagi rivojlanishini chuqur va kompleks tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, tarixiy-qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv va sintez usullariga asoslanadi. Bu yondashuvlar Sovet davri shaharsozlik jarayonlarining murakkab va ko‘p qirrali tabiatini ochib berish, uning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy omillar bilan o‘zaro bog‘liqligini o‘rganish imkonini beradi. Tarixiy-qiyosiy tahlil infratuzilma rivojlanishining turli bosqichlarini, ularning o‘ziga xos xususiyatlarini va o‘zgarish dinamikasini aniqlashga xizmat qilsa, tizimli yondashuv shahar infratuzilmasini o‘zaro bog‘liq elementlar majmui sifatida ko‘rib chiqish, uning ichki va tashqi aloqalarini o‘rganishga imkon yaratadi. Sintez esa to‘plangan ma’lumotlar va tahlil natijalarini umumlashtirib, mavzu bo‘yicha yaxlit va asosli xulosalar chiqarishga qaratilgan.

Ma’lumotlarni yig‘ish va manbashunoslik tahlili tadqiqotning muhim bosqichi hisoblanadi. Bu jarayonda keng qamrovli birlamchi va ikkilamchi manbalar o‘rganiladi. Birlamchi manbalar sifatida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi, Navoiy viloyati davlat arxivi, shuningdek, sobiq Sovet Ittifoqining tegishli arxivlarida saqlanayotgan hujjatlar, jumladan, O‘zbekiston Kommunistik partiyasi Markaziy Komiteti va O‘zbekiston SSR Vazirlar Kengashining qarorlari, farmonlari, shaharsozlik rejalari, qurilish loyihalari, texnik-iqtisodiy asoslar, byudjet ajratmalariga oid ma’lumotlar, sanoat korxonalarining hisobotlari, aholi punktlarini rivojlantirish dasturlari va boshqa rasmiy hujjatlar chuqur tahlil qilinadi. Bu hujjatlar Sovet davridagi shaharsozlik siyosatining maqsadlari, uning amalga oshirilish mexanizmlari va infratuzilma loyihalarining texnik jihatlari haqida bebaho ma’lumot beradi.

Bundan tashqari, davriy nashrlar, xususan, respublika va viloyat gazetalari ("Pravda Vostoka", "Navoiy haqiqati", "Zarafshon") materiallari, jurnallar va boshqa ommaviy axborot vositalaridagi maqolalar, reportajlar, aholining murojaatlari va mutaxassislarning fikrlari o‘rganiladi. Bu manbalar shahar infratuzilmasi rivojlanishining jamoatchilik tomonidan qabul qilinishi, mavjud muammolar va ularni hal etish yo‘llari haqida qo‘shimcha ma’lumotlar beradi. Rasmiy statistika ma’lumotlari, jumladan, aholi soni, demografik tarkibi, uy-joy fondining hajmi, kommunal xo‘jaligi xizmatlarining ko‘lami, transport tarmog‘ining rivojlanishi va ijtimoiy-madaniy ob’ektlar soni bo‘yicha ma’lumotlar tadqiqotning miqdoriy asosini tashkil etadi. Bu ma’lumotlar O‘zbekiston SSR Davlat statistika qo‘mitasining yillik hisobotlari va boshqa rasmiy nashrlardan olinadi.

Manbashunoslik tahlili jarayonida har bir manbaning ishonchliligi, xolisligi va to‘liqligi tanqidiy baholanadi. Sovet davri hujjatlarining ideologik yuklamasi va propaganda elementlarini hisobga olgan holda, ma’lumotlar bir nechta manbalar orqali tekshiriladi va qiyoslanadi. Bu yondashuv tadqiqotning ob’ektivligini ta’minlashga va Sovet davri shaharsozlik jarayonlarining real manzarasini yaratishga yordam beradi.

Tadqiqotning nazariy asosini Sovet davri shaharsozligi konsepsiyalari, xususan, "sotsialistik shahar" g‘oyasi, rejali iqtisodiyot sharoitida urbanizatsiya jarayonlari va davlat tomonidan boshqariladigan rivojlanish modellari tashkil etadi. Shuningdek, zamonaviy urbanistika va tarixiy geografiya nazariyalari, xususan, shahar infratuzilmasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi roli, uning aholi hayotiga ta’siri va barqaror rivojlanish tamoyillari ham tahlilga jalb qilinadi. Tadqiqot Sovet davridagi shaharsozlik siyosatini geosiyosiy va ideologik maqsadlar bilan uzviy bog‘liq holda tahlil qilishga qaratilgan yondashuvlarni ham hisobga oladi, bu esa mintaqadagi demografik va etnik tarkibga ta’sirini o‘rganishda muhimdir [1].

Tadqiqotda tanqidiy yondashuv markaziy o‘rin tutadi. Bu Sovet davri shaharsozlik qarorlarining nafaqat ijobiy yutuqlarini, balki uning kamchiliklarini, jumladan, markazlashtirilgan rejalashtirishning mahalliy sharoitlar va aholi ehtiyojlarini yetarlicha hisobga olmasligi, ekologik oqibatlar va ijtimoiy tengsizliklarni ham xolisona baholashni anglatadi. Masalan, Sovet davrida qurilgan uy-joylarning bugungi holati, ularning energiya samaradorligi va modernizatsiya qilish

zarurati kabi masalalarga alohida e'tibor qaratiladi [2]. Bunday tanqidiy tahlil Sovet davri merosini xolisona baholash, uning ijobiy va salbiy jihatlarini aniqlash kelgusi shaharsozlik siyosati uchun muhim saboq bo'lib xizmat qilishini ta'kidlaydi [2].

Tadqiqotning etik tamoyillari ob'ektivlik, xolislik va ilmiy yaxlitlikni o'z ichiga oladi. Tarixiy voqealar va jarayonlar zamonaviy qarashlar yoki siyosiy kon'yunktura ta'sirisiz, mavjud manbalar asosida, ilmiy mezonlarga muvofiq tahlil qilinadi. Anaxronizmdan qochish, ya'ni o'tmishdagi hodisalarni bugungi kun nuqtai nazaridan baholamaslikka alohida e'tibor qaratiladi. SHuningdek, turli manbalardagi qarama-qarshi fikrlar va baholar hisobga olinib, ularning har biriga xolisona yondashiladi.

Ushbu metodologiya Navoiy viloyatining o'ziga xos misolida Sovet davridagi shahar infratuzilmasining shakllanishi va rivojlanishini tarixiy-tanqidiy nuqtai nazardan, keng qamrovli manbalar asosida o'rganish orqali mavjud adabiyotlardagi bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan. Xususan, Navoiy viloyatidagi Uchquduq, Zarafshon, Nurota kabi shaharlarning infratuzilmaviy rivojlanish jarayonlarining o'ziga xos jihatlari, sanoatning bevosita ta'siri va aholi dinamikasi bilan o'zaro bog'liqligini chuqur yoritishga e'tibor qaratiladi. Bunday kompleks yondashuv Sovet davridagi shaharsozlik jarayonlarining ko'p qirrali tabiatini va uning uzoq muddatli oqibatlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Tadqiqot natijalari Sovet davri merosini xolisona baholash va zamonaviy shaharsozlik siyosatini ishlab chiqish uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

**Xulosa**

Navoiy viloyatida Sovet davrida shahar infratuzilmasining rivojlanishi keng ko'lamli sanoatlashtirish va urbanizatsiya jarayonlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, viloyatning zamonaviy qiyofasini shakllantirdi. Navoiy, Zarafshon, Uchquduq kabi shaharlarda uy-joy, kommunal, transport, ijtimoiy-madaniy ob'ektlarning rejali qurilishi aholi turmush darajasini sezilarli oshirdi. Biroq, markazlashtirilgan rejalashtirishning kamchiliklari, mahalliy ehtiyojlarni yetarlicha hisobga olmaslik va ekologik muammolar kabi salbiy oqibatlar ham kuzatildi. Ushbu murakkab meros bugungi kunda shaharlarni modernizatsiya qilish, barqaror rivojlantirish va aholi talablariga moslashtirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, o'tmish tajribasidan xolisona saboq chiqarish zaruriyatini ko'rsatadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

[1] Abdullayev, A. (2021). Navoiy viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tarixida sanoatlashtirishning o'rni (XX asrning ikkinchi yarmi). O'zbekiston tarixi, (2), 45-56. – https://uzhistory.uz/journals/

[2] Karimov, SH. (2022). O'zbekistonning sanoat shaharlari shakllanishi va rivojlanishining tarixiy-arxitekturaviy tahlili (Sovet davri). Arxitektura va qurilish muammolari, (4), 78-89. – https://journals.uz/index.php/arqurilish

[3] Rahimov, G'. (2020). Sovet davrida O'zbekiston hududlarini kompleks rivojlantirish siyosati va uning Navoiy viloyati misolida aks etishi. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, (6), 112-125. – https://iqtisodiyot.tsue.uz/uz/archive

[4] Azimov, B. (2023). Navoiy konchilik-metallurgiya kombinatining tashkil topishi va uning hududiy infratuzilma rivojiga ta'siri (1960-1980 yillar). Fan va texnologiyalar taraqqiyoti, (1), 67-78. – https://science.buxdu.uz/index.php/journal_buxdu

[5] Ergashev, N. (2022). O'zbekistonning sanoat markazlarida shahar infratuzilmasining shakllanishi va modernizatsiyasi (Sovet davri tajribasi). Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. O'zbekiston Milliy universiteti. – https://nuu.uz/uz/dissertatsiya-ishlari

[6] Muhammadiyev, Z. (2021). Navoiy viloyati tarixi: o'tmishdan bugungacha. Toshkent: O'zbekiston.

[7] Sobirov, U. (2023). Sovet davrida O'zbekiston shaharlarida ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanish xususiyatlari (Navoiy shahri misolida). Oriental Art and Culture, (3), 156-168. – https://orientalart.uz/index.php/OAC

[8] Ismoilov, R. (2022). O'zbekistonning iqtisodiy hududlarini shakllantirishda Sovet davri rejalashtirish tamoyillarining o'rni (Navoiy misolida). Geografiya va geoekologiya, (5), 88-99. – https://journals.uz/index.php/geography

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 6 Issue: 02 | 2026
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

**Lobarkhon Islam kizi Suvonova**

*Navoi Innovative University*
*Docent of the Department of Social and Humanities, v.b.*
*Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences*

*Received 4th February 2026, Accepted 10th April 2026, Online 30th June 2026*

# TALABALARDA PEDAGOGIK DIZAYN ASOSIDA TA'LIMIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

**Annotatsiya:** Maqolada talabalarda pedagogik dizayn asosida ta'limiy kompetensiyalarini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari, uning afzalliklari haqidagi ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, muallif unda oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarida pedagogik texnikani pedagogik dizayn va shunga aloqador texnologiyalar asosida rivojlantirishning ilmiy asoslangan tizimini yoritib bergan. Shuningdek, maqolada pedagogik dizayn asosidagi ta'limda maqsad va vazifalar keng qamrovli ekanligi, ushbu yondashuvning asosiy g'oyasi- amaliyot nazariy bilimlar kabi muhimligi ko'rsatib berilgan hamda tahsil oluvchilar o'quv materialini o'zlashtirishda nafaqat ong orqali idrok qilishlari, balki kognitiv bilimlar asosida ham idrok qilish ko'nikmalarini namoyon etishlari xaqida ma'lumotilar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** pedagogik dizayn, tashkil qilish, didaktika, oliy ta'lim, yangi mazmun, ta'limiy kompetensiyalar, pedagogik mahorat, ong orqali idrok qilish, kognitiv bilimlar.

# PSYCHOLOGICAL FEATURES OF DEVELOPING STUDENTS' EDUCATIONAL COMPETENCES BASED ON PEDAGOGICAL DESIGN

**Abstract:** The article provides information about the psychological characteristics of developing students' educational competencies based on pedagogical design, as well as its advantages. The author presents a scientifically grounded system for developing the pedagogical skills of higher education graduates through pedagogical design and related technologies. The article also emphasizes that the goals and objectives of instruction based on pedagogical design are broad in scope, and the main idea of this approach is that practical experience is as important as theoretical knowledge. Furthermore, it is noted that during the learning process, students demonstrate the ability to perceive educational material not only through conscious understanding but also through cognitive knowledge.

**Keywords:** pedagogical design, organization, didactics, higher education, new content, educational competencies, pedagogical mastery, conscious perception, cognitive knowledge.

# ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ УЧАЩИХСЯ НА ОСНОВЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА

**Аннотация:** В статье представлены сведения о психологических особенностях развития образовательных компетенций студентов на основе педагогического дизайна, а также его преимуществах. Автор раскрывает научно обоснованную систему развития педагогической техники выпускников высших учебных заведений на основе педагогического дизайна и связанных с ним технологий. Кроме того, в статье показано, что цели и задачи обучения, построенного на принципах педагогического дизайна, имеют широкий охват, а основная идея данного подхода заключается в том, что практика столь же важна, как и теоретические знания.

Также отмечается, что в процессе усвоения учебного материала обучающиеся проявляют способность воспринимать информацию не только через сознание, но и на основе когнитивных знаний.

**Ключевые слова:** педагогический дизайн, организация, дидактика, высшее образование, новое содержание, образовательные компетенции, педагогическое мастерство, восприятие через сознание, когнитивные знания.

**Kirish.** Pedagogik dizayn hozirgi kunda ta’limning barcha yo‘nalishlarida, ayniqsa oliy ta’lim tizimida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda, chunki ta’lim jarayoni zamonaviy tamoyillar asosida tashkil etilmoqda va qayta takomillashtirilmoqda. So‘nggi o‘n yillikda shiddat bilan o‘zgarayotgan texnologik oqimdagi yangi ixtirolar insoniyatning ijtimoiy hayotini ijobiy o‘zgartirishi bilan birga, ilgari duch kelmagan ko‘plab yangi muammolarni ham keltirib chiqardi. Bu esa, ayrim ish turlari va kasb sohalarining zamonadan ortda qolayotganligini belgilab berdi va bularning zamirida o‘qitilayotgan fanlar va o‘qituvchilar bilim va mahoratlari vaqt talablariga javob bera oladimi, - degan savolga javob topishga undadi.

Agar, an’anaviy ta’limning asosiy maqsadi – ta’lim sub’ekti bo‘lmish tahsil oluvchiga bilimlarni o‘rgatish, ulardan fikrlash va ijod qilish uchun foydalanishga imkon yaratadi deb aytsak, unda pedagogik dizayn asosidagi ta’lim yondashuvi egallangan bilimlarni haqiqiy ko‘nikmalar bilan birlashtirishga o‘rgatadi. Bu esa, bitiruvchilarga nafaqat fanlardan bilim egallash, balki ularni amalda qo‘llash va amalga oshirish imkoniyatini beradi. Shunday qilib, pedagogik dizayn asosidagi ta’limda maqsad va vazifalar keng qamrovli bo‘lib, ushbu yondashuvning asosiy g‘oyasi- amaliyot nazariy bilimlar kabi muhimligini ko‘rsatadi. Ya’ni, tahsil oluvchilar o‘quv materialini o‘zlashtirishda nafaqat ong orqali idrok qilishlari, balki kognitiv bilimlar asosida ham idrok qilish ko‘nikmalarini namoyon etishlari talab etiladi. Pedagogik texnika o‘z-o‘zini, o‘z hissiy holatini boshqara olish; boshqalar bilan aloqa-munosabat o‘rnata olish; nutq malakasi, mimik, pontamimik ifodaliligi bilan tavsiflanuvchi jarayon bo‘lganligi sababli, biz tadqiqotimizda bitiruvchilarda pedagogik texnikani rivojlantirishning psixologik xususiyatlarini tadqiq qilishga kirishdik.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Tadqiqotlarning aksariyatida pedagogik mahorat, pedagogik kompetensiya haqida fikr yuritilgan bo‘lib, ularda ushbu definitsiyalar pedagogik (o‘quv tarbiyaviy) jarayonining barcha shakllarini eng qulay va samarali holatda tashkil etish, shaxs kamoloti maqsadlari tomon yo‘naltirish, tarbiyalanuvchilarda dunyoqarash, qobiliyatni shakllantirish va ularda jamiyat uchun zarur bo‘lgan faoliyatga moyillik uyg‘otishdir [2;5-b.], - deya e’tirof etilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Mahorat va uning o‘ziga xos xususiyat va talablari borasidagi masalalarni I.A.Zyazyun, P.Y.Reshetnikov, Y.I.Ilin, Sh.A.Amonashvili, N.Saidahmedov, X.A.To‘raqulov kabi olimlar o‘rganishgan va tadqiqotlarida o‘qituvchi mahoratining turli yo‘nalishlarini tadqiq qilishgan. Pedagogik mahoratning mohiyatini talqin qilishning turli xil yondashuvlari o‘qituvchi pedagogik faoliyatining ijodiy tarkibiy qismiga turli munosabatlar belgilanganligini ko‘rish mumkin.[9; 58-b.] I.A.Zyazyun, I.F.Krivonos, N.V.Kuxarev, N.N.Tarasevich, G.I.Xozyainov, A.I.Shcherbakov va boshqalar pedagogik mahorat tarkibiga kiruvchi pedagogik texnikani o‘qituvchining kasbiy va shaxsiy xususiyatlari va fazilatlari bilan bog‘laydi “O‘qituvchi shaxsiyatining uning psixologik-pedagogik tayyorgarligining yuqori darajasi, pedagogik muammolarni maqbul yechish qobiliyati bilan belgilanadigan ayrim fazilatlarning yig‘indisi" sifatida taqdim etadi. [8; 74-b.]

Bundan tashqari, N.N.Tarasevich, o‘qituvchi mahoratining mezoni maqsadga muvofiqligi, samaradorligi va maqbulligi bilan bir qatorda "ijodkorlik (faoliyat mazmuni bo‘yicha)" sifatini ham tadqiq etadi.[9; 16-b.] O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuniga binoan, OTMlarda o‘qitiladigan o‘quv modullari davr talablariga javob berishi uchun zamonaviy fan, texnika,

texnologiya va madaniyat yutuqlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Psixolog olimlar (I.S.Kon, S.L.Rubinshteyn, L.S.Vigotskiy, Zinchenko, B.Qodirov,E.G‘oziev,V.Karimova)lar ta’kidlashicha, pedagogik texnikaga ega bo‘lgan o‘qituvchi tarbiyadagi qiyinchiliklarni yengishga qodir bo‘lgan nufuzli rahbar, o‘sib kelayotgan yosh avlodning ichki dunyosini tushuna oladigan, ularning tuyg‘ularini his qila oladigan ijodiy dadillik, ilmiy tahlil, xayol va fantaziyaga, chuqur ilmiy tafakkurga ega bo‘lgan shaxslardir.[5; 38-b.] Pedagogik texnik tarkibida pedagogik bilimlar, fahm-farosat bilan bir qatorda psixologiya sohasidagi malakalar ham kiradi, ular tarbiyaga kam kuch sarflab, ko‘proq natijalarga erishish imkonini beradi. Bitiruvchilarda pedagogik texnikani rivojlantirishning o‘ziga xos psixologik xususiyatlari mavjud[7; 102-b.].

Pedagogik texnika asosiy xususiyatlari psixologik nazariyasi va ta’limga faoliyatli yondashuv g‘oyalari va tamoyillarini o‘zida qamrab oladi. Faoliyatning metodologik asosini bir tomondan ob’ektiv dunyo, ikkinchi tomondan ruhiyatning miyaga ta’siri tashkil etadi. Ruhiy ta’sirning faollik kasb etishi – bu sub’ektning ehtiyoji asosida amalga oshadi. Moddiy dunyoda sub’ektni faoliyatga yo‘naltirish, faoliyatning o‘zi ham ijtimoiy munosabatlarda tarkib topadi .

Inson faoliyati - ruhiyatning ijtimoiy-tarixiy tabiatiga bog‘liq bo‘lib, bu jarayon ijtimoiy hayotning o‘zida amalga oshadi.[1; 25-b.] Inson faoliyatida ruhiyat ichki faoliyat sifatida namoyon bo‘ladi.[10; 127-b.] Mazkur metodologik asoslar bitiruvchilarga pedagogik texnikani egallashda qo‘l keladi. Binobarin, ta’lim jarayoni talabalar faoliyatini tizimli tashkil etishni taqozo etar ekan, uning barcha tarkibiy qismlari tahsil oluvchi faoliyatini tizimli tashkil etishni nazarda tutadi. Bular ta’limning maqsadi, mazmuni, ta’lim shakllari, metodlari, vositalari, ta’lim mahsuli, bilim, ko‘nikma va malaka kabilardir.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Pedagogik dizayn asosidagi ta’lim tahsil oluvchilarga tajriba o‘tkazish, modellar yaratish, mustaqil ravishda musiqa va filmlar yaratish, o‘z g‘oyalarini amaliy sinab ko‘rish va yakuniy mahsulotni yaratishga ko‘nikmalarni samarali tarzda birlashtirishga imkon beradi va universitetdan keyingi faoliyatini muvaffaqiyatli tashkil etishga keng imkoniyat yaratadi.

**Tahlil va natijalar:** Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, dunyoda 2020 yildan buyon pedagogik dizayn asosidagi ta’limga talab 80 foizga oshdi.

Pedagogik dizayn asosidagi ta’limning ustuvorligi sabablari:

-yaqin kelajakda dunyo hamjamiyatida muhandis mutaxassislar keskin yetishmasligi kuzatilmoqda;

-yuqori texnologiyali sanoatga ehtiyoj mavjudligi;

-kelajakda yuqori texnologik ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan kasblar rivojlanishi, ularning tabiiy fanlar bilan bog‘lanishi, bio va nanotexnologiyalar bo‘yicha mutaxassislarga talabning oshishi

-mutaxassislar uchun texnologiyaning xilma-xil yo‘nalishlari, tabiiy fanlar va muhandislik bilan aloqadorligini ta’minlovchi o‘qitish tizimlarini ishlab chiqishga ehtiyojning oshganligi va boshqalar.

Pedagogik dizayn asosida tashkil qilingan ta’limda tahsil oluvchilarning temperamentlari, mentaliteti va ko‘nikmalarini inobatga olib, o‘qitiladigan yagona ta’lim maydonini yaratish zarur. Pedagogik dizayn asosida tashkil qilingan ta’limning qator afzalliklari mavjud. Agar bitiruvchi talaba faoliyati o‘quv jarayonida bilimlarni o‘rganish, malaka va ko‘nikmalar hosil qilish asosida tashkil qilinsa, o‘qituvchi faoliyati pedagogik vazifalarni quyish, maqsadga erishish, faoliyat predmeti, vositalarini aniqlash, ularni bajarish usullarini oqilona tanlash, talaba faoliyatini boshqarish, o‘zaro hamkorlikka asoslangan ta’lim-tarbiyani tashkil qilish natijasida amalga oshadi.[4; 36-b.] Pedagogik dizayn asosida tashkil qilingan ta’limning afzalliklari:

*1-jadval*

| Pedagogik dizayn asosida tashkil qilingan ta’lim |
|---|

| | |
|---|---|
| ta'limning atrofdagi real dunyo bilan aloqada bo'lishini ta'minlaydi | tahsil oluvchilarni intellektualligi, temperamenti, individual xususiyatlari asosida birlashtirishiga imkon beradi |
| hamkorlik ta'limini tashkil qilish va tahsil oluvchilarni rag'batlantirishga ımin hozirlaydi. | mustaqil, ijodiy, kreativ, tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi. |
| BKM (bilim, ko'nikma, malaka) va kompetensiyalar rivojlanishiga ulkan hissa qo'shadi. | ta'limga muhandislik yondashuvini amalga oshiradi. |
| pedagogik dizayn asoslarini tushunishga, ilmiy ijodga yo'l ochadi. | o'quv dasturi asosida o'rganish g'oyasiga asoslangan fanlararo va amaliy yondashuvni amalga oshiradi. |
| fanlarni integral o'rganishga imkon beradi | ilmiy va texnik bilimlarni hayotda qo'llashga xizmat qiladi |
| tahsil oluvchining yoshi va individual xususiyatlarini hisobga oladi | kasbga yo'naltiradi o'qishga, izlanishga motivatsiyani uyg'otadi |

1-jadvalda aks ettirilganidek, pedagogik dizayn asosida tashkil qilingan ta'lim-bu tanqidiy fikrlash, tadqiqotchilik qobiliyatlari va jamoaviy ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish vositasi sifatida bir nechta fan yo'nalishlarini birlashtirgan yangi ta'lim texnologiyasi. U ilmiy metodlar, texnik qo'llanmalar, matematik modellashtirish va muhandislik dizaynidan foydalanishga imkon beradi. Bu esa XXI asrda tahsil oluvchining innovatsion tafakkuri, ko'nikmalari, qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Texnologiya zamiridagi fanlararo integratsiya ilg'or texnologiyalarni o'rganish, dizayn va dasturlash sohasidagi asosiy bilimlarni kengaytirish uchun motivatsiyani oshiradi. Tahsil oluvchilarning mahoratini oshirishga mo'ljallangan, ta'limning yangi bosqichiga chiqishga imkon beradigan innovatsion metodologiya sifatida mazkur texnologiya iqtisodiy jihatdan mustaqil va raqobatdosh kadrlar bazasini shakllantirishga imkon beradi. Faoliyatning rivojlanishi ta'limda ma'lum didaktik prinsiplar asosida yuzaga keladi. Bular ilmiylik, uzviylik, tizimlilik, qulaylik, ta'limda faollik, onglilik kabilardan iborat bo'lib, ta'lim tizimidagi nuqsonlarni bartaraf etib, unda o'zgarishlar qilishni taqozo etadi.

Pedagogik dizayn asosida tashkil qilingan ta'limda shaxsning o'z-o'zini nazorat qilishi, boshlagan ishini oxirigacha yetkazish, chidamlilik, qunt bilan bilim olish va boshqalar shular sirasiga kiradi. Shuning uchun o'qituvchi faoliyatida birgina emas, balki bir nechta pedagogik vazifalar qo'yiladi va ular pedagogik vaziyatlarga, jumladan, pedagogik vazifalarning qo'yilishi va hal qilinishi sharoitlari va boshqalarga bog'liq ravishda tuzatib boriladi. Bunday vaziyatlar mohir o'qituvchi tomonidan to'la boshqarish texnikasiga egaligi bilan tavsiflanadi[6; 58-b.] Zaruriyat, tug'ilganda u har qanday kutilmaganda yuz berishi mumkin bo'lgan vaziyatlarni pedagogik vaziyatga aylantira oladi.

O'qituvchining faoliyati quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

- o'z-o'zini rivojlantirish;
- o'quv faoliyatini ilg'or texnologiyalar asosida qurish;
- o'qituvchi va tahsil oluvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlikning qaror

topishiga zamin yaratish;

- o‘quv faoliyatining tahsil oluvchilar ichki motiviga asoslangan izlanuvchanlik yo‘nalishining kasb etishini ta’minlash va boshqalar.

Pedagogik dizayn asosidagi ta’lim talabalarda pedagogik texnikani egallash sifatida ijtimoiy tajribalarni tezroq o‘rganib, anglab olishga, kommunikativ qobiliyatini rivojlantirishga, o‘zini o‘rab turgan atrof-olamga munosabatini shakllantirishga olib keladi. Bilish faolligi esa talabaning intellektual rivojlanishini ta’minlaydi. Pedagogik faoliyat davomida pedagogik vazifa (pedagogik maqsad)larni qo‘yish va uni o‘zgartirish, pedagogik vaziyatlarni taqqoslash va klassifikatsiyalash, qaror qabul qilish, pedagogik tafakkur va pedagogik intuitsiya), tahlil etish, baholash, o‘zini o‘zi tuzatish (pedagogik refleksiya) va boshqalar kabi muhim kasbiy sifatlar mo‘jassamlanadi.

Pedagogik texnika - bu mutaxassisning o‘z psixofiziologik apparatidan tarbiyaviy ta’sir vositasi sifatida foydalanish qobiliyati. Bu o‘qituvchiga o‘z pozitsiyasini yanada chuqurroq, yanada yorqinroq va qobiliyatliroq ko‘rsatish va tarbiyaviy ishda muvaffaqiyatga erishish imkoniyatini beradigan texnikalar to‘plamidan foydalanish qobiliyatidir. Psixologik va pedagogik tadqiqotlarga ko‘ra, pedagogik texnika pedagogik mahoratni shakllantirishning eng muhim ko‘rsatkichlaridan biridir, chunki malakani rivojlantirmasdan, harakat usullarini o‘zlashtirmasdan turib, kasbiy bilim, kasbiy va pedagogik faoliyatning yuqori natijalarini insonparvarlik yo‘nalishini kafolatlab berish mushkul. Shu bilan birga, zamonaviy pedagogika fani pedagogik texnikaga xizmat rolini yuklaydi, bu esa, pedagogik mahoratning mohiyatini kamaytirmaydi, bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlash jarayonida o‘qituvchilar oldida turgan muhim pedagogik vazifalarni hal qilish va pedagogik texnikani o‘zlashtirishning nozik quroliga aylantirish zarurligini ta’kidlaydi. Pedagogik texnika o‘qituvchiga yordam beradigan, tahsil oluvchilar «ko‘rgan va eshitgan narsalar orqali ularga o‘zlarining «fikrlari va qalblarini» his etishga undovchi kuch. Tadqiqotchi A.P. Chernyavskaya pedagogik texnikani «o‘qituvchi faoliyatining ichki mazmuni va uning tashqi ifodasini uyg‘un birligiga yordam beradigan texnikalar to‘plami»,- deb ta’riflaydi.

Shunday qilib, pedagogik texnika - bu o‘quv materialini taqdim etish uchun ko‘nikma va texnikalar majmuasi bo‘lib, ularning asosiy vositalari nutq va noverbal aloqa vositalari hisoblanadi. Pedagogik va psixologlarning ilmiy ishlarining jamlanma tahlili pedagogik texnologiya komponentlarining ikki guruhini ajratish imkonini beradi. Birinchi guruh o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyatini o‘z ichiga oladi, bu quyidagilar bilan tavsiflanadi:

- o‘z tanasiga ega bo‘lish (jismoniy salomatlik, chidamlilik, mimika va pantomimani boshqarish va ulardan ta’lim va tarbiya maqsadlariga erishish uchun foydalanish qobiliyati);

-hissiy holatni boshqarish (kayfiyatning silliq ijobiy emotsional foni, salbiy his-tuyg‘ularni to‘plamaslik, his-tuyg‘ularni ifodalash va ulardan o‘z maqsadlarida foydalanish qobiliyati);

- ijtimoiy idrok (diqqat, tasavvur, ijtimoiy sezgirlik - boshqa odamning kayfiyatini his qilish, uning sabablarini tushunish va uni qabul qilish qobiliyati); nutq texnikasi (ovozni sozlash, nafas olish, nutq tempi va tembrini nazorat qilish).

Ikkinchi guruh - pedagogik muammolarni hal qilish jarayonida shaxs va jamoa bilan o‘zaro munosabatda bo‘lish qobiliyati, bu erda biz quyidagilarni o‘z ichiga olamiz: didaktik, tashkiliy, kommunikativ qobiliyatlar va talablarni qo‘yish va baholash texnikasi [3;45-b].

Shunday qilib, pedagogik dizayn asosidagi ta’lim pedagogik mahoratning eng muhim va zarur tarkibiy qismi bo‘lib, ko‘plab amaliy muammolarni mohirona shakllantirish va hal qilishga yordam beradigan pedagogik ta’sir qilish usullarini takomillashtirishni talab qiladi.

Shaxsning rivojlanishi bevosita uning faoliyatida ro‘y beradagan o‘zgarishlar, motivlar, maqsadlar, yangi vositalarni qo‘llash, usullar hamda faoliyat dasturi bila bog‘liq holda kechadi. Ta’limda faoliyat va uni boshqarishga yangicha yondashuv talab etiladi, didaktik tomoyillar yangi mazmun kasb etadi va o‘qitish texnologiyasini o‘zgartiradi. An’anaviy didaktikada buni amalga oshirib bo‘lmaydi. “O‘quv faoliyati”, “aqliy faoliyat” hozirgi davr pedagogikasining eng muhim konsepsiyasi sifatida

maydonga chiqmoqda. Pedagogika fanining qonuniyatlari va mazmunini har tomonlama o‘rganish, uni yosh avlod tarbiyasida qo‘llash har bir ustoz, o‘qituvchidan mahorat talab etadi. Mahorat- bu shaxsning tajriba orqali orttirgan xususiyati, biror sohasidagi moslashuvchan ko‘nikma va ijodkorlik asosida hosil bo‘lgan kasbiy ko‘nikmalarning nazariy darajasidir.

**Xulosa.** Pedagogik dizayn bu - ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, rejalashtirish va amalga oshirishga qaratilgan tizimli faoliyat bo‘lib, u o‘quv materiallarini, metodlarni, vositalarni va baholash usullarini o‘quvchi ehtiyojlari hamda ta’lim maqsadlariga mos ravishda loyihalashni o‘z ichiga oladi. Boshqacha qilib aytganda, pedagogik dizayn – bu ta’lim jarayonini ilmiy asosda modellashtirish va loyihalash orqali yuqori samaradorlikka erishish usulidir.

Pedagogik dizaynning asosiy tarkibiy qismlari:

Tahlil – o‘quvchilarning ehtiyojlari, imkoniyatlari va ta’lim muhitini tahlil qilish.

Loyihalash – o‘quv maqsadlarini belgilash, material va usullarni tanlash.

Ishlab chiqish – o‘quv materiallari va resurslarni yaratish.

Joriy etish – tayyorlangan dasturni amalga oshirish.

Baholash – natijalarni tahlil qilish va takomillashtirish.

Demak, pedagogik dizayn — bu o‘qitish jarayonini ilmiy, metodik va texnologik jihatdan rejalashtirish va boshqarish tizimidir.

Pedagogik dizaynning tarkibiy qismi hisoblanmish pedagogik texnika har bir o‘qituvchining zarur bo‘lgan umumiy pedagogik malakalarini shakllantirish bilan bog‘liq bo‘lgan, odatdan tashqari kuch-g‘ayratni, qat’iyatlilikni, tirishqoqlikni vaziyatga yangi jamoaga kirishish qobiliyatini, samimiyatni, to‘g‘rilik va halollikni, o‘tkir aql-idrokni, bir vositani boshqasi bilan tekshirib ko‘rish malakasini talab qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

[1] Андреев В.И. Педагогика: учебный курс для творческого саморазвития. – Москва: Академия, 2022. – 312 с.
[2]Зязюн І.А. Педагогічна майстерність учителя. – Київ: Вища школа, 2019. – 376 с.
[3] Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 248 b.
[4] Vigotskiy L.S. Tafakkur va nutq psixologiyasi. – Moskva: Pedagogika, 2018. – 368 s.
[5] Branch R.M. Instructional Design: The ADDIE Approach. – New York: Springer, 2020. – 210 p.
[6] Karimova V.M. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Tafakkur, 2021. – 196 b.
[7] Rubinshteyn S.L. Umumiy psixologiya asoslari. – Санкт-Петербург: Piter, 2019. – 720 с.
[8] Хуторской А.В. Современная дидактика. – Москва: Академкнига, 2021. – 544 с.
[9] Saidahmedov N.S. Pedagogik mahorat va pedagogik texnika. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020. – 224 b.
[10] To‘raqulov X.A. Pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasi. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2022. – 180 b.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 6 Issue: 02 | 2026
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

***Ikromitdin OSTONAQULOV,***
*University of Science and Technology*
*Associate Professor of the Department of "Social Sciences",*
*Doctor of Historical Sciences*

***M.KHO'JAMOV,***
*University of Science and Technology*
*Associate Professor of the Department of "Social Sciences".*

*Received 4th February 2026, Accepted 10th April 2026, Online 30th June 2026*

# MAQOM SAN'ATINI O'QITISHDA ARUZ METRIKASINING O'RNI

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maqom san'atida muhim o'rin tutgan mumtoz Sharq she'riyatining vaznini bo'lgan aruzni o'rganishning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, maqom ijrosi uchun maqom kuylarini yaratishda aruz vaznini bilishning muhimligi ochib berilgan.

**Tayanch so'zlar:** aruz vazni, turkiy aruz, ruknlar, bahrlar, mumtoz she'riyat, maqom yo'llari va matn masalasi, aruz va musiqiy o'lchovlar, Bobur g'azallari, maqom ijrochilari.

# РОЛЬ МЕТРИКИ ARUZ В ПРЕПОДОВАНИЕ ИСКУССТВУ МАКОМА

**Аннотация.** В статье объясняется важности изучение газели в искусстве макама, и являются результатом измерения веса классическых стихов Востока, и расскроется важность изучение веса газелей, положенных на мелодии макама, для исполнения макама.

**Ключевые слова:** вес арузов, турюкский аруз, колонны, бахры, классическая поэзия, способы исполнения макама и текстовое содержание, аруз и музыкальные метрики, газели Бабура, исполнители макама.

# THE ROLE OF ARUZ PROSODY IN TEACHING THE ART OF MAQOM

**Abstract:** This article explains that ghazals, which play an important role in the art of maqam, are the result of measuring the weight of classical Eastern verses. It also reveals the importance of studying the weight of ghazals set to maqam melodies for maqam performance.

**Key words:** aruz weight, Turkish aruz, columns, bahrs, classical poetry, maqam ways and text matter, aruz and musical measures, Babur's ghazals, maqam performers.

## *Kirish (Introduction)*

Sharq mumtoz she'riyatida aruz vazni yetakchi o'rin egallaydi. Arab, fors va turkiy she'riyat aruz vazni bahrlari asosida yaratiladi. Madrasalarda aruz vazni alohida darslik sifatida o'qitilgan. Bu holat to XX asr boshlariga qadar izchil davom etgan. Markaziy Osiyo ziyolilari orasida shoirlarning ko'plab yetishib chiqishiga ayni aruz ta'limi hal qiluvchi vazifani bajarib kelgan. Shu bilan birga shashmaqom

kuylarining yaratilishi va ijrosida aruz vazni nazariy asos bo‘lib xizmat qilgan. XX asr ijodkorlari barmoq vaznida yozgan asarlarini bastakorlarga havola qilishgan. Negaki, barmoq vaznida yozilgan she’rlarga maxsus kuy bastalanmasa ashula ijrosi mukammal bo‘lmaydi. Ammo aruz vaznida yozilgan g‘azalni kuyga solish uchun hofiz maxsus bastakorga murojaat qilishiga ko‘p ham muhtoj bo‘lmaydi. G‘azal aruzning biror bahriga solingan bo‘lgani uchun shu vaznga mos kuyni ijrochi o‘sha vazn o‘lchovidan foydalangan holda bir yangi usul topa oladi.

Bundan kelib chiqadiki, mahoratli shoirlar g‘azalni aruzga solar ekan, bir vaqtning o‘zida uning kuyini ham yaratib qo‘ygan bo‘ladilar. Shu ma’noda Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, Ogahiy, Munis, Muqimiy va Furqat kabi shoirlar o‘z asarlari matning ijodkori, ham uning musiqiy poydevorini yaratib qetgan iste’dodlar hisoblanishadi.

Agar shunday bo‘lmaganda Yunus Rajabiy “Shashmaqom” kuylariga g‘azal tanlaganda kuyga solishda muammoga duch kelar edi. Imomjon Ikromov ham Navoiyning “Kelmadi” radifli g‘azali“ni Munojaat” kuyiga tushira olmas edi. XX asrda milliy bastakorlikda yangi musiqalar faqat musiqiy notalarga asoslanib yaratilganday, ular go‘yo aruzni unutganday taassurot uyg‘otadi. Buning asosiy sababi musiqiy ta’limda aruz asoslari nomuhim deb hisoblanganida va uni o‘rgatuvchi yetuk ustozlarning kamligida bo‘lsa kerak. Adabiyot nazariyasida ham aruzni formal tushuntirish ustunlik qiladi. Amaliy o‘rgatishda mahorat yetishmaydi. Ya’ni, adabiyotshunos g‘azalning vaznini aniqlab chiqa oladi. Hijolarini to‘g‘ri taqsimlaydi, paradigmalarni mutanosib qo‘yib chiqadi. Ammo uni vazn talabiga mos ohangga solib o‘qishni yaxshi uddalay olmaydi. Buning uchun adabiyotshunosning o‘zi aruz vaznida ohangli o‘qish salohiyatiga ega bo‘lishi, kuchli ovozda bo‘lmasa ham “kuylay olishi” kerak. Buning uchun aruz nazariyasi va maqom ijrochiligidan yetarli bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lishi lozim. Shu ma’noda bu maqolada aruz vazni va maqom ijrochiligi mutanosibligi masalasini ko‘rib o‘tamiz.

*Manbalar tahlili. (Source analysis)*

Turkiy va forsiy aruzshunoslikda juda muhim manbalarga egamiz. Jumladan, XIV asrda yaratilgan Mahmud Tiroziyning “Funun al balog‘a”,[1] Atoullo Husayniyning “Badoye’ us sanoye’”,[2] Alisher Navoiyning “Mezon ul avzon”,[3] Boburning “Muxtasar”[4] asarlari aruz vaznini o‘rganishda yetuk manbalar sanaladi. XX asrda Fitrat [5], Izzat Sulton [6], Alibeg Rustamiy [7], A.Hojiahmedov [8] kabi adabiyotshunoslar aruz nazariyasi bo‘yicha monografiya, o‘quv qo‘llanma va darsliklar yaratishdi. Ushbu asarlar garchi, adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan yozilgan bo‘lsa-da, musiqa nazariyasi uchun ham birdek ta’limiy ahamiyatga egadir. Aytmoqchimizki, bu asarlarni birinchi navbatda musiqa mutaxassislari, an’anaviy ijrochilik egalari o‘qib-o‘rganishlari kerak. Maqom ijrochilini o‘zlashtirishda bu ikki vosita go‘yoki qushning ikki qanoti kabidir.

*Asosiy natija va tahlillar*

Ma’lumki, aruz vaznida ruknlar muhim ritmik vazifani bajaradi. Ruknlar ikki xil – asliy va tarmoq ruknlaridan iborat bo‘ladi. Aruzdagi sakkiz asl rukn o‘zgartirish natijasida tarmoqlarni hosil qiladi. Asliy rukn ustida bajariladigan o‘zgartirish amaliga arabcha zihof, ya’ni “o‘zgarish” deyiladi. Zihofni qo‘llash natijasida hosil bo‘lgan ruknlar furu’ (arabcha “tarmoqlar”, birligi “far’”) deb ataladi. Aruziy asardagi so‘zlarning bo‘g‘inlarga ajratilishi hijo deyiladi. So‘zlardagi tovushlarning uzun yoki qisqa unli ekanligiga qarab misradagi so‘zlar hijolanadi (“Hijjalab o‘qidi” iborasi shundan hosil bo‘lgan).

Мисол учун ма-фо-ий-лун асли “тасбиғ” (“тўлдириш”) зиҳофига учраганда охирги “лун” чўзиқ ҳижоси (–) ўта чўзиқ “лон” (~) ҳижосига айлантирилади:

| **Asl** | **zihof** | **furu’** |
|---|---|---|
| Ma-fo-iy-lun | tasbig‘ | ma-fo-iy-lon |

Yoki ma-fo-iy-lun asli “hazf” (“tashlash”) zihofiga uchraganda oxirgi “lun” (–) hijosi tashlab yuboriladi, qolgan “mafoiy” esa unga vazn jihatidan teng “fa- uv-lun”ga almashtiriladi:

| **Asl** | **zihof** | | **furu'** |
|---|---|---|---|
| Ma-fo-iy-lun | hazf | ma-fo-iy | fa-uv-lun |

O‘zgartirishlar ikki turli bo‘ladi.

1. Aslni hijo sifati jihatidan o‘zgartiradigan zihoflar
2. Aslni hijo son va sifati jihatidan o‘zgartiradigan zihoflar.

Ko‘rinadiki, birinchi zihof turi son jihatdan, ya’ni miqdor bo‘yicha o‘zgarishlarga asoslangan. Ikkinchisi esa, sifat jihatiga asosan o‘zgartiriladi. Uchinchisida, ham son va ham sifat jihatidan o‘zgaruvchi zihof o‘rganiladi. Bu uch jihatning har birini o‘rganish uchun maxsus jadvallar ishlab chiqilgan. Bundan tashqari, “O‘zbek aruzi lug‘ati”da “Tarmoq ruknlarining o‘zgartirilishi” sarlavhasi bilan 4-zihof turi berilgan bo‘lib, *fo-i-lo-tun* va *mus-taf-’i-lun* asllarining zihofga duch kelishi bilan xarakterlanadi.[9]

Birinchi turdagi zihofning nomi *xarm* bo‘lib, uning lug‘aviy ma’nosi: burunni kesish degani. YA’ni rukndagi birinchi hijoning tushib qolishi sodir bo‘ladi. *Ma-fo-iy-lun* ruknidagi birinchi qisqa hijo *ma-* tushirilsa, *fo-iy-lun* (- - - ) qoladi. Hosil bo‘lgan furu’ (tarmoq)ni *fo-iy-lun* tarzida o‘qiyolmaymiz, chunki uning o‘qilishi orqali *maf-’u-lun* hosil bo‘ladi. Hosil bo‘lgan furu’ning nomi *axram, ya’ni* “burni kesilgan” degan ma’noni anglatadi. Demak, xarm usuli bilan rukndagi birinchi qisqa hijoni tushirib, *maf-’u-lun* hosil qilamiz va uni *axram* deb aytamiz.

Alisher Navoiy asarida 7 ta doira berilgan bo‘lib, fors risolalarida ko‘rsatilgan to‘rt: mu’talifa, muxtalifa, muntazia va muttafiqa doirasiga yana o‘zi uch doira qo‘shgan; ular: mujtamia, muxtalita va mushtabiha).[10]

Bobur “Aruz risolasi”da bahrlarni asliy ruknlar ishtirokiga ko‘ra 19 bahrga (*Arizd* va *Amiq* bahrlarini qo‘shgan holda), 21 bahr nomini keltiradi, unga shunday ta’rif bergan: “Bilgilkim, usulning takroridan yo ba’zining ba’zi bila tarkibidin bahr hosil bo‘lur. Bu bahrlarkim musta’mal va mashhurdur, o‘n to‘qquzdur: 1. Mutaqorib. 2. Mutadorik. 3. Hazaj. 4. Rajaz. 5. Ramal. 6. Vofir. 7. Komil. 8. Tavil. 9. Madid. 10. Basit.11. Munsarih. 12. Muzori’. 13. Muqtazab. 14. Mujtass. 15. Sari’. 16. Jadid. 17. Qarib. 18. Hafif. 19. Mushokil. Yana ikki bahrkim Arizd bil Amiqdur, tavil doirasidin hosil bo‘lur, ul g‘ayri mashhurdur. Bu bahrlar bila jami buhur (bahrlar) yigirma bir bo‘lg‘ay”.[11]

Ko‘rinadiki, mumtoz she’r tuzilishi va uning asosiy o‘lchovi aruz vazni murakkab bo‘lsa ham uni o‘rganish orqali she’riyatimiz tabiatini hamda so‘z san’atiga musiqa bog‘lashning sirlarini o‘zlashtirish mumkin.

Har bir mumtoz she’riy matn aruzda tekshirilganda ular taqti’ (kesish) usuli bilan avval hijolarga, so‘ng esa ruknlarga ajratiladi. Har bir rukn ham yuqoridagi sakkiz asliy ruknga teng kelavermaydi. Ana o‘shanda hosil bo‘lgan far’iy ruknni aniqlash uchun uning vaznini belgilashda baytning rukn soni va sifatidan kelib chiqib ish ko‘riladi. Alisher Navoiyning “Badoyi’u-l-vasat” devonidagi 621-g‘azalning mat’lasini vaznga solib ko‘raylik:

Kimki bir ko‘ngli buzug‘ning xotirin shod aylagay,
Oncha borkim, Ka’ba vayron o‘lsa obod aylagay. [12]

Kim-ki bir ko‘ng / li bu-zug‘-ning / xo-ti- rin sho / day-la-gay,
- v - - / - v - - / - v - - / - v -
On-cha bor-kim, / Ka’-ba vay-ro / no‘l-sa o - bo / day-la-gay.
- v - - / - v - - / - vv - - / - v -
Fo-i- lo -tun / fo – i – lo -tun / fo- i –lo - tun / fo-i-lun
Solim (4 hijo) / solim (4 hijo) / solim (4 hijo) / mahzuf (3 hijo)

Ushbu baytning birinchi misrasidagi 1,2 va 3-ruknlar asliy rukn bo‘lib, ular solim, ya’ni to‘la, to‘rt hijoli) holatda kelgan, 4-rukn esa o‘zgarishga uchrab, uch hijoli bo‘lib qolgan. Natijada 4-rukn

mahzuf, ya'ni o'zgarishli deb nomlanadi. Chunki *fo-i-lo-tun* rukni ramal bahriga tegishli. *Musamman* deyish bilan baytning 8 rukndan iborat ekanligiga ishora qilamiz va *fo-i-lun* rukni sog'lom (butun) bo'lmagani uchun uni yuqorida aytilgani kabi mahzuf (o'zgargan) deb hisoblaymiz. Natijada ushbu bayt *ramali musammani mahzuf* vaznida yozilgan degan xulosaga kelamiz. To'rt rukn to'liq hijoli bo'lsa, musiqa ham to'la bo'ladi. Ammo ritmi bir xil bo'lib, "o'ynoqilik" uchun imkon qoldirmaydi. Demak, shoir atay shu vaznni tanlaydi.

Aruz she'r tizimidagi she'riy vazn guruhlaridan har biri, tizimni hosil qiluvchi yirik o'lchov turi b***ahr*** **(***arabcha: dengiz) deyiladi* "Bahr" (dengiz) so'zining qabul qilinishiga hind olimi Mulla Shaydoning fikri sabab bo'lgan deyiladi. Dengiz tubida turli marvarid, dur, javohir kabi qimmatbaho toshlar bo'lganidek, bahrlar qatida ham ma'nan va shaklan go'zal unsurlar ko'p. Shunga ko'ra, aruzdagi bir necha vazn qoliplari uchun ham bahr iste'lohi qo'llanilgan. Bahrlar 8 asliy *rukn*ning turli tartibda birikishidan hosil bo'ladi. H.Boltaboyevga ko'ra, "Shayx Ahmad Taroziyning "Fununu-l-balog'a" asarida 40 bahr nomi keltirilgan: mutaqorib, mutadorik, hazaj, ramal, rajaz, vofir, komil, saqil, muqorin, muvofiq, tavil, jazil, farid, mazid, mutarokib, mutadovil, mutaloyim, mutanosif, jadid, madid, muhit, basit, muzore', mushokil, sahih, sarih, hafif, mujannas, ajib, g'arib, muntaxab, muqtazab, muzhar, muzmar, munsarij, mundarij, sare', bade', qarib, salib".[13]

Sakkiz asllar orasida faqat *maf'-uv-lo-tu* ruknigina mustaqil ravishda yuqorida ko'rsatilgan uch ko'rinishda vazn hosil qila olmaydi. Uning furu'lari boshqa asl furu'lari bilan birikkan holda ma'lum bahrlarni tashkil etishda ishtirok etadi.

Fitrat "Aruz haqida" risolasida 80 ga yaqin vazn tartibga olingan. Aruz ilmida bahrlarning qolipini esda saqlashni engillashtirish maqsadida ularning o'zaro munosabatini anglatuvchi chizma, shakl *doira* (arabcha: دائره – aylana chiziq)dir. Doira qancha bahrni o'z ichiga olsa, shuncha bo'lakka bo'linadi, ularda shu bahrlarning olti (musaddas) yoki sakkiz (musamman) ruknli solim (sog'lom) va zihof (o'zgarishli) vaznlarning ruknlari ham keltiriladi. Doira atrofida berilgan misrani birinchi so'zdan boshlab o'qilsa, bir bahr, ikkinchisidan boshlab o'qilsa, ikkinchi bahr va uchinchi so'zdan boshlab o'qilsa, uchinchi bahr... tarzida barcha bahrlar hosil qilinadi. Shu tarzda doiraga birlashgan bahrlar asoslari bir-biridan faqat cho'ziq va qisqa hijolarning o'rni bilangina farqlanadi. [14]

Mashhur musiqa ilmi bilimdoni Ishoq Rajabov "Maqomlar" monografiyasida shunday yozadi: "Musiqachi-bastakorlar maqomlarning ashula yo'llariga she'rlar tanlab olishardi. To'plam qilib qo'yishar edi. Shuning uchun ham bu to'plamlar musiqachi va bastakorlar uchun zarur qo'llanma bo'lib xizmat etgan, binobarik hozirda XV asrlarda ijro etilgan ashulalarning she'r matni mazmuni qanday bo'lganini aniqlashga imkon beradi. Navoiy va Jomiy zamonida juda ko'p musiqa nazariyachilari, mohir sozanda va xonandalar hamda bastakorlar, maqomdonlar yetishib chiqdi".[15]

Buyuk klassik shoir va atoqli olim Mavlono Nuriddin Abdurahmon bin Ahmad al-Jomiy (1414 - 1492) juda ko'p ilmiy va adabiy xarakterdagi kitob va risolalar muallifidir. Uning ilmiy asarlari orasida musiqaga bag'ishlab yozilgan "Risolai musiqiy" ("Musiqa risolasi") asari maqomlarni o'rganishda katta ahamiyatga molikdir. Jomiy zo'r sozanda va bastakor ham bo'lgan. Professor Fitratning yuqorida eslab o'tilgan asarida Jomiy o'z zamonasida mashhur bo'lgan "Naqshi Mullo" nomli musiqa asari yaratganligi haqida eslatib o'tgan. Bu asar ashula yo'llaridan biri bo'lib, Jomiyning bastakor bo'lganligini tasdiqlaydi.

Bobur ham shoir bo'lish bilan birga aruziy bastakor bo'lgan. Agar shunday bo'lmaganda "G'ijjaki Boburiy" yasatmas edi. Feruz atoqli aruziy shoir, aruziy hofiz va bastakor bo'lgan. Shoir Mushkin (1904-1976) o'z g'azallari boshiga "Ushbu g'azal shashmaqomning falon kuyiga shundoq tushadi", deb izoh yozib qo'ygan. Sobir Abdulla o'z g'azallarida maqom kuylari nomlarini ko'p eslatib o'tgan.

*Xulosalar va tavsiyalar* (*Conclusions and recommendations)*

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 6 Issue: 02 | 2026
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Taroziy, Navoiy, Bobur kabi aruzshunoslar merosini hozirgi adabiy tilda qayta bayon qilib, tegishli lug‘at va izohlar bilan ta’minlagan holda nashr qilish kerak. Bu orqali hofizlikka intilayotgan hozirgi avlod vakillarining aruzni o‘zlashtirishlariga imkon yaratiladi.

Aruz bahrlari vazni va paradigmalarini musiqa notalari bilan qiyoslab, ularning amaliy funksiyalaridagi farqli va o‘xshash jihatlarni tadqiq qilish bo‘yicha she’rshunoslar, musiqashunoslar, bastakorlar va hofizlar hamkorligini yo‘lga qo‘yish kerak. Bu kabi tadbirlar g‘azallarni kuyga solib ijro etishda san’atkorlarga asqotadi.

Musiqa san’ati o‘quv yurtlari musiqa ta’limida “Aruzni ifodali o‘qish” amaliy kurslarini tashkil etish, mumtoz shoirlarning g‘azallarini aruzga solib o‘qish bo‘yicha musobaqalar o‘tkazish lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar (References)**

[1]. *Shayx Ahmad Taroziy. Fununu-l-balog‘a. T., 1998.*

[2]. Atoulloh Husayniy. Badoyi’u-s-sanoyi’ / Aruz vazni va badiiy vositalar haqida (Forschadan A.Rustamov tarjimasi). T., 1981.

[3]. Alisher Navoiy. Mezon ul avzon. / Mukammal asarlar to‘plami. 14-jild. T.: 1987.

[4]. Bobur. Muxtasar. T.: Fan, 1971.

[5]. *Fitrat. Aruz haqida / Nashrga tayyorl. H.Boltaboyev. T.: O‘qituvchi, 1997 / Tanlangan asarlar. 5–jild. T.: Ma’naviyat, 2010.*

[6]. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. T.: “O‘qituvchi” nashriyoti. T.: 1978.

[7]. Alibeg Rustamiy. Navoiyning badiiy mahorati. G‘.G‘ulom. T.: 1981.

[8]. Hojiahmedov A. O‘zbek aruzi lug‘ati. T.: Sharq NMAK, 1998.

[9]. Boltaboyev H. Adabiyot ensiklopediyasi. 2-jild. T.: Mumtoz so‘z, 2019.

[10]. Atoulloh Husayniy. Badoyi’u-s-sanoyi’ / Aruz vazni va badiiy vositalar haqida. T., 1981.

[11]. Alisher Navoiy. Mezon ul avzon. / Mukammal asarlar to‘plami. 14-jild. T.: 1987.

[12]. Bobur. Muxtasar. T.: Fan, 1971. B.89.

[13]. Alisher Navoiy. Navodir ush shabob. / Mukammal asarlar to‘plami. 4-jild. Fan. T.1987. 321-bet.

[14]. Boltaboyev H. Adabiyot ensiklopediyasi. 2-jild. T.: Mumtoz so‘z, 2019. 210 b.

[15]. Rajabov, Ishoq. Maqomlar / Mas’ul muharrir va nashrga tayyorlovchi O. Ibrohimov. T.: SAN'AT, 2006. – 403 b. B.143.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 6 Issue: 02 | 2026
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

**Lobarkhon Islam kizi Suvonova**

*Navoi Innovative University*
*Docent of the Department of Social and Humanities, v.b.*
*Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences*

*Received 4th February 2026, Accepted 10th April 2026, Online 30th June 2026*

## THE IMPORTANCE OF PEDAGOGICAL DESIGN IN USING DIGITAL TECHNOLOGIES IN IN-CLASS AND OUT-CLASS ACTIVITIES

**Abstract.** This article scientifically and theoretically analyzes the importance of pedagogical design in the use of digital technologies during classroom and extracurricular activities. The effectiveness of applying modern information and communication technologies in the educational process is highlighted. The essence of pedagogical design, its functions, and its role in improving the quality of education are revealed. In addition, modern instructional design models such as ADDIE, SAM, and Agile Learning Design are discussed. The article describes the transformation of teacher and student activities in the digital educational environment and emphasizes the advantages of interactive teaching methods. The pedagogical opportunities of using digital tools in classroom and independent learning activities are analyzed.

**Keywords:** pedagogical design, digital technologies, classroom activities, independent learning, ADDIE model, distance education, interactive methods, quality of education, digital learning environment, innovative pedagogy.

## RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN AUDITORIYA VA AUDITORIYADAN TASHQARI MASHG‘ULOTLARDA FOYDALANISHDA PEDAGOGIK DIZAYNNING AHAMIYATI

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarda raqamli texnologiyalardan foydalanishda pedagogik dizaynning ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Ta’lim jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning samaradorligi yoritilgan. Pedagogik dizaynning mazmuni, vazifalari hamda uning ta’lim sifatini oshirishdagi o‘rni ochib berilgan. Shuningdek, ADDIE, SAM, Agile Learning Design kabi zamonaviy pedagogik modellar haqida ma’lumot berilgan. Raqamli ta’lim muhitida o‘qituvchi va talaba faoliyatining o‘zgarishi hamda interaktiv metodlarning afzalliklari ko‘rsatib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** pedagogik dizayn, raqamli texnologiyalar, auditoriya mashg‘ulotlari, mustaqil ta’lim, ADDIE modeli, masofaviy ta’lim, interaktiv metodlar, ta’lim sifati, raqamli ta’lim muhiti, innovatsion pedagogika.

## ВАЖНОСТЬ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ДИЗАЙНА ПРИ ИСПОЛЬЗОВАНИИ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УЧЕБНЫХ И ВНЕКЛАССНЫХ МЕРОПРИЯТИЯХ.

**Аннотация.** В данной статье научно-теоретически проанализировано значение педагогического дизайна при использовании цифровых технологий на аудиторных и внеаудиторных занятиях. Освещена эффективность применения современных информационно-

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 6 Issue: 02 | 2026
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

коммуникационных технологий в образовательном процессе. Раскрыты сущность педагогического дизайна, его задачи и роль в повышении качества образования. Также представлены современные модели педагогического проектирования, такие как ADDIE, SAM и Agile Learning Design. Показаны изменения деятельности преподавателя и студента в цифровой образовательной среде, а также преимущества интерактивных методов обучения. Проанализированы педагогические возможности использования цифровых средств на аудиторных и самостоятельных занятиях.

**Ключевые слова:** педагогический дизайн, цифровые технологии, аудиторные занятия, самостоятельное обучение, модель ADDIE, дистанционное обучение, интерактивные методы, качество образования, цифровая образовательная среда, инновационная педагогика.

## Kirish

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar ta'lim tizimining barcha bosqichlariga jadallik bilan kirib kelmoqda. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etishning yangi pedagogik imkoniyatlarini yaratmoqda. Xususan, masofaviy ta'lim platformalari, sun'iy intellekt asosidagi vositalar, virtual laboratoriyalar, elektron ta'lim resurslari hamda multimedia texnologiyalari o'quv jarayonining samaradorligini oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu sababli raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga maqsadli va tizimli integratsiya qilish bugungi pedagogika fanining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish pedagogik dizayn bilan chambarchas bog'liqdir. Pedagogik dizayn o'quv maqsadlarini aniqlash, o'quv materiallarini loyihalash, interaktiv metodlarni tanlash hamda ta'lim natijalarini baholashning ilmiy-metodik asoslarini belgilab beradi. Ayniqsa, auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda talabalar mustaqil ta'limini tashkil etishda pedagogik dizaynning o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki mazkur yondashuv ta'lim mazmunining tizimliligi, motivatsion muhitning yaratilishi va o'quv faoliyatining individuallashtirilishini ta'minlaydi.

Zamonaviy ta'lim sohasida yangi vazifalar va yangi o'qitish sharoitlari, jumladan, raqamlashtirish jarayonining joriy etilishi, dunyoning o'zgarib borishi hamda yangi avlodning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq holda muhim o'zgarishlar yuz bermoqda. Shu sababli pedagogik dizayn bugungi kunda ta'limning barcha segmentlarida zamonaviy tamoyillar asosida tashkil etilayotgan yoki qayta qurilayotgan o'qitish tizimida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

"Dizayn" atamasi ingliz tilidagi *"design"* so'zidan olingan bo'lib, "konstruksiyalash", "loyihalash" ma'nolarini anglatadi. Pedagogik dizayn (inglizcha: *"instructional design"* — "ta'limni loyihalash", *"instructional designer"* — "ta'lim loyihachisi") har qanday ta'limiy yechimni yaratish va modellashtirish jarayonidir. [3; 68-b.] "Pedagogik dizayn" tushunchasi dinamik xarakterga ega. Ushbu faoliyat bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar nafaqat pedagogik dizaynerlar, balki metodistlar deb ham yuritiladi. Buning sababi shundaki, zamonaviy yondashuvlar talabaning o'quv jarayonidagi markaziy o'rnini e'tirof etib, uni passiv emas, balki faol ishtirokchi sifatida talqin qiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**

Pedagogik dizaynning asoslari XX asrning 50-yillarida shakllangan. 1954-yilda amerikalik psixolog-bixeviorist Berres Frederik Skinnerning "Ta'lim fani va o'qitish san'ati" nomli maqolasi chop etilgan bo'lsa, 1956-yilda Benjamin Blum mashhur "Ta'limiy maqsadlar taksonomiyasi"ni yaratdi. Bugungi kunda ushbu nazariya "Blum taksonomiyasi" nomi bilan tanilgan bo'lib, pedagogik dizaynning asosiy tayanchiga aylandi. 1965-yilda Robert Ganye "Ta'lim shartlari" nomli asarida

o‘qitishning to‘qqizta shartini tavsiflab berdi. Ushbu ish ham zamonaviy pedagogik dizayn va o‘qitish metodikasining shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi.

MDH olimlaridan V.P.Bespalko, A.A.Verbitskiy, Y.S.Polat va M.V.Klarinlarning ilmiy ishlari ta’lim texnologiyalari, masofaviy ta’lim hamda interaktiv metodlarni rivojlantirishga bag‘ishlangan. Ayniqsa, Y.S.Polat masofaviy ta’lim va axborot texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlarini chuqur tadqiq qilgan. O‘zbekistonlik olimlardan N.A.Muslimov, B.X.Xodjayev, U.Q.Tolipov, Sh.S. Sharipov hamda O‘.Q.Tolipovlarning ilmiy tadqiqotlarida pedagogik texnologiyalar, innovatsion ta’lim metodlari va raqamli ta’lim muhitini tashkil etish masalalari yoritilgan. Ularning ilmiy qarashlarida ta’lim jarayonini zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etish, talabalarning mustaqil faoliyatini rivojlantirish hamda kompetensiyaviy yondashuvni shakllantirish muhim o‘rin egallaydi.

XX asrning 90-yillarida dastlabki elektron ta’lim shakllari (kompakt disklar asosida) paydo bo‘la boshladi. Shu davrda raqamli mahsulotlarni ishlab chiqishda tezkor prototiplash amaliyoti ham rivojlandi. Bu ta’lim jarayoniga ham tatbiq etilib, o‘quv materiallarini tezkor ishlab chiqish va keyinchalik test hamda iteratsiyalar asosida takomillashtirish imkonini berdi.

2000–2010-yillarda onlayn ta’lim imkoniyatlari sezilarli darajada kengaydi. Natijada pedagogik dizayn ham jadal rivojlanib, pedagogika, psixologiya, analitika va neyrofanlarga tayana boshladi. Shu nuqtai nazardan, nafaqat ta’lim mazmunini ma’lum ketma-ketlikda loyihalash, balki talabaning o‘quv tajribasini ham tashkil etish muhim hisoblanadi. [8;34-b.]Boshqacha aytganda, talabaning ta’lim mazmunini qanday qabul qilishi va o‘zlashtirishi uning o‘quv faoliyatiga ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa sifatli va samarali ta’limni monitoring qilish hamda tahlil etishni talab qiladi. Mazkur yondashuv “Learning Experience Design — LXD” (ta’limiy tajribani loyihalash) deb ataladi. Shu bilan birga yangi kasbiy yo‘nalish — ta’limiy tajriba dizayneri ham shakllanmoqda. [7; 102-b.] U pedagogik dizaynerdan farqli ravishda nafaqat o‘quv materiallarini, balki butun ta’lim muhiti va ta’lim jarayoni ishtirokchilari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni ham loyihalashtiradi.

**Tadqiqot metodologiyasi**

Metodik tamoyillar va yondashuvlarga asoslanib, pedagogik dizaynerlar onlayn kurslar ssenariylarini ishlab chiqadilar. Bunda asinxron ta’lim uchun mo‘ljallangan materiallarni yaratishga alohida e’tibor qaratiladi. Umuman olganda, pedagogik dizayner auditoriya mashg‘ulotlari, aralash ta’lim dasturlari, o‘quv qo‘llanmalari va butun kurs mazmunini loyihalashi mumkin. U kurs tarkibiga qanday o‘quv materiali kiritilishini, uning murakkablik darajasini, mavzularning ketma-ketligini va ularni qanday formatda taqdim etishni (videodarslar, matnlar, sinxron yoki asinxron mashg‘ulotlar) belgilaydi. Shuningdek, qanday mashqlar va testlar qo‘llanilishi, kursning umumiy davomiyligi hamda alohida bloklar hajmi ham aniqlanadi. Eng muhimi, kurs talaba uchun qiziqarli, me’yoriy darajada murakkab va amaliy jihatdan foydali bo‘lishi lozim.

Zamonaviy pedagogik dizayner ta’limni yaratish bilan bir qatorda mahsulot yondashuvi tamoyillarini ham bilishi kerak. Bu esa kursni mahsulot sifatida ishlab chiqish, auditoriyani o‘rganish, samaradorlikni baholash uchun metrikalar bilan ishlash hamda ish jarayonini to‘g‘ri tashkil etishni talab etadi. Shu sababli mazkur kasb turli sohalar elementlarini o‘zida mujassamlashtirgan kompleks faoliyat hisoblanadi.

Pedagogik dizaynning asosini bixeviorizm, konstruktivizm, kognitivizm va ijtimoiy-kognitiv nazariya kabi o‘qitish nazariyalari hamda metodologik tamoyillar tashkil etadi. Pedagogik dizayner tasodifiy yondashuv asosida emas, balki maqsadli ravishda faoliyat olib boradi. U maqsadli auditoriyaning xususiyatlarini, ta’lim maqsadlarini va mavjud resurslarni hisobga olib, eng maqbul metodlar, formatlar va vositalarni tanlaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, oliy ta’lim muassasasida faoliyat yurituvchi har bir professor-o‘qituvchi o‘quv modullarini ishlab chiqish vazifasiga ega. Raqamli kompetensiyalarga ega bo‘lgan o‘qituvchi ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishi mumkin.

Chunki ta'limni loyihalashda ADDIE, SAM kabi modellardan foydalaniladi. Ayrim modellar ta'limni ishlab chiqish jarayonini tavsiflasa, boshqalari ta'lim mantiqini shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, SSDL yoki ARCS-V kabi modellar ta'lim motivatsiyasini loyihalash imkonini beradi.

Ta'limni loyihalashning eng mashhur modeli ADDIE hisoblanadi. Ushbu qisqartma inglizcha Analysis, Design, Development, Implementation, Evaluation soʻzlaridan tashkil topgan boʻlib, mos ravishda tahlil, loyihalash, ishlab chiqish, amalga oshirish va baholash bosqichlarini anglatadi.

Successive Approximation Model (SAM) esa ketma-ket yaqinlashuv modeli boʻlib, ta'lim dasturini kichik bosqichlar asosida ishlab chiqish va iteratsiyalar orqali joriy etishni nazarda tutadi. Mazkur model Agile tamoyillariga asoslanadi va Agile Learning Design (ALD) yondashuvi uchun ham asos boʻlib xizmat qiladi.

Raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan mashgʻulotlar talabaning oʻquv faoliyatidagi faolligini oshiradi. Jumladan, multimedia vositalari, elektron platformalar, virtual laboratoriyalar, mobil ilovalar va sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida oʻquv materiallari vizual, interaktiv va tushunarli shaklda taqdim etiladi. [2;19-b.]Tadqiqotlarga koʻra, vizual va interaktiv ta'lim vositalari axborotni oʻzlashtirish darajasini 35–40 foizga oshiradi.

Auditoriya mashgʻulotlarida pedagogik dizayn asosida tashkil etilgan raqamli ta'lim:

- talabalarni dars jarayoniga faol jalb qiladi;
- individual yondashuvni ta'minlaydi;
- tanqidiy va kreativ fikrlashni rivojlantiradi;
- hamkorlikda ishlash koʻnikmalarini shakllantiradi.

Masalan, Moodle, Google Classroom, Microsoft Teams kabi platformalar orqali oʻqituvchi dars materiallarini tizimli joylashtirishi, testlar yaratishi, talabalarning mustaqil ishlarini nazorat qilishi va tezkor teskari aloqani amalga oshirishi mumkin.

Auditoriyadan tashqari mashgʻulotlarda esa pedagogik dizaynning ahamiyati yanada ortadi. Chunki mustaqil ta'lim jarayonida talabalar oʻz faoliyatini oʻzi boshqarishi kerak boʻladi. Shu sababli topshiriqlarni bosqichma-bosqich loyihalash, motivatsion elementlarni kiritish hamda interaktiv vositalardan foydalanish muhimdir. Pedagogik dizayn asosida ishlab chiqilgan mustaqil ta'lim:

- talabaning mustaqil oʻqish kompetensiyasini rivojlantiradi;
- vaqtni samarali boshqarishga yordam beradi;
- masofaviy ta'lim samaradorligini oshiradi;
- oʻz-oʻzini nazorat qilish koʻnikmalarini shakllantiradi.

Ta'lim jarayonida ADDIE modeli (Analysis, Design, Development, Implementation, Evaluation) keng qoʻllaniladi. Ushbu model asosida:

1. Talabalarning ehtiyojlari tahlil qilinadi;
2. Ta'lim maqsadlari belgilanadi;
3. Elektron oʻquv materiallari ishlab chiqiladi;
4. Ta'lim jarayoni amalga oshiriladi;
5. Natijalar baholanadi.

Shuningdek, SAM (Successive Approximation Model), Agile Learning Design, Learning Experience Design (LXD) kabi zamonaviy yondashuvlar ham raqamli ta'lim muhitini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Olim T.Noskova ta'kidlaganidek, raqamli ta'lim muhiti pedagogik faoliyatning yangi obyektiga aylanmoqda. Haqiqatan ham, raqamli texnologiyalar oʻqituvchi faoliyatini faqat axborot yetkazuvchi emas, balki ta'lim jarayonini boshqaruvchi va loyihalashtiruvchi mutaxassis sifatida shakllantirmoqda.

Xorijiy tillarni oʻqitishda pedagogik dizayn ayniqsa muhimdir. Chunki til oʻrganishda kommunikativ yondashuv, interaktiv mashqlar, audio-video materiallar, virtual muloqot platformalari

va gamifikatsiya elementlari samarali natija beradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan til o‘rgatish jarayoni talabalar nutqiy kompetensiyasini an’anaviy metodlarga nisbatan tezroq rivojlantiradi.

**Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarda raqamli texnologiyalardan foydalanishda pedagogik dizayn ta’lim samaradorligini oshiruvchi muhim vosita hisoblanadi. U ta’lim mazmunini zamonaviylashtiradi, o‘qitish jarayonini tizimlashtiradi hamda talabalarni mustaqil va ijodiy fikrlashga yo‘naltiradi. Shu bois zamonaviy o‘qituvchi nafaqat fan mutaxassisi, balki pedagogik dizayn va raqamli texnologiyalarni mukammal biluvchi mutaxassis bo‘lishi zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

[1] Носкова Т. Дидактика цифровой среды. – Москва, 2019.

[2] Muslimov N., Abdullayeva Sh., Xodjayev B. Pedagogik kompetentlik va innovatsion ta’lim texnologiyalari. – Toshkent, 2016.

[3] Андреев В. Педагогика высшей школы. – Казань, 2013 г., стр. 65-10

[4] Полат Е.С. Современные педагогические и информационные технологии в системе образования. – Москва, 2010.

[5] Selevko G.K. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari. – Moskva, 1998.

[6] Зязюн І.А. Педагогічна майстерність учителя. – Київ: Вища школа, 2019. – 376 с.

[7] Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 248 b.

[8] Vigotskiy L.S. Tafakkur va nutq psixologiyasi. – Moskva: Pedagogika, 2018. – 368 s.

[9] Branch R.M. Instructional Design: The ADDIE Approach. – New York: Springer, 2020. – 210 p.

[10] Karimova V.M. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Tafakkur, 2021. – 196 b.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 6 Issue: 02 | 2026
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

***Berdiev Bobir Rakhmatovich***

*Researcher at the Institute for Social and Spiritual Studies*

*Received 4th February 2026, Accepted 10th April 2026, Online 30th June 2026*

## ИЖТИМОИЙ-МАЪНАВИЙ ИСЛОҲОТЛАР – КАМБАҒАЛЛИКНИ ҚИСҚАРТИРИШ ОМИЛИ

**Аннотация**. Мазкур мақолада ижтимоий-маънавий ислоҳотларнинг жамиятда камбағалликни қисқартиришдаги ўрни ва аҳамияти таҳлил қилинади. Ислоҳотларнинг инсон онги, меҳнат маданияти, ижтимоий бирдамлик ва институтционал ишончни мустаҳкамлаш орқали камбағалликнинг асосий сабабларини бартараф этишдаги роли ёритилади. Шунингдек, инклюзив институтлар, маънавий мотивация, иштирокчилик, ижтимоий капитал ва адолат мезонларининг камбағалликни камайтиришдаги таъсири илмий асосда тадқиқ этилади.

**Калит сўзлар:** ижтимоий-маънавий ислоҳотлар, камбағаллик, ижтимоий капитал, инклюзив институтлар, маънавий мотивация, адолат.

## СОЦИАЛЬНО-НРАВСТВЕННЫЕ РЕФОРМЫ – ФАКТОР СОКРАЩЕНИЯ БЕДНОСТИ

**Аннотация.** В статье анализируется роль социально-нравственных реформ в снижении бедности и укреплении социальной устойчивости. Показано, что реформы, направленные на развитие человеческого капитала, повышение трудовой культуры, расширение участия граждан и восстановление институционального доверия, являются ключевыми механизмами борьбы с бедностью. Особое внимание уделяется влиянию инклюзивных институтов, моральной мотивации, социального капитала и принципов справедливости на сокращение бедности.
**Ключевые слова**: социально-нравственные реформы, бедность, социальный капитал, инклюзивные институты, моральная мотивация, справедливость.

## SOCIO-MORAL REFORMS AS A FACTOR IN REDUCING POVERTY

**Abstract**. This article examines the role of socio-moral reforms in reducing poverty and strengthening social resilience. It highlights how reforms aimed at enhancing human capital, improving labor culture, expanding civic participation, and rebuilding institutional trust contribute to eliminating the root causes of poverty. The study also discusses the impact of inclusive institutions, moral motivation, social capital, and principles of justice as key mechanisms in effective poverty reduction.

**Keywords**: socio-moral reforms, poverty, social capital, inclusive institutions, moral motivation, justice.

**KIRISH (INTRODUCTION).** Ижтимоий-маънавий ислоҳотлар бугунги Ўзбекистон тараққиётининг ғоявий, ижтимоий ва иқтисодий асосини ташкил этувчи омил сифатида

жамиятни янгилаш, инсонни руҳий-маънавий жиҳатдан камолга етказиш ҳамда камбағалликни тизимли қисқартириш жараёнининг ички ҳаракатлантирувчи механизмини белгилайди. Ижтимоий-маънавий ислоҳотларнинг замонавий босқичида маънавий жараёнлар ва технологиялар инсон капиталини сифат жиҳатдан янгиловчи, меҳнат маданиятини ривожлантирувчи ва ижтимоий ҳамкорликни кучайтирувчи тизимга айланмоқда. “Камбағалликни қисқартириш – бу фақат иқтисодий натижа эмас, балки инсоннинг ижтимоий ўзгаришларга онгли киришув даражасининг кўрсаткичи” [1] жамиятда ижтимоий-маънавий ислоҳотларнинг моҳиятини тўлиқ ёритади. Ушбу ғоянинг илмий мантиғида камбағалликни бартараф этиш жараёнида инсоннинг меҳнатга, билимга, адолатга ва ижтимоий бирдамликка асосланган маънавий мотиватсиясини шакллантириш зарурлиги ётади.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (MATERIALS AND METHODS).** Институционал нуктаи назардан ижтимоий-маънавий ислоҳотлар камбағаллик “архитектураси”ни ўзгартиради: инклюзив институтлар сиёсий иштирок ва иқтисодий имкониятлар уфқини кенгайтиради, экстрактив институтлар эса камбағалликни репродуксия қилади. Д.Асемогли ва Дж.Робинсон “муваффақият – инклюзив институтлар орқали имкониятларни ижтимоий меъёрга айлантиришдир” дея таъкидлайди. [2] Шу нуқтаи назардан, камбағалликни қисқартиришнинг маънавий вазифаси – “давлат–бозор–ҳамжамият” учлиги ўртасида ишонч ва жавобгарлик мувозанатини тиклашдир. Эрнан До Сотонинг мулк ҳуқуқларини “кўринмас капитал коди” сифатида изоҳлаши ҳам маънавий-институционал ўқни кўрсатади: расмийлаштирилган ҳуқуқлар “инсоннинг иқтисодий қўшилишини ахлоқий-ҳуқуқий меъёрга айлантиради” [2] Ижтимоий-маънавий методология бундай ислоҳотларни “онгни уйғотиш” жараёни сифатида ҳам талқин қилади.

П.Фрейренинг фикрича, “инсонлар муаммолар елкасида эмас, уларнинг ечимида ҳам муаллиф бўлиши керак” [3] Бу ёндашув камбағалликни фақат ёрдам обекти эмас, балки субектив агентликни тиклаш масаласи сифатида англатади: суҳбат, иштирок ва ҳамжиҳатлик орқали маънавий иммунитет мустаҳкамланади. У. Бэк огоҳлантирганидек, “риск жамияти”да ижтимоий-иқтисодий хавфлар “ишлаб чиқарилган ноаниқликлар” кўринишида пайдо бўлади, шунинг учун ислоҳотлар “институционал ишончни қайта қуриш” вазифасини ҳам бажаради. [4] Адолатнинг маънавий-норматив чизиғи эътироф сиёсати билан тўлдирилмаса, қайта тақсимот чегараланиб қолади. Шунинг учун М. Волзер “мураккаб тенглик” тушунчасини илгари суриб, турли ижтимоий соҳаларда бир устунликнинг бошқасини забт этишига йўл қўймасликни талаб қилади [5] С. Тейлор бу нуқтани антропологик асослайди: “тан олинмаслик – инсон шаънига зарба” бўлиб, камбағал қатламлар учун бу икки карра бойитилган четланишдир [6] Демак, ижтимоий-маънавий ислоҳотлар “қайта тақсимот + эътироф + иштирок” учлигини узвий механизмга айлантирмоғи лозим.

**MUHOKAMA ( DISCUSSION).** Амалий жиҳатдан, ижтимоий-маънавий ислоҳотлар “ишонч инфратузилмаси”ни тиклайди: Нан Лин таъкидлашича, “ижтимоий капитал — бу ресурсларга киришни ва ҳамкорликни таъминлайдиган ижтимоий алоқалар тўпламидир” ва у “инклюзия каналлари”ни очади [7] Банержи Абхижит Дюфло эмпирик далилларга таянган ҳолда “кам таъминланганлар кўпинча ноаниқлик шароитида, ишонч алмашинуви паст бўлган муҳитда қарор қабул қилишга мажбур” эканини кўрсатади; шунинг учун “кичик, аниқ мўлжалланган, изчил ва ҳурматга асосланган сиёсий чоралар” ижтимоий хулқни барқарор ўзгартиради. [8] Бу ерда маънавий методология бирламчи: ёрдам “патронаж эмас, субективлаштириш” — яъни агентликни кучайтириш бўлиши керак. Пауло Фрейре бу тамойилни аниқ ифодалайди: “инсонлар муаммоларнинг обекти эмас, уларнинг ечимига муаллиф бўлиши керак”. [9]

Ижтимоий-маънавий ислоҳотлар фақат “юқоридан пастга” стандартлаштириш эмас; Джейме С. Скотт “юқори модернистик схемалар” маҳаллий маъно ва одатлар экологиясини бузишини танқид қилади: “кўринарли тартиб учун кўринмас билимлар қурбон қилинади” [10]. Шу боис, камбағалликни қисқартиришда маҳалла, фуқаролик уюшмалари ва диний-маданий ҳамжамиятларнинг “ўзбилармонлиги” (лосал прастисал кноwледге) билан ишлаш — маънавий ислоҳотларнинг асл методик талабидир. Джозеф Стиглиц ҳам “асимметрик ахборот шароитида марказлашган дизайнлар кўпинча муваффақиятсиз бўлади, шаффофлик ва жавобгарлик эса ишончни қайта қуради” дея огоҳлантиради. [11] Дани Родрикнинг “контекстга мос ислоҳотлар” тамойили буни тўлдиради: “бир хил ечимлар йўқ; муҳим нарса — муаммога мос институтий архитектурадир”. [12]

Маънавий ўлчовда “морал иқтисод” ресурслар ва ҳурматнинг бирлиги сифатида талқин қилинади. Э. П. Томпсон бозор нархидан ташқари “ахлоқий нарх” тушунчасини кўрсатган эди, унда адолат, одилона улашув ва ижтимоий одат меъёрлари алмашинувни белгилайди. [13] Джемс С. Скотт бу қарашни деҳқон жамиятларига татбиқ қилиб, “тирикчилик хавфсизлиги”нинг норматив мақомини ёритади. [14] Замонавий шароитда бу, масалан, парвариш меҳнатини кўринарли қилиш, ижтимоий ҳимоя ва меҳнат бозори қоидаларини “шаънни сақловчи” форматда қайта тузишдир. Ангус Дитон эса фаровонликнинг кўрсаткичларини қайта талқин қилиб, “соғлиқ, таълим ва субектив бахт”ни ҳисобга олмасдан камбағалликни тушуниш тор эканини кўрсатади. [15] Ижтимоий-маънавий ислоҳотларнинг стратегик оқими - “қайта тақсимот + эътироф + иштирок” учлигини сиёсий-ҳуқуқий архитектурага маҳкамлашдир. Хиллари Соттам эса давлат хизматларини “ишонч, ҳамкорлик ва фуқароларнинг маънавий кучини уйғотувчи” ҳамжамият дизайнларига кўчиришни амалий кўрсатади. Шундай қилиб, ижтимоий-маънавий методология камбағалликни қисқартиришни рақамий кўрсаткичлардан ташқари “ахлоқий-маданий интеграция” сифатида кўради: сиёсат инсоннинг шаъни ва иштирокини меъёрлаштирмагунча, камбағаллик “кўринмас репродукция”га қайтаверади.

**NATIJALAR (RESULTS)**. Ижтимоий-маънавий ислоҳотлар камбағалликни қисқартириш омили сифатида қаралганда, улар жамиятнинг моддий-иқтисодий тузилишини янгилаш билан бир қаторда ахлоқий нормалар, бирдамлик ва фуқаролик иштирокини қайта тиклашга қаратилган мураккаб ижтимоий жараён сифатида намоён бўлади. Чунки камбағаллик нафақат иқтисодий кўрсаткичларнинг пастлиги, балки инсонларнинг жамиятдаги ишонч, ҳурмат ва имкониятлардан четланиши билан ҳам белгиланади. П. Тоунсенд бу ҳолатни “камбағаллик одамларнинг ижтимоий ҳаётда тўлақонли иштирок этиши учун зарур бўлган ресурслардан мунтазам равишда маҳрум бўлишидир” дея изоҳлаган.

Ижтимоий-маънавий методология нуқтаи назаридан бундай ислоҳотлар камбағалликка қарши курашда шахснинг қадр-қиммати ва ижтимоий ролини қайта тиклашни асосий вазифа сифатида белгилайди. Ю.Хабермаснинг фикрича, “демократик жамиятнинг легитимлиги коммуникатив мулоқотга асосланади, камбағаллик эса одамларни мулоқот ва қарор қабул қилиш жараёнидан четлаштиради”. Шу боис ижтимоий-маънавий ислоҳотларнинг мақсади камбағал қатламларни жамиятдаги қарор қабул қилиш жараёнларига жалб этиш, уларнинг ижтимоий овозини тиклаш ва маънавий интеграцияни мустаҳкамлашдир.

Бундан ташқари, А.Сен “имкониятлар ёндашуви” доирасида шуни таъкидлайдики, “инсоннинг фаровонлиги нафақат моддий даромад билан, балки унинг қандай ҳаёт кечириш имкониятига эга эканлиги билан ўлчанади”. Демак, камбағалликка қарши курашувчи ижтимоий-маънавий ислоҳотлар имкониятларни кенгайтириш, шахснинг эркин танлови ва ижтимоий иштирокини таъминлаш орқали самарали бўлади.

**XULOSA ( CONCLUSION)**. Шу тариқа, ижтимоий-маънавий ўрганиш методологияси асосида ижтимоий-маънавий ислоҳотларнинг структуравий-фунционал вазифалари қуйидагича жамланади: (1) норматив интеграция: ҳалоллик, шафофлик ва эътирофни меъёр сифатида институционаллаштириш; (2) инклюзив имкониятлар архитектураси: ҳуқуқ ва хизматларга тенг кириш, эрта таълим ва соғлиқ орқали қобилиятлар уфқини кенгайтириш; (3) агентликни кучайтириш: тенг имконият ва вакилликни кенгайтирувчи механизмлар; (4) репродуктсион механизмларни узиш: категория жуфтлаштириш ва имкониятларни ёпиш каби амалиётларни норматив-ҳуқуқий чоралар билан чеклаш; (5) фаровонликни кўп ўлчовли индекс сифатида қабул қилиш: ижтимоий капитал ва табиат капиталини ҳисобга олган барқарорлик мезони. Натижада, камбағалликни қисқартириш – бу шунчаки трансферлар сиёсати эмас, балки жамиятнинг ахлоқий семантикасини адолат, эътироф ва иштирок йўналишида қайта созлайдиган ижтимоий-маънавий трансформациядир.

## ADABIYOTLAR ROʻYXATI ( REFERENCES)

1. Nematova D.T. Oʻzbekistonda kambagʻallikni qisqartirishning sotsial omillari. – Toshkent: Oila va gender ITI, 2024. – B. 7.
2. Acemoglu D., Robinson J. Why Nations Fail: The Origins of Power, Prosperity, and Poverty. – New York: Crown, 2012. – 529 p. – B. 74.
3. De Soto H. The Mystery of Capital: Why Capitalism Triumphs in the West and Fails Everywhere Else. – New York: Basic Books, 2000. – 276 p. – B. 39.
4. Freire P. Pedagogy of the Oppressed. – 30th Anniv. ed. – New York: Continuum, 2000. – 183 p. – B. 66.
5. Beck U. Risk Society: Towards a New Modernity. – London: Sage, 1992. – 260 p. – B. 22.
6. Walzer M. Spheres of Justice: A Defense of Pluralism and Equality. – New York: Basic Books, 1983. – 345 p. – B. 7, 19.
7. Taylor C. “The Politics of Recognition” // Multiculturalism: Examining the Politics of Recognition. – Princeton: Princeton University Press, 1994. – 112 p. – B. 25–26.
8. Lin N. Social Capital: A Theory of Social Structure and Action. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001. – 278 p. – B. 19–21.
9. Scott J. C. Seeing Like a State: How Certain Schemes to Improve the Human Condition Have Failed. – New Haven: Yale University Press, 1998. – 445 p. – B. 6–7.
10. Stiglitz J. Globalization and Its Discontents. – New York: W. W. Norton, 2002. – 282 p. – B. 134–136.
11. Rodrik D. One Economics, Many Recipes: Globalization, Institutions, and Economic Growth. – Princeton: Princeton University Press, 2007. – 280 p. – B. 4–6.
12. Thompson E. P. The Moral Economy of the English Crowd in the Eighteenth Century // Past & Present. – 1971. – No. 50. – P. 76–136. – B. 79–80.
13. Scott J. C. The Moral Economy of the Peasant: Rebellion and Subsistence in Southeast Asia. – New Haven: Yale University Press, 1976. – 246 p. – B. 3–5.
14. Deaton A. The Great Escape: Health, Wealth, and the Origins of Inequality. – Princeton: Princeton University Press, 2013. – 360 p. – B. 45–47.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 6 Issue: 02 | 2026
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

*Nigorakhon Mominjon qizi Gopporova*

Kokand University Department of Phylology
Email: nigoragofforova7@gmail.com
https://orcid.org/0009-0004-5685-6980

*Received 4th February 2026, Accepted 10th April 2026, Online 30th June 2026*

## ERKAK VA AYOL NUTQIDA XUSHMUOMALALIK KONSEPTINING LINGVOPRAGMATIK TADQIQI

**Annotatsiy.** Ushbu maqolada xushmuomalalik konseptining erkaklar va ayollar nutqida namoyon boʻlish xususiyatlari lingvopragmatik nuqtai nazardan tizimli tahlil qilinadi. Tadqiqot besh yillik davrni qamrab olgan empirik materiallar ($n = 300$ muloqot birligi) asosida, aralash metodlar (mixed methods) dizayni doirasida olib borildi. Ishning ilmiy yangiligi gender muloqotida xushmuomalalik vositalarining lingvopragmatik va sotsiolingvistik sathlararo korrelyatsiyasini ilk bor yaxlit tizim sifatida oʻrganganligidadir. Natijalar shuni koʻrsatdiki, ayollar nutqi koʻproq leksik gajlar, hamkorlikni ta'minlovchi ritorik savollar va intensivizatorlar bilan toʻyingan boʻlsa, erkaklar nutqida epistemic modallik va funksional qat'iylik ustunlik qiladi. Maqolada xushmuomalalik vositalarining tarixiy evolyutsiyasi, gender asimmetriyasi hamda mitigatsiya modellarining sotsiopragmatik ulushi batafsil tahlil qilingan.

**Kalit soʻzlar:** xushmuomalalik, gender lingvistikasi, lingvopragmatika, mitigatsiya, gajlar, ritorik soʻroqlar, sotsiolingvistik asimmetriya.

## ЛИНГВОПРАГМАТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПОНЯТИЯ ВЕЖЛИВОСТИ В РЕЧИ МУЖЧИН И ЖЕНЩИН

**Аннотация.** Данное исследование представляет собой систематический лингвопрагматический анализ того, как понятие вежливости проявляется в речи мужчин и женщин. Используя эмпирический набор данных, собранный в течение пятилетнего лонгитюдного периода (n = 300 единиц взаимодействия), исследование применяет смешанный метод для отслеживания операциональных переменных гендерного дискурса. Научная новизна этого исследования заключается в его новаторской, интегрированной лингвопрагматической структуре, которая напрямую связывает гендерные маркеры взаимодействия в речи с социолингвистическими уровнями. Результаты показывают, что в речи женщин наблюдается более высокая плотность лексических хедж-фраз, коллаборативных вопросительных конструкций и эмоциональных усилителей, в то время как в речи мужчин преобладают эпистемические модальные глаголы и функциональная, информационно-ориентированная структурная напористость. В статье подробно рассматривается историческая эволюция гендерной вежливости, исследуются систематические социолингвистические асимметрии и оценивается доля смягчающих средств в социальном взаимодействии.

**Ключевые слова:** вежливость, гендерная лингвистика, лингвопрагматика, смягчение, хеджирование, вопросительные конструкции, социолингвистическая асимметрия.

*International Journal of Intellectual and Cultural Heritage*
*Volume: 6 Issue: 02 | 2026*
*ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314*
*http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich*

# A LINGUOPRAGMATIC ANALYSIS OF THE CONCEPT OF POLITENESS IN MALE AND FEMALE SPEECH

**Abstract.** This study provides a systematic linguopragmatic analysis of how the concept of politeness is manifested in male and female speech. Utilizing an empirical dataset gathered over a five-year longitudinal window ($n = 300$ interactional units), the research adopts a mixed-methods design to trace the operational variables of gendered discourse. The scientific novelty of this study lies in its pioneering, integrated linguopragmatic framework that links gendered interactional speech markers directly with sociolinguistic layerings. The findings reveal that female speech exhibits a higher density of lexical hedges, collaborative tag questions, and emotional intensifiers, whereas male speech heavily favors epistemic modals and functional, information-oriented structural assertiveness. The paper details the historical evolution of gendered politeness, explores systematic sociolinguistic asymmetries, and evaluates the distributional share of mitigating devices in social interaction.

**Keywords:** politeness, gender linguistics, linguopragmatics, mitigation, hedges, tag questions, sociolinguistic asymmetry.

## Introduction

### 1.1 Relevancy of the Study

The exploration of linguistic politeness has transitioned from abstract philosophical formulations to highly nuanced empirical examinations within cognitive, sociolinguistic, and pragmatic frameworks. Politeness is no longer considered a fixed set of etiquette rules; rather, it is understood as a dynamic system of interactional strategic alignment used to navigate interpersonal distance, mitigate face-threatening actions, and establish social solidarity[^1]. Within contemporary gender linguistics, analyzing how biological sex and sociological gender orientation shape the selection, frequency, and structural choice of politeness devices remains a key challenge.

Understanding gendered politeness patterns yields critical insights into structural sociology and the linguistic construction of identity. It illuminates how power dynamics, emotional investment, and relational harmony are negotiated differently by male and female speakers. Consequently, a comprehensive investigation into these speech markers is vital for advancing modern cross-cultural communication frameworks, discourse analysis, and sociolinguistic theory.

### 1.2 Literature Review and Extant Gap

The analytical baseline for gendered speech variations was largely introduced by Lakoff, whose foundational work hypothesized that women's language inherently displays a higher frequency of mitigating parameters, such as tag questions, lexical hedges, and hyper-correct grammar, which she interpreted as markers of social insecurity[^2]. This early deficit-oriented model was later challenged by cultural dominance and difference frameworks. Tannen reframed these differences, suggesting that women communicate within a paradigm of connection and intimacy (rapport-talk), whereas men operate within an institutional framework of status and independence (report-talk)[^3].

From a pragmatic perspective, Holmes demonstrated that women use politeness devices, particularly positive politeness markers and compliments, more frequently than men because they view them as crucial tools for building solidarity and keeping social connections smooth[^4]. Within the context of national linguistic scholarship, deep systematic investigations into structural and semantic categories have traced how semantic modifications align with broad grammatical configurations across differing language systems[^5].

Despite these vital contributions, current literature exhibits three critical gaps:

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 6 Issue: 02 | 2026
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

1. **The Absence of Integrated Multilevel Analyses:** Most studies isolate a single structural layer (e.g., lexical choices or tag questions) without exploring how these layers interact across lexical, syntactic, and pragmatic levels within a single cohesive framework.
2. **A Lack of Longitudinal Empirical Frameworks:** Much of the existing literature relies on short-term intuition tests or isolated literary excerpts, highlighting a need for systematic data collected over an extended timeframe.
3. **Insufficient Focus on Modern Pragmatic Shifts:** There is a distinct lack of research analyzing how historical patterns of gendered politeness adapt to contemporary, fast-paced interactional settings.

### 1.3 Research Objectives and Tasks

To address these gaps, this study achieves the following research objectives:

1. To isolate and identify the primary linguistic devices used to express politeness in male and female speech across multiple language levels.
2. To calculate the exact distribution and quantitative share of mitigating devices and hedges across both genders within a controlled five-year dataset.
3. To trace the historical evolution of gendered politeness, contextualizing past structural inequalities against modern interpersonal dynamics.

## Methodology

### 2.1 Research Design and Core Dataset ($n = 300$)

This study utilizes an explanatory sequential mixed-methods design. Quantitative corpus-driven distribution tracking is followed by qualitative conversational micro-analysis to uncover the communicative intents behind the observed patterns. The empirical data spans a **five-year longitudinal window**, capturing stable language habits while remaining sensitive to recent pragmatic adaptations.

The finalized sample consists of **$n = 300$ high-density conversational units** divided equally between male ($n = 150$) and female ($n = 150$) speakers. A conversational unit is defined as a continuous interactive sequence containing at least one clear Face-Threatening Act (FTA), such as a directive, disagreement, or critique, where politeness and mitigation strategies were required to manage interpersonal face.

### 2.2 Data Sources and Instruments

The research drew its linguistic samples from two main sources:

1. **Spoken Discourse Repositories:** Transcripts of authentic talk, institutional negotiations, panel discussions, and media interviews where speaker identities were clearly verifiable.
2. **Modern Literated Prose and Interactive Dialogue Systems:** Validated text corpora containing realistic conversational sequences reflecting natural speech practices.

### 2.3 Coding Procedures and Analytical Variables

Each of the 300 communicative segments was isolated and manually coded across three main linguistic levels to observe how politeness markers are distributed across different layers of language: The data was analyzed statistically using chi-square ($\chi^2$) tests to establish the mathematical significance of gender-based variations across the five-year period. The quantitative patterns were then paired with a qualitative review of the socio-cultural contexts surrounding the interactions.

## Results

### 3.1 Quantitative Mapping of Politeness Components

The empirical data shows deep structural differences in how male and female speakers organize polite communication. Women rely heavily on lexical hedges and collaborative syntactic patterns to

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 6 Issue: 02 | 2026
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

build rapport. Men, on the other hand, use fewer mitigating particles, preferring to anchor their politeness in formal epistemic expressions that maintain personal space and structural distance.

The quantitative distribution of these components across the five-year dataset is outlined in the table below:

| Linguistic Layer | Specific Politeness Device | Female Speech (n=150) | Male Speech (n=150) | Main Pragmatic Focus |
|---|---|---|---|---|
| **Lexical** | Lexical Hedges (*sort of*, *maybe*) | $42\%$ | $18\%$ | Softening propositional force |
| **Lexical** | Epistemic Modals (*I think*, *certainly*) | $21\%$ | $39\%$ | Modifying commitment levels |
| **Lexical** | Intensifiers (*so*, *very*, *absolutely*) | $38\%$ | $14\%$ | Enhancing positive solidarity |
| **Syntactic** | Collaborative Tag Questions | $31\%$ | $9\%$ | Inviting interlocutor consensus |
| **Syntactic** | Complex Conditional Inversion | $16\%$ | $28\%$ | Establishing formal distance |
| **Pragmatic** | Indirect Directives / Softened FTAs | $52\%$ | $26\%$ | Protecting negative face |

**3.2 Interlevel Structural Asymmetry**

The findings demonstrate a clear structural asymmetry between the genders. In female speech, politeness markers are distributed regularly throughout the entire utterance, creating an ongoing tone of solidarity and connection. In contrast, male speech tends to cluster its politeness devices at the edges of the utterance—typically at the very beginning or end—leaving the core of the message highly direct and focused on information delivery.

$$\text{Female Utterance Style: } [\text{Hedge}] \longrightarrow [\text{Softened Core}] \longrightarrow [\text{Intensifier}] \longrightarrow [\text{Tag Question}]$$

$$\text{Male Utterance Style: } [\text{Epistemic Shield}] \longrightarrow \mathbf{[\text{Highly Assertive Informational Core}]} \longrightarrow [\text{Formal Suffix/Clitic}]$$

This variation shows that while both genders use politeness strategies, their underlying structural approaches are guided by fundamentally different communicative priorities.

**Discussion**

### 4.1 Multi-Level Analysis of Linguistic Strata

#### The Lexical Stratum

The data reveals that female speakers regularly deploy **lexical hedges** (e.g., *"sort of"*, *"kind of"*, *"perhaps"*) to lower the factual assertiveness of their claims. This behavior should not be misread as a sign of cognitive uncertainty or an epistemic deficit. Rather, it functions as a highly cooperative, proactive pragmatic tool designed to open up conversational space for the listener. By presenting a claim as a flexible perspective rather than an absolute truth, the speaker lowers the stakes of the interaction and invites collaboration.

Conversely, male speakers utilize **epistemic modals** (e.g., *"I believe"*, *"evidently"*, *"strictly speaking"*) to define the exact boundaries of their personal commitment to the statement. This approach prioritizes professional detachment over shared emotional alignment. Furthermore, women's frequent use of **intensifiers** (*"so grateful"*, *"absolutely lovely"*) shows a clear preference for positive politeness strategies that actively build social warmth and connection.

#### The Syntactic Stratum

At the syntactic level, the sharp difference in the use of **collaborative tag questions** remains a defining gender marker. Our qualitative analysis indicates that when a female speaker appends a tag question to an utterance (e.g., *"We should adjust this timeline, shouldn't we?"*), the device serves a clear facilitative function. It acts as an open invitation for consensus, drawing the listener into the decision-making loop to maintain group cohesion.

In contrast, when male speakers use tag questions, they occur far less frequently and are typically structured with a falling intonation. This turns the tag into a confirmatory or informational check rather than an invitation to collaborate (e.g., *"The database update is complete, right?"*). Men also show a clear preference for complex conditional structures to create professional distance, keeping the interaction formal and protecting individual space.

#### The Pragmatic Stratum

Pragmatically, female speech shows a much higher reliance on **indirect speech acts**. When delivering critiques or instructions, women regularly frame directives as interrogatives or shared suggestions (*"Could we perhaps look over the figures one more time?"*). This approach shields the listener's negative face by masking the underlying power dynamic.

Male speakers, by contrast, favor direct speech acts paired with formal epistemic modifiers (*"Clearly, these figures require a re-examination"*). This strategy emphasizes message clarity and transactional efficiency, treating structural indirectness as a potential source of ambiguity rather than a polite necessity.

### 4.2 Historical Evolution and Sociopragmatic Dynamics

The historical development of gendered politeness reveals a clear transition from rigid institutional role expectations to fluid, context-dependent communication strategies. Historically, differences in male and female speech were shaped by uneven social structures: women were largely restricted to private domestic spheres where collaborative, face-preserving strategies were essential for navigating limited social authority, while men dominated public institutional arenas where directness and assertions of status were systemic norms[^6].

Our five-year dataset shows that these traditional boundaries are shifting in contemporary discourse. As women increasingly step into high-level institutional and leadership roles, their use of politeness strategies is evolving. Rather than abandoning collaborative methods, modern female leaders often blend traditional rapport-building techniques with tactical, direct assertions of authority.

At the same time, younger male professionals are gradually incorporating more lexical hedges and collaborative markers into their speech, responding to a growing workplace emphasis on emotional intelligence and teamwork. This cross-generational shift demonstrates that gendered politeness styles

are not fixed biological traits; instead, they are adaptable tools that evolve alongside changing social environments.

### 4.3 Limitations and Practical Implications

A key limitation of this study is its reliance on structured spoken and written corpus repositories, which may underrepresent the informal, rapid communication styles typical of online spaces, such as instant messaging and social media networks. Additionally, the sample size ($n = 300$) limits the ability to map out subtle regional dialect variations.

Practically, however, this integrated linguopragmatic analysis offers immediate value for several fields:

1. **Professional Communications Training:** Helping corporate teams understand varied politeness styles to minimize misunderstandings between coworkers.
2. **Cross-Cultural Translation and Media Studies:** Providing translators with a clearer framework for mapping gendered nuances accurately between languages without relying on crude stereotypes.
3. **Computational Linguistics and Artificial Intelligence:** Assisting in training Conversational AI systems and Large Language Models (LLMs) to recognize and generate diverse politeness patterns, allowing for more natural, inclusive, and context-aware user interactions.

## Conclusion

### 5.1 Main Findings Summary

This longitudinal research project ($n = 300$) provides a detailed look at how politeness operates across male and female speech. The study demonstrates that gendered politeness is a multi-layered linguistic practice: female speakers rely on evenly distributed lexical hedges, intensifiers, and facilitative tag questions to foster shared solidarity and connection, while male speakers utilize clustered epistemic shields and conditional structures to maintain informational clarity and professional distance. The research also highlights the historical flexibility of these speech markers, proving that they shift over time as social structures and professional roles evolve.

### 5.2 Recommendations for Future Research

To build on these insights, subsequent investigations should focus on the following core areas:

1. **Digital and Synchronous Chat Environments:** Exploring how gendered politeness adapts in short-form digital communication, specifically looking at how punctuation, shorthand, and emojis are used as tools for mitigation and rapport-building.
2. **Cross-Cultural Comparative Frameworks:** Comparing gendered politeness markers across languages with vastly different morphological structures, such as contrasting analytical and agglutinative systems.
3. **Experimental Acoustic Pragmatics:** Analyzing how pitch, intonation shifts, and pause patterns interact with lexical choices to change the perceived politeness of male and female speakers in real time.

## References

1. Brown, P., & Levinson, S. C. (1987). *Politeness: Some universals in language usage*. Cambridge University Press.
2. Caffi, C. (2007). *Mitigation*. Elsevier Science.
3. Cameron, D. (1992). *Feminism and linguistic theory* (2nd ed.). Palgrave Macmillan.

4. Cameron, D. (2007). *The myth of Mars and Venus: Do men and women really speak the same language?*. Oxford University Press.
5. Coates, J. (2015). *Women, men and language: A sociolinguistic account of gender differences in language* (3rd ed.). Routledge.
6. Eckert, P., & McConnell-Ginet, S. (2013). *Language and gender* (2nd ed.). Cambridge University Press.
7. Fraser, B. (1980). Conversational mitigation. *Journal of Pragmatics*, 4(4), 341-350. https://doi.org/10.1016/0378-2166(80)90029-6
8. Fraser, B. (1990). Perspectives on politeness. *Journal of Pragmatics*, 14(2), 219-236. https://doi.org/10.1016/0378-2166(90)90081-N
9. Gu, Y. (1990). Politeness phenomena in modern Chinese. *Journal of Pragmatics*, 14(2), 237-257. https://doi.org/10.1016/0378-2166(90)90082-O
10. Holmes, J. (1984). Hedging your bets and sitting on the fence: Some hedges in women's speech. *Te Reo*, 27, 47-62.
11. Holmes, J. (1995). *Women, politeness and language*. Longman.
12. Hoshimov, G‘. M. (2001). *Qiyosiy-tipologik tilshunoslik asoslari* [Fundamentals of comparative-typological linguistics]. Farg‘ona.
13. Ide, S. (1989). Formal forms and discernment: Two neglected aspects of universals of linguistic politeness. *Multilingua*, 8(2-3), 223-248. https://doi.org/10.1515/mult.1989.8.2-3.223
14. Lakoff, R. (1973). Language and woman's place. *Language in Society*, 2(1), 45-80.
15. Lakoff, R. (1975). *Language and woman's place*. Harper & Row.
16. Leech, G. N. (1983). *Principles of pragmatics*. Longman.
17. Leech, G. N. (2014). *The pragmatics of politeness*. Oxford University Press.
18. Mahmudov, N. M. (1992). *O‘zbek nutqi madaniyati asoslari* [Fundamentals of Uzbek speech culture]. O‘qituvchi.
19. Mills, S. (2003). *Gender and politeness*. Cambridge University Press.
20. Ochs, E. (1992). Indexing gender. In A. Duranti & C. Goodwin (Eds.), *Rethinking context: Language as an interactive phenomenon* (pp. 335-358). Cambridge University Press.
21. Shahobiddinova, Sh. S. (2014). *O‘zbek tilida modallik va pragmatik kategoriyalar munosabati* [Relationship between modality and pragmatic categories in the Uzbek language]. Fan.
22. Tannen, D. (1990). *You just don't understand: Women and men in conversation*. William Morrow & Co.
23. Tannen, D. (1994). *Talking from 9 to 5: Women and men in the workplace: Language, sex, and power*. William Morrow & Co.
24. Thomas, J. (1983). Cross-cultural pragmatic failure. *Applied Linguistics*, 4(2), 91-112. https://doi.org/10.1093/applin/4.2.91
25. To‘rayeva, U. R. (2021). *O‘zbek etnopragmatikasida andisha konseptining lisoniy-madaniy xususiyatlari* [Linguistic and cultural characteristics of the concept of "andisha" in Uzbek ethnopragmatics] (Doctoral dissertation abstract, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature).
26. Watts, R. J. (2003). *Politeness*. Cambridge University Press.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 6 Issue: 02 | 2026
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

**Muratova Dildora Abdumanapovna**

Sarbon universiteti Ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasi v.b. professori
Falsafa fanlari doktori (DSc)
Email: muratovadildora959@gmail.com

*Received 4th February 2026, Accepted 10th April 2026, Online 30th June 2026*

## JAMIYATDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI SAQLASHDA INSON OMILI MASALALARI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada inson endi faqatgina biluvchi, kuzatuvchi subyekt bo‘libgina qolmay, balki atrof-muhitni va butun dunyoni o‘z talablari va ehtiyojlariga muvofiq faol o‘zgartirishga qodir bo‘lgan olimga aylanadi. Bu esa insoniyatga tabiat ustidan yanada ko‘proq nazorat o‘rnatish imkonini berdi. Natijada, odamzot tabiatni nafaqat o‘rganadigan, balki uni o‘z manfaatlari yo‘lida o‘zgartira oladigan kuchli mavjudot sifatida o‘zini anglay boshladi. Bu yangi qarash ilmiy-texnik taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylanganligi haqidagi masalalrga to‘xtalgan..

**Kalit so‘zlar:** inson, tabiat, madaniyat, g‘oya, ilmiy-texnik, zamonaviy, konsepsiya, tabiiy, etika.

## ПРОБЛЕМЫ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО ФАКТОРА В СОХРАНЕНИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ УСТОЙЧИВОСТИ В ОБЩЕСТВЕ

**Аннотация.** В данной статье рассматривается положение о том, что человек перестаёт быть лишь познающим и наблюдающим субъектом и превращается в активного деятеля, способного преобразовывать окружающую среду и весь мир в соответствии со своими требованиями и потребностями. Это предоставило человечеству возможность устанавливать всё более широкий контроль над природой. В результате человек начал осознавать себя не только как существо, изучающее природу, но и как мощную силу, способную изменять её в собственных интересах. В статье также уделяется внимание вопросам, связанным с тем, что данное новое мировоззрение стало основной движущей силой научно-технического прогресса.

**Ключевые слова:** человек, природа, культура, идея, научно-технический, современный, концепция, природный, этика.

## PROBLEMS OF THE HUMAN FACTOR IN PRESERVING ECOLOGICAL SUSTAINABILITY IN SOCIETY

**Abstract.** This article examines the idea that human beings are no longer merely cognitive and observational subjects but are transforming into active agents capable of reshaping the environment and the entire world in accordance with their needs and demands. This has provided humanity with the opportunity to establish an increasingly broad control over nature. As a result, humans have begun to perceive themselves not only as beings who study nature, but also as a powerful force capable of transforming it in their own interests. The article also addresses issues related to the fact that this new worldview has become the main driving force of scientific and technological progress.

**Keywords:** human being, nature, culture, idea, scientific and technological, modern, concept, natural, ethics.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 6 Issue: 02 | 2026
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

**Kirish.** XXI asrga kelib insoniyat texnologik taraqqiyotning cho'qqisiga erishgan bo'lsa-da, ayni paytda global ekologik inqirozlar yoqasida turibdi. Sayyoramizdagi iqlim o'zgarishlari, bioxilma-xillikning kamayishi, suv va havo havzalarining ifloslanishi kabi muammolar endilikda shunchaki tabiat hodisasi emas, balki bevosita inson faoliyatining oqibati ekanligi hech kimga sir emas. Shu bois, bugungi kunda jamiyatda ekologik barqarorlikni ta'minlash nafaqat davlatlararo bitimlar yoki iqtisodiy cheklovlar, balki bevosita inson omili — uning dunyoqarashi, madaniyati va mas'uliyatiga borib taqalmoqda. Ushbu tadqiqot ishining dolzarbligi shundaki, tabiat va jamiyat o'rtasidagi muvozanatni tiklashda insonni shunchaki resurslardan foydalanuvchi emas, balki ekologik barqarorlikni boshqaruvchi va asrab-avaylovchi asosiy kuch sifatida qayta kashf etish zarurati tug'ilmoqda. Zero, har qanday huquqiy yoki iqtisodiy islohotlar jamiyat a'zolarining ekologik ongi va madaniyati yuksalmagan joyda samarasiz bo'lib qolaveradi.

Insonni atrof-muhitdan ayro tasavvur qilishdagi eng muhim va asosiy bosqich monoteizmning, ya'ni yakka xudolikning paydo bo'lishi va asta-sekin keng miqyosda tarqalishi bilan bog'liq. Bu jarayon insoniyat tarixida tub burilish yasagan voqealardan biri hisoblanadi. G'arb madaniyatiga nasroniylikning faol va izchil joriy etilishi, xristian dunyoqarashi to'liq ustunlik qilgan o'rta asr ong tipining ming yildan ortiq davom etgan hukmronligiga sabab bo'ldi. Bu davr mobaynida odamlarning tafakkuri va dunyoqarashi to'liq diniy e'tiqodlar asosida shakllandi.

**Asosiy qism.** Insonning eng asosiy va birlamchi vazifasi, tegishlicha, Yaratganga sodiqona xizmat qilish edi, U yaratgan moddiy dunyoga emas. Bu qarash insoniyat ongida chuqur ildiz otdi va kundalik hayotning barcha jabhalariga o'z ta'sirini o'tkazdi. Olimlarning fikricha "o'rta asrlarda tabiiy-ilmiy bilimlarga nisbatan salbiy munosabat, shuningdek, jamiyat va inson haqidagi barcha bilimlar tizimining faqatgina diniy qoidalardan kelib chiqishi o'tgan davrning ko'plab qimmatli ilmiy yutuqlarining dogmatizatsiyasiga va tabiiy fanlarning jiddiy inqiroziga olib keldi. Bu holat ilm-fan taraqqiyotini ancha vaqtga to'xtatib qo'ydi"[1:8].

Biroq, o'sha davrning diniy mutafakkirlari ma'lum bir ekologik dunyo tasvirini o'zlaricha shakllantirishga harakat qildilar va bu borada turli nazariyalarni ilgari surdilar – "mashhur katolik faylasufi Akvinalik Foma o'zining asarlarida o'simliklar va hayvonlar o'zlari uchun emas, balki faqatgina inson uchun mavjud deb qat'iy e'lon qildi. U hayvonlar aqlsiz maxluqlar bo'lgani uchun, ularga nisbatan rahm-shafqat qilish noto'g'ri va nojoiz deb hisobladi. Uning bu kabi inson markazli, ya'ni antropotsentrik g'oyalari faqatgina XX asrga kelibgina jiddiy shubha ostiga olina boshladi va tanqidiy muhokama qilindi"[2:6].

Bunday qarashlar va fikrlar zamonaviy ekologik muammolarning kelib chiqishida diniy omilning ustunligi haqidagi tasavvurlarning keng tarqalishi va rivojlanishiga sabab bo'lishi mumkin. Ammo bu qarash, yuqorida ta'kidlanganidek, masalaning mohiyatini to'liq ochib bera olmaydigan asossiz soddalashtirishdir. Chunki ekologik muammolarning ildizi ancha chuqur va murakkab bo'lib, ularni faqat bitta omil bilan izohlash mumkin emas. Jamiyatning tabiatdan uzoqlashishining keyingi muhim bosqichi fanlarning jadal rivojlanishi va Yangi davr falsafasining chuqur ratsionalistik ta'limotlari, ya'ni klassik ratsionallik idealining keng miqyosda gullab-yashnashi bilan bevosita bog'liq. Bu davrda ilmiy bilimlar tizimi tubdan o'zgarib, tabiatni o'rganishga bo'lgan yondashuv ham yangicha tus oldi. Ayniqsa, tabiiy fanlarning rivojlanishi insonning tabiatga bo'lgan munosabatini sezilarli darajada o'zgartirdi.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 6 Issue: 02 | 2026
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Inson o‘zini bu faoliyat uchun yetarli darajada malaka va bilimga ega deb hisoblab, o‘z “uyi”, ya’ni atrof-muhitni obodonlashtirish va qayta qurishni mustaqil ravishda hal qila boshladi. Bu jarayon insonning tabiatga bo‘lgan munosabatida tub burilish yasadi va uning tabiat ustidan hukmronlik qilish istagini yanada kuchaytirdi.

“Falsafiy ensiklopedik lug‘at”da ko‘rsatilganidek, “O‘rta asr falsafasi va diniy dogmatizmga qarama-qarshi o‘laroq, klassik ratsionalizm buyuk mutafakkirlar Rene Dekart, Benedikt Spinoza, Gotfrid Leybnis timsolida butun dunyoni qamrab oluvchi cheksiz sabab-oqibat zanjiri - tabiiy tartib g‘oyasidan kelib chiqqan”[3:840]. Bu faylasuflarning har biri o‘z asarlarida tabiat qonunlarini ratsional anglash va tushuntirish imkoniyatlarini asoslashga harakat qildilar.

Yangi davrda ratsionalizm vakillari insonning bilish faoliyati jarayonida olingan bilimlarning xolisligi va haqqoniyligi haqidagi murakkab gnoseologik masalani hal qilishga jiddiy urindilar. Ular inson aqli va tafakkurining imkoniyatlariga yuksak baho berdilar va bilimlarning ishonchliligini isbotlashga intildilar. Bu esa ilmiy bilishning yangi usullarini rivojlantirishga turtki bo‘ldi. Inson, ratsional faoliyatga qodir va aql-idrokli mavjudot sifatida, tabiatni chuqur idrok etadi va kuzatilayotgan tabiiy qonuniyatlar bo‘yicha muhim ilmiy xulosalar chiqaradi. Bu jarayonda u tabiatni o‘rganish obyektiga aylantirib, uning sir-asrorlarini ochishga intiladi. Bu davrning ko‘pchilik mashhur faylasuflari tabiatni faqatgina “Xudo tomonidan insonga bilish, o‘rganish va o‘z manfaatlari yo‘lida o‘zgartirish uchun berilgan oddiy obyekt, xolos” deb hisoblaydilar. Bunday qarash tabiatga nisbatan iste’molchilik munosabatining shakllanishiga zamin yaratdi va keyinchalik ekologik muammolarning kelib chiqishiga sabab bo‘ldi.

Masalan, buyuk faylasuf Dekart o‘zining falsafiy qarashlarida ikki asosiy substansiyani – “tabiat” va “ruh”ni bir-biriga qarama-qarshi qo‘yadi, bunda u birinchisini faqatgina bilish va foydalanish obyekti sifatida talqin qiladi. Bu qarama-qarshilik uning butun falsafiy tizimining asosini tashkil etadi va keyingi falsafiy fikrlar rivojiga katta ta’sir ko‘rsatdi.

Dekartning fikricha, moddiy dunyoning jismlari “sezgi organlari va tasavvur qilish qobiliyati orqali emas, balki faqat aql-idrok bilangina anglanadi”. U hissiy bilishning ishonchliligini shubha ostiga olib, ratsional bilishning ustunligini ta’kidlaydi. Bu g‘oya ilmiy metodologiyaning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etdi.

Dunyo faylasufga o‘ziga xos murakkab mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi, unda har bir elementga aniq va ma’lum bir ahamiyat berilgan: insonga ratsional mavjudot sifatida - olim roli, tabiatga esa - ilmiy izlanishlar olib borish uchun muhit roli yuklatilgan. Bu mexanistik dunyoqarash tabiatni o‘rganishga yangicha yondashuvni keltirib chiqardi va tabiiy fanlarning rivojlanishiga zamin yaratdi. Biroq, Dekart insonning moddiy tabiatni bilishi cheklangan ekanligini tan oladi, chunki u xato mulohazalardan va yanglish xulosalardan xoli emas. Uning ta’kidlashicha: “Biz, inson hayoti alohida holatlarda ko‘pincha xatolarga duch kelishini tasdiqlab, o‘z mavjudligimizning zaifligini tan olishga majburmiz”[4:157]. Bu e’tirof inson bilimining nisbiyligini va cheklanganligini ko‘rsatadi.

Dekart nuqtayi nazaricha, faqat Xudoni anglash va uni mukammal zot deb tan olish orqaligina to‘liq va mutlaq haqiqatni bilish mumkin. Faylasuf Xudoni barcha bilimlarning asosi va kafolati sifatida ko‘radi, chunki faqat U orqali inson aniq va ravshan g‘oyalarga ega bo‘la oladi. Shu tariqa, Dekart ratsionalizmni ilohiy asos bilan bog‘lashga harakat qiladi va bu orqali o‘z falsafiy tizimini mustahkamlaydi.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 6 Issue: 02 | 2026
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Ko‘pchilik falsafa tarixchilari Spinozani naturfaylasuf deb hisoblaydilar, chunki u insonni tabiatning ajralmas bir qismi sifatida chuqur talqin qilgan. Uning falsafiy tizimida tabiat va inson o‘rtasidagi munosabat markaziy o‘rinni egallaydi. Biroq, ayni paytda, Spinoza tana va ruhni substansiyaning ikki atributi ontologik mustaqilligi tufayli o‘zaro bog‘liq emas deb hisoblagan. Bu qarash uning falsafasida muhim o‘rin tutib, keyingi davr falsafiy fikriga katta ta’sir ko‘rsatgan.

Spinoza etikaning asosiy tushunchasi sifatida faoliyati faqat aql bilan belgilanadigan “erkin inson” konsepsiyasini ilgari surgan va uni batafsil asoslab bergan. Uning fikricha, inson aql orqali o‘z ehtiroslarini boshqara oladi va haqiqiy erkinlikka erisha oladi. Bu erkinlik ratsional tafakkur orqali namoyon bo‘ladi va insonning oliy maqsadi hisoblanadi.

Ammo bugungi kunda dolzarb savol tug‘iladi: sof ratsionallik nuqtayi nazaridan atrof-muhitga ta’sirning uzoq muddatli oqibatlarini oldindan aniq ko‘ra bilish mumkinmi? Insonning aqliy qobiliyatlari tabiiy jarayonlarning murakkab tizimini to‘liq anglash uchun yetarlimi? Zamonaviy sinergetik paradigma doirasida bu masala yetarlicha shubhali ko‘rinadi, chunki tabiiy tizimlarning o‘ta murakkabligi va ko‘p omilli bog‘liqligi ularning rivojlanishini aniq bashorat qilish imkoniyatini cheklaydi.

Gobbs o‘z fundamental falsafiy ta’limotida ilmiy bilimlarni tizimlashtirishga alohida e’tibor qaratib, tabiat haqidagi fanlarni matematika (geometriya va boshqalar) kabi sof fanlar qatoriga kiritmaydi. Buning o‘rniga, u bu boshqa fanlarni amaliy, garchi matematik xususiyatga ega bo‘lmasa-da (musiqa kabi), fanlar toifasiga kiritadi. Bunday tasniflash uning bilish nazariyasida muhim ahamiyat kasb etadi va fanlarning tabiatini tushunishda yangi yo‘nalish ochib beradi. Ehtimol, aynan mana shu falsafiy qarashlari tufayli ba’zi zamonaviy ekofaylasuflar, Charlz Konan va Syuzann Foste Gobbsning g‘oyalarini tanqidiy nuqtayi nazardan ko‘rib chiqadilar. Ular Gobbs ekologiyani “yashirin va hech qachon ayon bo‘la olmaydigan narsalar haqidagi fan” sifatida noto‘g‘ri tushunishga asos solgan deb hisoblaydilar[5:412]. Bu tanqidiy qarash ekologiya fanining mohiyatini tushunishda muhim ahamiyat kasb etib, uning metodologik asoslarini qayta ko‘rib chiqishga turtki bo‘lmoqda.

Buyuk nemis faylasufi Immanuil Kant, aqlga nafaqat tabiiy fanlarda, “balki insonning tabiat qonunlaridan mustaqilligi haqidagi fan bo‘lmish etikada ham” ishonish mumkin deb hisoblagan. Uning bu qarashi inson aqlining imkoniyatlariga bo‘lgan chuqur ishonchni ifodalaydi va falsafiy tafakkurda muhim burilish yasagan. Bundan tashqari, Kantning ta’kidlashicha, tabiiy fan “hech qachon narsalarning ichki mazmunini, ya’ni hodisa bo‘lmasa-da, hodisalarni tushuntirishda oliy asos bo‘lib xizmat qila oladigan narsani ocha olmaydi”[6:254]. Kantning fikricha, axloqiy qoidalar - bu aqlning mulki, chunki u tajribadan mustaqildir. Bu qarash uning butun falsafiy tizimida markaziy o‘rinni egallaydi va axloqiy qonun-qoidalarning universal tabiatini tushuntiradi.

Ko‘plab zamonaviy ekoetiklar Kantning g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlab, ularni ekologik muammolarga tatbiq etishga harakat qilmoqdalar. Ular “atrof-muhitga munosabatda ham insoniyatga har doim maqsad sifatida, ya’ni har qanday harakatlar uning uchun amalga oshiriladigan obyekt sifatida ekologik axloqiy munosabatda bo‘lish zarurligini”[7:229] e’lon qilmoqdalar. Bu yondashuv ekofalsafada yangi ta’limotlar vujudga kelishiga xizmat qilmoqda. Kant burchni anglashni axloqiy qonun-qoidalarni bajarishga bo‘lgan hissiy tuyg‘u o‘laroq, empirik moyillikdan ajratishga intilgan: uning fikricha, “harakat faqat axloqiy qoidalarga hurmat tufayligina amalga oshirilgan taqdirdagina axloqiy bo‘ladi”. Bu prinsip sof axloqiy motivatsiyani aniqlashda muhim mezon bo‘lib xizmat qiladi.

**Xulosa.** Inson va tabiat oʻrtasidagi munosabatlarning tarixiy shakllanishi murakkab va koʻp bosqichli jarayon ekanligi mazkur tahlillar orqali yaqqol namoyon boʻladi. Monoteistik diniy qarashlarning paydo boʻlishi va keng tarqalishi insonni tabiatdan maʼlum darajada ajratib koʻrsatishga xizmat qilgan boʻlsa-da, bu jarayonni ekologik muammolarning yagona manbai sifatida talqin qilish bir tomonlama yondashuv hisoblanadi. Oʻrta asrlarda diniy dunyoqarashning ustunligi inson tafakkurini ilohiy qadriyatlar bilan bogʻlagan boʻlsa, Yangi davrga kelib ratsionalizmning rivojlanishi tabiatni ilmiy bilish va uni oʻzgartirish imkoniyatlariga boʻlgan ishonchni kuchaytirdi.

Rene Dekart, Benedikt Spinoza, Tomas Gobbs va Immanuil Kant kabi faylasuflarning qarashlari inson aqlining imkoniyatlarini kengaytirish bilan birga, tabiatni bilish va undan foydalanish masalasida yangi falsafiy asoslarni shakllantirdi. Ayniqsa, ratsionalistik va mexanistik dunyoqarash tabiatni ilmiy tadqiqot obyekti sifatida talqin qilib, insonning tabiat ustidan nazorat oʻrnatish gʻoyasini kuchaytirdi. Biroq bunday yondashuv uzoq muddatli ekologik oqibatlarni toʻliq hisobga olish imkoniyatiga ega emasligi zamonaviy ilmiy qarashlar doirasida tobora koʻproq tan olinmoqda. Bugungi kunda ekologik muammolarni hal etishda inson va tabiat oʻrtasidagi munosabatlarni qayta koʻrib chiqish zarurati tobora dolzarb boʻlib bormoqda. Zamonaviy ekofalsafa va ekoetika insonni tabiatdan ustun qoʻyuvchi antropotsentrik yondashuvdan voz kechib, insonni tabiatning ajralmas qismi sifatida koʻradigan yanada muvozanatli konsepsiyalarni ilgari surmoqda. Shu nuqtai nazardan, tarixiy-falsafiy tajribani chuqur tahlil qilish ekologik muammolarning ildizlarini anglash va kelajakda insoniyat hamda tabiat oʻrtasidagi uygʻun munosabatlarni shakllantirish uchun muhim nazariy asos boʻlib xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Иванов, В.Г. (2002). История этики средних веков. — СПб.: Издателство «Лан». — 279 с.
2. Борейко, В.Е. (1999). Прорыв в экологическую этику. — Киев: Киевский эколого-културный центр. — 129 с.
3. Философский энциклопедический словар / Гл. редакция: Л ,Ф. Илич ев, П.Н.Федосеэв, С.М.Ковалев, В.Г.Панов. — М.: Сов.Энснклопедия, 1983. — 840 с.
4. Декарт, Р. (1995). Размышления о первоначалной философии. — СПб.: “Абрис-книга”. — 192 с.
5. Foste Susanne, Ye. (2002). Aristotle and the environment. *Environmental Ethics,* 24(4). 409-428.
6. Кант, И. (1934). Пролегомены. — М.,Л.; ОГИЗ. Государственное социално-экономическое издателство. — С. 254.
7. The Corporation, Ethics and the Environment. Edited by: Robert Frederick, W. Michael Hoffman, Edward S. Petry Jr. - Westport, CT.: Quorum Books, 1990. - P. 229.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 6 Issue: 02 | 2026
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

**Shuxrat Turopovich Mamatqulov**
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*
*"Falsafa" kafedrasi dotsenti, Falsafa doktori (PhD)*
*Email: mamashuxrat307@gmail.com*

*Received 4th February 2026, Accepted 10th April 2026, Online 30th June 2026*

# GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLAR IJTIMOIY FAOLLIGINING TRANSFORMATSIYASI

**Annotatsiya.** Maqolada globallashuv va global axborotlashuv sharoitida yoshlar ijtimoiy faolligining transformatsiyalanish tendensiyalari ijtimoiy-falsafiy tahlil qilingan. Yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishning xalqaro tajribasi falsafiy-komparativ nuqtayi nazardan koʻrib chiqilgan. Raqamli texnologiyalar va axborot muhitining yoshlar ijtimoiy faolligiga ta'siri, shuningdek, globallashuv jarayonida yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishning samarali mexanizmlari tahlil etilgan. Oʻzbekiston uchun xalqaro tajribani tatbiq etish imkoniyatlari asoslangan.

Kalit soʻzlar: globallashuv, ijtimoiy faollik, yoshlar, raqamlashuv, transformatsiya, xalqaro tajriba, falsafiy-komparativ tahlil, fuqarolik jamiyati.

# TRANSFORMATION OF YOUTH SOCIAL ACTIVITY IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION

**Abstract.** The article provides a socio-philosophical analysis of the tendencies of transformation of youth social activity in the context of globalization and global informatization. The international experience in enhancing youth social activity is examined from a philosophical-comparative perspective. The impact of digital technologies and the information environment on youth social activity, as well as effective mechanisms for enhancing youth social activity in the context of globalization, are analyzed.

**Keywords:** globalization, social activity, youth, digitalization, transformation, international experience, philosophical-comparative analysis, civil society.

# ТРАНСФОРМАЦИЯ СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ МОЛОДЁЖИ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

**Аннотация.** В статье дан социально-философский анализ тенденций трансформации социальной активности молодёжи в условиях глобализации и глобальной информатизации. Международный опыт повышения социальной активности молодёжи рассмотрен с философско-компаративной точки зрения. Анализируется влияние цифровых технологий и информационной среды на социальную активность молодёжи.

**Ключевые слова:** глобализация, социальная активность, молодёжь, цифровизация, трансформация, международный опыт, философско-компаративный анализ, гражданское общество.

**Kirish.** XXI asr insoniyat tarixida jamiyatning barcha jabhalarini iqtisodiyot, siyosat, madaniyat, ta’lim tizimlarini qamrab olgan globallashuv jarayonlari avj olgan davr sifatida tavsiflanadi. Ushbu jarayonlar yoshlar ijtimoiy faolligi shakllari va mazmuniga ham tubdan ta’sir ko‘rsatmoqda. Agar XX-asr boshida yoshlar ijtimoiy faolligi asosan mahalliy va milliy doirada namoyon bo‘lgan bo‘lsa, bugun u transmilliy, raqamli va global ko‘lam kasb etmoqda.

Yoshlar barcha jamiyatlarda o‘zgarishlarning asosiy tashabbuskoridir. Globallashuv jarayoni ularning imkoniyatlarini kengaytirdi. Bunday imkoniyatlar sirasiga dunyoning istalgan nuqtasidagi axborotga tezkor kirish, xalqaro muloqot va hamkorlik, transmilliy yoshlar tashkilotlari va harakatlaridagi ishtirok kabilar shular jumlasidandir. Biroq globallashuvning ijodiy bo‘lmagan tomonlari ham e’tirof etilmoqdaki ular orasida madaniy evrilishlar, ijtimoiy-madaniy munosabatlarning sustlashuvi, diniy ekstremizm va terrorizmning yoshlar ongiga ta’sir o‘tkazish xatari kabi muammolar dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ushbu maqolada globallashuv sharoitida yoshlar ijtimoiy faolligining transformatsiyalashuv tendensiyalari falsafiy-komparativ metodologiya asosida tahlil qilinadi va O‘zbekiston uchun xalqaro tajribani tatbiq etish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Globallashuv va yoshlar ijtimoiy faolligi munosabatlari masalasi ko‘plab xorijiy va vatandosh tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Rossiyalik sotsiologlar S.P. Ivanenkov va A.V. Kostrikin zamonaviy yoshlar ijtimoiy faolligini ko‘rib chiqishda antiglobalistik harakatlar va ijtimoiy transformatsiyalar kontekstini alohida ta’kidlaydi. Ular zamonaviy kommunikativ sharoitlarda yoshlarning o‘zini o‘zi namoyon qilishi asosan yoshlar jamoalari orqali va ijtimoiy manfaatlarni amalga oshirish yo‘lida birgalikdagi faoliyatda kechishini ko‘rsatib beradi[3].

Tadqiqotimiz davomida globallashuv sharoitida yoshlar faolligini yuksaltirishning yangicha pragmatik yondashuv va tamoyillarini ishlab chiqish obyektiv ahamiyat kasb etishini ta’kidlaydi. Uning fikricha, jahon ilm-fanida yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishning nazariy-fundamental va amaliy-metodologik asoslarini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlar olib borilmoqda, xususan, yoshlar ijtimoiylashuvini ta’minlash, ma’naviy-intellektual qadriyatlar tizimini yuksaltirishning samarali texnologiyalarini ishlab chiqish shular jumlasidandir[1]. G Tulenova globallashuv jarayonida diniy ekstremizm va xalqaro terrorizm g‘oyalarining yoshlar ongiga ta’sir etish xatarini ilmiy jihatdan ko‘taradi va yosh avlodni salbiy mafkuralardan himoya qilishning yo‘llarini ma’naviy tarbiya tizimida izlanadi. Ushbu yondashuv globallashuvning nafaqat imkoniyatlarini, balki xatarlarini ham tan olishga asoslanadi[2].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolada qiyosiy-tarixiy va falsafiy-komparativ tahlil metodologiyasi, tizimli yondashuv va sintez usullari qo‘llanilgan. Yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishning xalqaro tajribasini o‘rganishda tarqatma hujjatlar, xalqaro tashkilotlar ma’lumotlari va mavjud ilmiy adabiyotlar tahlil etilgan.

**Tahlil va natijalar.** Globallashuv yoshlar ijtimoiy faolligiga ijobiy va salbiy ta’sirlarni bir vaqtda olib keladi. Ijobiy jihatdan, globallashuv yoshlar oldida keng imkoniyatlar eshigini ochadi, axborotga tezkor kirish, xalqaro hamkorlik, transmilliy tajriba almashinuvi, xorijiy ta’lim va kasb-hunar tajribasini orttirish va h.k. Axborot texnologiyalari va Internet yoshlarning ijtimoiy hayotda ishtirokini ham o‘zgartirdi raqamli ijtimoiy faollik, onlayn-muloqot, elektron petitsiyalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali jamoat fikrini shakllantirish zamonaviy yoshlar ijtimoiy faolligining yangi shakllaridir.

Biroq globallashuv bir qator xavotirli jarayonlarni ham taqdim etmoqda. Madaniy inqirozning kuchayishi milliy oʻzlikni zaiflashuvi, mahalliy qadriyatlar va an’analarga boʻlgan munosabatning pasayishi kabi xatarlar shular jumlasidandir. Axborot muhitidagi manipulyativ harakatlar, yolgʻon xabarlar (fake news) va raqamli axborot xurujlari yoshlar ongiga zarar yetkazishi mumkin. Zamonaviy Oʻzbekiston sharoitida yoshlarni bunday xatarlardan himoya qilish va ularning ijtimoiy faolliklarini toʻgʻri yoʻnaltirish davlat yoshlar siyosatining ustuvor vazifalaridan biriga aylanishi lozim. Yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishning xalqaro tajribasini oʻrganish Oʻzbekiston uchun muhim metodologik bazani taqdim etadi. Yevropa mamlakatlarida yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishning asosiy mexanizmlari koʻngillilik harakati, fuqarolik ta’limi, yoshlar parlamentlari va maslahat organlari keng tarqalgan. Yevropa Kengashining yoshlar siyosati sohasidagi strategiyalari yoshlarni siyosiy jarayonlarga faol jalb etishni, ularning huquqlari va mas’uliyatlarini kengaytirishni koʻzda tutadi. Yevropa tajribasida yoshlar faolligini davlat va fuqarolik jamiyati institutlari orqali birgalikda qoʻllab-quvvatlash aniq koʻrinadi.

Janubiy Koreya, Yaponiya va Singapur kabi Osiyo mamlakatlarida yoshlar ijtimoiy faolligi koʻproq iqtisodiy rivojlanish va innovatsiyaga yoʻnaltirilgan. Ta’lim tizimida yoshlar ijtimoiy liderligini shakllantirish, startap madaniyatini rivojlantirish va yosh tadbirkorlar uchun qulay sharoit yaratish Osiyo mamlakatlari tajribasining oʻziga xos tomonlaridir. Shuningdek, ushbu mamlakatlarda milliy oʻzlikni saqlagan holda global raqobatbardoshlikni oshirish strategiyasi muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda.

Sobiq ittifoq makoni mamlakatlarida, jumladan Rossiyada, yoshlar ijtimoiy faolligi rivojlanishida murakkab va ziddiyatli sharoit mavjudligi qayd etiladi. Rus sotsiologlari bozor iqtisodiyotiga oʻtish davrida yoshlar ijtimoiy faolligiga ta’sir qiluvchi omillar va yoshlar tashkilotlarining ijtimoiylashtiruvchi vazifasini keng oʻrgangan. Yoshlar ijtimoiy faolligini davlat va nodavlat tashkilotlari birgalikda qoʻllab-quvvatlashi muhimligi alohida ta’kidlanadi.

Milliy manfaatlar tizimidan kelib chiqqan holda yoshlar faolligini yuksaltirishning xalqaro standartlarini joriy etish va yoshlarning hayotiy strategiyalarini shakllantirishga xizmat qiladigan yangi metodik yondashuvlarni amalga oshirishga alohida e’tibor qaratish davr talabidir. Xalqaro tajribani tatbiq etishda quyidagi yoʻnalishlar ustuvorlik kasb etadi:

*Birinchi yoʻnalish,* koʻngillilik va yoshlar tashkilotlarini rivojlantirish. Yevropa va Osiyo tajribasi koʻrsatganidek, yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishning eng samarali mexanizmlaridan biri ularni ixtiyoriy, nodavlat tashkilotlar faoliyatiga jalb etishdir. Oʻzbekistonda yoshlar tashkilotlari tarmogʻini kengaytirish, ularning moliyaviy va tashkiliy mustaqilligini ta’minlash muhim vazifadir.

*Ikkinchi yoʻnalish*, raqamli fuqarolik madaniyatini shakllantirish. Global tajriba shuni koʻrsatadiki, raqamli savodxonlik va axborot madaniyatini shakllantirish yoshlarni onlayn muhitda mustaqil va mas’uliyatli harakat qilishga tayyorlaydi. Oʻzbekistonda axborot xavfsizligi va raqamli axborot madaniyatini shakllantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan.

*Uchinchi yoʻnalish*, xalqaro yoshlar almashinuvini kengaytirish. Xorijiy ta’lim, stajirovka va tajriba almashinuvi dasturlari yoshlar ijtimoiy faolligining kengayishiga xizmat qiladi. Oʻzbekiston yoshlarini xalqaro loyihalar va dasturlarga jalb etish ularning global raqobatbardoshligini oshiradi.

**Xulosa.** Globallashuv yoshlar ijtimoiy faolligi uchun ham imkoniyatlar, ham xatarlar muhitini shakllantirdi. Raqamlashuv va axborot texnologiyalari yoshlar faolligining yangi shakllarini vujudga

keltirdi, biroq ayni vaqtda, axborot xurujlari va madaniy aksilta'sirlar xatarini ham oshirdi. Xalqaro tajribaning falsafiy-komparativ tahlili shuni ko'rsatadiki, yoshlar ijtimoiy faolligini yuksaltirishda universal model mavjud emas har bir jamiyat o'z milliy-madaniy xususiyatlari, tarixiy an'analari va rivojlanish strategiyasidan kelib chiqib, optimal yo'llarni tanlaydi. Biroq barcha muvaffaqiyatli tajribalarda umumiy jihat mavjud bo'lib, davlat va fuqarolik jamiyati institutlarining birgalikda yoshlar faolligini qo'llab-quvvatlashi, ta'lim tizimini yoshlar liderligini shakllantirishga yo'naltirishi va yoshlarni ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga faol jalb etish mexanizmlarini ishlab chiqishi ijobiy yechimlardan hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Маматқулов Ш. Ўзбекистонда ёшлар ижтимоий фаоллигини юксалтиришнинг ижтимоий-фалсафий таҳлили. фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори диссертацияси автореферати. — Тошкент, 2021. — 20 б.
2. Туленова Г.Ж. Ёшлар ижтимоий фаоллигини оширишда маънавий омилнинг роли: ижтимоий-фалсафий таҳлил: Фалсафа фанлари доктори диссертацияси. — Тошкент: ЎзМУ, 2006. Б-66.
3. Иваненков, С.П., Кострикин, А.В. (2009). Проблемы исследования социальной активности молодёжи. *Credo New,* 3(59). 82-100
4. Луков, В.А. (2006). Молодёжные объединения. *Знание. Понимание. Умение*. 1. — С. 217–221.
5. Ковалева А.И., Луков В.А. Социология молодёжи: теоретические вопросы. — М.: Социум, 1999. — 351 с.
6. Балог, А.И. (2014). Формирование социальной активности молодёжи: особенности, структура и мотивы. *Вестник социологии*, 3. 85–93.
7. Халий И.А. Современные общественные движения: инновационный потенциал российских преобразований в традиционалистской среде. — М.: Институт социологии РАН, 2007.
8. Заславская Т.И. Современное российское общество: социальный механизм трансформации. — М.: Дело, 2004. — 400 с.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 6 Issue: 02 | 2026
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

**Mavludaxon Kozimjon qizi Xolmirzayeva**

Qo‘qon universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi
Email: kazimovna.mavlyuda@mail.ru
ORCID: ID-0009-0003-4569-822

*Received 4th February 2026, Accepted 10th April 2026, Online 30th June 2026*

# TALABALARNING EKOLOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

**Annotatsiya.** Bugungi kunda talabalarda ekologik kompetentlikni rivojlantirish dolzarblik kasb etmoqda. Talabalarda ekologik dunyoqarashni, tabiatga va atrof-muhitga yuksak axloqiy munosabatni shakllantirishda, axloqiy mas’uliyatni oshirishda ekologik kompetentlikning ahamiyati yuqori hisoblanadi. Shunday ekan, ekologik kompetentlik asosida talabalarda ekologik axloqiy qadriyatlarni shakllantirish, rivojlantirish va tarixan shakllangan milliy ekologik qadriyatlar asosida ularning bilim va ko‘nikmalarini o‘stirish dolzarb vazifalardan biridir.

**Kalit so‘zlar:** kompetentlik, ekologik dunyoqarash, ekologik ta’lim-tarbiya, zamonaviy pedagogika, antiekologik munosabat, integrafik ta’lim, ekologik kompetentlik, ekologik tafakkur, pedagogik-didaktik tajribalar, Kompetensiyaviy ta’lim

# НАУЧНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ

**Аннотация.** Сегодня развитие экологической компетентности у учащихся приобретает все большее значение. Экологическая компетентность имеет большое значение в формировании экологического мировоззрения, высокого морального отношения к природе и окружающей среде, а также в повышении моральной ответственности учащихся. Поэтому одной из неотложных задач является формирование и развитие экологических моральных ценностей у учащихся на основе экологической компетентности и развитие их знаний и навыков на основе исторически сложившихся национальных экологических ценностей.

**Ключевые слова:** компетентность, экологическое мировоззрение, экологическое образование, современная педагогика, антиэкологическое отношение, интегративное образование, экологическая компетентность, экологическое мышление, педагогико-дидактический опыт, компетентностно-ориентированное образование.

# SCIENTIFIC-PEDAGOGICAL BASIS OF DEVELOPING STUDENTS' ECOLOGICAL COMPETENCE

**Annotation.** Today, developing environmental competence in students is becoming increasingly important. Environmental competence plays a significant role in shaping an ecological worldview, fostering a high moral attitude toward nature and the environment, and enhancing students' moral responsibility. Therefore, one of the urgent tasks is to develop and nurture students' environmental moral values based on environmental competence and to enhance their knowledge and skills based on historically established national environmental values.

**Keywords:** competence, environmental worldview, environmental education, modern pedagogy, anti-ecological attitude, integrative education, environmental competence, environmental thinking, pedagogical and didactic experience, competency-based education.

## KIRISH

Bugungi kunda O‘zbekistonda ekologik ta’lim-tarbiya masalalari dolzarblik kasb etmoqda. Global ekologik inqirozning kuchayib borishi, atrof-muhitning ifloslanishi va boshqa muammolar ekoharakatni faol kuchga aylanishini taqozo etmoqda. «Eng muhim masala - aholining ekologik madaniyatini oshirish haqida jiddiy bosh qotirishimiz zarur. Albatta, bunday muammolarni faqat ma’muriy yo‘l bilan hal etib bo‘lmaydi, bunga yosh avlod qalbida ona tabiatga mehr-muhabbat, unga daxldorlik hissini tarbiyalash orqali erishish mumkin»[1] Zero «O‘zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo‘ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma’rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz. Talabalarda ekologik kompetentlikni rivojlantirish ulardagi ekologik mas’uliyatni shakllantirish ham muhim hisoblanadi. Ekologik faoliyatni ma’naviy regulyatorlar yordamida boshqarishning eng muhim sharti – har bir talabaning tabiat va jamiyat kelajagi uchun ma’naviy mas’uliyatni chuqur his qilishidir. Shu nuqtai nazardan, ekologik axloqiy mas’uliyat o‘zaro bog‘liq bo‘lgan ikki vazifani bajaradi. ya’ni: birinchidan, integrativ ta’lim orqali talabaning subektiv imkoniyatlarini obektiv zaruriyat bilan muvofiqlashtiradi. Ikkinchidan, talabalarning ijtimoiy manfaatlarni hisobga olgan holda, uning irodasini insonparvarlashtirgan shaklda namoyon qiladi. Shunga ko‘ra, ekologik axloqiy mas’uliyat, bir vaqtning o‘zida, tabiatni pala-partish o‘zgartirishdan iborat shaxs iroda erkinligini chegaralovchi hamda tabiatni muhofaza qilish faoliyatini rag‘batlantiruvchi ijtimoiy hodisa sifatida qaralishi kerak.

## ADABIYOTLAR TAHLILI

Hozirgi paytda jamiyat va sivilizatsiyalar avvalo ijtimoiy qadriyatlar va ta’lim tizimlari bilan raqobatlashmoqda.[2] Shunday ekan, uzluksiz ta’limni rivojlantirish orqali jamiyatning umumiy dunyoqarashini o‘stirish va tabiatga oqilona munosabatni shakllantirish dolzarb vazifalardan biridir. Zamonaviy pedagogikada ekologik ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish asosida ekologik bilim va ko‘nikmalarni shaklantirish zarurati ortib bormoqda. Chunki ekologik vaziyatni keskinlashtiruvchi sabablarni, xususan, jamiyat ma’naviy-axloqiy “qashshoqlanish” xususiyatlarini yangicha yondashuv asosida o‘rganish muhim metodologik ahamiyatga ega. Bunda ekologik qadriyatni shakllantirishning asosiy vazifasi faqatgina mujassamlashgan ekologik nazariyalarini, tarixiy tajribalarini hozirgi davr nuqtai nazaridan baholash, undan tegishli xulosalar chiqarishga o‘rgatishdan iborat emas. Shuning uchun ham, talabalarda ekologik kompetentlikni rivojlantirishda integrativ yondashuv va fanlar hamkorligini yo‘lga qo‘yish, uning imkoniyatlaridan pedagogik jarayonda va ijtimoiy fikrni shakllantirishda foydalanish talab etiladi. "Kompetentlik" va "ekologik kompetentlik" tushunchalari pedagog olimlar tomonidan keng o‘rganilgan. Xususan, xorijiy va respublikamiz olimlaridan N.A. Muslimov [3], Sh.Sh. Shodmonova [4] hamda ekologik ta’lim sohasida A.N. Nigmatov [5] kabi tadqiqotchilar o‘z ishlarida ushbu masalalarga to‘xtalib o‘tganlar. Olimlarning fikricha, ekologik kompetentlik shunchaki ekologiya qonunlarini bilish emas. Bu – ekologik bilimlarni kundalik hayotda va kasbiy faoliyatda to‘g ‘ri qo‘llay olish qobiliyatidir. Biroq, zamonaviy axborotlashgan jamiyatda

